

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASINING**



AXBOROTNOMASI

2025 №2(65)

**ВЕСТНИК АКАДЕМИИ МВД РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
BULLETIN OF THE ACADEMY OF THE MINISTRY OF
INTERNAL AFFAIRS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**



www.akadmvd.uz

2025

ISSN 2181-4872

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IIV AKADEMIYASINING

AXBOROTNOMASI

2025-yil, 2-son (65)

ВЕСТНИК

АКАДЕМИИ МВД РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

№ 2 (65), 2025 год

TOSHKENT - 2025

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IIV AKADEMIYASINING

AXBOROTNOMASI

2010-yildan nashr etila boshlagan
Yilda to'rt marta chiqadi

2025-yil, 2-son (65)

TAHRIR HAY'ATI RAISI

Xatamov Rustam Abduganiyevich,
O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi boshlig'i,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

TAHRIR HAY'ATI RAISI O'RINBOSARLARI

Rajabov Baxtiyor Almaxmatovich,
IIV Akademiyasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari,
yuridik fanlar doktori, professor;

Nigmatov Ruftullo Olimdjonovich,
IIV Akademiyasi boshlig'ining ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo'yicha o'rinbosari, falsafa doktori
(PhD), professor.

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI

Mamadaliyev Shavkatbek Olmasbayevich,
falsafa fanlari doktori, professor;
Rajabova Mavjuda Abdullaevna,
yuridik fanlar doktori, professor;
Kamalov Oybek Axmatovich,
yuridik fanlar doktori, professor;
Axmedova Soraxon Tolipjanovna,
yuridik fanlar doktori, professor;
Kabilov Sharif Raximovich,
iqtisod fanlari nomzodi, professor;
Kulmatov Sharof Asadovich,
yuridik fanlar doktori, professor;
Kabulov Rustam,
yuridik fanlar doktori, professor;
Zakirova Odina Gulyamovna,
yuridik fanlar doktori, professor;
Saidov Baxrom Anvarovich,
yuridik fanlar doktori, professor;
Muxitdinov Faxritdin Muxitdinovich,
yuridik fanlar doktori, professor;
Mamatkulov Tulqin Boyxo'rozovich,
yuridik fanlar nomzodi, professor;
Mamedov Buxar,
filologiya fanlari doktori, professor;
Qodirov Umid Abdumuratovich,
yuridik fanlar nomzodi, professor;
Kalauov Saydulla Aymaxanovich,
texnika fanlari nomzodi, professor;
Sirliyev Baxtiyor Nazarovich,
psixologiya fanlari nomzodi, professor;
Turgunova Nasiba To'ychiyevna,
siyosiy fanlari doktori, dotsent;
Qodirov Quvonch Bekmurodovich,
tarix fanlari doktori, dotsent;
Tadjimetov Sherzod Abdukarimovich,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;
Xusanov Anvar Djumabaevich,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;
Karimova Dilrabo Irgashevna,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;
Yangibaev Aybek Kidirbayevich,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;
Boybutayev Jahongir Jumaniyazovich,
falsafa doktori (PhD), dotsent.

BOSH MUHARRIR

Sultonova Maxsuda Ergashevna

Mas'ul kotib

Isaqov Abror Faxriddinovich

Ushbu son muharrirlari

I. V. Soloxina., H.Sh. Radjabova

Dizayner va sahifalovchi: O.A. Xudoyberdiyev

TA'SISCHI

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
Axborotnoma O'zbekiston Matbuot va
axborot agentligida 2009-yil 18-iyunda qayd
etilgan. Ommaviy axborot vositasi davlat
ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma
№ 0568.

Axborotnoma O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya
komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan (OAK
Rayosatining 2013-yil 30-dekabrda 201/3-son
qarori) hamda pedagogika va psixologiya fanlari
bo'yicha dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini
chop etish tavsiya etilgan (2024-yil 8-maydagi
N 354/2-qarori) ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

TAHRIRIYAT MANZILI

100197, Toshkent shahri, Intizor ko'chasi, 68.

Tel.: 71-265-23-56, 71-265-23-59. httdm@akadmvd.uz.

Original-maket O'zbekiston Respublikasi IIV
Akademiyasining Akademiya nashrlarida tayyorlandi.

Maqolalar har qanday usulda to'liq yoki qisman
ko'chirib bosilganida «O'zbekiston Respublikasi IIV
Akademiyasining axborotnomasi»dan olinganligi
ko'rsatilishi shart.

Tahririyat xatlar mualliflari bilan yozishmaydi.

Qo'lyozmalarga taqriz berilmaydi va ular
qaytarilmaydi.

Muallif maqolada keltirilgan dalil va ma'lumotlar
uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

Bichimi 60x4 1/8. Nashr tabag'i 22,0. Ofset usulida
bosildi. Adadi 50 nusxa. «SIGMA-PRINT» MChJ
bosmaxonasida chop etildi. Toshkent shahar.

Ch. Aytmatov ko'chasi 33-uy.

Bahosi kelishilgan narxda.

Bosishga ruxsat etildi 30.06.2025-y.

Buyurtma № ISSN 2181-4872

© O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2025.

ВЕСТНИК

АКАДЕМИИ МВД РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Издается с 2010 года
Выходит четыре раза в год

№ 2 (65), 2025 год

ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ

Хатамов Рустам Абдуганиевич, начальник Академии МВД Республики Узбекистан, доктор философии по юридическим наукам (PhD), доцент.

ЗАМЕСТИТЕЛИ ПРЕДСЕДАТЕЛЯ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ

Ражабов Бахтиёр Алмахматович, первый заместитель начальника Академии МВД, доктор юридических наук, профессор;

Нигматов Руфтулло Олимджонович, заместитель начальника Академии МВД по научной работе и инновациям, доктор философии (PhD), профессор.

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ

Мамадалиев Шавкатбек Олмасбаевич, доктор философских наук, профессор;
Ражабова Мавжуда Абдуллаевна, доктор юридических наук, профессор;
Камалов Ойбек Ахматович, доктор юридических наук, профессор;
Ахмедова Сорахон Толипжановна, доктор юридических наук, профессор;
Кабиллов Шариф Рахимович, кандидат экономических наук, профессор;
Кулматов Шароф Асадович, доктор юридических наук, профессор;
Кабулов Рустам, доктор юридических наук, профессор;
Закирова Одина Гулямовна, доктор юридических наук, профессор;
Саидов Бахром Анварович, доктор юридических наук, профессор;
Мухитдинов Фахритдин Мухитдинович, доктор юридических наук, профессор;
Маматкулов Тулкин Бойхурозович, кандидат юридических наук, профессор;
Мамедов Бухар, доктор филологических наук, профессор;
Кодиров Умид Абдумуратович, кандидат юридических наук, профессор;
Калауов Сайдулла Аймаханович, кандидат технических наук, профессор;
Сирлиев Бахтиёр Назарович, кандидат психологических наук, профессор;
Тургунова Насиба Туйчиевна, доктор политических наук, доцент;
Кадиров Кувонч Бекмуродович, доктор исторических наук, доцент;
Таджиметов Шерзод Абдукаримович, доктор философии по юридическим наукам (PhD), доцент;
Хусанов Анвар Джумабаевич, доктор философии по юридическим наукам (PhD), доцент;
Каримова Дилрабо Эргашевна, доктор философии по юридическим наукам (PhD), доцент;
Янгибаев Айбек Кидирбаевич, доктор философии по юридическим наукам (PhD), доцент;
Бойбутаев Жахонгир Жуманиязович, доктор философии (PhD), доцент.

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

Султанова Махсуда Эргашевна

Ответственный редактор

Исаков Аброр Фахриддинович

Редакторы номера

И. В. Солохина., Х. Ш. Раджабова

Дизайн и верстка: О. А. Худойбердиев

УЧРЕДИТЕЛЬ

Академия МВД Республики Узбекистан
Вестник зарегистрирован Узбекским агентством по печати и информации 18 июня 2009 г. Свидетельство о регистрации средства массовой информации № 0568.

Вестник включен в перечень научных изданий (Решение Президиума ВАК №201/3 от 30 декабря 2013 г.) рекомендованных Высшей аттестационной комиссией при Кабинете Министров Республики Узбекистан для публикации основных научных результатов диссертаций, в том числе по педагогике и психологии (Решение Президиума ВАК №354/2 от 8 мая 2024 г.).

АДРЕС РЕДАКЦИИ

100197, г. Ташкент, ул. Интизор, 68.

Тел.: 71-265-23-56, 71-265-23-59. httdm@akadmvd.uz.

Оригинал-макет подготовлен в Редакционно-издательском отделе Академии МВД Республики Узбекистан.

При перепечатке или воспроизведении любым способом полностью или частично ссылка на вестник «Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академиясининг ахборотномаси» обязательна.

Редакция не вступает в переписку с авторами писем, рукописи не рецензируются и не возвращаются.

Автор несет личную ответственность за факты и сведения, приведенные в статье.

Формат 60×84 1/8. Уч.-издл. 22,0. Печать офсетная. Тираж 50 экз. Отпечатано в ООО «SIGMA-PRINT» г. Ташкент. ул. Ч. Айтматова 33.

Цена договорная.

Подписано в печать 30.06. 2025 г.

Заказ № ISSN 2181-4872

© Академия МВД Республики Узбекистан, 2025.

МУНДАРИЖА

HUQUQIY FANLAR / ПРАВОВЫЕ НАУКИ

- 6 **Nigmatov R. O.**
Jinoyatlarning oldini olishga oid xalqaro normalarni milliy qonunchilikka integratsiya qilish zarurati
- 14 **Rajabova M. A.**
Islom huquqi va dunyoviy jinoyat huquqining o'xshashligi (tavba yoki aybga iqrorlik atamaları tahlilida)
- 20 **Mamadaliyev Sh. A.**
Huquq falsafasining asosiy g'oyalari
- 25 **Azamov J. M.**
Konstitutsiya va konstitutsiyaviy qonunchilik tizimi
- 29 **Raximov K. M.**
Yo'l harakati qoidalarining buzilishiga doir ma'muriy ishlarni ko'rib chiqishning o'ziga xos jihatlari
- 33 **Axmedov S. Q.**
Prokuratura organlari huquqni muhofaza qilish funksiyasining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari
- 38 **Sarabekov X. D.**
Ichki ishlar organlarida axborot-tahlil faoliyatini takomillashtirish – bugungi kunning dolzarb vazifasi
- 44 **Садриддинов Ш. Ш.**
Эволюция миграционных процессов: исторический обзор и современные проблемы
- 48 **Iminov A. A., Maxamadov R. X.**
Ichki ishlar organlari tizimini kompleks raqamli transformatsiya qilish: zarurat, asosiy yo'nalish va istiqbollari
- 52 **Odinayev A. S.**
Fuqarolik-huquqiy javobgarlikka zamonaviy va ilmiy qarashlar
- 56 **Esanova Z. N.**
Fuqaroning huquq va muomala layoqati bilan bog'liq ishlarni sudda ko'rish
- 62 **Turayeva D. R.**
Jabrlanuvchining huquq va manfaatlarini muhofaza qilishda yaponiya tajribasi: sud jarayonidan keyingi institutsional mexanizmlar
- 68 **Yusupov F. N.**
Ichki ishlar organlarining tezkor bo'linmalari tomonidan poraxo'rlik jinoyatiga qarshi kurashishning nazariy-huquqiy asoslari
- 72 **Yuldasheva Z. R.**
Bolalar (voyaga yetmaganlar)ga nisbatan sodir etilgan ruhiy va onlayn zo'ravonlik holatlari bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilishda mutaxassis ishtiroki hamda maxsus bilimlardan foydalanish
- 77 **Yuldashev M. Sh.**
Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirishda hamkorlik masalalari va unda ichki ishlar organlari idoraviy hamkorlik bo'linmalarining ishtiroki
- 83 **Zakirova O. G.**
Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ta'lim – unga qarshi kurashish strategiyasining ajralmas qismi
- 88 **Kabilov Sh. R.**
O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati: natijadorlik va kelgusidagi ustuvor vazifalar

93 Berdialiyev B. E.
Ijtimoiy profilaktikaning turlari: nazariy asoslar va amaliy yechimlar

99 Sharipov J. S.
Xorijiy mamlakatlarda hududlarni kriminogen vaziyatga ko'ra tasniflash asosida huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha tajribasi

104 Qarshiyev G'. S.
Yoshlar o'rtasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasini tashkil etish

108 Наимов Р. Х.
Зарубежный опыт профилактического учета лиц, ранее совершивших преступления

114 Boltayev M. M.
Oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimida "mahalla yettiligi"ning ijtimoiy profilaktik faoliyati

122 Umirzakov B. A.
Toshkent shahar Bektemir tuman jinoyatchiligining kriminologik tavsifi va oldini olishni takomillashtirish

SIYOSIY FANLAR / ПОЛИТИЧЕСКИЕ НАУКИ

130 Razakov D. X.
Amir Temur siyosiy boshqaruvini o'rganishning ahamiyati

PEDAGOGIKA FANLARI / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

135 Рустамов М. Т.
Условия формирования готовности курсантов к самообразовательной деятельности в Академии МВД Республики Узбекистан

140 Qilichev X. M.
Fuqarolik huquqi fanini ichki ishlar organlari xodimlariga o'qitishning ahamiyati

147 Mallaeva O. B.
Ingliz tili o'qituvchilarining malaka oshirishida "Addie" modelidan foydalanishini o'ziga xos xususiyatlari

153 Melikulov F. M.
Ichki ilar organlari xodimlarini vatanparvarlik hamda ma'naviy-axloqiy ruhda tarbiylaning dolzarbligi

157 Ibrohimov I. B.
Avtomaktab o'qituvchilarining kasbiy kompetentini rivojlantirishda innovatsion yondashuv

PSIXOLOGIYA FANLARI / ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

162 Sirliyev E. N.
Harbiy-vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda diniy va dunyoviy qarashlar ijtimoiy-psixologik mezon sifatida

168 Рахиммирзаев С.Б.
Интегративная модель девяти компонентов благополучия сотрудников компании пассажирского обслуживания в авиаиндустрии

176 Кодиркулов А. С.
Контрпродуктивное поведение в цифровом рабочем пространстве сотрудников органов внутренних дел: социально-психологические условия

JINOYATLARNING OLDINI OLISHGA OID XALQARO NORMALARNI MILLIY QONUNCHILIKKA INTEGRATSIYA QILISH ZARURATI

R. O. NIGMATOV,

IIV Akademiyasi boshlig'ining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha o'rinbosari, falsafa doktori (PhD), professor

Annotatsiya.

Maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida olib borilayotgan islohotlar doirasida jinoyatlarni oldini olish sohasidagi xalqaro normalarni O'zbekiston milliy qonunchiligiga integratsiya qilish zarurati ko'rib chiqiladi. Integratsiya bosqichlari, jumladan ilmiy yondashuvlar, xalqaro hujjatlar, ushbu jarayonning maqsad va afzalliklari tahlil qilinadi. Milliy normativ-huquqiy hujjatlarning xalqaro standartlarga muvofiqligi bilan bog'liq muammo va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar, shuningdek, qonunchilikni takomillashtirish, idoralararo hamkorlikni kuchaytirish va xalqaro tajribani joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqot huquqiy normalarni uyg'unlashtirishning jamoat xavfsizligini ta'minlash, inson huquqlarini himoya qilish va transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi.

Таянч so'zlar:

xalqaro normalarni integratsiya qilish, milliy qonunchilik, jinoyatlarni oldini olish, Yangi O'zbekiston, inson huquqlari, transmilliy jinoyatchilik, jamoat xavfsizligi, xalqaro hamkorlik.

Аннотация.

В статье рассматривается необходимость интеграции международных норм в области предупреждения преступности в национальное законодательство Узбекистана. Анализируются этапы интеграции, включая научные подходы, международные документы, цели и преимущества данного процесса. Особое внимание уделяется проблемам соответствия национальных нормативных актов международным стандартам, а также предложениям по их устранению, включая совершенствование законодательства, усиление межведомственного взаимодействия и внедрение международного опыта.

Ключевые слова:

интеграция международных норм, национальное законодательство, предупреждение преступности, Новый Узбекистан, права человека, транснациональная преступность, общественная безопасность, международное сотрудничество.

Annotation.

The article considers the need to integrate international norms in the field of crime prevention into the national legislation of Uzbekistan in the context of ongoing reforms in the New Uzbekistan. The stages of integration are analysed, including scientific approaches, international documents, goals and advantages of this process. Special attention is paid to the problems of compliance of national regulations with international standards, as well as proposals for their elimination, including improving legislation, strengthening interagency cooperation and the introduction of international experience. The study highlights the importance of harmonizing legal norms to ensure public safety, protect human rights, and improve the effectiveness of combating transnational crime.

Keywords:

integration of international norms, national legislation, crime prevention, New Uzbekistan, human rights, transnational crime, public safety, international cooperation

So'nggi yillarda yangi O'zbekistonda qabul qilinayotgan qonunlarning ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq islohotlari jarayoniga ta'sirini kuchaytirishga yo'naltirilgan qonun ijodkorligi faoliyati sifatini tubdan oshirish davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning asosiy vazifalaridan biridir. Shu o'rinda bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasining "Xavfsizlik va huquq-tartibot muhofazasi" sohasining "Jamoat tartibi muhofazasi va huquqbuzarliklar profilaktikasi" va "Fuqarolar va jamoat

birlashmalarining xavfsizligini ta'minlashdagi ishtiroki" yo'nalishlarida jami 116 ta normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lib [1], mazkur normalar mamlakatda jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikni barvaqt profilaktikasini amalga oshirishga qaratilgandir.

Bugungi kunda mamlakatda jinoyatchilikni oldini olish yo'nalishida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar Prezident Sh.Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, yangi O'zbekistonda kriminogen vaziyat og'ir mahallalarda ilmiy-amaliy yondashuvlar asosida joylarga chiqqan holda, maqsadli o'rganishlarni o'tkazish

orqali huquqbuzarliklar sodir etilishiga sabab bo'layotgan asl omillarni aniqlash va barham berish bo'yicha tashkiliy-huquqiy choralarni ko'rish davr talabiga aylanmoqda [2].

Darhaqiqat, yangi O'zbekistonda jinoyatlarni oldini olish faoliyatini tubdan isloh qilish maqsadida qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarni ilmiy yondashuvlar asosida xalqaro normalarga integratsiya qilish norma ijodkorligi faoliyatining asosiy bosqichi hisoblanmoqda. Endilikda biz jinoyatlarni oldini olish yo'nalishidagi milliy qonunchilikni xalqaro normalarga integratsiya qilish bosqichlarining tizimli ketma-ketligini belgilab olishimiz ushbu tadqiqot ishining mazmunini yanada boyitishga xizmat qiladi. Ushbu bosqichlarga:

birinchidan, milliy qonunchilikning xalqaro normalarga integratsiya qilishning afzalliklari bilan bog'liq jihatlarini huquqshunos olimlarning ilmiy qarashlari bilan yoritish;

ikkinchidan, bugungi kunda xalqaro tashkilotlar tomonidan jinoyatlarni oldini olish yo'nalishida qanday xalqaro hujjatlar qabul qilinganligiga e'tibor qaratish;

uchinchidan, milliy qonunchilikni xalqaro normalarga integratsiya qilishdan ko'zlangan maqsadi va uning afzalliklari nimalardan iboratligini inobatga olish;

to'rtinchidan, jinoyatlarni oldini olish yo'nalishida qabul qilingan qaysi bir normativ-huquqiy hujjatlarni mazmunini xalqaro normalarning ijobiy tajribasi bilan to'ldirish davr talabiga aylanayotganligini bilish.

Mazkur (birinchi) bosqichlardan kelib chiqib, milliy qonunchilikning xalqaro normalarga integratsiya qilinishiga oid bir qator huquqshunos olimlar o'z ilmiy ta'riflarini ilgari surishgan. Xususan, D.N. Baxraxning ta'rifiga ko'ra, xalqaro normalarga integratsiya – bu davlatning milliy qonunchiligida xalqaro huquqiy standartlarni qabul qilish va ularni milliy huquqiy tizimga moslashtirish jarayoni bo'lib, bu inson huquqlarini himoya qilish, transmilliy jinoyatlarga qarshi samarali kurashish va huquqiy hamkorlikni ta'minlashga qaratilgan [3]. Bu ta'rifda u inson huquqlari va global xavfsizlik masalalarini integratsiya jarayonining markaziy nuqtasi sifatida ko'rsatadi. Shu bois u qonunchilikni inson huquqlari xalqaro standartlariga uyg'unlashtirishni ustuvor yo'nalish sifatida qayd etadi. K.F. Gutsenkoning fikriga ko'ra, integratsiya – bu xalqaro shartnoma va xalqaro huquqiy normalarning

milliy qonunchilikka tatbiq etilishi orqali davlatlar o'rtasidagi huquqiy muvofiqlik va hamkorlikni kuchaytirish jarayonidir. U bu jarayonning transmilliy jinoyatlarga qarshi qo'shma choralarning huquqiy asosini mustahkamlashdagi ahamiyatini ta'kidlaydi [4]. Gutsenko integratsiyaning asosiy jihati sifatida huquqiy muvofiqlik va jinoyatchilikka qarshi samarali hamkorlikni ta'kidlaydi. Bu yondashuv xalqaro qoidalarining davlatlararo qo'shma faoliyatni mustahkamlashdagi ahamiyatini ko'rsatadi. O.A. Galustyan nazariyasiga ko'ra esa, xalqaro normalarning milliy qonunchilikka integratsiya qilinishi – bu davlatning ichki huquqiy tizimida xalqaro qoidalarni ijobiy tatbiq etish, jumladan protsessual va materia huquq normalarini uyg'unlashtirish orqali qonun ustuvorligini ta'minlashni nazarda tutadi [5]. Galustyaning ta'rifi qonun ustuvorligiga alohida urg'u beradi. U qonunchilikdagi protsessual va materia normalarni uyg'unlashtirishning ahamiyatini qayd etadi, bu esa huquqiy tizimning barqarorligini ta'minlaydi.

Qozog'istonlik huquqshunos olim M.A. Sarsembayev esa xalqaro huquq va milliy qonunchilik o'rtasidagi o'zaro ta'sirni ta'riflab, milliy huquqiy tizimda xalqaro standartlar joriy etilishi davlatlar o'rtasidagi xalqaro hamkorlik samaradorligini oshirishga xizmat qiladi, deb ta'kidlagan [6]. Sarsembayevning ta'rifi xalqaro hamkorlikning huquqiy negizini mustahkamlashga qaratilgan. U xalqaro standartlarning milliy qonunchilikka joriy etilishi davlatlararo munosabatlardagi huquqiy o'zaro ta'sirni yaxshilashini ko'rsatadi.

Yuqoridagi nazariy qarashlarni umumlashtirgan holda, milliy qonunchilikning xalqaro normalarga integratsiya qilinishi bo'yicha quyidagi mazmunda mualliflik ta'rifini berish maqsadga muvofiq. Ya'ni: "Milliy qonunchilikning xalqaro normalarga integratsiya qilinishi – bu davlatning ichki huquqiy tizimida xalqaro huquqiy qoidalar va standartlarni qabul qilish va moslashtirish jarayoni bo'lib, bu jarayon inson huquqlarini himoya qilish, transmilliy tahdidlarga qarshi samarali kurashish va davlatlar o'rtasidagi huquqiy hamkorlikni ta'minlashga qaratilgan".

Yuqorida biz jinoyatlarni oldini olish yo'nalishidagi milliy qonunchilikni xalqaro normalarga integratsiya qilishning birinchi bosqichini ilmiy yondashuv asosida o'rgandik. Endilikda, ikkinchi bosqichda xalqaro tash-

kilotlar tomonidan jinoyatlarni oldini olish yo'nalishida qabul qilgan xalqaro hujjatlarning turlarini yoritish maqsadga muvofiq. Bularga:

birinchidan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti [7] tomonidan jinoyatlarni oldini olish bilan bog'liq qabul qilingan xalqaro hujjatlarga:

a) 1948-yilda "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" [8] va 1966-yilda "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt" [9] qabul qilingan bo'lib, mazkur xalqaro hujjatlar barcha a'zo davlatlar uchun huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olishda inson huquqlarini himoya qilishning ustuvor prinsiplarini qat'iy belgilab bergan;

b) 2000-yilda "Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi BMT konvensiyasi" [10] (Palermo konvensiyasi) qabul qilingan bo'lib, ushbu xalqaro hujjat barcha a'zo davlatlarga transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish va unga qarshi xalqaro hamkorlikning aniq mexanizmlarini belgilab bergan;

v) 2003-yilda "Korrupsiyaga qarshi BMT konvensiyasi" [11] qabul qilingan bo'lib, mazkur xalqaro hujjat a'zo davlatlarga korrupsiya jinoyatlarining oldini olish va bu sohada xalqaro hamkorlikni kuchaytirishni nazarda tutuvchi ustuvor qoidalarni belgilab bergan.

Ikkinchidan, Yevropa Kengashi [12] tomonidan jinoyatlarni oldini olish bilan bog'liq qabul qilingan xalqaro hujjatlarga:

a) 1950-yilda "Inson huquqlari va asosiy erkinliklarni himoya qilish to'g'risida" [13] gi konvensiya (Evropa konvensiyasi) si qabul qilingan bo'lib, mazkur xalqaro hujjat inson huquqlarini himoya qilish orqali jamoat xavfsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan;

b) 1977-yilda "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida" [14] gi Yevropa konvensiyasi qabul qilingan bo'lib, mazkur xalqaro hujjat a'zo davlatlarga terrorizm jinoyatlarni oldini olish va unga qarshi kurashish chora-tadbirlar mexanizmini belgilab bergan;

v) 2001-yilda "Kiberjinoyatchilik to'g'risidagi Budapesht konvensiyasi" [15] qabul qilingan bo'lib, mazkur xalqaro hujjat a'zo davlatlarga axborot texnologiyalari sohasida jinoyatchilikka qarshi kurashish va ma'lumot almashinuvini ta'minlash tartibini belgilab berdi.

Uchinchidan, Yevropa Ittifoqi [16] (EI) tomonidan jinoyatlarni oldini olish bilan bog'liq qabul qilingan xalqaro hujjatlarga:

a) 1995-yilda "Shengen kelishuvi" [17] va "Shengen kodeksi" [18] qabul qilingan bo'lib,

mazkur xalqaro hujjatlar Yevropa davlatlari o'rtasida chegara nazoratini kuchaytirishga shuningdek, a'zo mamlakatlarda transmilliy jinoyatchilikni oldini olishga qaratilgandir;

b) 2005-yilda "Evropa Ittifoqi xavfsizlik strategiyasi" [19] qabul qilingan bo'lib, mazkur xalqaro hujjat a'zo Yevropa mamlakatlarida jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikni oldini olish bo'yicha qo'shma tadbirlar rejasi ishlab chiqishga huquqiy asos hisoblanadi.

To'rtinchidan, Xalqaro politsiya tashkiloti [20] (INTERPOL) tomonidan jinoyatlarni oldini olish bilan bog'liq qabul qilingan xalqaro hujjatlarga:

a) 1956-yilda "INTERPOL"ning asosiy nizomi qabul qilingan bo'lib, mazkur xalqaro nizom a'zo davlatlarga o'z hududida transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashishda axborot almashinuvi va qo'shma tadbirlarni muvofiqlashtirishning asoslarini belgilab bergan;

b) 1998-yilda "Terrorizmga qarshi xalqaro hamkorlik dasturi" qabul qilingan bo'lib, mazkur xalqaro hujjat xalqaro politsiya tashkilotiga a'zo davlatlar hududida terrorizmni oldini olish bo'yicha xalqaro hamkorlik chora-tadbirlarini belgilab bergan.

Beshinchidan, Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD) tomonidan 1997-yilda "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risidagi xalqaro konvensiya" [21] qabul qilingan bo'lib, mazkur xalqaro hujjat Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti'ga a'zo davlatlarga o'z hududida korrupsiya va mansabdorlik bilan bog'liq jinoyatlarning oldini olish uchun xalqaro hamkorlik mexanizmlarini belgilaydi.

Oltinchidan, Islom hamkorlik tashkiloti (OIC) tomonidan 1999-yilda "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida" [22] gi qonunchilik modellari ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur xalqaro hujjatning bosh maqsadi islom davlatlari o'rtasida jinoyatchilikni oldini olish va xavfsizlik sohasida hamkorlikni mustahkamlashga yo'naltirilgan.

Yuqorida biz xalqaro tashkilotlar tomonidan jinoyatlarni oldini olish yo'nalishidagi munosabatlarni huquqiy tartibga soluvchi xalqaro hujjatlarning turlari bilan tanishib chiqdik. Endilikda, uchinchi bosqichda milliy qonunchilikni xalqaro normalarga integratsiya qilishdan ko'zlangan maqsadi va uning afzalliklari yoritib o'tsak mazkur ilmiy ishni ilmiy jihatini yanada boyitishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda har bir rivojlangan davlat o'z milliy qonunchiligini normativ-huquqiy

hujjatlarga qo'yilgan umumiy talabdan kelib chiqib xalqaro normalarga integratsiya qilish tarafdoridir. Mazkur jarayon, o'z navbatida, qator strategik maqsadlarni ko'zlaydi. Shuningdek, milliy qonunchilikni xalqaro normalarga integratsiya qilishning o'ziga xos muhim afzalliklari mavjud. Ushbu jarayon milliy huquqiy tizimni xalqaro standartlarga moslashtirish va davlatning huquqiy hamda iqtisodiy munosabatlardagi nufuzini oshirishga qaratilgan. Quyida biz mazkur jarayonning asosiy maqsadlari va afzalliklarini yoritib o'tamiz.

Milliy qonunchilikni xalqaro normalarga integratsiya qilishning maqsadlariga [23]:

- huquqiy muvofiqlikni ta'minlash – milliy qonunchilikning xalqaro normalarga muvofiq bo'lishi orqali davlat xalqaro majburiyatlarini to'g'ri bajaradi. Shuningdek, ushbu jarayon har bir mamlakatda huquqiy nizolarning kamayishiga va xalqaro munosabatlarda barqarorlikni ta'minlashga olib keladi;

- xalqaro hamkorlikni rivojlantirish – har bir mustaqil davlatning milliy normativ-huquqiy hujjatlarini xalqaro normalarning ustuvor qoidalari bilan uyg'unlashtirish orqali mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va xavfsizlik sohalaridagi hamkorlik munosabatlarini [24] yaxshilashga xizmat qiladi;

- investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish – mazkur maqsadga ko'ra, davlatda xalqaro normalarga muvofiq milliy qonunchilikka ko'ra chetellik sarmoyadorlar uchun ishonchli huquqiy muhit yaratishga xizmat qiladi. Shuningdek, mamlakatda iqtisodiyoti uchun investitsiya oqimini oshirishga yordam beradi;

- iqtisodiy va savdo aloqalarini kengaytirish – barcha a'zo davlatlar xalqaro savdo va iqtisodiy munosabatlar qoidalariga mos qonunlarni qabul qilish orqali davlatlar o'rtasidagi savdo aloqalarini soddalashtiradi hamda eksport-import jarayonlarini yengillashtirishga xizmat qiladi;

- inson huquqlarini himoya qilish – xalqaro huquqdagi inson huquqlari bo'yicha normalarni milliy qonunchilikka integratsiya qilish fuqarolarning huquq va erkinliklarini yaxshiroq himoya qilishga yordam beradi.

Milliy qonunchilikni xalqaro normalarga integratsiya qilishning afzalliklariga [25]:

- huquqiy barqarorlik va shaffoflik – mazkur integratsiyaning afzalligi milliy qonunchilikning xalqaro standartlarga moslashishi huquqiy tizimning shaffofligini ta'minlaydi. Bu esa

xalqaro hamkorlar va sarmoyadorlar uchun qulay huquqiy muhit yaratadi;

- xalqaro nizolarning oldini olish – mazkur integratsiya xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan normalarga barcha a'zo davlatlarning so'zsiz amal qilishi natijasida davlatlar o'rtasidagi turli huquqiy nizolarni oldini olishga xizmat qiladi. Shuningdek, xalqaro tashkilotlarning dunyo hamjamiyati oldidagi nufuzini oshirishga xizmat qiladi;

- milliy manfaatlarni himoya qilish – mazkur integratsiyaning afzalligi shundaki, xalqaro shartnomalar va qoidalarini qabul qilishda a'zo davlatlar o'z fuqarolari va kompaniyalarining xorijdagi huquqiy manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi;

- qonun ustuvorligini mustahkamlash – milliy qonunchilikning xalqaro normalarga muvofiq ravishda isloh qilinishi mamlakatda qonun ustuvorligini kuchaytiradi va korrupsiyaga qarshi kurash samaradorligini oshiradi;

- jamoat xavfsizligini ta'minlash – mamlakatda jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha rivojlangan davlatlarning ijobiy tajribalarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish orqali o'z ichki xavfsizlik tizimini takomillashtiradi.

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar natijasida qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarni xalqaro normalarga integratsiya qilishning huquqiy tizimini kuchaytirish, nafaqat xalqaro munosabatlardagi barqarorlikni ta'minlashga balki, mamlakatda sarmoya, savdo oqimini shuningdek, davlatning iqtisodiy va siyosiy nufuzini oshirishga ham xizmat qiladi.

Yuqorida biz milliy qonunchilikni xalqaro normalarga integratsiya qilishdan ko'zlangan maqsad va uning afzalliklarini birma-bir yoritib o'tdik. Endilikda, to'rtinchi bosqichda esa yangi O'zbekistonda jinoyatlarni oldini olish yo'nalishida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni mazmunini xalqaro normalarga integratsiya qilinishi bilan bog'liq jarayonlarda yuzaga kelayotgan muammolar va ularni bartaraf etish yuzasidan takliflarni birma-bir yoritib o'tish maqsadga muvofiqdir. Xususan:

birinchi dolzarb muammoga, milliy qonunchilikda inson huquqlari va jinoyatlarni oldini olish bo'yicha qator xalqaro standartlarga mos bo'lgan qoidalarining to'liq ifodalanmaganligi jiddiy muammolardan biri hisoblanadi. Xususan, ayrim qonunlarda BMT va Yevropa Ittifoqi kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan

qabul qilingan inson huquqlari va jinoyatlarga qarshi kurash standartlari yetarli darajada o'z aksini topmagan. Bu, o'z navbatida, xalqaro hamkorlikdagi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi hamda huquqni muhofaza qilish organlarining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mazkur qonun hujjatlariga:

a) "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida" [26]gi qonun bo'lib, ushbu qonunda jinoyatlarning oldini olish va profilaktika choralari bo'yicha umumiy yo'nalishlar berilgan. BMTning "Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasi" (2000-yil) talablari bo'yicha transmilliy jinoyatlarga qarshi kurashish mexanizmlari aniq ishlab chiqilmagan. Konvensiyada transmilliy jinoyatlar bilan bog'liq faoliyatlarda davlatlar o'rtasida o'zaro axborot almashish va qo'shma tadbirlar o'tkazish tartiblari aniq belgilab qo'yilgan. Bundan tashqari, "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunning 8-10-moddalarida profilaktika tadbirlari va hamkorlik masalalariga urg'u berilsa-da, transmilliy jinoyatchilikka qarshi xalqaro hamkorlikka oid qoidalar to'liq yo'q.

Mazkur muammoni bartaraf etish yuzasidan quyidagi taklifni ilgari surish maqsadga muvofiq. Jumladan, "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunning 10-moddasi o'n to'rtinchi xatboshida transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha xalqaro hamkorlik vakolatlarini hamda uning mexanizmlarini aniq kiritish;

b) Bugungi kunda yangi O'zbekiston inson huquqlari bo'yicha 80 dan ortiq xalqaro hujjatlarga, jumladan Birlashgan Millatlar Tashkilotining 6 ta asosiy shartnomasi va 4 ta fakultativ protokoliga qo'shilgan. Ammo, mamlakatda aholi tinchligi va farovonligini ta'minlash, shuningdek, jinoyatlarni oldini olish maqsadida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar mazmunida xalqaro normalarning mazmuni to'liq o'z aksini topmagan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6012-sonli Farmonida inson huquqlarini himoya qilishning qonunchilik va tashkiliy-huquqiy bazasini mustahkamlash, inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish va xalqaro majburiyatlarni bajarish bilan bog'liq masalalar yoritilgan bo'lsada, aynan oldini olish yo'nalishida inson huquqlarini ta'minlash bilan

bog'liq talablar to'liq o'z ifodasini topmagan, ayniqsa, jinoyat protsesslarida insonning shaxsiy daxlsizligiga oid normalar yetarli darajada yoritilmagan.

"Inson huquqlari deklaratsiyasi"ning 3-moddasida har bir inson hayot, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega ekanligi belgilangan. Ammo O'zbekistonning amaldagi qonunchiligida inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha umumiy qoidalar mavjud bo'lsada, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov jarayonlarida fuqarolarning shaxsiy daxlsizlik va advokat yordamining to'liq kafolatlarini ta'minlash yetarlicha asoslantirilmagan.

Mazkur muammoni bartaraf etish maqsadida mamlakatda inson huquqlarini himoya qilishning qonunchilik va tashkiliy-huquqiy bazasini mustahkamlash, inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish va xalqaro majburiyatlarni bajarish, shuningdek, jinoyatlarni oldini olishda inson huquqlarini himoya qilish masalalari yuzasidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni qayta tizimlashtirish;

v) "Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun bo'lib, ushbu qonunda BMTning "Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasi"da belgilanganidek, uyushgan jinoyatchilikka oid jinoiy daromadlarni musodara qilish, xalqaro hamkorlik orqali jinoyatchilarni ekstraditsiya qilish va jinoiy aktivlarni qidirib topish bo'yicha aniq qoidalar yo'q. Shuningdek, Konvensiya talablari bo'yicha uyushgan jinoyatchilikka qarshi har bir davlat jinoiy daromadlar va aktivlarni musodara qilish mexanizmlarini ishlab chiqishi kerak. O'zbekiston qonunida bu mexanizmlar faqat milliy darajada ko'zda tutilgan, lekin xalqaro darajada hamkorlik mexanizmlari yetarli darajada yoritilmagan.

Bu muammoni bartaraf etish yuzasidan quyidagi taklifni ilgari surish maqsadga muvofiq. Jumladan, mamlakatda jinoiy daromadlar va aktivlarni musodara qilishda xalqaro hamkorlik mexanizmlarini kiritish lozim. Shuningdek, INTERPOL va BMT bilan o'zaro hamkorlikda ma'lumot almashish tizimini kuchaytirish;

g) "Axborot xavfsizligi to'g'risida"gi qonun bo'lib, ushbu qonunda kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha xalqaro standartlarga mos bo'lgan axborot xavfsizligi qoidalari yetishmaydi. Yevropa Kengashining "Budapesht konvensiyasi" [28] (2001-yil) talablariga ko'ra,

axborot xavfsizligiga qarshi jinoyatlarga oid aniq huquqiy choralari joriy etilishi lozim. Shuningdek, kiberhujumlarning oldini olish va ularni surishtirish mexanizmlari milliy qonunlarda cheklangan darajada yo'lga qo'yilgan. Axborot xavfsizligiga qarshi xalqaro hamkorlik va ma'lumot almashish bo'yicha moddalar aniq belgilanmagan.

Mazkur muammolar yuzasidan quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq. Jumladan, huquqbuzarliklar subyekti hisoblangan davlat tashkilotlari o'rtasidagi axborot xavfsizligi yo'nalishidagi hamkorlik munosabatlarini "Budapesht konvensiyasi" standartlariga muvofiq qayta ko'rib chiqish.

Ikkinchi dolzarb muammoga, milliy qonunchilikda jamoat xavfsizligini ta'minlash va huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan qonunlar o'rtasida muvofiqlashuv va uyg'unlikni ta'minlashda bir qator muammolar mavjud. Qonunlardagi ayrim ziddiyat va nomutanosibliklar qonunlarning amalda samarali qo'llanilishini cheklamoqda. Bu holat, ayniqsa, huquqbuzarliklarni oldini olish va jamoat tartibini ta'minlash bo'yicha vakolatli organlar faoliyatida ko'zga tashlanmoqda. Mazkur muammo, ayniqsa:

a) O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonun va "O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi" kabi normativ-huquqiy hujjatlar mazmunida yaqqol namoyon bo'ladi. Xususan, jinoyat kodeksida ayrim jinoyatlarga nisbatan jazo choralari ko'rsatilgan bo'lsa-da, profilaktika to'g'risidagi qonun mazkur jinoyatlarning oldini olishga oid aniq choralari va ularning mexanizmlari to'liq ko'rsatilmagan.

Bundan tashqari, jinoyat kodeksining huquqbuzarliklarga oid moddalari (jamoat tartibini buzish, mayda bezorilik va hokazo) da jinoyat sodir bo'lganidan so'ng amalga oshiriladigan jazo choralari belgilangan. Biroq profilaktika to'g'risidagi qonunlarda huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha majburiy dasturlar yoki chora-tadbirlar aniq ko'rsatilmagan.

Ushbu muammoni bartaraf etish yuzasidan takliflarga:

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga "Huquqbuzarliklar profilaktikasi" nomli yangi bobini kiritish. Bunda, huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida huquqiy normalarni aniqlash va javobgarlik choralari belgilash.

Shuningdek, qonun buzilishiga moyil bo'lgan shaxslar bilan ishlash mexanizmini ishlab chiqish;

"Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunga "Jinoyatlarning oldini olishda davlat organlari va jamoat tashkilotlarining aniq vazifalarini kiritish" shuningdek, profilaktika tadbirlarining asosiy tamoyillarini belgilash va monitoring tizimini kuchaytirish" kabilarni o'zgartirish va qo'shimcha etib belgilash;

jinoat protsessual kodeksiga profilaktik tadbirlar mexanizmlarini joriy etish. Bunda, aynan soha yo'nalishlari bo'yicha tergovga qadar tekshiruv bosqichida shaxsga nisbatan profilaktika choralari qo'llash imkoniyatlarini aniqlash. Shuningdek, sud va prokuratura organlarining profilaktik jarayondagi rolini kuchaytirish. Bundan tashqari, profilaktik nazorat mexanizmini takomillashtirish;

b) jamoat xavfsizligi konsepsiyasi bilan idoralararo vakolatlar o'rtasidagi ziddiyatlar bo'lib, bunga ko'ra jamoat xavfsizligi konsepsiyasida ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va boshqa organlar o'rtasidagi vazifalar umumiy ko'rsatilgan. Biroq, bu organlar o'rtasidagi aniq muvofiqlashtiruvchi mexanizmlar yoki mas'uliyat taqsimoti belgilanmagan. Masalan, ommaviy tadbirlar chog'ida qaysi organ yetakchi vazifani bajarishi kerakligi haqida aniq yo'riqnoma mavjud emas. Bu holat favqulodda vaziyatlarda tashkilotlar o'rtasidagi harakatlarning noaniqligi va kechikishlarga olib kelishi mumkin.

Ushbu muammoni bartaraf etish yuzasidan taklif. Bugungi kunda yangi O'zbekistonda "jamoat xavfsizligi konsepsiyasi"da idoralararo munosabatlarni tartibga soluvchi maxsus muvofiqlashtiruvchi organ yoki markaz tashkil etish zarur. Bu markazning vazifasi davlat organlari o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirish, favqulodda vaziyatlarda tezkor ma'lumot almashishni ta'minlash va chora-tadbirlarni nazorat qilishdan iborat bo'ladi;

v) huquqni muhofaza qiluvchi organlar jinoyatchilikning oldini olish, huquqbuzarliklarni aniqlash va xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Biroq bugungi kunda turli huquqni muhofaza qiluvchi organlar – Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Prokuratura, Davlat xavfsizlik xizmati, Bojxona qo'mitasi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va boshqa tuzilmalar o'rtasida samarali ma'lumot almashish mexanizmi to'liq

shakllanmagan. Bu esa xavfsizlikka tahdidlarga tezkor javob qaytarish imkoniyatini cheklaydi.

Mavjud axborot almashinuvi tizimi har bir idoraning o'z ichki ma'lumot bazasiga ega ekanligi sababli, tezkorlik va samaradorlik borasida kamchiliklarga ega. Huquqbuzarliklarning oldini olish va tezkor ma'lumot almashish imkoniyatini kuchaytirish uchun barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlarni qamrab oladigan yagona ma'lumot almashinuvi platformasini yaratish zarur. Bunday platforma jinoyatchilikka qarshi kurashda davlat idoralari o'rtasida hamkorlikni kuchaytiradi, tezkorlikni oshiradi va xavfsizlikni ta'minlash samaradorligini oshiradi.

Shu o'rinda xalqaro tajribaga nazar tashlasak, AQSHda federal va mahalliy darajada xavfsizlik organlari o'rtasida ma'lumot almashish uchun maxsus "Fusion Centers" tizimi joriy qilingan. Bu tizim jinoyatchilikka oid ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va tegishli idoralarga yetkazish imkonini beradi. Yevropa Ittifoqida Europol tomonidan qo'llaniladigan EIS tizimi barcha YI davlatlari o'rtasida jinoyatchilikka oid ma'lumot almashishni ta'minlaydi. Bundan tashqari, Rossiya davlatida "Единая система межведомственного взаимодействия (ECMB)" Rossiyada ichki ishlar organlari, prokuratura va xavfsizlik xizmatlari o'rtasidagi ma'lumot almashinuvi ECMB platformasi orqali amalga oshiriladi.

Bugungi kunda jinoyatchilikni oldini olish sohasidagi islohotlar xalqaro standartlarga mos ravishda amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda qonun ijodkorligi jarayonida xalqaro normalarni integratsiya qilish yo'nalishida muhim qadamlar qo'yilgan bo'lsa-da, qator muammolar mavjud. Xususan, milliy qonunchilikda jinoyatchilikning oldini olishga oid xalqaro standartlarning to'liq aks etmasligi, huquqiy normalar o'rtasidagi uyg'unlikning yetishmasligi, davlat idoralari o'rtasida muvofiqlashtiruvchi mexanizmlarning kamchiligi, huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha ma'lumot almashinuvi tizimining samarasizligi kabi masalalar qonunlarning samarali ishlashini cheklamoqda. Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi takliflar ilgari surildi:

Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha qonunchilikni takomillashtirish – "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunda transmilliy jinoyatchilikka qarshi xalqaro hamkorlik mexanizmlarini aniq belgilash;

Inson huquqlarini himoya qilish standartlarini joriy etish – Inson huquqlari bo'yicha xalqaro

qoidalarini milliy qonunchilikka kiritish va huquqbuzarliklarning oldini olishda inson huquqlari kafolatlarini kuchaytirish;

Jinoiy daromadlarni musodara qilish va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash mexanizmini takomillashtirish – BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasi talablarini milliy qonunchilikka integratsiya qilish;

Axborot xavfsizligi va kiberjinoyatchilikka qarshi kurash mexanizmlarini xalqaro standartlarga muvofiq tarzda takomillashtirish – Budapesht konvensiyasi talablari asosida kiberjinoyatchilikka qarshi qonunchilikni kuchaytirish;

Davlat idoralari o'rtasida muvofiqlashtiruvchi organ tashkil etish – Jamoat xavfsizligini ta'minlashda davlat organlari o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlash uchun yagona muvofiqlashtiruvchi organ tashkil qilish;

Yagona ma'lumot almashinuvi platformasini yaratish – Barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun yagona ma'lumot bazasini yaratish va qonunchilikda uni mustahkamlash.

Xalqaro tajribalardan kelib chiqib, AQSH, Yevropa Ittifoqi va Rossiya kabi davlatlarda jinoyatchilikka qarshi kurashishda davlat organlari o'rtasida samarali muvofiqlashtiruvchi mexanizmlar va ma'lumot almashinuvi tizimlari yo'lga qo'yilgan. O'zbekiston ham ushbu tajribalardan kelib chiqib, jinoyatlarni oldini olish va huquqbuzarliklarning oldini olish sohasidagi qonunchilikni xalqaro normalarga muvofiq ravishda isloh qilishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda jinoyatchilikni oldini olish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish orqali yanada samarali bo'lishi mumkin. Buning uchun qonunlarni uyg'unlashtirish, idoralararo hamkorlikni kuchaytirish va raqamli xavfsizlikni ta'minlash kabi chora-tadbirlar joriy etilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Mirziyoyev Sh.M.* "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1-son Qarori // <https://lex.uz/en/pdfs/7330260>.
2. *Бахрах Д.Н.* Административное право России: Учебник для вузов. Текст предоставлен правообладателем http://www.litres.ru/pages/biblio_book/?art=447605 Административное право России: учебник для вузов: Эксмо; М.; 2010 ISBN 978-5-699-40071-3 // <https://fictionbook.ru/static/trials/00/44/76/00447605.a4.pdf>.
3. *Gutsenko K.F.* Pravoohranitelnye organy: uchebnik dlya bakalavrov.. – М., 2013. – 376 s.
4. *Galustyan O.A.* «Teoreticheskiye problemy profilaktiki antiobshchestvennogo povedeniya»: Avtoref. dis. ... d-ra kand. nauk. «Obespecheniye prav grajdan v ugolovno-protsessualnoy i operativno-rozysknoy deyatel'nosti». – М., 2000.
5. *Сапсѐмбаев М.А.* Mejdunarodnoye pravo v istorii Kazaxstana i Sredney Azii : [Ucheb. posobiye dlya yurid. fak. vuzov] / Alma-Ata : Aha mili, 1991-. - 151,[1] s.; 20 sm.; ISBN 5-630-00021-7.
6. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/decl_organizedcrime.shtml.
7. <https://constitution.uz/uz/pages/humanrights>.
8. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/pactpol.shtml.
9. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/orgcrime.shtml.
10. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conv_corruption.shtml.
11. <https://www.coe.int/en/web/cdpc>.
12. <https://ru.wikipedia.org/wiki>.
13. <https://edu.utu-ranch.uz/media>.
14. <https://www.coe.int/ru/web/impact-convention-human-rights/convention-on-cybercrime>.
15. <https://ru.ruwiki.ru/wiki>.
16. <https://ru.ruwiki.ru/wiki>.
17. <https://eulaw.ru/content/borders-code/>.
18. https://otherreferats.allbest.ru/international/00846484_0.html.
19. https://repo.ssau.ru/bitstream/Korolevskie-chteniya/Interpol-kak-mezhdunarodnaya-pravoohrani-telnaya-organizaciya-1067-00/1/978-5-7883-1958-2_2023-333-336.pdf.
20. <https://normativ.kontur.ru/document?moduleId=1&documentId=27476>.
21. <https://ru.wikipedia.org/wiki>.
22. *Мирзиѐев Sh. M.* "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6012-son Farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/4872355>.
23. *Mirziyoyev Sh. M.* "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6012-son Farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/4872355>.
24. O'sha manbaa: // <https://lex.uz/ru/docs/4872355>.
25. <https://www.lex.uz/acts/2387357>.
26. *Mirziyoyev Sh. M.* "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6012-son Farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/4872355>.
27. <https://advice.uz/uz/document/2697>.

ISLOM HUQUQI VA DUNYOVIIY JINOYAT HUQUQINING O'XSHASHLIGI

M. A. RAJABOVA,

IIV Akademiyasi Jinoyat huquqi kafedrası professori, yuridik fanlar doktori, professor

Annotatsiya.

Mazkur maqola islom huquqidagi tavba mezonini dunyoviy davlatning jinoyat huquqidagi aybga iqrorlik instituti bilan o'xshash ekanini ilmiy-nazariy jihatdan qiyosiy o'rganilgani bilan e'tiborga molik. Muallif ayb tushunchasi va jinoyatlarni tasniflashga oid tadqiqotlarni amalga oshirish zarur ekanini ta'kidlaydi.

Tayanch so'zlar:

islom huquqi, shariat, tavba, radikallik, jinoyat kodeksi, ayb, shariat, tariqat, qonun, islom huquqi, pushaymonlik, jazo.

Аннотация.

В статье проведено научно-теоретическое сравнительное исследование критерия раскаяния в исламском праве с институтом признания вины в уголовном праве светского государства. Автор подчеркивает необходимость проведения исследований понятия вины и классификации преступлений.

Ключевые слова:

исламское право, шариат, раскаяние, радикализм, уголовный кодекс, вина, условие, порядок, закон, исламское право, сожаление, наказание.

Annotation.

The article discusses the criterion of repentance in Islamic law with a scientific-theoretical comparative study of the similarity of the secular state with the Institute of confession of guilt in criminal law. The author insists that it is necessary to carry out research on the concept of guilt and classification of crimes.

Keywords:

Islamic law, Sharia, repentance, radicalism, Criminal Code, guilt, condition, sect, law, Islamic law, remorse, punishment.

“Islom huquqi” yoki “fiqh” “bilish”, “tushunish”, degan ma’noni anglatadi. Fiqh islom talimotida musulmonlarga umumiy tarzda xos bo’lgan xulq-atvor bilan bog’liq ijtimoiy normalardir.

Shariat islom huquqi asosida qurilgan qonun-qoida va odatlar tizimidir. Unutmaslik lozimki, shariat musulmonlar uchun muqaddas manba hisoblangan Qur’oni Karimga asosan, shuningdek payg’ambarimiz (s.a.v.) tomonidan tushuntirilgan va u kishining hayotlik paytlarida to’plangan sunnat va hadislar majmuasidir. Mazkur huquqning birinchi asosiy manbai Qur’on bo’lib, u nozil bo’lgan davrda faqat payg’ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ga Jabroil farishta orqali so’zma-so’z, ketma-ketlikda, ya’ni tizimli tarzda kelgan va tartibga solingan, sahih (xatosiz, haqiqiy) hadislar yordamida ijtimoiy hayotda joriy etilgan sunnatlar esa ikkinchi asosiy manbadir.

Muhimi, islom huquqiga islom dini paydo bo’lganidan boshlab asos solingan bo’lib, keyinchalik yaxlit ichki birlikka ega ta’limot yaratilgan (salkam uch asr). Asosiy e’tibor birlamchi manba – Qur’ondagi sura va oyatlar mazmuni buzilmasligi shart ekaniga e’tibor

berilgani bois (ungacha ilohiy manbalar buzib yuborilgan) hozirga qadar Qur’on o’ziga xos o’zgarmas va o’zgartirilmas mohiyatini saqlab qolayotir.

Islom ta’limotini ikki xil ma’noda (keng va tor) tushuntirishga urinib ko’rmoqchimiz. Keng ma’noda islom ta’limotida diniy, axloqiy, huquqiy va musulmon aholining jamiyatda barqaror, uzluksiz va doimiy hayot kechirishi uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi barcha ijtimoiy munosabatlar yechimini topgan.

Torroq ifodalaganda, mazkur ta’limot davlatchilik tarixi bilan bog’liq bo’lganligi bois, undagi huquqiy (fiqhiy) qarashlar, g’oyalar, ilmiy-nazariy xulosalar islom huquqi yordamida tushunish oson bo’lishi uchun tarmoqlarga ajratilgan holda tushuntiriladi. Ya’ni shariat bilan tartiblangan. Esdan chiqarmaslik kerakki, islom ta’limoti yaxlitlik xususiyatiga ega va majmua (kompleks) tarzida o’rganiladi. Mazkur ta’limotda inson hayoti diniy va dunyoviyga ajratilmagan. Hammasining jamlamasi aynan Qur’onda aks etgan, deb qaraladi. Ammo tarixiylik nuqtayi nazardan hamda sivilizatsiyalar to’qnashuvi va rivojiga ko’ra dunyodagi hozirgi jarayonlar

insoniyat jamiyati davlatchilik orqali ikkiga bo'linib (dunyoviy va diniy) boshqarishni taqozo etmoqda.

Tarixdan ma'lumki, dunyoviylik tushunchasi XVII asrda Yevropada muomalaga kiritilgan bo'lib, unga o'sha davrdagi din rohiblari tomonidan jamiyatni badnom qilish uchun qo'llangan qiynoqlar, jabr-zulm sabab bo'lgan. O'shanda ham Islom ta'limotida bunday yondashuvlar e'tiborga olinmagan. O'tgan asrning birinchi choragida Rossiyada ro'y bergan inqilob ta'sirida Turkistonda ham dunyoviylikka o'tilgan. Hozirda ham davlatchiligimizda din davlatdan ajratilgan degan tamoyil saqlanib qolinmoqda. Ammo islom diniga e'tiqod qiluvchi aholi ko'p yashaydigan makonlarda (Markaziy Osiyoda) davlatining din bilan bo'lgan muloqoti ajratilgan bo'lsa-da diniy amallarni ro'yobga chiqarish har kimning ixtiyoriga tashlab qo'yilgani bot-bot takrorlanadi. Qur'onning o'zida dinda majburlash yo'q, degan hukm mavjud. Uning mohiyatidan aynan tanlash ixtiyori insonga bog'liqligini tushunish qiyin emas. Yana bir jihat shundaki, islom ta'limotiga binoan inson onadan tug'ilgan paytida islom fitrati bilan (Alloh yaratgani bois) dunyo kelsa-da, keyinchalik u yashagan muhit yoki ota-onasi uni e'tiqodini shakllanishiga ta'sir ko'rsatgani bois odam u yoki bu dinni tanlaydi yoki umuman biron-bir dinga e'tiqod qilmasdan, dinsizlik yo'lidan (ateist) ham borishi mumkin (Alloh dinsizlikdan asrasin).

Islom dini o'zining o'n to'rt asrlik taraqqiyoti davrida turli zamon va makonlarda davlatchilikka ta'sir o'tkazib, iz qoldirganini hech kim inkor etolmaydi. Lekin, islom ta'limoti ayrim davrda kuchaygan bo'lsa, ba'zan susaygani ham rost gap. Uzoqqa bormaylik, "Din xalq uchun afyundir", degan Ittifoq davri bunga misol bo'la oladi. Ta'kidlash joizki, aynan O'zbekiston, xususan Markaziy Osiyoda islom huquqi davlatchiligimizning o'zagini tashkil qilgan. Nima bo'lganda ham o'tmish, bugun hamda kelajak uchun ham diniy qarashlarni yanada teran anglashga haqlimiz.

Islom huquqida shariat asosiy o'rinni egallaydi. Shu bilan bir qatorda, o'tmishda shariat asosida tariqatga asos solinganidan ham ko'z yummasligimiz kerak. Falsafaning tasavvuf yo'nalishida izlanishlar, tadqiqotlar amalga oshirilgan va oshirilmoqda.

"Tasavvuf" "so'fiylik", degan ma'noni anglatadi. O'zbekistonlik olimlar mustaqillik yillarida "tasavvuf", "tariqat", "so'fiylik",

"pirlik" kabi atamalar ma'nodosh, ya'ni, bir xil yoki turdosh tushunchalar, degan xulosalarni bildirib kelmoqda. Xo'sh, bu tushunchalar mohiyatida nima nazarda tutilgan?

Tasavvufning mohiyatida "islomda insonning ruhiy dunyosi to'g'risidagi, uning ruhiy-axloqiy jihatdan komillik sari yetaklovchi ta'limot; diniy e'tiqod, so'fiylik oqimi" [1] mujassam. Mazkur tushunchadagi "komillik" atamasiga alohida urg'u berish joiz. Tasavvuf komillik demakdir, deyishga ham haqlimiz. Zotan, "komil inson", degan jumla ma'naviyatimizning asosi bo'lishi haqida ko'p gapiriladi.

Manbalarda qayd etilishicha, tasavvuf ta'limoti bilan bog'liq mazkur jumla "insonning ma'naviy, axloqiy, intellektual va jismoniy nuqtayi nazardan yetuklik darajasiga ko'tarilishini ko'zda tutadi" [2].

Shu o'rinda shariat va tariqatni uzviy bog'liq ekanini eslash joiz. Mazkur uzviy bog'liq tushunchalar tasavvuf haqida to'liq to'xtamga kelishga ko'maklashadi. Islom huquqida tariqat to'g'risida batafsil fikr yuritilmasa-da, tariqat aynan shariat asosida shakllanishi manbalardan ma'lum. Kezi kelgani bois tariqatdagi tarki dunyo qilish shariatga mos emas, degan g'oya mavjud. Tariqat yo'lga kirgan inson, avvalo, shariatdan to'liq xabardor bo'lishi talab etiladi. Islom ta'limoti qonun-qoidalari va talablari yordamida komil insonni tarbiyalash tariqatning birdan-bir maqsadi hisoblanadi. Bunda asosiy o'rinni yuqorida aytilganidek, ma'naviy jihatidan bekam-u ko'st insonni tarbiyalash yotadi. Tariqatdagi tarbiyadan ko'zlangan asosiy ma'no haq (yaratgan) bilan yaqinlashishdir. Yaqinlashish uchun Allohning barcha hukm, topshiriqlari va ko'rsatmalariga so'zsiz itoatda bo'lish shart. Bugungi davr tili bilan ifodalaganda, komil insonning ongu shuurida diniy va dunyoviy qadriyatlar shunday sindirilishi lozimki, u o'tmishdan saboq olib, ijobiy xulosa chiqarish asnosida bugungi kunda tinch-xavfsiz, farovon yashash yo'lini tanlagan bo'lishi, shu bilan birga kelajakda yuksalish borasida mukammal dunyoqarash hamda tafakkurga ega bo'lgan shaxsga aylansin!

Hozirgi davr yoshlari global jarayonlar va ziddiyatli, tahlikali voqea va hodisalarga nisbatan o'z nuqtai-nazarini shakllantirish barobarida uning salbiy jihatdan xoli, radikal qarashlardan uzoq bo'lishini anglab ulgurishi lozim. Tariqat asoschilari ta'kidlaganidek, o'zini har qanday jinoyat (gunoh)dan tiyishga

qodir komil insonni tarbiyalash bugungi kunda ham ahamiyatini yo'qotmagan degan fikrdamiz. Tariqat ham bir necha yo'nalishlarga bo'linib, makon va zamonda rivoj topgan. Mintaqamiz uchun ulardan mashhurlari yassaviya, kubroviya va naqshbandiya hisoblanadi. Bahouddin Naqshband hazratlarining "Qo'ling mehnatda, qalbing Alloh bilan bo'lsin", degan hikmatli so'zlarini ortiqcha sharhlash, tushuntirishga hojat bo'lmasa kerak.

Tariqat asoschilari insonning komillik sari yetaklovchi kuch bu Allohga yaqinlashuvi (qurbat) deb biladilar. Allohga yaqinlashishda yaxshilik va yomonlik, harom va halolni, ezgulik va yovuzlikni his qilib, amal va e'tiqodda bardavom bo'lish zarur. Buning uchun albatta, sof niyatni nazarda tutmoq kerak. Amallarning natijasi niyatga bog'liq deb hisoblaydi tariqat pirlari. Ayniqsa, nafsni jilovlay bilish, undan tiyilish muhim. Unga erishish komillikdan nishondir. O'zgalarning yoki butun boshli jamoaning haqidan hazar qilish insonga ruhiy ozuqa berish barobarida jamiyatda tenglik va adolat tamoyilining barqarorligini ta'minlaydi, degan qarashlar ham tariqatning muhim jihatlaridan biridir. Xullas, tariqatdagi g'oyalarni batartib va batafsil o'rganish ertangi taraqqiyotga ijobiy ta'sir etadi desak adashmaymiz.

Shariat va tariqat uchun muhim o'lchov mezon (kategoriya) hisoblangan "tavba" yoki zamonaviy O'zbekiston jinoyat huquqida ham mavjud aybni bo'yniga olish to'g'risida arz qilish, chin ko'ngildan pushaymon bo'lishni (jazoni yengillashtiruvchi holatlar) qiyosiy tahlil qilish o'rinlidir.

Mazkur ikki xil talqin mazmun-mohiyati jihatdan bir-biriga juda o'xshash, bir xil ma'noni anglatadi, ammo ularning ifodalanishi turlicha. O'zbekistonning jinoyat qonunlari va jinoyat protsessual qonunchiligida tavba atamasi uchramaydi. Ular shakl jihatdan turlicha (birinchisida tavba, ikkinchisiga aybni bo'yniga olish yoki chin ko'ngildan pushaymon bo'lish) bo'lsa-da, mazmunan bir ma'noni bildiradi. Mazkur yuridik atama yuzasidan fikrimizni batafsil bayon etish uchun, avvalombor, Qur'oni Karimga murojaat qilishga to'g'ri keladi.

Qur'oni Karimdagi jami 34 suraning 81-oyatida "tavba" kalimasi mavjud. Ular turli tuman holatlar bilan bog'liq bo'lib, barchasi bandani katta-kichikligidan qatiy nazar gunohini kechirilishi uchun tavba qilib, Allohdan mag'firat so'rab yurishga buyruq qilinganidan dalolat beradi.

Dastlab Baqara surasidagi 37-oyatda "Bas, Odam Rabbidan (tavbaga doir) kalimalarni qabul qilganidan so'ng (Alloh) uning tavbasini ijobat etdi. Albatta, U tavbalarni qabul etuvchi, rahmli zotdir" deyilgan [3]. Mazkur suraning 160-oyatida ochiq-oydin va tiniq tarzda "Illo, qaysilari tavba qilib, xatolarini tuzatib, (haqiqatni) bayon qilsalar, ularning tavbalarini qabul eturman. Men tavbalarni qabul etuvchi, rahmli zotdirman [4], deyiladi.

Tavba qilishga shoshilish barcha bandaga qaratilgan Allohning chaqirig'i bo'lib, tavba kalimasi uni til bilan ifodalash barobarida birinchidan, xatolarini tuzatish, (sodir etgan gunoh yoki jinoyatga boshqa qo'l urmaslik), ikkinchidan, haqiqatni bayon qilish sharti ekanini anglatadi. Shu o'rinda "tavba" atamasining o'zbek tili bilan bog'liq etimologik mazmuniga e'tibor qaratmoqchimiz. "Tavba" yuridik atamasi tilimizga arab tilidan kirib kelgan bo'lib "aybga iqrar bo'lish; gunohlar uchun kechirim so'rab yolvorish" ma'noni anglatadi. O'zbek tilining izohli lug'atiga ko'ra, "tavba" atamasi tilimizda turli ma'noda ishlatiladi. Ulardan biri tasavvuf bilan (diniy ibora) bog'liq bo'lib "solikning tariqat sari qadam qo'yishidan oldin qilgan barcha gunohlardan tavba qilib, kelajakda biror gunoh ishni qasddan qilmaslikka azm-u qaror qilishi"dir [5]. Qasd deganda, jinoyatchining maqsadi nazarda tutiladi.

Tasavvufda tavba qilish qat'iy qaror hisoblanib, unga rioya qilish shart deb izohlanadi, biroq, shariatda sal boshqacharoq, ya'ni kengroq talqin qilinadi. Jinoyat sodir etgan odam, xoh qozining huzurida bo'lsin, xoh o'zi yakka holda bo'lishidan qat'iy nazar, birinchi navbatda Allohdan tavba-tazarru qilib, kechirim so'rashi zarur, agar u o'zini jinoyatchi (gunohkor) hisoblasa. Ko'pchilik oyatlarda tavba qilish namoz, ro'za, zakot va haj amallarini bajarish bilan bevosita bog'liq ekani oyatlar mazmunidan ko'rinadi. Tavbaga shoshilish kerak degan ulamolarning asosli fikri ham manbalarda aks ettirilgan.

Islom huquqidagi tavbaning mohiyati keng ma'noni anglatadi. Ta'limotga ko'ra, banda umri davomida katta-kichik jinoyatlarni sodir etadi. Shu sababli har bir musulmonga (ijtimoiy kelib chiqishi va egallagan mavqeidan qat'iy nazar) Alloh huzurida tavba eshigi doimo ochiq deb tushuniladi. Beayb parvardigor, deyilishining sababi ham shunda. Dunyoviy davlatning jinoyat kodeksida aybni bo'yniga olish to'g'risidagi arz qilish, chin ko'ngildan pushaymon bo'lish jazoni yengillashtiruvchi

holatlardan biri hisoblanadi. Shariatda ta'zir turidagi jinoyatlardan ayrimlariga tavba qilish jazodan ozod qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Tariqat bilan bog'liq tavba qilish tor ma'noni anglatadi. Nima bo'lganda ham, tavba qilish islom huquqida javobgarlikka tortishda asosiy mezon hisoblanadi. Shu o'rinda tasavvuf ta'limotida ham tavbaning bandaning ruhiyati bilan bevosita bog'liq ekaniga oid Abu Homid G'azzoliyning "Din ilmlarini jonlantirish" (Ihyou ulumid-din) kitobidagi tavba bobdagi masalaga oid tahlillar mazmuniga qisqacha to'xtalish maqsadga muvofiq. Zero, islom ta'limotini yaxlit va mukammal tushunish uchun ta'limotni rivojiga hissa qo'shgan ulug' ulamolarning kitoblaridagi tushuntirish, tafsir, sharhlarini o'rganishga to'g'ri keladi. Qolaversa, Qur'oni Karimda naql bilan birga, aqlni ishlatib tafakkur, tadorik (to'g'rilash, tuzatish, to'g'ri yo'lga qo'yish, chora) qilish zarur ekanini e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Qizig'i shundaki, kitobdagi mazkur bobda tavbaning mohiyati; katta kichik gunohlardan tavba qilish; tavbaning mukammal bo'lish shartlari va uning umr oxirigacha davom etishi; tavbaning shifobaxshligi va gunohdan tiyilmaslik dardining muolaja yo'li masalalari batafsil yoritilgan [6].

Ta'kidlash o'rinliki, mazkur manba asosida alohida tadqiqot amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Kitobdagi tavbaning mohiyatiga kelsak, ilmiy jihatdan tavba kalimasi bir-biri bilan uzviy va mustahkam bog'liq uchta unsurdan iborat, deb tushuntirilgan. Birinchidan, odam jinoyat sodir etish natijasida yetkazilgan yoki yetkazilishi lozim bo'lgan zararni anglashi (ilm), ya'ni oqibatga ko'zi yetishi zarur. Ikkinchidan, zararni anglagan kishining qalbida alam-og'riq paydo bo'lishi (uning holi) aniq. Uchinchidan esa uning qalbida afsuslanish (fe'l) paydo bo'ladi. "Qalbning bu og'rig'i - nadomat deyiladi" [7]. "Nadomat - afsuslanish, o'kinish, pushaymon yeyishdir" [8]. Yoki qilgan ishiga ich-ichidan afsuslanib pushaymon bo'lish hisoblanadi. Insonning bu holati uning qasddan biron-bir qilmishga ko'l urganidan so'ng undan forig' bo'lish uchun ruhiyatida (fikir-u xayoli, ongida) pushaymonlik hissi paydo bo'ladi. Undagi bu ruhiy o'zgarish ijobiy ma'no kasb etgan holda jinoyatchiga o'zining hatti-harakatlaridan salbiy jihatlarini tasavvur qilib o'zini tuzatishga moyillik paydo bo'ladi. O'shanda u afsuslanib o'zida Alloh buyurganidek undan kechirim so'rashga (tavba) kirishadi. Buni u qalbidan

(ko'ngil) o'tkazib sezadi. Qalb esa insonning hissiyotida tug'yon uyg'otadi, pushaymon bo'lishga undaydi.

Imom Abu Homid G'azzoliy sanab o'tilganlarni anglab yetmoq, tushunishni ilm deb, vaqt e'tibori bilan odamning jinoyatga (gunohga) qo'l urgan onlardagi yoki aynan gunoh sodir etgan paytdagi jismu-tanasidagi holatini uning holi deb; qalbida paydo bo'lgan iroda va qasdni, ya'ni gunohni (jinoyat) tark etishni maqsad qilishi, shu maqsad tomon qadam tashlashini fe'li, deb tushuntiradi. Qayd etish joizki, Imom G'azzoliyning yuqoridagi tushuntirishi mohiyatida ham O'zbekistonning hozirgi davrdagi jinoyat huquqidagi kabi aynan aybning (jinoyat tarkibining subyektiv tomoni) mohiyatiga o'xshash ilmiy fikr-mulohaza mujassam. Ya'ni, jinoyatchining sodir etgan jinoyatga nisbatan ruhiy kechinmalari uning aybini yuzaga chiqaradi degan jinoyat-huquqi nazariyasidagi qarashlar bilan hamohang. Muallifning ta'rifiga ko'ra, "tavba jafolibosining yechilishi, vafo gilamining to'shalishidir" (majoziy ma'noda) [9]. Mazkur asardagi e'tiborimizni jalb etgan ikkinchi masala, kichik va katta jinoyatlardan (gunohlardan) tavba qilishga oid nazariy fikrlar. Muallif o'zidan oldingi islom huquqiga (fiqh) oid ko'plab manbalarni birma-bir o'rganib katta va kichik jinoyatlarni (gunohlarni) tasniflashga (klassifikatsiya) uringan. Ammo, aniq to'xtamga kelolmasdan, ular yuzasidan olimlarning turli-tuman xulosalarini jamlab (lol qolib - ta'kid bizniki) katta va kichik jinoyatlarni (gunohlarni) toifalash qiyin degan to'xtamga kelgan. Aslini olganda, shariatda jinoyatlar turkumlangan bo'lib, uch toifaga bo'lib tahlil qilingan.

Birinci toifaga had (hudud), Alloh tomonidan aniq jazo (Qur'on Karimda) belgilangan sanoqli (zino, o'g'rilik, zinokorlikda ayblash, bosqinchilik kabi) yoki Allohning chegarasi, unga tegishli jazo ham deyiladi. Ikkinchisi - qasddan odam o'ldirish va tan jarohati yetkazish (xun, tovon yoki o'lim jazosi kabi) yoki qasos turkumidagi hayot va sog'liqqa qarshi jinoyatlar. Uchinchisi esa qolgan barcha taqiqlar, ya'ni jinoyatchini axloqan tuzatish maqsadida ta'zirini (ta'zir turdagi) berish, soddaroq qilib aytganda, jinoyatning xususiyati va og'irlik darajasi hamda jinoyatchining shaxsini hisobga olib jazo tayinlash qozining (sudyani) ixtiyoriga qoldirilgan barcha yengilroq jinoyatlar (ma'muriy huquqbuzarlik kabi) nazarda tutilgan ko'rinadi. Fikrimizga

ko'ra, shariatning insonparvarlik, liberal jihati, farqlab javobgarlikka tortib jazo belgilash zarurligiga oid tamoyillari aynan uchinchi toifadagi son-sanoqsiz jinoyatlarga (gunohlarga) yengil jazo tayinlash xususiyatiga ega ekanligini ko'rsatadi. Masalan korrupsiya, sha'n-qadr qimmat (tuhmat va haqorat), mulkka qarshi jinoyatlarga, fikrimizcha, aynan o'tmishdagi ota-bobolarimizga o'xshab jazo tayinlash amaliyoti hozirgi qonunchiligimizda ham mavjud.

Shu bois hech ikkilanmasdan aytish o'rinli, G'arbning dunyoviy davlatlari shariatda yengil jazo mavjudligiga tayanib (jamoat izzasi, yarashuv, javobgarlikdan ozod qilish, jarima va boshqa) qonunlarida yengil jazolarni ko'proq nazarda tutganiga shubha qilmasa ham bo'ladi. Zero, tarixiy-huquqiy jihatdan shariat bir necha asr ilgari shakllangan. Yevropaliklar undan ibrat olib qonunchiligini shakllantirgani aniq va isbot talab etmaydi. Ming afsuski, oxirgi o'ttiz besh yil davomida O'zbekistonlik olimlar huquq tariximizda o'chmas iz qoldirgan shariatdagi ta'zir turkumidagi jinoyatlarni ilmiy mushohada qilishga kirisholmadi. Yopiq qozon yopiq qilgicha qolayotgani afsuslanarlidir. Manbalar juda ko'p. Uni tahlil qiluvchi yuridik soha olimlari (tarixchi olimlar mustasno) juda sanoqli.

Tariqatdagi tavbaga xos xususiyatlar Allohning huzurida bandasi eng kichik gunohdan ham tavba qilishi nazarda tutilgan. Bu ibodatlarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lib, kechiktirmasdan tezda tavba qilishga o'tish shart. Oxiratda har bir mo'min sodir etgan gunohiga qarab jazolanadi. Alloh ularni gunohidan kechishi mumkin.

Aynan hozirgi davrda tariqatga ozuqa bergan islom huquqi o'zbek jamiyatida ma'naviyatning bir bo'lagi hisoblanadi, uning diniy qadriyat sifatidagi o'rni va ahamiyati bardavom. Mazkur huquq oilasi yuzasidan sharq-u g'arb tadqiqotchilari ikki guruhga bo'linib bahs-munozarani davom ettirmoqdalar.

Birinchi guruh ulamolari islom huquqining asosiy manbalari to'rtta, ya'ni Qur'oni Karim, payg'ambarimiz (s.a.v.) sunnatlari, ijmo' (olimlarning yakdil fikrlari), qiyos deb hisoblaydi. Tadqiqotlarda shu to'rt manba asosida fikr-mulohazalar bayon etiladi.

Ikkinchi guruhdagilar asosiy manba Qur'oni Karim xolos, deydlar. Qolgan manbalar e'tiborga loyiq emas, hattoki, e'tiqodimizdan joy olgan fiqhiy mazhablar keyinchalik shakllangan degan

asossiz, o'ta sayoz qarashni ilgari surmoqdalar. Bu esa islom ta'limotida bo'linish, radikallashuv, ba'zan esa ekstremistik oqimlarning oziqlanishiga sabab bo'lmoqda. Ahli sunna, ya'ni sunnat ahli birinchi yo'ldan boradi. Ikkinchi guruh ulamolarining fikrini rad etgan holda aytishimiz mumkin, ha, islom huquqining tamal toshi payg'ambarimiz (s.a.v.) tomonlaridan qo'yilgan. U davrning o'ziga xosligi faqat Allohning kalomi nozil qilingan davr bo'lgan. Payg'ambarimizning (s.a.v.) jiddu-jahdlari ilohiy manbani xatosiz qabul qilib yetkazish bo'lgan. Yetkazish jarayoni ham og'zaki hamda yozma shaklda amalga oshirilgan, yozmasi biroz qiyin kechgan, bo'lak-bo'lak tarzda yozdirilgan.

Manbalarda Payg'ambar (s.a.v.) vahiyni qabul qilish borobarida kotiblariga (bir nechta sahobalarga) o'sha paytning o'zida tizimga solib yozdirish barobarida o'qitib tekshirganlar. Yaqinda ijtimoiy tarmoqda ulamolardan biri yigirma uch yil ichida vahiy tushgan, Jabroil alayhissalom 24 000 marotabadan ortiq tushib, Qur'on oyatlarini yetkazganlar, deb tushuntirdi. Tasavvur qiling: 23 yilda 24 ming marotaba oyatlarni yodlatish. Ha, payg'ambarimiz (s.a.v.) oyatlarni yodlab olardilar. Oyatlarning ko'pchiligi ijtimoiy hayotda ro'y bergan yoki ro'y berishi lozim bo'lgan u yoki bu voqeliklar bilan bog'liq.

Qur'on va sunnat, keyingi davr ijtimoiy munosabatlarini tartibga solishda yetarli emasligi ulamolar tomonidan tan olingan. Shu asnodan islom ta'limotida, ya'ni, keyingi asrlarda yaratilgan g'oyalar, qarashlar, fikr-xulosalarni zamonga moslab tushuntirishga o'z-o'zidan ehtiyoj paydo bo'lgan. Buni hech kim o'zicha yarata olmaydi. Ayniqsa, islom dini makonlararo tarqalgani bois, Allohning izni bilan ularga amal qilish zaruratga aylangan. Oradan qarib ikki asr o'tib, asta-sekinlik bilan to'rtta huquq yo'nalishi (mazhablar) birin-ketin goh u hududda (Iroq, Shom orqali Markaziy Osiyoga), gohida Makka, Madinada, Misrda va boshqa mamlakatlarda ildiz otib, o'z yo'lini topgan.

Islom din o'laroq ijtimoiy hayotni qamrab olgan. Bu ta'limot asta-sekinlik bilan tarmoqlarga ajratilib o'rganilgan. O'n to'rt asr davomida takomillashib hozirgi holatni egallagan. Hozirgi davrda islom dini insonning eng ishonchli e'tiqodiga aylangan, dinda erkinlik berilgan. Majburlash yo'qligini Qur'oni Karimning o'zbek tilidagi tarjimasini diqqat bilan o'qib tushunish mumkin. Dindagi amallarni ro'yobga chiqarishda inson aqlini

ishlatib, farqlashi muhim. Dunyoviy iker-chikirlar islom huquqi orqali tartibga solinadi. Buni anglash uchun uzoqqa bormasdan, "Hidoya" asariga ko'z yuritish kifoya.

O'z navbatida, islom huquqiga oid manbalar bisyor. mazhablarni inkor qilish noo'rindir. Mazhab ta'limotlari ikki asr davomida shakllangan. Zamon va makonda ijtimoiy munosabatlar o'zgarib axborot asriga yetib keldik. Islom huquqini tushunish esa o'sha-o'sha. Mazhablar joylardagi odat huquqini hisobga olib fikr yuritgan. Mazhabboshilarning fikrlari qonun

emas, faqat biron-bir ijtimoiy munosabatni tahlil qilib, o'zining nuqtai-nazarini bildirishdir.

Xulosa o'rnida aytish joizki, islom dini bilan bog'liq ulkan ta'limot bor, shariat va tariqatga xos tartib-taomillar mohiyatida yagona Allohga e'tiqodni mahkam tutib, ijtimoiy munosabatlarda uning buyurganidek, faqat va faqat yaxshilik hamda ezgulikka intilib yashash yotadi. Ular turish-turmushimiz, ma'naviyatimizning o'q ildizlaridan hisoblanadi. Yana bir muhim jihat shuki, radikal qarashlarni rad etishga odatlanishimiz o'ta ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ma'naviyat asosiy tushunchalar, izohli lug'ati. – T., 2009. – 540 b.
2. O'sha manba. – 250 b.
3. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjimasi. Tarjimon Abdulaziz Mansur. – T., 2001. – 6 b.
4. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjimasi. Tarjimon Abdulaziz Manzur. – T., 2001. – 14 b.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. A. Madvaliyev tahriri ostida. – T., 2007. – 631b.
6. *Abu Homid G'azzoliy*. Tarjimon Rashid Zohid, Tavba kitobi (Ihyou ulumid-din). – T., 2018. – 238 b.
7. O'sha kitob. – 16 b.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati. – T., 2007. – 8 b.
9. O'sha kitob. – 18 b.

HUQUQ FALSAFASINING ASOSIY G'OYALARI

SH. A. MAMADALIYEV,

IIV Akademiyasi O'zbekiston tarixi kafedrası boshlig'i, falsafa fanlari doktori, professor

Annotatsiya.

Maqolada huquq falsafasi mohiyatini ifoda etuvchi g'oyalarning mazmuni ilmiy – nazariy nuqtai nazardan tahlil etiladi. Huquq va falsafa o'rtasidagi dialektik bog'liqlik jumladan, g'oya – huquq-amaliyot dialektikasi ochib beriladi.

Jinoyat va jazo falsafasi bilan bog'liq muammolar xususida munosabat bildiriladi.

Tayanch so'zlar:

falsafa, huquq, jinoyat, jazo, insonparvarlik, odillik, adolat, javobgarlik, demokratiya, sabab va oqibat, mohiyat va hodisa, ijtimoiy xavfli qilmish.

Аннотация.

В статье с научно-теоретической точки зрения анализируется содержание идей, выражающих сущность философии права. Раскрывается диалектическая связь права и философии, включая диалектику «идея-право-практика».

А также рассматриваются вопросы, связанные с философией преступления и наказания.

Ключевые слова:

философия, право, преступление, наказание, гуманность, справедливость, правосудие, ответственность, демократия, причина и следствие, сущность и явление, общественно опасное деяние.

Annotation.

The article analyses the content of ideas expressing the essence of the philosophy of law from a scientific and theoretical point of view. The dialectical connection between law and philosophy is revealed, including the dialectic of idea-law-practice.

The article examines issues related to the philosophy of crime and punishment.

Key words:

philosophy, law, crime, punishment, humanity, fairness, justice, responsibility, democracy, cause and effect, essence and phenomenon, socially dangerous act.

Huquq va falsafa o'rtasidagi uzviy aloqadorlikning mavjudligi

Falsafa – huquqning ruhi, huquq – falsafaning mavjudlik shartidir. Bundan ko'rinadiki, har qanday huquqning falsafasi mavjud. Masalan: tabiiy huquq falsafasini tabiat tomonidan o'rnatilgan nisbiy barqaror, zaruriy munosabatlar majmuasi tashkil etsa, pozitiv huquq falsafasini davlat tomonidan o'rnatilgan bajarilishi majburiy bo'lgan xulq-atvorlar majmuasi tashkil qiladi.

Bu joyda rim faylasufi Mark Tulliy Sitseronning “Qonunlar haqida”, “Davlat haqida” asarlarida keltirgan quyidagi “Huquq tabiat tomonidan o'rnatiladi, insonlar o'zaro kelishib qabul qilgan qonunlar tabiat qonunlariga mos bo'lishi shart” [1], degan fikrini eslash joiz. Demak, huquq insonlar tomonidan o'ylab topilgan uydirma emas, balki ijtimoiy munosabatlarni o'rganish natijasida aniqlangan ijtimoiy voqelikdir.

Qisqa qilib aytganda, huquq obyektiv huquqiy voqelikning subyektiv obrazidir. Dunyo parlamentlari qabul qilayotgan qonunlar tabiat va jamiyatning obyektiv qonunlariga adekvat bo'lishi lozim. Agar parlamentlar qabul qilayotgan qonunlar tabiat va jamiyatning qonunlariga mos bo'lmasa, bunday qonunlar

Prezident Sh. Mirziyoyev ta'бири bilan aytganda “ o'lik qonunlar” [2] ga aylanadi. Shu bois qonunchilik nazariyasi va amaliyotida huquq falsafasini bilish obyektiv zaruriyat hisoblanadi.

O'xshatish o'rnida “Falsafasiz huquq ko'r, huquqsiz falsafa cho'loqdir” [3], degan aforizmni keltirish mumkin. Huquq g'oyasiz bo'lmaydi, buni yodda tutish kerak aks holda huquqiy bo'shliq sodir bo'lib qonunlar urushi sababiga aylanadi. Huquq falsafasini o'zgarishi mavjud huquqiy tizimni o'zgarishiga olib keladi. Bu joyda huquq falsafasi belgilovchi, huquqiy tizim belgilanuvchi hisoblanadi. Masalan, O'zbekistonning yaqin tarixida kommunistik g'oyadan voz kechilishi huquqiy tizimni o'zgarishiga sabab bo'lgan.

2. Huquq falsafasi huquqning g'oyaviy paradigmalarini o'rganuvchi falsafiy fandır. Falsafa g'oyaviy borliqni, huquq esa huquqiy munosabatlarni tartibga soladi. Bundan g'oyaviy borliqsiz, huquqiy borliq mavjud bo'lmasligini anglash mumkin.

Huquqning g'oyaviy mazmuni – huquq falsafasidir. Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantiruvchi bosh omil ham huquq falsafasidir. Huquq falsafasining obyektini – huquqiy borliq, predmetini huquqiy g'oyalar

tizimi tashkil qiladi. Huquqiy g'oyalar tizimiga qarab, davlat boshqaruvining demokratik yoki nodemokratik shakllari belgilanadi. Quyidagilar huquq falsafasining asosiy g'oyalari hisoblanadi:

- huquqning obyektivligi;
- qonun ustuvorligi;
- qonun oldida barchaning tengligi;
- konstitutsionalizm;
- qonun va adolat birligi;
- sud mustaqilligi;
- ayb uchun javobgarlik;
- javobgarlikning muqarrarligi;
- insonparvarlik;
- huquqiy madaniyat;
- jinoyat va jazo falsafasi.

Huquqning obyektivligi g'oyasi – huquq mazmuni obyektiv, shakli subyektivligini anglatadi. Huquqning mazmuni va shakli o'rtasidagi farq gnoseologiyadagi predmet va obraz kabidir. Masalan, inson tug'ilishi bilan paydo bo'ladigan huquqlarni cheklash amaliyoti tabiiy huquqlarga ziddir. Deylik, o'lim jazosi yashash huquqiga noadekvat hodisa hisoblanadi.

Bugun AQSHning 31ta shtatida o'lim jazosi amal qiladi. Qolaversa, ayrim davlatlarda o'lim jazosini tiklashga qaratilgan harakatlar kuchaymoqda. O'zbekistonda o'lim jazosi taqiqlanadi [4]. Mamlakatimizda 2008-yildan buyon o'lim jazosi bekor qilingani milliy, diniy va umuminsoniy qadriyatlar nuqtayi nazardan tahsinga sazovordir. Dunyoda o'lim jazosi tarafdorlari va opponentlari o'rtasidagi kurash hanuzgacha davom etmoqda.

Qonun ustuvorligi g'oyasi – ilk marotaba qadimgi grek va rim faylasuflari Geraklit, Sokrat, Platon, Aristotel, Sitseron tomonidan davlat boshqaruvining eng demokratik g'oyasi sifatida talqin etilgan. Jumladan, Geraklit "Xalq qonun uchun o'z uylari kabi kurashishi kerak, boshboshdoqlikni olovdan oldin o'chirishlari lozim" degan. Sokrat sudning adolatsiz qonun asosida chiqarilgan hukmiga bo'ysunib, qonun ustuvorligi yo'lida uning qurboniga aylangan. Platon, Aristotel va Sitseronlar "qonunlar boshqaruvi g'oyasi"ni ilgari surishgan.

Ushbu g'oya yangi davr g'arb faylasuflari J. Milton, J. Lilbern, J. Lokk, Monteskyo kabi liberalizm tarafdorlari tomonidan rivojlantirilgan.

Qonun oldida tenglik g'oyasi – fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, bir xil huquq va majburiyatlarga ega ekanliklarini anglatadi. Ushbu g'oyaga amal qilish: qonunga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi;

jamiyat a'zolarini jipslashtiradi; xalqchil davlatni vujudga keltiradi; qonunlar sifatini yuksaltiradi; korrupsiyani oldini oladi; boylik va kambag'allik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi.

Tenglik g'oyasini buzilishi jamiyat va davlatni inqirozga yetaklaydi. Ayniqsa, aybsiz shaxsni jazolash, haqiqiy aybdorni jazolamaslik har qanday davlatni yemiradi. Shu sabab, tenglik ijtimoiy, siyosiy-huquqiy qadriyat sifatida e'tirof e'tirof etiladi.

Qonun va adolat birligi g'oyasi – jamiyat qabul qilayotgan qonunlarning adolatli bo'lishini taqozo etadi. Amir Temurning "Kuch-adolatdadir" g'oyasi birinchi navbatda qonunlar adolatli qabul qilinishi lozimligini anglatadi. Adolat deyilganda, barcha insonlarning manfaatlariga mos keladigan, tinchlik va rivojlanishga xizmat qiladigan fikr, so'z va amaliy harakatlar tushuniladi. Falsafa tili bilan aytganda, "adolat har-xillikdagi uyg'unlikdir" [5]. Qonun va adolat birligini ta'minlash bugun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Adolat yakka shaxs yoki ijtimoiy guruh emas balki jarayon ishtirokchilarining kelishuviga asoslangan ijtimoiy munosabatdir. Adolatni har xillashtirishga yoki monopollashtirishga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Adolat bor yoki yo'q, yarim yoki chala adolat bo'lmaydi, yolg'on faqat subyektiv reallikka tegishlidir. Qonun va adolat birligi uchun yolg'on fikr, yolg'on so'z va amaliyotdan butkul xolos bo'lish zarur. Dinimiz va milliy qadriyatlarimizda yolg'on taraqqiyotga tahdid sifatida talqin etiladi.

Insonparvarlik g'oyasi – qonunlar inson manfaatlarini ifodalashi va uning manfaatlariga xizmat qilishi lozimligini anglatadi. Inson o'zi yaratgan qonunning quli emas, aksincha qonunning yaratuvchisidir. Ammo inson o'zi yaratgan qonunning ijrosini ta'minlashga ham mas'ul subyekt hisoblanadi.

Shu sabab, qonunlarni ishlab chiqish va ularni hayotga joriy etish jarayoniga befarq munosabatda bo'lmaslik obyektiv zaruriyat hisoblanadi. Shuningdek, insonparvarlik g'oyasi hech kim sudning hukmi bo'lmay turib jinoyat sodir qilishda aybli deb topilishi va jazoga tortilishi mumkin emasligini anglatadi. Tarixda va bugun ham ushbu g'oyaga amal qilish dolzarb masala sifatida qaralgan.

Sud mustaqilligi g'oyasi – mavjud qonunlar asosida shaxs tomonidan sodir etilgan qonunbuzarlik uchun jazo belgilash huquqi faqat sudga tegishliligi, sud hukmi ijrosini ta'minlashning majburiyligi, sudning ishiga aralashmaslik talablarini ifoda etadi. Sud

mustaqilligi g'oyasi qadimda xitoy faylasufi Mao-Szi, grek faylasufi Sokrat, rim stoiki Sitseron kabi mutafakkirlar tomonidan ilgari surilgan. O'rta asrlarda sharq allomalari Forobiy, Nizomulmulk, Marg'iloniylarning asarlarida rivojlantirilgan [6]. Yangi davrda Sh. Monteskyo [7],

T. Djeferon, B. Franklin sud mustaqilligi g'oyasini zamonaviy talqinini ishlab chiqdi. Sharl Lui Monteskyo (1689–1755) o'zining “Qonunlar ruhi”(1748) asarida “Agar sud hokimiyati ijro va qonunchilik hokimiyatlaridan mustaqil bo'lmasa hech qanday erkinlik bo'lmaydi” [8], degan fikrni ilgari surgan. AQSH demokratiyasining asoschilari T.Djeferon, Dj. Medison, Dj. Adams, Dj. Vashington, A.Gameltonlar sud mustaqilligi g'oyasini Konstitutsiya va qonunlarga kiritib, uni amaliyotga tatbiq etgan tarixiy shaxslarga aylandi. Dunyo ekspertlari AQSH sud tizimini eng ilg'or tajriba sifatida e'tirof etishadi. O'zbekistonda sud mustaqilligi g'oyasi bosqichma-bosqich amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Jumladan, sudyalarni bilvosita saylash tartibi shakllangan bo'lib, kelajakda ularni bevosita xalq tomonidan saylash tartibini joriy etish nazarda tutilgan.

Ayb uchun javobgarlik va javobgarlikning muqarrarligi g'oyalari – O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksida prinsiplar sifatida e'tirof etilgan. Unga ko'ra: “Shaxs qonunda belgilangan tartibda aybi isbotlangan ijtimoiy xavfli qilmishlari uchungina javobgar bo'ladi”(9-modda); “Qilmishida jinoyat tarkibining mavjudligi aniqlangan har bir shaxs javobgarlikka tortilishi shart”(10- modda) [9]. Aytish joizki, ushbu prinsiplar vaqt o'tishi bilan o'zgarayotgan fundamental huquqiy-universal qadriyatlardir. Ushbu g'oyaviy talablarga jinoyatlarni oldini olish va jinoyatlarga qarshi kurashda amal qilish shart hisoblanadi.

Konstitutsionalizm g'oyasi - qonunchilik, sud va ijro hokimiyatlari tomonidan qabul qilinayotgan qonun, qaror, farmon, farmoyish va buyruqlarni asosiy qonunga zid bo'lmasligini anglatadi. Konstitutsiya qonunlarni tizimlashtiradi, qonunlar ziddiyatiga yo'l qo'ymaydi, kolliziya, paralogizm, dilemma kabi mantiqqa zid hodisalarni oldini oladi. Konstitutsiya – davlat faoliyatining asosi, qonunlar manbaidir. Har qanday Konstitutsiyaning bosh g'oyasi mavjud. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bosh g'oyasi- “suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat” bo'lib, uning boshqa moddalari bosh g'oyani asoslashga xizmat qiladi [10]. Bosh g'oya asosiy qonunning mazmunini belgilaydi, uni o'zgarishi Konstitutsiyani o'zgarishiga sabab bo'ladi.

Huquqiy madaniyat – huquqiy davlatning atributiv xususiyatidir. Huquqiy madaniyatsiz qonunlar qog'ozda qolib ketadi, qonunlarga bo'lgan ishonchga zarar yetadi. Huquqiy madaniyat qonunlarni bilish, ularga amal qilish hamda qonunbuzarliklarga murosasiz bo'lishni talab etadi. Cifatli qonunlarni qabul qilish barobarida qonunlarni insonlar ongiga singdirish va ularni hayotga tatbiq etish dolzarb vazifadir. Bunda har bir insonda qonun va axloq doirasida o'zini o'zi boshqarish, nazorat qilish va baholash ko'nikmasini shakllantirish eng oliy maqsad hisoblanadi.

Jinoyat va jazo falsafasi – Jinoyat va jazo falsafasi bugun yoki kecha paydo bo'lgan hodisa emas balki ilk ijtimoiy guruhlar shakllanishi bilan vujudga kelgan ijtimoiy taraqqiyot mahsulidir.

Insoniyat tarixidan ma'lumki urug', qabila munosabatlarida o'rnatilgan tartib va qoidalarga bo'ysunish, jamoat xavfsizlikni ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilishga bo'lgan ehtiyoj jinoyat va jazo falsafasini shakllanishiga hamda ilk davlatlarning paydo bo'lishiga sababchi bo'lgan.

Yuqorida keltirilgan tarix mantiqidan ko'rinadiki, jinoyat va jazo falsafasi har qanday davlatning “imidi”ni belgilovchi fundamental va o'ta dolzarb ahamiyat kasb etuvchi masaladir.

Hozirgi vaqtda ham ijtimoiy-gumanitar fanlar va xalqaro siyosatda davlatlarning demokratik yoki nodemokratik, avtoritar yoki totalitar sifatida baholanishida jinoyat va jazo falsafasining mohiyati birlamchi ahamiyat kasb etmoqda.

Masalan, qaysiki davlatda jinoyat o'sib, jazolar kuchaytirilsa, uning dunyodagi imidji pasayib, avtoritarizm yoki totalitarizmga ayblanayotgani va investitsiya oqimini to'xtatayotganini kuzatish mumkin. Bu jarayon fikr va mulohaza mavzusining o'ta dolzarbligini anglatadi

Ma'lumki, jinoyat va jazo falsafasida: qadimi davrda – jazoga, o'rta asrlarda – qo'rquvga, uyg'onish va yangi davrlarda – gumanizm, ya'ni insonparvarlikka ustuvorlik berilgan. Tarixiy jarayonlar natijasida – jazo, qo'rquv va gumanizm triadasi shakllangan. Shak-shubhasiz, jazo, qo'rquv va gumanizm jinoyat va jazo falsafasining atributiv xususiyatlaridir. Biroq ilmiy va ilmiy – publitsistik adabiyotlarda jazo, qo'rquv va gumanizm o'rtasidagi bog'liqlikni inkor etuvchi yoki mutloqlashtiruvchi qarashlar mavjud [11]. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, jazo, qo'rquv va gumanizm o'rtasida subyekt xohishiga bog'liq bo'lmagan dialektik bog'liqlik mavjud. Ya'ni ijtimoiy taraqqiyot ehtiyojlariga qarab ustuvorlik o'zgarib turadi, ammo triada o'rtasidagi bog'liqlik saqlanib qoladi.

Demokratik, huquqiy davlatlarda ayrim tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, jazo, qo'rquv yo'q

bo'lmaydi balki qonun orqali gumanizmga xizmat qildiriladi va unga bo'ysundiriladi.

Ushbu qoida bizning mamlakatimizga ham tegishli. Chunki O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat [12].

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda jinoiy jazolarni liberallashtirish borasida muhim ishlar amalga oshirildi, jumladan o'lim jazosi bekor qilindi. O'lim jazosini bekor qilinishi gumanizm g'oyalariga, milliy va diniy qadriyatlarimizga hamohangdir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'zining asarlarida “Yangi O'zbekiston – insonparvar davlatdir. Kuch ishlatish salohiyatiga ega bo'lgan davlat idoralari jumladan, Ichki ishlar organlari xalqchil tuzilmaga aylanishi kerak. Biz barpo etayotgan Yangi O'zbekistonning milliy g'oyasini – insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik tashkil etishi kerak”, degan falsafiy g'oyalarni ilgari surgan. Demak, yangi O'zbekiston Respublikasi jinoyat va jazo falsafasida ustuvorlik insonparvarlikka beriladi, jazo, qo'rquv inkor etilmaydi balki insonparvarlikka bo'ysundiriladi. Afv institutini joriy etilgani, adashib xatoga yo'l qo'rganlarga nisbatan “Mehr” operatsiyalarini amalga oshirilgani, jazoni ijro etish muassasalaridagi mahbuslarga saylov huquqini berilganligi insonparvarlik falsafasining amaliy ifodasidir.

Bugun jinoyatchilikni insonparvarliksiz jazo va qo'rquv, zulm va kuch ishlatish bilan yengib bo'lmaydi. Jinoyatchi ham inson uni jamiyatdan begonalashtirish emas balki ijtimoiylashtirish zarur. Maxatma Gandi ta'kidlaganidek, “Jamiyat jinoyatchini shakllantiradi, jinoyatchi jamiyatni emas, har birimiz jinoyat uchun mas'ulmiz”. BMT tomonidan 2007-yildan 2-oktabrni “Xalqaro zulmga qarshi kurash kuni” sifatida nishonlanib kelayotgani ham insonparvarlik tamoyilidan kelib chiqqandir.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslanib qisqa va lo'nda qilib aytganda Yangi O'zbekistonning “jinoyat va jazo falsafasi yomonni yaxshi qiladigan, adashganni to'g'ri yo'lga soladigan, dushmani do'st aylantiradigan falsafadir”.

Shu sabab, ijtimoiy – gumanitar fanlar oldida jinoyat va jazo falsafasini quyidagi yo'nalishlarda rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi: birinchidan, jinoyat va jazo falsafasining nazariy asoslarini rivojlantirishimiz kerak. Bunda, avvalambor, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining asosiy prinsiplarini (qonuniylik, fuqarolarning qonun oldida tengligi, demokratizm, insonparvarlik, odillik, ayb uchun javobgarlik, javobgarlikning muqarrarligi) qog'ozda emas

amaliyotda qanday ishlayotganini ilmiy tadqiq qilish lozim. Shuningdek, Kodeksda jinoyat, jazo tushunchalariga berilgan ta'riflarini ham demokratik qadriyatlar nuqtayi nazardan qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir (JK 14 va 42-moddalari);

ikkinchidan, mamlakatimizda jinoyat va jazo falsafasi bo'yicha deyarli ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmayapti, e'lon qilingan monografiya, risola va ilmiy maqolalarning soni va sifatini talab darajasida deb bo'lmaydi.

Vaholanki, bu yo'nalishdagi tadqiqotlar MDH davlatlarida ancha ilgarilab ketgan. Dissertatsiyalar himoya qilingan, monografiyalar e'lon qilingan. Masalan, Ragimov Ilgam Mamedgasan-Ogli “Философия преступления и наказания” [12] nomli monografiyasida mavjud bilimlar tizimlashtirilgan va tadqiq qilinishi zarur bo'lgan dolzarb muammolar o'rta tashlangan;

uchinchidan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev asarlarida jinoyat oqibati, kimgadir sudlanganlik tamg'asini bosish emas, balki jinoyat sababi, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishga e'tiborni kuchaytirish lozimligi uqtirilgan. Darhaqiqat, jinoyat dastavval ongda paydo bo'ladi so'ngra til, qo'l va oyoqni harakatga keltiradi. Demak, insonni ongi va shuurini insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik kabi falsafiy g'oyalar bilan tarbiyalamasdan jinoyatchilikni yengib bo'lmaydi;

to'rtinchidan, OAV va ijtimoiy tarmoqlarda zo'rlik, zulm, jangarilik, fahsh, axloqsizlik kabi illatlar targ'ibotiga qarshi mafkuraviy kurashni kuchaytirish kerak. Ochig'ini aytish kerak, keyingi paytlarda “fikir tarbiyasi” degan tushuncha bizga erish tuyiladigan bo'lib qoldi. Buzoradagi sukunatga barham berish sog'lom ijtimoiy muhitni yaratish uchun kurash vaqti keldi. Hamma joyda “qonun va adolat ustuvor, jinoyatga jazo muqarrar” g'oyasi fikrda, so'zda va amalda bo'lishiga erishimiz lozim.

Yuqorida keltirilgan huquq falsafasi asosiy g'oyalarining talqinidan huquq va falsafa bir birini inkor etuvchi emas, aksincha taqozo etuvchi fan tarmoqlari ekanligini anglash mumkin.

Huquqiy davlat falsafiy tushuncha bo'lib, uning negizini nisbiy o'zgarmas bo'lgan asosiy g'oyalar tashkil etganligi bilan mohiyatlidir. Asosiy g'oyalarni anglash huquqqa nisbatan nigilizm, alturizm, kosmopolitizm kabi subyektiv yondashuvlarni oldini olish, huquqiy qadriyatlarni asrash va rivojlantirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. История политических и правовых учений. – М., 2003. – 80 с.
2. *Mirziyoyev Sh . M.* Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko'taramiz. – T., , 2017. – B. 420–426.
3. Афоризмы. – Минск, 1999. – 53 с.
4. O'zbekistonRespublikasi Konstitutsiyasi. – T., 2023. – 17-b.
5. *Mamadaliyev. Sh. O.* Xalq hokimiyati. – T., 2003. – 63b.
6. Qarang: Nizomulmulk Siyosatnoma. – T,1992.
7. Қаранг: История политических и правовых учений. – М., 2003. – 367 с.
8. История политических и правовых учений. – М., 2003. – 374 с.
9. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi. – T., 2001. – 6-b.
10. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T., 2023. – 5-b.
11. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T., 2023. – 4 b.
12. Философия преступления и наказания. – М., 2003. – 285 с.

KONSTITUTSIYA VA KONSTITUTSIYAVIY QONUNCHILIK TIZIMI

J. M. Azamov,

Qo'qon davlat pedagogika instituti prorektori, falsafa fanlari doktori (PhD)

Annotatsiya.

Maqolada haydovchilarga yo'ldagi turli xil qiyinchiliklarga, svetofor, tartibga soluvchi, har xil ovozlari, haydovchilar tomonidan beriladigan tushunarsiz ishoralar va yo'l-transport hodisalarga olib keladigan sabablarni kamaytirish bo'yicha yechimlar berilgan.

Tayanch so'zlar:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonuni, yo'l-transport hodisasi, haydovchilarning madaniyati va yo'l harakati qoidalarining band talablari.

Аннотация.

В статье на основе Конституции в новой редакции рассматриваются формирование и эволюция системы конституционного законодательства, а также анализируются ее понятие, сущность и особенности.

Ключевые слова:

Конституция, законность, конституционное законодательство, конституционное регулирование.

Annotation.

The article, based on the new edition of the Constitution, examines the formation and evolution of the system of constitutional legislation, and analyses its concept, essence and features.

Keywords:

Constitution, legality, constitutional legislation, constitutional regulation.

O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi qabul qilingach, amaldagi barcha qonunchilik hujjatlari, butun konstitutsiyaviy qonunchilik tizimini Asosiy qonunimizgamoslashtirish, uning yangi qoidalarini, prinsiplari hamda talablariga mutanosib, mos holga keltirish vazifasi ko'ndalang bo'ldi. Tabiiyki, vujudga kelgan yangi qonustitutsiyaviy-huquqiy makonda eski qonunlar bilan ish ko'rib bo'lmaydi. Demak, butun qonunchilik hujjatlari bazasi, shu jumladan, konstitutsiyaviy qonunchilik tizimini tegishli islohotlar mantig'i va mazmuniga muvofiq lashtirish talab etilmoqda. Shu o'rinda mamlakatimizning "konstitutsiyaviy qonunchiligi", uning tizimi kabi muhim ilmiy kategoriyalarni tahlil etishimiz lozim bo'lmoqda.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev Konstitutsiyaning jamiyatimiz va davlatimiz hayotidagi ahamiyatiga baho berib shunday dedi: "Bugun to'la asos bilan e'tirof etish mumkinki, Konstitutsiyamiz yurtimizda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati, erkin bozor munosabatlari va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni qurish, xalqimiz uchun tinch, obod va farovon hayot barpo etish, O'zbekistonning xalqaro maydonda munosib o'rin egallashida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda [1]. Shuningdek, Asosiy qonunimiz va uning asosida qabul qilingan qonunlarimiz hayotimizning barcha tomonlarini demokratlashtirishning, jamiyatimizni

yangilashning salmoqli huquqiy kafolati bo'lib maydonga chiqmoqda.

Konstitutsiyaviy qonunchilik mamlakat milliy qonunchilik tizimining alohida mustaqil tarmog'i bo'lib, konstitutsiyaviy huquq tarmog'ining normativ manbaini tashkil etadi. Jamiyat va davlat hayotidagi muhim ijtimoiy munosabatlarni konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solish aynan konstitutsiyaviy qonunchilik yordamida, uning normalari vositasida amalga oshiriladi. Bizning tasavvurimizga ko'ra, konstitutsiyaviy qonunchilik mamlakatimiz huquqiy va qonunchilik tizimining alohida mustaqil tarmog'i bo'lib, u o'z mazmuniga konstitutsiyaviy huquq tarmog'ining qonunchilik manbalarini ifodalovchi normativ hujjatlar – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini, Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasini, barcha konstitutsiyaviy qonunlarni hamda konstitutsiyaviy tartibga solish predmetini tashkil etuvchi masalalar bo'yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni qamrab oladi.

Bizning fikrimizcha, konstitutsiyaviy qonunchilikning tizimi Konstitutsiyaning tizimidan ancha kengroq. Biroq, shuni ta'kidlab o'tish lozimki, konstitutsiyaning har bir normasi, prinsipi va g'oyasi asosida qabul qilingan qonunlar va qonunchilik aktlari konstitutsiyaviy qonunchilik kategoriyasi tarkibiga kiradi.

Tabiiyki, Konstitutsiyaviy qonunchilikning tizimini shakllantirishga, albatta,

Konstitutsiyaning va konstitutsiyaviy huquq tizimlari asos bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy qonunchiligi tizimining o'ziga xos jihatlari va xususiyatlari uni xorijiy davlatlar konstitutsiyaviy qonunchiligi tuzilishi (tizimi) bilan qiyosiy tahlil etilganida to'laroq ochiladi. Shu sababli ba'zi xorijiy davlatlarning tajribasiga ham e'tibor qaratamiz. Masalan:

Huquqshunoslik nazariyasi, shu jumladan, konstitutsiyaviy huquq fani doirasida "konstitutsiyaviy qonunchilik tizimi" tushunchasini atroflicha ta'rif va tavsif qilish lozim.

Mutaxassis olimlarning umumiy e'tirofiga ko'ra, qonunchilik tizimi – qonunchilikning strukturaviy tuzilishi bo'lib, normativ-huquqiy hujjatlar va yuridik qoidalarning qonunchilik sohalari va institutlariga differensiallashib uyushgan barqaror guruhlanishida o'z aksini topadi hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalarning o'zaro ichki aloqadorligiga asoslangan mushtarak yig'indisi sifatida maydonga chiqadi. Qonunchilik hujjatlarining yagona tizimga birikishida ularning yuridik kuchi, o'zaro iyerarxik mutanosibligi asosiy mezon vazifasini o'taydi [2].

O'zbekiston Respublikasining 2020-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonunning

9-moddasida "konstitutsiyaviy qonunlar" Konstitutsiyadan keyingi o'rinda turadi, deb ta'kidlangan. Jumladan, 9-modda. O'zbekiston Respublikasining qonunlari eng muhim va barqaror ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan yoki referendum o'tkazish yo'li bilan qabul qilinadi. O'zbekiston Respublikasining qonunlari konstitutsiyaviy qonunlar tarzida qabul qilinishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilishini nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasi qonunlari konstitutsiyaviy qonunlar tarzida qabul qilinadi.

O'zbekiston yuridik ensiklopediyasida konstitutsiyaviy qonunlar — qator mamlakatlarda konstitutsiyaviy huquqning bosh manbalaridan biri.

Tadqiqotchi olim yu.f.n. X.X.Odilqoriyev o'zining O'zbekiston Respublikasi qonunchilik tizimi nomli kitobida konstitutsiyaviy qonunlarga quyidagicha tavsif beradi:

Konstitutsiyaviy qonunlar amaldagi Konstitutsiyaga o'zgartirishlar va qo'shimchalar

kiritish uchun qabul qilinadi. Ayrim olimlar qabul qilinishi konstitutsiyada nazarda tutilgan qonunlarni konstitutsiyaviy qonunlar, deb hisoblashni ma'qullaydilar. Olimlar orasida Konstitutsiyaviy qonunlar masalasida yagona fikr mavjud bo'lmaganligi sababli, hozirga qadar konstitutsiyaviy qonunlarga mukammal, yagona ta'rif shakllanmagan. Fikrimizcha, rasmiy tarzda Konstitutsiyaviy qonunlar maqomini olgan qonunlarni konstitutsiyaviy qonunlar deb atash maqsadga muvofiq [3].

Konstitutsiyaviy qonunchilik huquqiy hodisa (institut), ilmiy kategoriya sifatida huquqshunoslik fanimizda hali yetarlicha puxta va chuqur o'rganilmagan masalalardan biridir. Shu sababli keyingi yillarda huquqiy va boshqa maxsus adabiyotlarda "konstitutsiyaviy qonunchilik" tushunchasini shakllantirish, uning mazmun-mohiyatini ochish, takomillashish bosqichlarini izohlash atrofida baxs-munozaralar faollashmoqda. Masalan, huquqshunos olim I.Tulteyev o'zining "O'zbekiston konstitutsiyaviy qonunchiligini modernizatsiyalash: ba'zi yakunlar va istiqbol" nomli maqolasida [4] "konstitutsiyaviy qonunchilikning bevosita tushunchasini ta'riflamasada, bu o'rinda u konstitutsiyaviy huquq sohasining qonunchilik manbalarini, normativ-huquqiy bazasini nazarda tutadi.

Professor A.R. Rahmonov konstitutsiyaviy qonunchilik normalarini amalga oshirish huquqiy munosabat doirasida va undan tashqarida sodir bo'lishi haqida tahlil yuritib, ushbu qonunchilik tarmog'ining xususiyatlarini aniqlashga harakat qiladi [5].

Professor Yu.Tixomirovning fikricha, konstitutsiyaviy qonunchilik mamlakat qonunchiligining davlat qurilishi va hokimiyat organlari faoliyatining prinsiplarini, inson va fuqaroning huquqiy maqomini belgilovchi, fuqarolik jamiyatining asosiy jabhalarini tartibga soluvchi va huquqiy tizimni yaratuvchi alohida tarmog'idir. U yetakchi tarmoq sifatida barcha qonunchilik sohalari va tizimining yaxlitligini ta'minlaydi [6].

Konstitutsiyaviy qonunchilik mamlakat milliy qonunchilik tizimining alohida mustaqil tarmog'i bo'lib, konstitutsiyaviy huquq tarmog'ining normativ manbalari majmuini tashkil etadi. Ijtimoiy munosabatlarni konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solish aynan konstitutsiyaviy qonunchilik vositasida, uning aniq normalari asosida amalga oshiriladi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib,

“konstitutsiyaviy qonunchilik”ka quyidagicha ta’rif berish mumkin: konstitutsiyaviy qonunchilik mamlakatimiz huquqiy va qonunchilik tizimining mustaqil tarmog’i bo’lib, u o’z mazmuniga konstitutsiyaviy huquq tarmog’ining qonunchilik manbalarini ifodalovchi normativ hujjatlar – Konstitutsiyani (shu jumladan, Qoraqalpog’iston Respublikasi Konstitutsiyasi), barcha konstitutsiyaviy qonunlarni hamda konstitutsiyaviy tartibga solish predmetini tashkil etuvchi masalalar bo’yicha qabul qilingan ba’zi qonunlarni qamrab oladi.

Konstitutsiyaviy qonunchilikning o’ziga xos xususiyatlari borasida quyidagilarni ta’kidlash mumkin.

Konstitutsiyaviy islohotlar, avvalo, davlat hokimiyati tarmoqlari o’rtasidagi vakolatlar taqsimotining oqilona mexanizmini topish va ularni huquqiy tartibga solishni takomillashtirishga yo’naltirilgandir.

Konstitutsiyaviy qonunchilik mazmuniga kiritilgan yangi normalar, bir tomondan, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatini demokratlashtirishga, ikkinchi tomondan, fuqarolarning huquq va erkinliklari konstitutsiyaviy kafolatlarini yanada kuchaytirishga xizmat qildi. Shuningdek, ushbu o’zgartishlar parlament mavqeini mustahkamlashga, siyosiy partiyalarning rolini oshirishga, fuqarolik jamiyati institutlarining faolligini kuchaytirishga qaratilgan Konstitutsiyaviy kafolatlarni yaratishga yo’naltirilgan edi.

O’zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida yaratilgan quyidagi konstitutsiyaviy qonunlari amal qiladi: “O’zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to’g’risida”gi (1991-y.), “O’zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi to’g’risida”gi (1994-y.), “Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to’g’risida”gi (2002-y.), “O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to’g’risida”gi, “O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to’g’risida”gi (2002-y.). “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to’g’risida”gi (2007-y.), “O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sud to’g’risida”gi (2017-y.) “O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o’zgartish va qo’shimchalar kiritish to’g’risida”gi qonun (2022-y.) kabilar.

Yuqorida ta’kidlanganidek, mamlakatimiz Konstitutsiyasiga so’nggi yillarda kiritilgan o’zgartish va qo’shimchalar qoida tariqasida, oddiy qonunlar vositasida kiritildi. Fikrimizcha, Konstitutsiyaga o’zgartirish va to’ldirish kirituvchi qonunlar “konstitutsiyaviy qonunlar” bo’lishi, ya’ni parlament a’zolarining malakali ko’pchiligidan ovozi bilan kiritilishi lozim.

O’zbekiston Respublikasida shakllangan va hozirda amal qilib kelayotgan konstitutsiyaviy qonunchilikning yuridik tabiati uning xususiyatlarida yanada yaqqolroq namoyon bo’ladi. Konstitutsiyaviy qonunchilikning xususiyatlari qatorida – uning huquqiy tizimimizda yetakchi o’rin egallash; o’zining alohida huquqiy tartibga solish predmetiga egaligi; ichki mantiqiy tizimga egaligi; o’ziga tegishli normativ-huquqiy manbalariga egaligi kabilarni kiritish lozim. Ushbu xususiyatlarga to’liqroq to’xtalamiz.

Konstitutsiyaviy qonunchilik o’zining alohida huquqiy tartibga solish predmetiga ega. Bu davlat va jamiyat, shuningdek fuqarolarning manfaatlarini ifodalashdagi alohida ahamiyatli ijtimoiy munosabatlar tizimi mavjudligi bilan izohlanadi. Bular davlat va jamiyat boshqaruvining Konstitutsiya darajasida ifodalanadigan qator masalalari. Ayniqsa, inson va fuqarolarning muhim, asosiy huquq va erkinliklarini ta’minlash hamda kafolatlash masalalaridir. So’nggi yillarda fuqarolik jamiyatining muhim institutlari bo’lgan siyosiy partiyalarning maqomini kuchaytirish masalalari ham konstitutsiyaviy tartibga solish predmetiga aylandi (2007-yil 11-apreldagi Konstitutsiyaviy qonun) [7].

Konstitutsiyaviy qonunchilikning muhim xususiyatlaridan yana biri uning tizimlilikidir. Albatta, Konstitutsiya va uning asosida, uni rivojlantirish hamda aniqlashtirish maqsadida yaratiladigan konstitutsiyaviy qonunlar yagona izchil tizimni tashkil etishi tabiiy. Birinchidan, uning tizimlilik shu bilan ta’minlanadiki, mazkur qonunchilik sohasining asosini mustaqil konstitutsiyaviy huquq sohasi tashkil etadi; ikkinchidan, uning bosh normativ asosini Konstitutsiya tashkil etadi. Yuqorida ta’kidlanganidek, Konstitutsiya “sistema”, “tizim” hosil qiluvchi qonundir; uchinchidan, konstitutsiyaviy tartibga solish predmetini tashkil etuvchi ijtimoiy munosabatlar ham tur jihatdan o’zaro bir-biriga yaqin munosabatlar bo’lib, ijtimoiy hayotda bir tizimga birlashadi. Yuqoridagi omillar sababli konstitutsiyaviy qonunchilikning tarkibiga kiruvchi element-

hujjatlar o'zaro bog'liq va aloqador bo'ladi. Ularni umumiy maqsad va yagona tartibga solish prinsiplari birlashtiradi.

Konstitutsiyaviy normalarning tabiati ham konstitutsiyaviy qonunchilikning maxsus toifadagi qonunchilik ekanligini ifodalaydi. Konstitutsiyaviy normalar – konstitutsiyaviy huquq predmetini tashkil etuvchi munosabatlarni tartibga solganligi bois boshqa tarmoq huquqiy normalaridan farq qiladi. Birinchidan, konstitutsiyaviy normalar alohida turdagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida yaratiladi, masalan, konstitutsiyaviy normalar: prinsip-normalardan, maqsad-normalardan, ta'rif-normalardan, deklarativ-normalardan iborat bo'lib, o'zining asosan dispozitivligi bilan xarakterlanadi. Ikkinchidan, konstitutsiyaviy normalar yuqori umumlashuv xususiyatiga ega bo'lib, boshqa huquqiy normalarga nisbatan ustuvor, yo'naltiruvchi va ta'xis etuvchi normalardir, ularning yuridik kuchi ham yuqoriroq. Uchinchidan, konstitutsiyaviy normalar o'zining huquqiy tartibga solish va amalga oshish mexanizmi xususiyatlari bilan ajralib turadi. To'rtinchidan, konstitutsiyaviy qonunchilik normalari o'z strukturasining alohidaligi bilan ham ajralib turadi. Masalan, ularda ko'pincha gipoteza va dispozitsiya mavjud bo'lib, sanksiyasi hamma vaqt ham aks ettirilavermaydi. Shu bilan birga, Konstitutsiyaning normalari bilan boshqa konstitutsiyaviy qonunchilik hujjatlari normalari

o'rtasida ham farq bor. Konstitutsiyaning normalari quyidagi jihatlari bilan ustuvorlik kasb etadi: a) eng yuqori yuridik kuchga egaligi; b) o'ta yuqori ta'xis etuvchi imkoniyatga egaligi; v) nisbatan yuqori barqarorlikka egaligi; g) davlat tomonidan birinchi darajadagi muhofaza bilan ta'minlanadi (shuningdek, ular Konstitutsiyaviy sud vositasida ham muhofazalanadi); d) o'z ko'lami bo'yicha universal va keng huquqiy tartibga solish imkoniyatiga egaligi; ye) huquqiy tartibga solish doirasiga boshqa tarmoq huquqiy normalarini ham jalb eta olganligi sababli konstitutsiyaviy qonunchilik normalari integrativ (birlashtiruvchi), safarbar etuvchi xususiyatlarga ham egadir [8].

Konstitutsiyaviy qonunchilikning xususiyatlaridan yana biri – ular manbalarining muhimligidir. Birinchidan, konstitutsiyaviy normalar barcha vakolatli davlat organlarining qonun chiqarish va huquq ijodkorlik vakolatlarini belgilab beradi. Ikkinchidan, ushbu qonunchilik normalarining mazmuni davlat hokimiyati faoliyatiga o'ta yaqin bo'lib, ularning “ommaviy” lik xususiyati yuqoriroqdir.

Shunday qilib, mamlakatimizda milliy qonunchilikning alohida mustaqil tarmog'i – konstitutsiyaviy qonunchilik qaror topdi va takomillashib bormoqda. U davlatimizning konstitutsiyaviy modelini ifoda etib, uning tobora demokratik va huquqiy mazmun kasb etishiga huquqiy zamin yaratmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Mirziyoyev Sh.M.* Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza // Xalq so'zi. – 2016. – 8 dek.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – T., 2006. – 206-b.
3. *Odilqoriyev X.X.* O'zbekiston Respublikasi qonunchilik tizimi. – T., 2008. – B. 49–50.
4. *Тулътеев И.* Модернизация конституционного законодательства Узбекистана: Некоторые итоги и перспективы // Вестник МВД Академии. – 2013. – №4.
5. *Рахмонов А. Р.* Конституционные правоотношения в звене механизма конституционно-го регулирования. / ИИВ Академиясининг Ахборотномаси. – 2011. – №4.
6. Конституционное законодательства России / Под ред. Ю.А.Тихомирова. – М., 1999. – С. 22.
7. Konstitutsiyaviy tartibga solish borasida batafsilroq qarang: *Odilqoriyev X.T.* Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. – T., 2002. – B. 277–283; *Морозова Л.А.* Конституционное регулирование в СССР. – М., 1985; *Лапаева В.В.* Конституционное регулирование процессов создания и деятельности общественных объединений. – В кн.: Конституционное законодательство России. – М., 1999. – С. 283–312.
8. *Аничкин Е. С.* Конституционное законодательство Российской Федерации: понятие, признаки, источники // Правоведение. – 2006. – №4. – С. 95–96.

YO'L HARAKATI QOIDALARINING BUZILISHIGA DOIR MA'MURIY ISHLARNI KO'RIB CPHQISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

K. M. Raximov,

*IIV Akademiyasi Ma'muriy huquq kafedrasida dotsenti,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya.

Maqolada Yo'l harakati qoidalarining buzilishiga doir ma'muriy ishlarni ko'rib chiqishning o'ziga xos jihatlari tahlil qilinib, ma'muriy huquqbuzarlik, yo'l harakati qoidabuzarligi, uni ko'rib chiqish tartibi yoritilgan. Muallif tomonidan yo'l harakati ma'muriy huquqbuzarligiga ta'rif berish bilan bir qatorda, Yo'l harakati qoidalarining buzilishiga doir ma'muriy ishlarni ko'rib chiqishdagi ayrim kamchiliklar, ularni bartaraf etish borasida tavsiyalar berilgan.

Tayanch so'zlar:

yo'l harakati xavfsizligi, yo'l harakati qoidalari, qoidabuzarlik, huquqbuzarlik.

Annotation.

The article analyzes the features of consideration of administrative cases on violations of traffic rules, considers administrative offenses, violations of traffic rules, the procedure for their consideration. Along with defining administrative offences in the area of road traffic, the author also touched upon some shortcomings in the consideration of administrative cases related to violation of traffic rules and emphasized the need to eliminate them.

Key words:

road safety, traffic rules, violation, offence.

Аннотация.

В статье анализируются особенности рассмотрения административных дел о нарушениях правил дорожного движения. Наряду с определением административных правонарушений в области дорожного движения автор также затронул некоторые недостатки в рассмотрении административных дел, связанных с нарушением правил дорожного движения, и подчеркнул необходимость их устранения.

Ключевые слова:

безопасность дорожного движения, правила дорожного движения, нарушение, правонарушение.

Dunyoda inson hayoti va sog'lig'ini yo'l-transport hodisalarning og'ir oqibatlaridan himoya qilishning eng samarali mexanizmlarini joriy etish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, yo'l harakati qoidabuzarliklari uchun javobgarlik choralari proporsionallashtirish va rag'batlantiruvchi tartiblarni belgilovchi balli tizim rivojlanganligi, yo'l harakati xavfsizligi uchun asosiy javobgarlik yo'l transport tizimi mas'ullariga yuklatilganligi, haydovchilik guvohnomasini ma'lum muddatlar chegarasida bir necha pog'onali tartibda va tegishli cheklovlar bilan berish tizimi joriy etilganligi, qoidabuzarlik uchun jazolarni qo'shimcha ta'sir choralari bilan uyg'unlashtirilganligi, shuningdek yo'l harakati qoidalarini erta yoshda ta'lim muassasalarida maqsadli va sifatli o'qitishni yo'lga qo'yish milliy qonunchiligimiz va davlat boshqaruvi amaliyotiga joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xalqaro sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga qaraganda yo'llarda 1,35 million odam avtomobil halokatlariga duchor bo'lib,

hayot bilan vidolashar, 20-50 millioni esa tan jarohati olar va ularning ko'pchiligi nogironlik maqomida qolar ekan. Avtomobilning yo'l-qatnov halokatligi o'zining jamiyatga etkazayotgan moddiy, ma'naviy va iqtisodiy zarari juda katta bo'lib, ko'pchilik davlatlarning yillik yalpi ichki mahsulotining 3 % ni tashkil etadi [1].

Yo'l-qatnovining halokatli muammolari va yo'l harakat ishtirokchilarining moslashuvchanligi (ko'nikma hosil qilishi) xulqlarining asosiy omili insonlar ekanligini hisobga olgan holda keyingi yigirma yil ichida bu masalalar transport psixologlari, konstruktor-ergonomistlar, yo'l harakati tashkilotchilari, injiner-mexaniklar, pedagoglar va shifokor kabi ziyoli qatlamni bezovta qilib qo'ydi.

Sodir bo'layotgan, transport krizisi deb atash mumkin bo'lgan ijtimoiy-salbiy holatni oldini olish borasida jahon hamjamiyati tomonidan jiddiy bosh qotirish davri boshlandi. Ayniqsa, mazkur masalaga O'zbekiston rahbariyati alohida e'tibor qaratmoqda.

O'zbekistonda so'nggi besh yilda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasida amalga

oshirilgan ko'plab ijobiy o'zgarishlar o'zining natijasini berishi qatorida sohadagi islohotlar tizimli ravishda davom ettirilmoqda.

Jumladan, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash, yo'l-transport hodisalari profilaktikasi tizimini takomillashtirish, nazoratning yuqori samaradorligini, huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga barham berishni ta'minlaydigan yo'l harakatini avtomatlashtirilgan tartibga solish tizimini kengaytirish bo'yicha ichki ishlar organlari ishini tashkil etishning sifat jihatidan yangi tartibi belgilandi.

Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashning asosiy vositalaridan biri bu qoidabuzarliklar uchun javobgarlik muqarrarligini ta'minlash hisoblanadi. Har bir huquqbuzarlik yo'l harakatining qaysidir qatnashchisi tomonidan qoidalarga qasddan yoki ehtiyotsizlik sababli rioya etmasligi sababli sodir bo'ladi. Yo'l harakati ishtirokchilarini qonunlarga so'zsiz itoat etadigan va ularga hurmat ruhida tarbiyalaydigan huquqiy mexanizmning ommaviy eng keng tarqalgan usuli ma'muriy javobgarlikka tortishdir. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi (keyingi o'rinlarda MJtK)ning asosiy vazifasi ham aynan shunda.

MJtKning 10-moddasiga ko'ra, ma'muriy huquqbuzarlik deganda qonunchilikka binoan ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, shaxsga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g'ayrihuquqiy, aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik tushuniladi.

Huquqbuzarlik uchun javobgarlik masalasida juda ko'pchilik olimlar o'z fikr va mulohazalarini bildirgan. Jumladan, O.U. Karimov va F.E. Xoldorovlarning fikricha, huquqbuzarlik uchun ma'muriy javobgarlik – bu tegishli protsessual hujjatlar bilan rasmiylashtirishni talab qiladigan va amaldagi qonunchilikka muvofiq aybdorni jazolash bilan vakolatli organlar (mansabdor shaxslar) orqali amalga oshiriladigan yuridik javobgarlikning bir turi. Shaxsni ma'muriy javobgarlikka tortish jarayonida majburlov choralari qo'llanishi mumkin, ammo ushbu choralarni jazo bilan bog'lashga uning bevosita maqsadlari, ya'ni huquqbuzarliklarning oldini olish, ma'muriy huquqbuzarliklar ishlari bo'yicha ishni olib borish yo'l qo'ymaydi. Ish yuritish jarayonida qo'llaniladigan chora-tadbirlar qonuniy sanksiyalarda nazarda tutilgan jazoning ijro etilishini ta'minlash

vositasidir [2].

A.A. Baxayevning ta'kidlashicha, yo'l harakati huquqbuzarliklari uchun ma'muriy javobgarlik - bu transport vositalarining haydovchilari, yo'l harakatining boshqa ishtirokchilari, shuningdek transport, yo'llar va yo'l inshootlarining xavfsiz ishlashini ta'minlovchi mansabdor shaxslarning yo'l harakati qoidalarini buzganliklari, transport vositalaridan va yo'llardan foydalanish qoidalarini buzganliklari uchun aybdor shaxslarga sud (sudya) tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan ma'muriy jazoga choralari qo'llanishidir [3].

O.A. Akulina fikricha yo'l harakati huquqbuzarliklari uchun ma'muriy-huquqiy javobgarlik deganda vakolatli davlat organi yoki mansabdor shaxsning huquqbuzarliklarni sodir etgan subyektga (jismoniy yoki yuridik shaxsga) davlat majburlovining bir turi, ma'muriy javobgarlikning alohida turini qo'llash tushuniladi deb hisoblaydi [4].

Yuqorida qayd etilgan fikr va mulohazalarni qo'llab quvvatlagan holda yo'l harakati qoidabuzarligi uchun ma'muriy javobgarlik deganda, bizningcha yo'l harakati qatnashchilarining yo'l harakati qoidalariga rioya etmasligining oqibatida davlat tomonidan qo'riqlanadigan yo'l harakati va transport hamda undan xavfsiz foydalanish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarga tajovuzi uchun belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishini tushunish lozim.

Bugungi kunda ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish va ko'rib chiqish masalalari bo'yicha yagona amaliyotning mavjud emas. MJtK talablariga asosan jami 48 ta organ (va ularning mansabdor shaxslari) ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatiga ega. Mazkur organlarning har biri ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishning alohida tartibiga rioya etadilar. Albatta, umumiy qoida MJtKda belgilangan bo'lsada, ish yuritish va hujjatlarni rasmiylashtirish ichki tartib qoidalari alohida belgilangan. Yo'l harakati qoidalarining buzilishiga doir ma'muriy ishlarni ko'rib chiqish boshqa turdagi ishlardan o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Hatto, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda ham ushbu turdagi huquqbuzarliklar uchun qo'shimcha talablar belgilangan. Masalan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 282-moddasida ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomaga ilova qilinadigan hujjatlar

MJtKning 139-moddasi ikkinchi qismidan sozligi bo'lgan yoki muayyan shartlar tufayli transport vositasidan foydalanish taqiqlangan yoki tegishli ruxsatnoma siz qayta jihozlangan transport vositalarini yo'lga chiqarish uchun javobgarlik belgilangan. Biroq, ushbu huquqbuzarlikni ko'rib chiqish tartibi rasmiylashtirilishi lozim bo'lgan qo'shimcha o'ziga xos hujjatlar va boshqa ahamiyatga molik ishlar Yo'riqnomada yoritilmagan.

Bundan tashqari, MJtK va Yo'riqnomada yo'l harakati qoidalarining buzilishiga doir ma'muriy ishlarni ko'rib chiqish natijalari ustidan shikoyat sababli yoki birinchi instansiya sudi qarori bekor qilinib, qo'shimcha surishtiruv uchun yuborilgan ma'muriy ishlarni qayta ko'rib chiqish tartibi va muddati belgilanmagan. Natijada, amaliyotda xuddi shu turdagi ishlarni ko'rib chiqish va

huquqbuzarlarga nisbatan jazo muqarrarligini ta'minlashda mas'ul mansabdor shaxslar tomonidan sustkashlikka yo'l qo'yilmoqda. Huquqbuzarlik fakti bo'yicha aniq aybdor aniqlanmasdan qolmoqda. Bu esa o'z o'rnida qonun ustuvorligini ta'minlashga mas'ul organlarning obro'sizlanishiga olib kelmoqda.

Yuqoridagilarni inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2011-yil 31-mayda 68-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Yo'l harakati qoidalarining buzilishiga doir ma'muriy ishlarni ko'rib chiqish tartibi to'g'risidagi yo'riqnoma" (ro'yxat raqami 2240) ni bugungi kun talabidan kelib chiqib qayta ko'rib chiqish hamda nazardan chetda qolgan

va harakat xavfsizligini ta'minlashda juda muhim ahamiyat kasb etuvchi holatlarni inobatga olib uni yanada takomillashtirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Дорожно-транспортные травмы. 7 декабря 2018 г. //Веб-сайт Всемирная организация здравоохранения. [www/who.int](http://www.who.int).
2. Karimov O. U., Xoldarov F. E. (2024). Yo'l harakati qoidalarining buzilishiga doir ma'muriy huquqbuzarliklar uchun javobgarlik tushunchasi. *Arxitektura, muhandislik va zamonaviy texnologiyalar jurnali*, 3(1), 31–34. Retrieved from <https://sciencebox.uz/index.php/arxitektura/article/view/9361>
3. Бахаев А.А. Административно-правовое регулирование дорожного движения: вопросы безопасности и ответственности: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – М., 2009. – С. 9.
4. Акулкина О.А. Административно-правовая природа ответственности за правонарушения в области дорожного движения: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – М., 2008. – С.11.
5. Мукабенов М.В. Субъекты административной ответственности за правонарушения в области дорожного движения: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – М., 2015. – С. 15.

PROKURATURA ORGANLARI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH FUNKSIYASINING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI

S. Q. Axmedov,

*O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi
Jinoiy sud ishlarini yuritishda prokuror
vakolatini ta'minlash boshqarmasi
prokurori, adliya kichik maslahatchisi*

Annotatsiya.

Maqola yangilangan Konstitutsiyamiz asosida prokuratura organlarining tadbirkorlarning huquq va erkinliklarini muhofaza etishga yo'naltirilgan faoliyatining huquqiy asoslari tahlil etiladi. Tegishli qonunchilikni yanada takomillashtirishga oid takliflar ilgari suriladi.

Tayanch so'zlar:

Konstitutsiya, prokuratura organlarining funksiyalari, qonanlar ustidan nazorat, tadbirkorlik, ishbilarmonlarning huquqs va erkinliklarining muhofazalash.

Аннотация.

В статье на основе обновленной Конституции рассматриваются правовые основы деятельности органов прокуратуры в сфере защиты прав и свобод предпринимателей. Формулируются и вносятся предложения по совершенствованию соответствующего законодательства.

Ключевые слова:

Конституция, функции органов прокуратуры, надзор над законами, предпринимательство, защиты прав и свобод предпринимателей.

Abstract.

The article examines the legal basis for the activities of prosecutorial authorities in the field of protecting the rights and freedoms of entrepreneurs based on the updated Constitution. Proposals are put forward to further improve the relevant legislation.

Keywords:

Constitution, functions of prosecutorial authorities, supervision of laws, entrepreneurship, protection of the rights and freedoms of entrepreneurs.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida fuqarolarning huquq va erkinliklari, ularning konstitutsiyaviy kafolatlari sezilarli darajada kengaytirildi. Shu jumladan, tadbirkorlarning huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlarini himoyalashga oid huquqiy mexanizmlar mustahkamlandi. Xususan, Asosiy qonunning 65 – moddasida “Fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi, iste'molchilarning huquqlari ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlaydi”.

Shuningdek, 67-moddada “Davlat qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini ta'minlaydi”, degan muhim qoidalar mustahkamlangan.

Yana bir muhim konstitutsiyaviy normaga e'tibor qaratish lozim. “Tadbirkorlar

qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyatni amalga oshirishga va o'z faoliyati yo'nalishlarini mustaqil ravishda tanlashga haqli” (67-modda I, II qismlari).

Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan “Taraqqiyot strategiyasi”da belgilangan birinchi maqsad doirasida “Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ... tadbirkorlikni rivojlantirish borasida» barcha davlat organlarining samarali faoliyatini yo'lga qo'yish vazifasi belgilanganligi e'tiborga molikdir” [1].

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev prokuratura organlari xodimlari bilan uchrashuvi (2017-yil 7-yanvar) chog'ida shunday degan edi: “Prokuratura organlari qonuniylikni mustahkamlash, qonunlarning qat'iy ijrosini ta'minlash, fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, tadbirkorlik va xususiy mulkchilikni rivojlantirish, ularning ishonchli muhofazasini ta'minlashda muhim o'rin tutadi” [2].

Prezidentning 2016-yil 5-oktabrdagi “Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, xususiyl mulkni har tomonlama himoyalash va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilashning qo’shimcha chora-tadbirlari to’g’risida”gi Farmoniga muvofiq, tadbirkorlik faoliyatiga qonunsiz aralashganlik va unga to’sqinlik qilganlik, uni asossiz tarzda to’xtatganlik uchun mansabdor shaxslarning javobgarligi kuchaytirildi [3]. Shu sababli, davlat organlari, xususan, prokuratura organlari tadbirkorlikni himoya qilishga katta e’tibor qaratmoqda.

Prokuraturaning tadbirkorlikni himoyalashdagi roli quyidagilardan iborat: Prokuraturaning asosiy vazifalaridan biri – qonunlarning ijrosini ta’minlash, hududlardagi qonun buzilishlariga to’sqinlik qilish va jinoyatchilikning oldini olishdir. Shu bois tadbirkorlikni himoya qilish maqsadida prokuratura bir necha funksiyalarni bajaradi.

Tadbirkorlarning faoliyatiga ta’sir qiladigan qonun buzilishlariga qarshi kurashish, shu jumladan firibgarlik, talon-taroj va qonuniyl faoliyatga aralashish holatlarini aniqlab, aybdorlarni javobgarlikka tortish muhim.

Prokuratura organlari tadbirkorlik sohasidagi qonunlar, me’yoriyl hujjatlar va qonuniyl normalarning ishlatilishi bo’yicha doimiyl nazorat olib boradilar. Shuningdek, biznes va tadbirkorlarga ijobiyl shart-sharoitlar yaratish uchun qonunlarning sifatini o’rganish, ularni takomillashtirish bo’yicha takliflar berish vazifasi ham prokuraturaga yuklanadi.

Prokuratura tadbirkorlarga qarshi amalga oshirilayotgan ma’muriyl va jinoyat ishlarida ularning huquqlarini himoya qilish va oqsoqliklarning oldini olishga harakat qiladi. Bu, ayniqsa, biznesmenlarga qasddan zarar yetkazish, raqobatni murakkablashtirish va ularga shantaj qilish holatlarida muhimdir. Ma’lumki, “Prokuratura to’g’risida (yangi tahrir) dagi qonunning (2001-yil 29-avgust) 4-moddasida prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo’nalishlari belgilangan. Unda fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini ta’minlashga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish (ikkinchi yo’nalish) alohida belgilandi.

Professor Z.S. Ibragimov prokuratura organlarining fuqarolarning iqtisodiy faoliyat olib borishi, qator ijtimoiyl huquqlari, shu jumladan, tadbirkorlik bobidagi huquqlari ta’minlanishi sohasidagi qonunchilik ijrosi ustidan nazoratni

amalga oshirish funksiyasiga alohida urg’u beradi. “Prokuratura organlari faoliyatining dolzarb yo’nalishlaridan yana biri – bu tadbirkorlik qo’llab-quvvatlash bilan bog’liqdir. Ta’kidlash lozimki, davlat va uning iqtisodiyoti rivojida alohida o’rin egallaydigan xususiyl tadbirkorlik va kichik biznesni yuritish uchun mamlakatimizda eng qulay muhit yaratishga alohida e’tibor qaratilayotganligi bor haqiqatdir. Aynan shu sababli 2011-yil “Kichik biznes va tadbirkorlik yili” deb e’lon qilindi” [4]. Ana shu davrdan boshlab tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini buzish, ularga nisbatan g’arazli munosabatda bo’lish hamda faoliyatini cheklash kabi qonunbuzilishlar yuzasidan prokuratura va boshqa huquqni muhofaza qilish organlarining mustaqil faoliyat yo’nalishiga aylandi [5], deyish mumkin.

Ma’lumki, 2005–2010-yillar oralig’ida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish to’g’risida”gi (2005-yil 15-iyul) qarori, “Tadbirkorlik faoliyatini qo’llab-quvvatlash to’g’risida”gi (2009-yil 15-may) qarori va boshqa muhim hujjatlar qabul qilingan. O’zbekiston Respublikasi Bosh Prokurorining 2011-yil 9-fevraldagi “Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilishga qaratilgan qonunlar ustidan prokuror nazoratini kuchaytirish to’g’risida”gi 87-sonli buyrug’i qabul qilindi. Mazkur hujjat prokuratura organlari faoliyatiga muayyan tizimlilik va samaradorlik baxsh etdi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning yuqorida nomi ta’kidlangan 2016-yil 5-oktabrdagi farmoni e’lon qilingach, prokuratura organlarining tadbirkorlik subyektlarining huquq va manfaatlarini muhofazalash tizimi yangi bosqichga ko’tarildi. Bu davrda O’zbekiston Respublikasi Bosh Prokurorining 2017-yil 30-oktabrdagi 151-son buyrug’i bilan “Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish bo’limi” tashkil etildi. 2018-yil 31-maydagi 187-sonli buyruq bilan Bosh Prokuraturaning “Tadbirkorlik va investitsiyalarni huquqiy himoya qilish” Boshqarmasi ta’sis etilib, u haqdagi Nizom tasdiqlandi.

Prokuratura organlarining tadbirkorlik sohasidagi qonunlar ijrosini ta’minlashga oid faoliyatining mazmuni boyib, takomillashtirib borgani sayin, Bosh Prokurorning 2021-yil 25-mayda 232-sonli mazkur sohaga taalluqli yangi buyrug’i ishlab chiqilib, amaliyotga joriyl

etildi.

Mazkur faoliyatga oid yana bir hujjatga e'tibor qaratish lozim: Bu – O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati va Ichki ishlar vazirligining 2024-yil 25-apreldagi "Tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergovni amalga oshirishda tadbirkorlik subyektlarining huquq va erkinliklarini to'laqonli ta'minlash choralari haqida"gi qo'shma qarori bo'lib, u barcha huquqni muhofaza etuvchi organlarning tegishli faoliyatini muvofiqlashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, unda tadbirkorlik subyekti hisoblangan issiqxona xo'jaliklarida tekshirish o'tkazish va huquqiy ta'sir choralari qo'llash faqatgina O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida"gi qonuni hamda sohaga oid boshqa tegishli qonunchilik hujjatlari talablariga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshirish;

tekshirishlar o'tkazishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil bilan kelishish qoidalariga qat'iy rioya etish;

xo'jalik faoliyatini yuritish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlariga nisbatan bevosita issiqxona faoliyati bilan bog'liq holatlar bo'yicha jinoyat ishlari faqatgina Bosh prokuror roziligi bilan qo'zg'atilishi.

Ushbu toifadagi tadbirkorlik subyektlariga nisbatan yetarli asoslarsiz hamda jinoiy hodisani noto'g'ri malakalash sababli jinoyat ishi qo'zg'atishga yo'l qo'ymaslik talablari belgilandi.

Mazkur toifadagi jinoyat ishlarining surishtiruvi va dastlabki tergovni ustidan prokuratura organlari alohida nazorat olib boradi.

Issiqxona xo'jaligi faoliyati sohasida jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxslarga nisbatan ehtiyot chorasini tanlash masalasiga alohida e'tibor bilan qaralsin, deb ta'kidlandi, Qo'shma qarorda.

Bunda, ushbu toifadagi shaxslarga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash masalasini hal qilish jarayonida prokurorlar va sudlarning mas'uliyati oshirilib, qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasiga mutanosib ravishda qamoqqa olish bilan bog'liq bo'lmagan, yengilroq turdagi ehtiyot chorasi qo'llashning qonunda nazarda tutilgan barcha imkoniyatlaridan foydalanilsin deb e'tirof etildi.

Shuningdek, tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan yer maydonlarini qaytarib olish bilan bog'liq ishlar ko'rilishida sudlar tomonidan ma'muriy tartib-taomillarni buzgan mansabdor shaxslarning harakatlariga qat'iy baho berilsin va issiqxona xo'jaligini yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarining mulkiy huquqlarini va ma'muriy hujjatga nisbatan ishonchini himoya qilishga alohida e'tibor qaratilsin, deb belgilandi [6].

O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurorining 2022-yil 10-martdagi topshirig'iga muvofiq, tadbirkorlik sohasida qonuniylik ahvoli hamda prokuror nazorati amaliyotini tizimli tahlil qilish, huquqbuzarliklarni aniqlash va bunga imkon bergan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir olib borilayotgan ishlarni yanada jadallashtirishga e'tibor qaratilib. Bu borada belgilangan vazifa va topshiriqlar ijrosiga eng ustuvor vazifalardan biri sifatida alohida e'tibor qaratildi. Xususan:

tadbirkorlik subyektlarining xususiy mulk huquqlarini buzilishiga, shu jumladan mulk huquqini noqonuniy cheklash va (yoki) undan mahrum qilish, xususiy mulkka, jumladan avval xususiylashtirilgan mulkka tajovuz qilishga yo'l qo'yilmasligi ustidan tizimli nazorat o'rnatilish;

mulkdorga qasddan nomaqbul shartlarni, shu jumladan mulkni yoki mulkiy huquqni topshirishga doir asossiz talablar qo'yilmasligi, shuningdek, yer uchastkasining olib qo'yilishi va mulk huquqining bekor qilinishida mulkdorga yetkazilgan zararning o'rne to'la qoplanishi ustidan nazorat kuchaytirish;

nazorat qiluvchi organlar tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes – ombudsman) ruxsatini olish, tekshirish muddatlari va tartibiga rioya etilishi ustidan nazorat kuchaytirish;

tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash borasida amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolarning tub sabablari aniqlansin va bunga imkon berayotgan tizimli kamchiliklarni bartaraf etish hamda oldini olish yuzasidan aniq takliflar ishlab chiqish;

mazkur sohada prokuratura organlari tomonidan bevosita olib borilayotgan tadbirlar, ko'rilayotgan choralar, shuningdek davlat tomonidan berilayotgan imtiyozlar va boshqacha tarzidagi qo'llab-quvvatlash choralari to'g'risida ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va davlat idoralarining rasmiy saytlari orqali

doimiy yoritib borilishini ta'minlansin kabi muhim ko'rsatmalar berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to'g'risida"gi PQ-72-sonli qaroriga muvofiq [7] tashqi savdo, investitsiyalar, mahalliy sanoat, texnik jihatdan tartibga solish va tadbirkorlik sohalaridagi qonunchilik hujjatlari ijrosi ustidan tizimli nazorat o'rnatish vazifalari prokuratura organlari zimmasiga yuklatildi va investitsiyalarni o'zlashtirishning yangicha boshqaruv tizimi joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurorining 2022-yil 12-fevraldagi "Ko'rsatma"siga [8] binoan mazkur qarorga ko'ra, 2022-yilda umumiy qiymati 85,1 mlrd. AQSH dollarlik 981 ta loyihalar doirasida 16,7 mlrd. AQSH dollari hajmida investitsiyalarni o'zlashtirish nazarda tutilgan.

Shu jumladan, 105 ta loyiha doirasida 2,2 mlrd. AQSH dollarlik davlat kafolati ostidagi hamda 709 ta loyiha doirasida 9,5 mlrd. AQSH dollarlik to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish, 282 ta loyihalarni ishga tushirib, 43 mingdan ziyod yangi ish o'rinlari yaratish rejalashtirilgan.

Bundan tashqari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida hududiy investitsiya dasturlari doirasida umumiy qiymati 90,9 trln. so'm bo'lgan 9064 ta loyihalarni ishga tushirish natijasida 233873 ta yangi ish o'rinlarini yaratish nazarda tutilgan.

Ushbu qaror bilan tashqi savdo, investitsiyalar, mahalliy sanoat, texnik jihatdan tartibga solish va tadbirkorlik sohalaridagi qonunchilik hujjatlari ijrosi ustidan tizimli nazorat o'rnatish vazifalari prokuratura organlari zimmasiga yuklatildi.

Investitsiya loyihalarini amalga oshirayotgan yoki xuddi shunday istakda bo'lgan tadbirkorlar, shu jumladan xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar haqidagi ma'lumotlar bazasi barcha tuman-shahar prokuraturalarida shakllantirilib, doimiy yangilab borilmoqda.

Sohada qonuniylikni mustahkamlash hamda bu boradagi ishlarni samarali tashkil etishga qaratilgan nazorat tadbirlari yanada kuchaytirilmoqda.

Prokuratura organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat tadbirlari samaradorligi va natijadorligini ta'minlashda quyidagilarga:

- tashabbuskorlarga investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun ruxsat beruvchi tisdagi hujjatlarni rasmiylashtirish hamda tijorat kreditlari ajratilishida yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etishga;

- yer uchastkasi va foydalanilmayotgan obyektlarni belgilangan tartibda sotilishi hamda davlat – xususiy sheriklik asosida ijaraga berilishida amaliy yordam ko'rsatishga;

- salohiyatli investorlarga investitsiya loyihalarining texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqishda ko'maklashishga;

- investitsiyaviy tahlillar o'tkazish, istiqbolli investitsiya loyihalari va ularning texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqishda Qaror asosida tashkil etilgan hududiy loyiha guruhlari, markaziy boshqaruv ofislari hamda boshqaruvchilar imkoniyatlaridan samarali foydalanishga;

- investitsiya loyihalari hududning o'ziga xos xususiyatlari, investitsiyaviy salohiyati, «drayver sohalar», tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy resurslaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilganligiga;

- muddati kechikayotgan loyihalarning mavjud muammolarini aniqlash, bartaraf etish, zaruratga ko'ra ishga tushish muddatini uzaytirish hamda asoslantirilgan holda istiqbolsiz deb topilgan loyihalarni almashtirish choralari ko'rib borilganligiga;

- sohada yuqori sifatli, tezkor, shaffof davlat xizmatlari ko'rsatilishini ta'minlash hamda byurokratiya, sansalorlik va boshqa turli to'siqlarning oldini olishga alohida e'tibor qaratish belgilandi.

Shuningdek, Bosh Prokurorning 2022-yil 21-yanvardagi buyrug'i bilan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Tashqi savdo, investitsiyalar va tadbirkorlik sohalarida qonunchilik ijrosi ustidan nazorat boshqarmasi to'g'risidagi Nizom tasdiqlandi [9].

Ta'kidlash joizki, hozirgi vaqtda 2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra, Respublikamizda 390898 ta tadbirkorlik subyektlari muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Ularning soni 2020-yilda 373282 ta edi. Mazkur sohaga yangi-yangi tadbirkorlarni jalb etish, ular faoliyatini qonun asosida yo'lga qo'yish, huquq va erkinliklarini, qonuniy manfaatlarini adolatli himoya qilish hamda kafolatlash bu umumxalq harakatini keng quloch yoyishini ta'minlaydi, deb ishonch bildirish mumkin.

Shubhasiz, prokuratura organlarining va boshqa huquqni muhofaza etish organlarining tegishli sa'y faoliyati yurtimizda tadbirkorlikning

jadal rivojlanishiga, bu esa o'z navbatida, mamlakat iqtisodiyotining muttasil yuksalib borishiga qulay shart-sharoit va ijobiy imkoniyatlar yaratib beradi.

Prokuratura organlarining tadbirkorlikni himoya qilish funksiyasi, nafaqat tanho qonun ustuvorligini ta'minlash, balki tadbirkorlar uchun qulay va ishonchli ishlash muhiti

yaratishga qaratilgan samarali mexanizm hisoblanadi. Davlatning iqtisodiy taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadigan asosiy kuchlardan biri bo'lgan tadbirkorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va biznes muhitini yaxshilashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni / <https://lex.uz/uz/docs/5841063>.
2. Yangi O'zbekiston. – 2017. – 8 yanv.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5-oktabrdagi "Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, xususiyl mulkni har tomonlama himoyalash va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
4. Ibragimov Z.S. Mustaqillik v O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi. – T., 2011. – 201-b.
5. Qarang: Ibragimov Z.S. O'sha kitob. – T., 2011. – 202-b.
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining "Issiqxona xo'jaliklariga nisbatan huquqiy ta'sir choralari qo'llash, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergovni amalga oshirishda tadbirkorlik subyektlarining huquq va erkinliklarini to'laqonli ta'minlash choralari haqida"gi Qo'shma qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to'g'risida"gi PQ-72-sonli qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2022-yil 12-fevraldagi 10.3/4-1-22-07/21-son ko'rsatmasi.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil dekabrda tadbirkorlar bilan uchrashuvi.

ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA AXBOROT-TAHLIL FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH – BUGUNGI KUNNING DOLZARB VAZIFASI

X. D. SARABEKOV,

IIV Akademiyasi Tashkiliy-shtab faoliyati

kafedra dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya.

Maqolada ichki ishlar organlarida axborot-tahlil faoliyatini amalga oshirishning maqsad, vazifalari va muammolari ko'rib chiqilgan.

Tayanch so'zlar:

axborot, tahlil, prognozlash faoliyati, tahlil turlari va ularni ichki ishlarning faoliyatidagi o'rni bayon etilgan.

Аннотация.

В статье рассмотрены цели, задачи и проблемы осуществления информационно-аналитической деятельности в органах внутренних дел.

Ключевые слова:

информация, анализ, прогнозирование, виды анализа и их роль в деятельности органов внутренних дел.

Abstract:

The goals, tasks, and challenges of implementing information and analytical activities in internal affairs bodies are examined.

Keywords:

information, analysis, forecasting, types of analysis, and their role in the operations of internal affairs bodies are discussed.

Ma'lumki, axborot-tahlil faoliyati xalq xo'jaligining barcha sohalarida amalga oshirilib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 23-avgustdagi "Ichki ishlar organlari boshqaruv, nazorat va shaxsiy tarkib bilan ishlashning samarali tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorining qabul qilinishi ichki ishlar organlarining boshqaruv, tahliliy-huquqiy va prognozlash faoliyatini yanada takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari hamda uning mexanizmlarini joriy etishning muhim huquqiy asosi bo'ldi.

Shu bilan birga, ichki ishlar organlari tizimida axborot-tahlil faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq ekanligi esa bugungi kunning talabi bo'lib qolmoqda. Mamlakatimizda jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida aniqlanayotgan amaliy muammolarni tizimli tahlil qilish va kriminogen vaziyatni prognozlash jarayonlari bevosita axborot-tahlil faoliyatiga oid "axborot", "tahlil", "faoliyat", "prognozlash", "axborot-tahliliy ta'minot uslubi" va "axborot-tahliliy ish" kabi asosiy tushunchalarni o'zlashtirish va ularni to'g'ri qo'llashga bog'liq barcha munosabatlarga ichki ishlar organlari da yangicha yondashuv lozimligini bo'lsa davrning

o'zi taqozo etmoqda. Shu o'rinda axborot – manbalari va taqdim etilish shaklidan qat'iy nazar shaxslar, predmetlar, faktlar, voqealar, hodisalar va jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlar hisoblanadi [1], tahlil – bir butunni fikran yoki amalda tarkibiy qismlarga bo'lishga asoslangan ilmiy tadqiqot uslubi hamda biror narsani o'rganish, tahlil etishga aytiladi. Faoliyat – ichki ishlar organlarida biror bir ish bilan shug'ullanish faoliyati tushuniladi. Prognozlar – ichki ishlar organlarida kriminogen vaziyatni oldindan bilish, baho, xulosa va bashorat qilish. Ma'lum bir faoliyatning muqaddam davrdagi ko'rsatgichlarini ilmiy asoslangan holda o'rganish yuzasidan beriladigan xulosa. Axborot-tahliliy ta'minot uslubi – ichki ishlar organlarida tahlilga asoslangan holda axborotni yaratish, qidirish, qayta ishlash va tarqatish tizimida qo'llaniladigan vosita, uslub va usullar majmuasi. Axborot-tahliliy ish – ichki ishlar organlaridagi ish jarayonini mantiqiy, strategik va matematik uslublardan foydalanilgan holda muammoli vaziyatlarni o'rganish va tahlil etish hamda ularni samarali tarzda yechish bo'yicha tavsiyalar berish jarayoni. Ichki ishlar organlarining axborot-tahlil faoliyati – bu ichki ishlar organi boshlig'ining huquq-tartibotni saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish,

shuningdek ichki ishlar organining boshqa vazifalarini amalga oshirishda kechiktirib bo'lmaydigan, asoslangan va omilkor boshqaruv qarorlarini ishlab chiqilishini ta'minlashga qaratilgan faoliyatdir.

Ichki ishlar organlarida axborot-tahlil faoliyatini amalga oshirishdan maqsad: birinchidan, mamlakatdagi, ayrim mintaqalardagi, tumanlar va shaharlardagi kriminogen vaziyatni o'rganishga, mavjud kuchlar va vositalardan huquqbuzarliklarning oldini olish hamda ularni bartaraf etishda foydalanilishini samarali tahlil qilishga; ikkinchidan, huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlashga va ularni bartaraf etishga; uchinchidan, huquqbuzarliklarning, ularni sodir etgan shaxslar va huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarning aniq hisobini yuritishga, mazkur ma'lumotlarning tahlilini amalga oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrdagi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonunning 16-moddasiga asosan, ichki ishlar organlari profilaktika tadbirlarini rejalashtirish va o'tkazish maqsadida jinoyatlar va ma'muriy huquqbuzarliklarning, ularni sodir etgan shaxslarning, huquqbuzarliklardan jabrlanganlarning, qidiruv e'lon qilinganlarning, bedarak yo'qolganlarning, o'qotar qurolga ega bo'lganlarning hisobini yuritish hamda ushbu ma'lumotlarning tizimli tahlil qilishga hamda ma'lumot-axborot fondlarini shakllantirish, kriminalistik hisob-axborot tizimini yaratish, tezkor-qidiruv va kadrlarga oid hisoblarni, davlat statistika hisobotini va boshqa statistika hisobotini yuritishi lozim bo'lgan majburiyati mavjud.

Ichki ishlar organlarida ma'muriy-hududda huquqbuzarliklar profilaktikasi, jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurash vazifalarining muvaffaqiyatli ta'minlanishi ko'p jihatdan axborot-tahlil faoliyatining qay darajada yo'lga qo'yilganligiga bog'liq.

Ichki ishlar organlarining ma'muriy hududda sodir bo'layotgan hodisa va jarayonlar mohiyati, ularning yuzaga kelish sabablari hamda kriminogen vaziyatning holati va xususiyatiga ta'sirini o'rganish, tahlil qilish, ichki ishlar organlari faoliyatini tezkor vaziyat to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlash hamda shu asosda salbiy omillarni bartaraf etish borasidagi ishlarning asosiy yo'nalishlarini belgilashni tashkil etishi – ichki ishlar organlarida axborot-tahlil faoliyatining mazmunini tashkil etadi.

Ichki ishlar organlari faoliyati jarayonida

yig'ilgan, baholangan va sharhlangan ma'lumotlar asosida tayyorlangan hujjat axborot-tahlil faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Ichki ishlar organlarida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarga qarshi kurashish, ularni oldini olish, jamoat xavfsizligini ta'minlashda axborot-tahlil faoliyatining asosiy maqsadi, birinchi navbatda, tegishli yo'nalishning to'g'ri va samarali tashkil etilishiga qaratilgan dolzarb vazifalarni hal etish bo'yicha boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilishga mas'ul bo'lgan xodimlarga ko'maklashishdan iboratdir.

Ichki ishlar organlari tizimida axborot-tahlil faoliyati bilan shug'ullanuvchi xodimlar har tomonlama yetuk maxsus va umumiy ko'nikmalarga ega xodimlar bo'lishlari, axborot-tahlil va prognozlash ishining usul va vositalarini bilishi hamda yuzaga keluvchi vaziyatlarni tadqiq qilishda ulardan samarali foydalana olishlari lozim.

Ichki ishlar organlarida axborot-tahlil faoliyati jamoat tartibini saqlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishni tashkil etishda o'ta muhim elementga aylanib bormoqda. Bunday axborotlarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- ichki ishlar organlari hamda uning tashqi ta'sir obyektlarining holati va faoliyatini belgilovchi axborotlar;

- ichki ishlar organlari tizimining faoliyatini belgilovchi tashqi muhitning holati va ta'sirini ifodalovchi axborotlar.

Ichki ishlar organlarida axborot-tahlil faoliyatining mohiyati quyidagi jarayonlar bilan bog'liqdir:

birinchidan; xizmat hududida kriminogen vaziyatga ta'sir ko'rsatayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, demografik, millatlararo va boshqa jarayonlar to'g'risida ichki ishlar va davlat boshqaruvi organlari, jamoat tashkilotlari va boshqa manbalardan kelib tushayotgan ma'lumotlarni yig'ish, umumlashtirish va tahlil qilish;

ikkinchidan, jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklarning oldini olish, huquqiy tartibotni ta'minlash faoliyatidagi muammolarni kompleks tahlil qilish, jamiyat xavfsizligiga tahdid soluvchi jarayonlarini aniqlash va ularga imkon beruvchi shart-sharoit va omillarni o'rganish bo'yicha ijtimoiy va kriminologik tadqiqotlarini o'tkazish, tahdidlar rivojlanish tendensiyalarini belgilash hamda prognoz qilish;

uchinchidan, ichki ishlar organining faoliyat natijalarini baholash, xizmat hududida tezkor

vaziyatni barqarorlashtirish va sohaviy xizmatlar faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha axborot-tahliliy hujjatlarini ishlab chiqish;

to'rtinchidan, ichki ishlar organi rahbari uchun tahliliy ma'lumotlar, ma'ruza tezislari va hisobotlarni tayyorlash hamda ichki ishlar organida ma'lumot-axborot fondini shakllantirish [2].

Ichki ishlar organlarida boshqaruv faoliyatini axborot-tahlil faoliyatisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuning uchun ichki ishlar organlarida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishda har bir sohadagi mavjud muammolar o'rganiladi va tahlil qilinadi. Ichki ishlar organlari axborot-tahlil faoliyatini tashkil etishning murakkabligi: birinchidan, shaxar-tuman hududlaridagi operativ vaziyatni muntazam ravishda o'rganib borish va to'g'ri baholashga; ikkinchidan, shaxar-tuman ichki ishlarida axborot-tahlil faoliyatini o'z vaqtida va samarali rejalashtirishga; uchinchidan, axborot-tahlil faoliyatini amalga oshirishda operativ vaziyatga qarab muntazam ravishda strategik va taktik usullarni o'zgartirishga; to'rtinchidan, axborot-tahlil faoliyatida fan va texnika yangiliklaridan o'z vaqtida samarali foydalanib, samarali usullarni qo'llashni va ilg'or tajribalarni keng joriy etishga bog'liqdir.

Jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashda ichki ishlar organlari boshqaruv subyektlarining samarali faoliyat olib borishlari uchun: birinchidan, Ichki ishlar organlarida axborot-tahlil bilan faoliyat olib boruvchi xodimlarini malakasini doimo oshirib borishga; ikkinchidan, ichki ishlar organlari axborot-tahlil faoliyatini to'g'ri tashkil etishga; uchinchidan, tahlil faoliyatiga oid vazifalarni aniq belgilab berilishiga; to'rtinchidan, ichki ishlar organlari axborot-tahlil faoliyatini tashkil etishda va axborotlarni yig'ishda boshqa bo'linmalar va jamoatchilikning hamkorligini samarali ta'minlashga; beshinchidan, axborot-tahlil faoliyatida ilg'or xorij tajribalaridan foydalanish bilan bog'liq jarayondir.

Ichki ishlar organlarida axborotlarni yig'ish va tahlil qilish, ular asosida qarorlar qabul qilish, jinoyatchilikni prognozlashtirish va unga oldini olishni rejalashtirish hamda samaradorligini aniqlash, qarorlar ijrosini tashkil etish va nazorat qilishni o'z ichiga olish jarayoni. aniqlash ichki ishlar organlari faoliyatini samarali tashkil etishga bog'liqdir.

Ichki ishlar organlarida olingan axborotni ilmiy nuqtayi nazardan har tomonlama tahlil qilishda axborotni ishonchligiga bog'liqdir. Olingan axborot ishonchi bo'lsa tahlil aniq bo'ladi, shu asosda to'g'ri samarali boshqaruv qarorlari qabul qilinishiga asos yaratiladi. Jinoyatchilikka qarshi kurashda, profilaktik choralarni to'g'ri belgilashda, kriminogen vaziyatga moslashishda, jamoatchilik bilan ishlarni to'g'ri tashkil etishda aniq bo'lmagan axborotlardan foydalanmaslik, ichki ishlar organlari axborot-tahlil faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Ichki ishlar organlarida ma'lumotlarni yig'ish, tizimlashtirish, tahlil qilish hamda ma'lumotlar manbalarini aniqlash quyidagi mezon asosida amalga oshiriladi:

axborot-tahlil ma'lumotlarini qayerlardan olish ro'yxatini tuzish va qayerga taqdim etish tartibini belgilash;

kelib tushayotgan ma'lumotlarning ahamiyati, to'liqligi va ishonchligi nuqtayi nazaridan ma'lumotlarni to'plash va baholash;

Ichki ishlar organlarida olingan ma'lumotlarni mazmuni, yo'nalishi va tegishligi bo'yicha tizimlashtirish hamda ma'lumotlar bazasini shakllantirish.

Ichki ishlar organlarida rejalashtirish va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda quyidagi ma'lumotlar yig'iladi va tahlil qilinadi:

shahar-tuman ichki ishlar organlarining xizmat hududida ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va kriminogen vaziyatga oid statistik ma'lumotlar;

ichki ishlar organlarining, tezkor-qidiruv faoliyati natijalari, tartib-intizom va qonunchilikka rioya etish, kuch va vositalari holatiga oid ma'lumotlar;

boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarining va ichki ishlar organlarining kriminogen vaziyatga oid axborot-tahlil ma'lumotlari;

sud-huquq amaliyotiga oid ma'lumotlar;

ichki ishlar organlari faoliyatini kompleks va nazorat tekshirish bo'yicha tuzilgan ma'lumotnomalari;

aholining ichki ishlar organlari faoliyatiga bo'lgan munosabatiga oid ma'lumotlar;

kriminogen vaziyat va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari;

mahalliy va chet el ommaviy axborot vositalaridagi lavha va maqolalari hamda internet ma'lumotlari ichki ishlar organlari faoliyatiga doir.

Axborot tahlil faoliyatida ichki ishlar organlarining kuch va vositalari

muvofiglashtiriladi hamda taqsimlanadi, ichki ishlar organlarining ish natijalarini, tahlil faoliyati doirasida xizmat hududida vujudga kelayotgan tezkor va kriminogen vaziyatni hisobga olib, ichki ishlar organlaridagi kamchilik va muammolarni aniqlash va bartaraf etish choralari ishlab chiqish uchun kompleks tahlildan foydalaniladi. Kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish bo'yicha ishlarining samaradorligini oshirish maqsadida ichki ishlar organlarida kompleks tahlil ishlari olib boriladi. Kompleks tahlil kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish maqsadida xizmat hududida tezkor vaziyat, tezkor-xizmat faoliyati natijalari, kuch va vositalaridan samarali foydalanish, ta'sir ko'rsatuvchi tashqi omillarni tahlil qilish va baholashga qaratilgan bo'lib, kuch vositalarni samarali yo'naltirishga qaratilgan jarayon hisoblanadi..

Ichki ishlar organlarining xizmat hududlaridagi kriminogen vaziyatni doimiy ravishda nazorat qilish va baholab borish jarayonida axborot-tahlil faoliyatida kompleks tahlilning joriy, davriy, istiqbolli, navbatdan tashqari, muammoli va qiyosiy kabi shakllaridan foydalaniladi.

Joriy tahlil. Ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibining kundalik faoliyatini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, uning asosida muayyan huquqbuzarlik va jinoyatlarga ta'sir ko'rsatish choralari ko'riladi, kuch va vositalarni joy-joyiga qo'yish uchun zarur qo'shimchalar kiritiladi, boshqa turdagi boshqaruv tadbirlari amalga oshirishda ichki ishlar organlarida joriy tahlil sutka, hafta, oy natijalari bo'yicha amalga oshiriladi hamda operativ boshqaruvning kundalik qarorlarini qabul qilinadi.

Davriy tahlil. Ichki ishlar organlarida kriminogen vaziyatni barqarorlashtirishda jamoat xavfsizligi ta'minlash, huquqbuzarlik va jinoyatlar dinamikasini aniqlash, tezkor-xizmat faoliyati hamda yo'l qo'yilgan kamchilik va muammolarning sabablarini tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, uning asosida keyingi davrda tezkor-xizmat faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar tayyorlanadi va buning asosida amaliy-tashkiliy chora-tadbirlar rejalari ishlab chiqiladi va ichki ishlar organlarining chorak, yarim yil, to'qqiz oy va yil yakuni natijalari bo'yicha amalga oshiriladi.

Istiqbolli tahlil. Ichki ishlar organlarining bir yildan ortiq davrdagi jinoyatchilikka va huquqbuzarliklarga qarshi kurash, jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi ish natijalari bo'yicha faoliyatini tahlil qilish asosida kriminogen vaziyatni aniqlash maqsadida istiqbolli tahlilda

qilinadi. Istiqbolli tahlilda ichki ishlar organlari xizmat hududlariga xos bo'lgan jinoyatlarning sabablarini aniqlash, profilaktik ishlarni kuchaytirish va jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatidagi tizimli muammolarni tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, uning asosida tezkor-xizmat faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha kompleks va maqsadli yo'l xaritalari ishlab chiqiladi.

Ichki ishlar organlarining axborot-tahlil faoliyatida istiqbollarni belgilash quyidagi uslublar orqali amalga oshiriladi:

modellashirish – kriminogen vaziyatga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganish asosida sodir etilayotgan jinoyatlarni oldini olish va kutilayotgan o'zgarishlar bo'yicha, ularga qarshi modelini yaratish va xulosalar ishlab chiqish uchun imkon yaratadi;

ekspertlar bahosi – ichki ishlar organlarida jinoyatchilikni va huquqbuzarliklarni oldini olish, jamoat xavfsizligi ta'minlash borasida har bir sohaga oid ekspertlar o'rtasida so'rov o'tkazish yo'li bilan muayyan hududda jinoyat turlari bo'yicha kriminogen vaziyatga baho berish natijasida kelgusidagi amalga oshirilishi lozim bo'lgan dasturlarni ishlab chiqishga imkon yaratadi;

Ekstrapolatsiya – Ekstrapolatsiya yordamida jarayonlar yuzaga kelishida, odatda, u yoki bu ko'p miqdoriy obyekt tavsifi statistik tendensiyalarini yig'ilishda, o'zgarish nuqtasidan boshlanadi. Ekstrapolatsiya usullari eng ko'p tarqalgan va barcha prognozlash usullari orasida nisbatan ko'p ishlab chiqilgan usullardan hisoblanadi [3]. Bir xil sharoitida muqaddam shakllangan kriminogen vaziyatni tahlil qilish, uning sodir etilishining sabab va sharoitlarini o'rganish, shuning asosida mavjud kriminogen vaziyatning o'zgarishini aniqlashga imkon yaratadi. Ekstrapolatsiya usulining maqsadi quyidagicha hisoblanadi: Prognozlash obyektini xarakterlovchi o'tgan davrga nisbati, tatbiq qilish qonuniyatlari aniqlanadi va mos xolda bu ma'lumotlarning o'sish potentsiallari to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni tahlil qilish, so'ngra tashqi muhitda empirik yoki dinamik qatorda bo'lgan prognozlovchi kattaliklarning qiymatlari aniqlanadi.

Regression tahlil – o'rganilayotgan tasodifiy harakatning tasodifiy me'yorini va o'rganilayotgan miqdoriy o'zaro munosabatlar o'rtasidagi bog'lanishni ishlash uchun ko'llaniladi. Ya'ni, tasodifiy va iqtisodiy me'yorlar o'rtasidagi bog'lanish regressiya deb ataladi. Regression tahlil – ushbu bog'lanishning tahlili

usulidir. Regressiya o'rtacha natija belgilarining omil belgilari bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Prognozlash uchun regression tahlil usuli ko'llanilayotganda matematik formula tuziladi. U formula prognozlashtirish obyekti bilan birga, unga ta'sir etuvchi bitta yoki bir nechta omillarning bog'lanishini o'zida aks ettiradi. Bu usul ishlatilayotgan obyektning xususiyatini tahlil qilishga imkon beradi. Bunda namuna tuzilib, undan so'ng namunadagi bir ko'rsatkichning ahamiyatini boshqa ko'rsatkichga bog'liqligi hisoblanadi.

Navbatdan tashqari tahlil. Ichki ishlar organlari hududlarida tezkor vaziyatning keskin o'zgargan vaziyatdan kelib chiqqan holda bir nechta oy yakunlari bo'yicha yoxud hay'at majlisi, yig'ilishi va boshqa tashkiliy tadbirlarni o'tkazish zarurati yuzaga kelgan sharoitda amalga oshiriladi.

Muammoli tahlil. Jinoyat turlarining past darajada fosh etilishi, jamoat joylardagi, retsidiv yoki o'ta og'ir jinoyatlarni oshib ketishi, muayyan turdagi jinoiy tajovuzlar soni yoxud giyohvand vositalar bilan bog'liq va o'q otar qurollarni qo'llash yo'li bilan sodir etilgan jinoyatlarning o'sishini tahlil qilish natijasida ichki ishlar organlarining tezkor-xizmat faoliyatidagi muammolarni tahlil etish va bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilashdan iborat.

Qiyosiy tahlil. Ichki ishlar organlari tezkor-xizmat faoliyati bir xil sharoitda faoliyat ko'rsatib kelayotgan ikki va undan ortiq ichki ishlar organlarining jinoyatchilik va huquqbuzarlikka qarshi kurashdagi, jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi kuch vositalardan samarali foydalanishdagi muammolar sabablarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Kompleks tahlil natijasida ichki ishlar organlarida boshqaruv jarayonida axborot-tahlil faoliyati jarayonida ma'lumotnoma, bildirgi, axborot-tahlil hujjatlar tayyorlanadi.

Har bir mahalla, tuman-shahar, viloyat hududlaridagi "yashil," "sariq", "qizil" hududlardagi jinoyatchilik darajasi, uning umumiy dinamikasi va eng ko'p sodir etilayotgan jinoyat turlari, jinoyatchilikning tarkibiy tuzilishi, hududiy tarqalganligi va alohida turdagi jinoiy tajovuzlar, latent jinoyatlar, muayyan aholi guruhlarining jinoiy faolligi darajasi, voyaga yetmaganlar, ayollar, muqaddam jinoyat sodir etgan va doimiy daromad manbasiga ega bo'lmagan shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar, jinoyatchilikning viktimologik jihatlari, uyushgan va iqtisodiy jinoyatlar, giyohvand vositalari va qurollarning noqonuniy

muomalasi bilan bog'liq jinoyatlar, jamoat joylarida kriminogen vaziyat, jazoni ijro etish muassasalarida sodir etiladigan jinoyatlar, yo'l harakati xavfsizligi holatiga alohida e'tibor qaratiladi.

Ichki ishlar organlarida axborot-tahlil faoliyat natijalari axborot va tahliliy-huquqiy xarakterga ega bo'lgan hujjatlar ko'rinishida rasmiylashtiriladi.

Hujjat – keng ma'noda-ma'lumotlar qayd etilgan moddiy buyumlar (qog'oz, kinoplyonka, fotoplyonka, magnitofon lentasi, perfaktorta va boshqalar). Hujjat matn, tasvir, tovush va boshqalardan iborat bo'lishi mumkin. Huquq fanida hujjat deganda, odatda qonunda belgilangan shaklda tuzilgan va yuridik ahamiyatga ega bo'lgan (shaxsning tug'ilganlik, ma'lumot olganlik, nikohdan o'tganlik, mehnat staji kabi) faktlarni tasdiqlovchi yozma aktlar tushuniladi [4].

2020-yil 18-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasining Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risidagi qonunining 3-moddasida Normativ-huquqiy hujjat tushunchasi berilgan:

Normativ-huquqiy hujjat qonunchilikka muvofiq qabul qilingan, umummajburiy davlat ko'rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o'zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatdir [5].

Axborot xarakterdagi hujjatlar ichki ishlar organlarida voqea, hodisa, jinoyatlar to'g'risida axborot beruvchi ma'lumotnomalar shaklida rasmiylashtiriladi yoki ma'lumotlar tuziladi, shuningdek bu axborotlar chuqur tahlilsiz bo'lib, oldindan qaror qabul qilish uchun adekvat ma'lumotni darhol olish imkonini beruvchi qisqa va aniq axborotlardan iborat bo'ladi. Adekvat (lotincha adaequatus- tenglashgan, mos, aynan bir, o'xshash)- bilish nazariyasida narsa va hodisalarning xossalari va aloqalarini ularning obyektiv mazmuniga to'g'ri keladigan, aniq va mos qilib olish. Inson ongi obyektiv borliqni ijtimoiy amaliyot asosida adekvat aks ettira boradi [6].

Tahliliy xarakterdagi hujjatlar ichki ishlar organlarida muammolarni o'rganilayotgan jarayonida chuqur tahlil asosida prognozlar berish va qabul qilingan boshqaruv qarorlarini ta'riflash, ularni tushuntirib berish hamda asoslantirish maqsadida tuziladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Tursunov A.S., Primov F. A.* O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi atama va iboralarning yuridik izohli lug'ati. – T., 2020. – 19 b.
2. *Ismailov I. Muxamadaliyev, D.S., Azizov E.U.* Ichki ishlar organlarida boshqaruv va axborot-tahlil faoliyati asoslari : Darslik. – T., .2019. – 168 b.
3. [https://studfile.net › page:24](https://studfile.net/page:24).
4. Xujjatlarni <https://uz.wikipedia.org/wiki/Hujjat>.
5. <https://lex.uz/docs/5378966>.
6. https://www.google.com/search?sca_esv=140922448355a7d1&q=%D0%90%D0%B4%D0%B5%D0%BA%D0%B2%D0%B0%D1%82+%D0%BD%D0%B8%D0%BC%D0%B0&sa=X&ved=2ahUKEwiL-aaS5ICKAxVCHxAIHSMKBmYQ1QJ6BAg5EAE&biw=1536&bih=703&dpr=1.25.
7. https://nrm.uz/contentf?doc=467545_malumotnoma-ahborot_hujjatlari_malumotnoma.
8. [https://nrm.uz/contentf?doc=467566_malumotnoma-ahborot_hujjatlari_bildirishnoma_\(hujjatlar_aylanishini_tashkil_etish_bo%E2%80%98limi\)&products=6_yurist_predpriyatiya](https://nrm.uz/contentf?doc=467566_malumotnoma-ahborot_hujjatlari_bildirishnoma_(hujjatlar_aylanishini_tashkil_etish_bo%E2%80%98limi)&products=6_yurist_predpriyatiya).

ЭВОЛЮЦИЯ МИГРАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ: ИСТОРИЧЕСКИЙ ОБЗОР И СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ

Ш. Ш. Садриддинов,

инспектор по особым поручениям

Управления международного сотрудничества МВД

Аннотация.

В статье представлен историко-правовой и социально-экономический обзор миграционных процессов от древности до современности. Особое внимание уделяется причинам миграции, изменению её характера в различные исторические эпохи, а также современным вызовам, таким как беженцы, трудовая миграция, утечка мозгов

и демографическая трансформация. Анализируются мнения ведущих ученых и даются предложения по совершенствованию государственной миграционной политики.

Ключевые слова:

миграция, история, трудовая миграция, беженцы, глобализация, демография, миграционная политика.

Annotatsiya.

Maqolada qadim zamonlardan to hozirgi kungacha bo'lgan migratsiya jarayonlarining tarixiy, huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy tahlili berilgan. Migratsiya sabablari, turli tarixiy davrlarda uning tabiatidagi o'zgarishlar, shuningdek, qochqinlar, mehnat migratsiyasi, demografik o'zgarishlar kabi zamonaviy muammolarga alohida e'tibor qaratilayotgani bayon etilib, yetakchi olimlarning fikr-mulohazalari tahlil qililib, davlat migratsiya siyosatini takomillashtirish bo'yicha takliflar berildi.

Tayanch so'zlar:

migratsiya, tarix, mehnat migratsiyasi, qochqinlar, globallashtirish, demografiya, migratsiya siyosati.

Annotation.

The article presents a historical, legal and socio-economic review of migration processes from ancient times to the present. Particular attention is paid to the causes of migration, changes in its nature in different historical eras, as well as modern challenges such as refugees, labour migration, brain drain and demographic transformation. The opinions of leading scientists are analysed and proposals for improving state migration policy are given.

Keywords:

migration, history, labour migration, refugees, globalization, demography, migration policy.

Миграционные процессы сопровождают человечество на протяжении всей его истории. От кочевых перемещений первобытных обществ

до транснациональных потоков XXI века – миграция отражает социально-экономическое, политическое и климатическое развитие цивилизации.

История миграционных процессов в мире представляет собой многогранное явление, обусловленное взаимодействием биологических, экологических, экономических, культурных и политических факторов.

С древних времен миграция играла ключевую роль в формировании демографического ландшафта планеты, способствуя распространению человеческого рода, развитию разнообразных культур и установлению межрегиональных связей. Самые ранние волны миграции связаны

с расселением Homo sapiens, когда примерно 70–100 тысяч лет назад наши предки начали покидать Африку, приспосабливаясь к изменившимся климатическим условиям и заселяя новые территории. Эти первоначальные движения заложили основу генетического, языкового и культурного разнообразия, наблюдаемого сегодня.

С наступлением эпохи неолита и переходом к оседлому образу жизни, обусловленным развитием земледелия и скотоводства, характер миграционных процессов претерпел существенные изменения. Появление сельскохозяйственных общин привело к местной стабильности, однако потребность в исследовании новых земель и обмене технологическими и культурными достижениями сохраняла актуальность человеческой мобильности. В этот период миграция носила как сезонный, так

и долгосрочный характер, способствуя развитию торговых путей и межрегиональных контактов.

В древности и Средние века миграционные потоки приобрели новое измерение в контексте формирования государств и возникновения империй. Расширение Римской империи, миграции германских племен, а также переселения в результате военных конфликтов и завоеваний оказали глубокое влияние на этнический и культурный состав различных регионов.

Эти процессы не только изменили демографические структуры, но и способствовали интеграции различных культурных традиций, что в конечном итоге способствовало формированию многоэтнических государств.

По мнению историка А.В. Гордона, «массовая миграция варварских племен радикально изменила этнополитическую карту Европы». Колониальный период (XVI–XIX вв.) сопровождался принудительной миграцией, в частности работорговлей и переселением народов. В XX веке на фоне индустриализации и двух мировых войн миграция приобрела институционализированный характер.

Поворотный момент в истории миграций наступил в период индустриализации XIX века, когда технический прогресс, развитие транспорта и растущее экономическое неравенство стимулировали массовое перемещение населения. Экономическая миграция, обусловленная поиском работы и лучшего качества жизни, сопровождалась как добровольными, так и принудительными переселениями. Колониальная экспансия европейских держав еще больше усилила эти процессы, инициировав миграционные потоки как в метрополии, так и в колонии, что оказало долгосрочное влияние на социально-экономическое развитие различных регионов.

XX век был отмечен глобальными конфликтами, политической нестабильностью и экономическими кризисами, что привело к появлению новых форм миграции. Войны, революции и смена режимов привели к массовым потокам беженцев и вынужденным переселениям, радикально изменив демографические карты многих стран. Одновременно глобализация и развитие информационных технологий в конце XX – начале XXI века способствовали возникновению транснациональных миграционных сетей. Сегодня миграция – это климат, на который влияют не только экономические и политические факторы, но и экологические

изменения, вызванные процессами и технологическими инновациями, которые позволяют людям поддерживать связь со своей родиной на больших расстояниях.

Современные миграционные процессы представляют собой сложное взаимодействие глобальных и локальных факторов, требующее междисциплинарного подхода для полного понимания их динамики. Экономическое неравенство, политические конфликты, изменение климата и технологические революции создают условия для постоянной мобильности населения, существенно влияя на социальные структуры, культурное разнообразие и международные отношения. В эпоху глобализации миграция стала неотъемлемой частью стратегий развития как отдельных государств, так и международного сообщества, в результате чего регулирование миграционных потоков стало приоритетом политики многих стран.

Таким образом, историческая динамика миграционных процессов демонстрирует их основополагающую роль в развитии человеческого общества. Начиная с раннего расселения за пределами Африки и заканчивая современными транснациональными потоками, миграция отражает постоянное стремление человека к адаптации и поиску новых возможностей. Глубокое понимание исторических процессов миграции не только позволяет нам проследить эволюцию человеческих сообществ, но и помогает сформулировать эффективные подходы к управлению современными миграционными проблемами, что имеет решающее значение для устойчивого развития в глобализованном мире.

Наиболее распространённой формой современной миграции является трудовая. Международная организация труда (МОТ) отмечает, что «около 169 миллионов человек являются трудовыми мигрантами».

Как указывает профессор Р. Кастеллс, «миграция становится частью глобального разделения труда». Особенно остро это проявляется в развивающихся странах, где отток квалифицированной рабочей силы вызывает «утечку мозгов» и демографический дисбаланс.

Согласно данным УВКБ ООН, в 2023 году число вынужденных переселенцев достигло 114 миллионов человек. Основные причины – вооруженные конфликты (Сирия, Украина), этнические преследования, экологические катастрофы.

По оценкам Международной организации по миграции, до 20% международных мигран-

тов перемещаются нелегально, что создает угрозу национальной безопасности и нарушает права человека.

Современные государства вынуждены балансировать между потребностью в рабочей силе и необходимостью обеспечения национальной безопасности. В Европе введены квоты и «голубые карты»; в США – визовая система H-1B. В странах СНГ, включая Узбекистан, разрабатываются национальные стратегии миграционной политики (например, Концепция миграционной политики Республики Узбекистан до 2030 года).

Доктор юридических наук В.В. Лопатин считает, что эффективное миграционное регулирование требует комплексного подхода, охватывающего экономику, право и межкультурную коммуникацию.

История миграции демонстрирует её постоянное присутствие в общественном развитии. Сегодня миграционные процессы усложняются, становятся более динамичными и трансграничными. Это требует усиления международного сотрудничества и гибкой, научно обоснованной миграционной политики. Важно разрабатывать правовые механизмы, обеспечивающие защиту прав мигрантов, интеграцию в общество и устойчивое развитие стран – как отправителей, так и получателей.

Миграционные потоки существенно трансформируют демографическую структуру стран. Например, в государствах Европы и Восточной Азии наблюдается естественное старение населения, и миграция выступает важнейшим инструментом демографического восполнения. По мнению Н.Г. Холодовой, «именно миграция стала компенсаторным механизмом при демографическом спаде, характерном для постиндустриальных стран».

Однако миграция также вызывает социальную напряженность, особенно при слабой интеграционной политике. В странах с доминирующим титульным этносом может наблюдаться рост ксенофобии. Социолог А. Турен отмечает: «Без сбалансированной политики ассимиляции и мультикультурализма миграция может стать катализатором внутренних конфликтов».

В Узбекистане, согласно данным Агентства по внешней трудовой миграции, в 2022 году за рубежом трудились более 2,2 млн граждан страны. Это оказывает как позитивное (переводы в страну, снижение безработицы), так и негативное влияние (разделение семей, профессиональная деградация мигрантов) на со-

циальную ткань общества.

Миграция – это не только национальный, но и глобальный вызов. В 2018 году была принята Глобальная компактная программа по безопасной, упорядоченной и регулярной миграции, одобренная ООН. Она предлагает механизмы координации усилий государств, включая:

содействие репатриации;

борьбу с торговлей людьми;

обеспечение доступа мигрантов к базовым правам и услугам.

Для стран Центральной Азии ключевым направлением является региональная миграционная координация. Так, в рамках ШОС и СНГ подписаны соглашения о признании трудового стажа, защите прав мигрантов и совместной борьбе с нелегальной миграцией.

Таким образом, на основе проведенного анализа считаем целесообразным принятие следующих мер:

1. Разработка национальных интеграционных программ: обучение языку, культурная адаптация, защита трудовых прав.

2. Цифровизация миграционного учета и документооборота – для повышения прозрачности и борьбы с коррупцией.

3. Поддержка реинтеграции вернувшихся мигрантов: стимулирование предпринимательства, предоставление образовательных грантов.

4. Развитие международного сотрудничества – как двустороннего (с РФ, Кореей, Турцией), так и в рамках глобальных форумов.

В заключении необходимо отметить, что эволюция миграционных процессов отражает ход исторического развития цивилизаций. Сегодня миграция – это неотъемлемая часть глобального мира, имеющая как значительный потенциал для экономического и культурного роста, так и серьезные вызовы. Миграционная политика требует баланса между гуманизмом и национальной безопасностью. Странам, включая Узбекистан, важно не только обеспечивать защиту своих граждан за рубежом, но и создавать условия для возвращения и интеграции мигрантов в национальное развитие.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Гордон А. В. История миграционных процессов. – М.: Наука, 2015. – С. 88.
2. International Labour Organization. Global Estimates on International Migrant Workers: Results and Methodology. — Geneva, 2021.
3. Кастеллс М. Власть общения. – М.: ГУ ВШЭ, 2018. – С. 211.
4. UNHCR. Global Trends: Forced Displacement in 2023. — <https://www.unhcr.org>
5. International Organization for Migration. World Migration Report 2022. — Geneva, 2022.
6. Лопатин В. В. Миграционная политика: теория и практика. — М.: Юнити-Дана, 2020. — С. 34.
7. Холодова Н. Г. Демографическая политика и международная миграция. – М.: ИНИОН РАН, 2019. – С. 43.
8. Touraine A. Can We Live Together? Equality and Difference. – Cambridge: Polity Press, 2000. – P. 88.
9. United Nations. Global Compact for Safe, Orderly and Regular Migration. — <https://www.un.org/migration>.
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Mehnat migratsiyasi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 23.02.2022-y. 71-son qarori.

ICHKI ISHLAR ORGANLARI TIZIMINI KOMPLEKS RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISH: ZARURAT, ASOSIY YO'NALISH VA ISTIQBOLLARI

A. A. IMINOV,

IIV Akademiyasi Raqamli

*texnologiyalar va axborot xavfsizligi kafedrası boshlig'i,
fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent;*

R. X. MAXAMADOV,

IIV Akademiyasi Raqamli

texnologiyalar va axborot xavfsizligi

kafedrası katta o'qituvchisi, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya.

Ushbu maqolada ichki ishlar organlari tizimini raqamli transformatsiya qilish zarurati, bu jarayonning asosiy yo'nalishlari va kelgusidagi rivojlanish istiqbollari tahlil qilingan va taklif va tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek, ichki ishlar organlari faoliyatini raqamlashtirishning asosiy yo'nalishlari sifatida elektron hujjat aylanmasi, raqamli identifikatsiya, intellektual nazorat tizimlari va ma'lumotlar tahlili texnologiyalaridan foydalanish jarayonning huquqiy, tashkiliy va texnik asoslari ham ko'rib chiqiladi.

Tayanch so'zlar:

raqamli texnologiyalar, raqamli transformatsiya, ma'lumot, ichki ishlar organlari, sun'iy intellekt, raqamlashtirish, huquq.

Аннотация.

В данной статье рассматривается использование электронного документооборота, цифровой идентификации, интеллектуальных систем управления и технологий анализа данных в качестве основных направлений цифровизации деятельности органов внутренних дел, правовые, организационные и технические основы процесса.

Ключевые слова:

цифровые технологии, цифровая трансформация, информация, органы внутренних дел, искусственный интеллект, цифровизация, право.

Annotation:

This article analyzes the need for digital transformation of the system of internal affairs bodies, the main directions of this process and the prospects for further development, and provides suggestions and recommendations. The use of electronic document management, digital identification, intellectual control systems and data analysis technologies as the main directions of digitization of the activities of the internal affairs bodies, the legal, organizational and technical foundations of the process are also considered.

Keywords:

digital technology, digital transformation, information, internal affairs bodies, artificial intelligence, digitization, law.

Hozirgi kunda jamiyatda raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib bormoqda va ular turli sohalar, jumladan huquq-tartibot organlari faoliyatida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda va ichki ishlar organlari tizimini raqamli transformatsiya qilish zaruriyati tug'ildi. Ichki ishlar organlari tizimini raqamli transformatsiya qilish nafaqat texnik yangilanish, balki tizimni samarali, shaffof va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda isloh qilishdagi strategik qadam hisoblanadi.

IIO tizimini Raqamli transformatsiya qilish bugungi kunning eng dolzarb mavzusiga aylanganligiga bir nechta omillar mavjud:

jinoyatchilikka qarshi samarali kurash – jinoyatlar tabiati murakkablashib, yangi shakllarda — kiberjinoyatlar, firibgarlik va transmilliy uyushmalar ko'rinishida namoyon bo'lmoqda [1]. Bunday tahdidlarga qarshi kurashda raqamli texnologiyalar — ma'lumotlar tahlili, sun'iy intellekt va nazorat tizimlari muhim ahamiyat kasb etishi [2].

fuqarolarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish – elektron xizmatlar joriy etilishi orqali aholiga ko'rsatilayotgan huquqiy yordamning tezkorligi, shaffofligi va ishonchliligi oshadi [3]. Masalan, onlayn ariza yuborish, tekshiruv natijalarini kuzatish, raqamli identifikatsiya kabi xizmatlar

sohaga ishonchni kuchaytirish;

korruptsiyaga qarshi kurash va shaffoflik – qog'ozbozlik va inson omili ta'sirini kamaytirish orqali ichki ishlar tizimidagi korruptsiyaviy xavflar kamayadi. Avtomatlashtirilgan jarayonlar orqali qaror qabul qilish shaffof va aniqlashtirilishi [4];

mamlakatdagi raqamli iqtisodiyot va islohotlar jarayoniga moslashuv – O'zbekiston Respublikasida raqamli rivojlanishni — ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanib, Prezidentimizning "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida ichki ishlar organlari ham bu jarayonning ajralmas qismi sifatida o'z faoliyatini qayta ko'rib chiqilishi [5];

xalqaro tajribalarni integratsiya qilish zarurati – dunyodagi ko'plab mamlakatlar ichki ishlar organlarida raqamli transformatsiyani amalga oshirmoqda. O'zbekistonda ham bu tendensiyani hisobga olgan holda, zamonaviy axborot tizimlari va intellektual platformalarni joriy etish zarurligi.

Yuqoridagilarga asosan, ichki ishlar organlari tizimini kompleks raqamli transformatsiya qilish nafaqat vaqt talabi, balki huquq-tartibotni ta'minlash, fuqarolar manfaatlarini himoya qilish va islohotlarni amalga oshirishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi.

Xalqaro tajribaga ko'ra, Estoniya, Singapur, Janubiy Koreya kabi davlatlar huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida raqamli texnologiyalarni keng joriy etgan. Estoniyada ichki ishlar organlari shaxsiy ID-kartalar, elektron imzo, markazlashgan ma'lumot bazalari va avtomatlashtirilgan jinoyat tahlili kabi tizimlardan samarali foydalanmoqda. Singapurda esa "Smart Nation" konsepsiyasi asosida jinoyatlarning oldini olishda istiqbolli texnologik yechimlar, jumladan, sun'iy intellekt, videokuzatuv tarmoqlari va fuqarolarni jalb etuvchi mobil ilovalar keng qo'llanilmoqda [6].

O'zbekistonda ham "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida ichki ishlar organlarini raqamlashtirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan [7]. Ichki ishlar vazirligi tomonidan "E-Patrul", "Elektron jinoiy – huquqiy statistika" axborot tizimlari, "Xavfsiz shahar" loyihasi va boshqa bir qator raqamli platformalar amaliyotga joriy etilmoqda. Bu kabi islohotlar milliy xavfsizlikni ta'minlash, fuqarolar manfaatini himoya qilish va davlat organlariga bo'lgan ishonchni oshirishga xizmat qilmoqda [8].

IIOda raqamli transformatsiyaning dastlabki amalga oshirilgan islohotlar sifatida 2020–2024-yillarda ichki ishlar organlari faoliyatiga 33 ta axborot tizimi joriy etilib,

boshqa idoralarning 240 dan ortiq axborot resurslari integratsiya qilindi, 39 turdagi davlat xizmatlari raqamlashtirildi, 28 ta katta quvvatli tarmoq qurilmalari faoliyati yo'lga qo'yilganligini ta'kidlash mumkin (1 rasm) [9].

Shuningdek, ichki ishlar xodimlarini raqamli kompetensiyalar bilan ta'minlash ham muhim vazifalardan biridir. Jarayonlarni raqamlashtirish faqatgina texnologiya emas, balki uni qo'llashni biladigan, tahlil qilish va qaror qabul qilishga qodir kadrlarni talab etadi. Shu bois, sohaviy kadrlar uchun doimiy malaka oshirish kurslari, onlayn platformalar orqali bilimni yangilash imkoniyatlari va raqamli simulyatorlar yaratilmoqda.

Raqamli transformatsiya ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshirilayotgan faoliyatni raqamlashtirish, jarayonlarni avtomatlashtirish

va ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish mexanizmlarini shakllantirish [10], inson omiliga bog'liq xato va korruptsiya xavfini kamaytiradi, jinoyatlarga tezkor va samarali munosabat bildirish imkonini berishini inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasida 2025–2027-yillarda ichki ishlar organlarida quyidagi bir necha asosiy yo'nalishlar bo'yicha raqamli transformatsiya amalga oshirilishi zarur deb hisoblaymiz. Ya'ni:

barcha axborot infratuzilmasini (axborot tizimlari, ma'lumotlar bazalari va ma'lumotlarni qayta ishlash markazlarini) sun'iy intellekt texnologiyalari asosida yagona tizimga birlashtirgan holda jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi faoliyat samaradorligini yanada oshirish;

sohani raqamlashtirish faoliyatini yagona boshqaruv tizimi va ishlash mexanizmlari asosida muvofiqlashtirish, ular tarkibida yuqori malakali mutaxassislardan iborat bo'lgan "raqamli jamoa"ni shakllantirish;

jinoyatlar va ma'muriy huquqbuzarliklar statistikasini inson omilisiz yuritish, kriminogen vaziyat va jinoyatchilik holatini, shu jumladan hududlar va huquqbuzarliklar turlari kesimidagi tahlillarni avtomatlashtirish;

huquqiy statistika va tezkor-hisob ma'lumotlar bilan ishlash jarayonini to'liq raqamlashtirish, ichki ishlar organlari tizimida axborot xavfsizligi samaradorligini zamon talablariga mos ravishda ta'minlash;

Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish.

Yuqoridagilarni amalga oshirish maqsadida quyidagilarni ishlab chiqish taklif etiladi:

sohaga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va axborot xavfsizligini ta'minlash,

shuningdek, hududiy ichki ishlar organlarida raqamli infratuzilmani shakllantirish bo'yicha ustuvor loyihalar;

aholiga davlat xizmatini proaktiv va kompozit shakllarda ko'rsatish dasturi;

ichki ishlar organlari axborot tizimlariga integratsiya qilinadigan idoralarning ma'lumotlari ro'yxati;

ichki ishlar organlari faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini tatbiq etish va rivojlantirish konsepsiyasi (maqsadi, vazifalari, asosiy yo'nalishlari, bosqichlari, texnologiya turlari va mexanizmlari belgilanmoqda);

Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan hamkorlikda ichki ishlar organlari tizimiga sun'iy intellekt imkoniyatlarini joriy etishni va ustuvor loyihalarni amalga oshirish;

Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan hamkorlikda ichki ishlar organlari tizimida 2025–2027-yillarda raqamli transformatsiya jarayonlarini samarali tashkil etish va amalga oshirishda Ichki ishlar vazirligi huzurida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan Raqamli loyihalar ofisi faoliyati yo'lga qo'yish;

IIV Axborot texnologiyalari, aloqa va axborotni himoyalash boshqarmasi, Huquqiy statistika va tezkor-hisob ma'lumotlar bosh markazi hamda ularning hududiy bo'linmalari negizida Raqamli texnologiyalar va huquqiy statistika departamenti va uning hududiy bo'linmalarini tashkil etish;

yuqori malakali "raqamli jamoa"ni shakllantirish, sohaga IT-park va iste'dodli yoshlar salohiyatini jalb etishga oid tartiblar belgilash va – Departament bo'linmalariga xizmatga kirish istagini bildirgan fuqarolarga

antropometrik parametrlari (bo'yi) bo'yicha talablar istisno etish hamda sog'lig'ining umumiy holati inobatga olish;

mavjud muammolarni bartaraf etishga mo'ljallangan startap loyihalarni yaratish maqsadida iqtidorli yoshlarni jalb etgan holda xakatonlar tashkil etish;

IT-park jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ilg'or startap loyihalarini yaratish uchun (bugun mavjud emas) o'z rezidentlarini akseleratsiya va inkubatsiya dasturlariga hamda "startap studiya"larga jalb etishni yo'lga qo'yish.

Yuqoridagi takliflarning amalga oshirilishi ichki ishlar organlar tizimida professional "raqamli jamoani" shakllantirishga, raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirishga, raqamli infratuzilma va axborot xavfsizligini zamon talablariga muvofiqlashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ichki ishlar organlari tizimini raqamli transformatsiya qilish nafaqat texnologik yangilanish, balki huquqiy, tashkiliy va ma'naviy qayta qurilishni ham nazarda tutadi. Bu jarayonni samarali amalga oshirish uchun faqatgina texnik vositalar yetarli emas – strategik yondashuv, o'zaro hamkorlik, xalqaro tajriba va yuqori malakali kadrlar tayyorlash bilan birgalikda harakat qilish zarur. Faqat shundagina ichki ishlar tizimi haqiqiy ma'noda raqamlashgan, samarali va xalqqa yaqin mexanizmga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jinoyatchilikka qarshi kurashishning eng samarali usuli – jinoyatlar sodir etilishining oldini olishdir. URL: <https://www.senat.uz/oz/events/post-3305>.

2. Махаммадов Р. Х. (2022). Перспективы применения технологий искусственного интеллекта в образовании. – Течика, (1 (9)), 1-10.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-iyundagi Elektron davlat xizmatlari ko'rsatish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish to'g'risidagi 184-son qarori URL: <https://lex.uz/acts/2974586>.

4. 2021–2025-yillarda Korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. URL: <https://anticorruption.uz/uz>.

5. Mirsoatov A.Q. Raqamli transformatsiya: mazmuni, mohiyati, shart-sharoitlari va istiqbolli yo'nalishlari // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies)" ilmiy elektron jurnali. – 2022. – № 3. – B. 305–312. URL: <https://iqtisodiyot.tsue.uz/journal/index.php/iit/article/download/33/34/342>.

6. Singapur Davlatining "Smart Nation" konsepsiyasi. URL: <https://www.smartnation.gov.sg/goals-of-sn2/growth/>.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli

O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni. URL: <https://lex.uz/docs/-5030957>.

8. "Xavfsiz shahar" loyihasi amalda. Vazifalar ulkan va mas'uliyatli.

URL: <https://gov.uz/uz/iiv/news/view/20734>.

9. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi. Raqamli transformatsiya yo'nalishida amalga oshirilayotgan ishlar. URL: <https://iiv.uz>.

10. United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC). (2021). "Digital transformation of law enforcement". URL: <https://www.unodc.org>.

FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIKKA ZAMONAVIY VA ILMIY QARASHLAR

A. S. ODINAYEV,

*O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi boshlig'ining o'rinbosari v.b.,
y.f.f.d., professor, adliya maslahatchisi*

Annotatsiya.

Maqolada fuqarolik-huquqiy javobgarlikka ilmiy nazariy qarashlar hamda fuqarolik-huquqiy javobgarlikning tarkibiy qismlari bo'yicha olimlar va tadqiqotchilar fikri yoritilgan.

Tayanch so'zlar:

shartnoma, zararni qoplash, ayb, neustoyka, jarima, kompensatsiya, javobgarlikni ta'qib qilish, fuqarolik-huquqiy javobgarlik, majburiyatlarni buzish, shartnomaviy javobgarlik.

Аннотация.

В статье освещены научно-теоретические взгляды на гражданско-правовую ответственность, а также мнения ученых и исследователей относительно структурных компонентов гражданско-правовой ответственности.

Ключевые слова:

договор, возмещение ущерба, вина, неустойка, штраф, компенсация, преследование ответственности, гражданско-правовая ответственность, нарушение обязательств, договорная ответственность.

Annotation.

The article highlights scientific and theoretical perspectives on civil liability, as well as the views of scholars and researchers concerning the structural components of civil liability.

Key words:

contract, compensation for damage, guilt penalty, fine, compensation, enforcement of liability, civil liability, breach of obligations, contractual liability.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlik – bu davlat tomonidan qo'llaniladigan majburiy chora bo'lib, unda huquqni buzgan shaxsdan jabrlangan shaxs manfaatiga moliyaviy sanksiyalar qo'llash talab qilinadi. Bu sanksiyalar huquqni buzgan shaxs harakatlarining salbiy iqtisodiy oqibatlarini o'ziga yuklaydi va jabrlanganning moddiy manfaatlarini tiklaydi.

Sivilistlar V.P. Gribanov va A.A. Luk'yancev fikriga ko'ra, fuqarolik huquqiy javobgarlik – bu davlat majburiyiligi shaklining biri bo'lib, mulluk xususiyatiga ega sanksiyalar qo'llanilishi bilan bog'liqdir. U buzilgan huquqlarni tiklash va huquqiy teng ishtirokchilar o'rtasida normal iqtisodiy munosabatlarni rag'batlantirishga qaratilgan [1].

Fuqarolik-huquqiy javobgarlikda qarzdorning mavjudligini e'tiborda tutish kerak, chunki u belgilangan muddatda muayyan majburiyatni bajarmaganligi uchun kreditorga keltirilgan zararni qoplash shaklida javobgarlikka tortiladi.

E.A. Sukhanov esa fuqarolik-huquqiy javobgarlikni davlat majburiyiligidan bir shakli sifatida majburiyatni bajarmagan shaxsdan jabrlanuvchi manfaatlarini uchun mulkiy

sanksiyalarni undirib olish, mulkiy oqibatlarni yuklash va jabrlanuvchining buzilgan manfaatlarini tiklash deb tushuntiradi [2].

Zamonaviy fuqarolik qonunchiligidagi kamchiliklardan yana biri – umumiy fuqarolik-huquqiy javobgarlikka oid mustaqil institutning etishmasligidir [3].

A.A. Luk'yancev fikriga ko'ra, fuqarolik-huquqiy javobgarlik – bu jismoniy yoki yuridik shaxsning fuqaro-huquqbuzarlikni sodir etishi oqibati bo'lib, bu holatda kreditorda (huquqbuzarlikdan jabrlangan, ya'ni zarar ko'rgan shaxsda) huquqbuzarga nisbatan qonun yoki shartnoma bilan belgilangan choralarini qo'llash talablari yuzaga keladi. Ushbu choralar kreditorning yo'qotilgan fuqarolik manfaatini tiklash yoki shu manfaat yo'qotilishi uchun kompensatsiya olishga qaratilgan bo'lib, bu talablarni ixtiyoriy bajarish yoki davlat majburiyiligi ta'siri ostida huquqbuzarga yangi yoki qo'shimcha fuqarolik majburiyatlarini yuklash, shu bilan birga huquqbuzarning subyektiv fuqarolik huquqlarini cheklash shaklida namoyon bo'ladi [4].

Ayrim huquqshunoslar bir tomondan fuqarolik-huquqiy javobgarlikning asosi

huquqbuzarlik ekanligini aytsalar, boshqa tomondan fuqarolik-huquqiy javobgarlikning asosi nafaqat huquqbuzarlik, balki "qonun yoki shartnomada aniq belgilangan boshqa holatlar" ekanligini ham ta'kidlaydilar [5].

Fuqarolik-huquqiy javobgarlik javobgarlikning preventiv (oldini olish, ogohlantirish) maqsadini ko'zlovchi turlardan farqli ravishda, ham oldini olish, ham zararni qoplash maqsadlarini ko'zlaydi.

Javobgarlik asoslari esa g'ayriqonuniy harakat, yetkazilgan zarar, ular o'rtasida sababiy bog'lanish va subyektiv faktor – ayb kabi tarkibiy qismlardan iborat [6].

Ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlar o'ziga nisbatan lozim darajada talabchanlik qilmagan holda majburiyatlarning buzilishiga yo'l qo'yib, shartnoma shartlarini bajarmaydilar.

Bu esa shartnoma majburiyatlarining bajarilishini ta'minlashda fuqarolik-huquqiy javobgarlik asosiy vosita ekanligini anglatadi [7].

Fuqarolik-huquqiy javobgarlik choralarini belgilab qo'ygan normativ hujjatlar shaxsning shaxsiy harakatlari hisoboti bilan cheklanmaydi, balki huquq buzgan shaxs uchun fuqarolik huquqi sohasida aniq va amaliy oqibatlarini ham o'z ichiga oladi [8].

Fuqarolik-huquqiy javobgarlik nuqtai nazaridan qaraganda, bu javobgarlikning kelib chiqish asosidir. Agar zararni qoplash fuqarolik huquqining buzilishidagi deyarli barcha holatlarda qonun yoki shartnoma bilan aniqlangan holatlardan tashqari amalga oshirilishi mumkin deb hisoblansa, bu javobgarlik shakli umumiy fuqarolik-huquqiy javobgarlik deb ataladi.

Boshqa shakllar esa maxsus fuqarolik-huquqiy javobgarlik choralari hisoblanadi va ular faqat qonun yoki shartnoma tomonidan maxsus belgilangan fuqarolik huquqi buzilishlari holatlarida qo'llaniladi.

Zararlarni qoplash – fuqarolik munosabatlari ishtirokchilaridan birining boshqasi oldidagi majburiyatidir.

Zararlar faqat qonunchilikda belgilangan shakl va tartibda keltirilgan bo'lsa qoplanishi [9] haqidagi qarashlar asosida, majburiyat buzilishi natijasida jabrlangan shaxsga yetkazilgan zarar har ikki qismi – haqiqiy zarar va boy berilgan foyda qoplanishi shart degan xulosaga kelish mumkin.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlikka tortish uchun zarur bo'lgan shartlar majmuasi javobgarlikning asosini tashkil etadi. S.S. Alekseyev aytganidek, fuqarolik-huquqiy

javobgarlikning amalga oshishi uchun fuqarolik munosabatlari tuzilishi shart [10].

Fuqarolik-huquqiy javobgarlik muammolari bir qator omillar bilan bog'liq bo'lib, jumladan, ayb tushunchasiga oid ilm va amaliyotda yagona qarashning yo'qligi muhimdir.

Aybning mavjudligi fuqarolik-huquqiy javobgarlikni qo'llashning asoslaridan biridir. Fuqarolik qonunchiligida aybning bo'lishi tamoyili sodir etilgan g'ayriqonuniy xatti-harakatlar uchun yuklatiladigan javobgarlikning asosi sifatida nazarda tutiladi. Fuqarolik huquqida sodir etilgan g'ayrihuquqiy xatti-harakatlar uchun yuklatiladigan javobgarlikning asosi sifatida ayb tamoyili ko'rsatiladi. Bu tamoyil shartnomaviy hamda aybli fuqarolik-huquqiy javobgarlik asosini tashkil etadi.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlik choralarigina tomonlarning mulkiy manfaatlarini amalga oshirishni ta'minlash bilan birga, turli ijtimoiy munosabatlarda fuqarolik huquqbuzarlikka yo'l qo'ymaslikka qaratiladi.

Fuqarolik huquqida aybning bo'lishi tamoyili sodir etilgan g'ayrihuquqiy xatti-harakatlar uchun yuklatiladigan javobgarlikning asosi sifatida nazarda tutiladi. Ayb tamoyili bilan shartnoma asosida hamda shartnomadan tashqari vujudga keladigan fuqarolik-huquqiy javobgarlikning asosi belgilanadi. Zero, ayb fuqarolik huquqbuzarlik sodir etuvchi shaxsning o'z gayrihuquqiy xatti-harakatlariga va ularning zararli oqibatlariga nisbatan g'arazli maqsad yoki ehtiyotsizlik shaklidagi ruhiy munosabatidir [11].

Shartnomaviy majburiyatlarni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik holatlarida kreditor qarzdordan shartnomada yoki qonunda nazarda tutilgan jarima sanksiyalarini to'lashni yoki shartnomani bajarmaslik oqibatida yetkazilgan zarar har o'rnini qoplashni talab qilar ekan, majburiyatlarning buzilishida qarzdor o'zining aybi yo'qligini isbotlay olmasa, unga shartnomada va qonunda nazarda tutilgan tartibda va hajmda javobgarlik yuklatiladi.

Agar majburiyatning ijro etilmasligiga istisno sifatida qonun bilan yo'l qo'yilsa yoki majburiyatni ijro etish o'z ahamiyatini yo'qotgan bo'lsa yoki ma'lum tasodifiy holatlar ro'y berishi bilan ijro etilishining imkoniyati bo'lmasa va shuningdek, majburiyatning bajarilmaganligida o'zining aybsizligini isbot eta olsa, u majburiyatni bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladi.

Demak, fuqarolik huquqi bo'yicha

qarzdorga aybni inkor etish huquqi beriladi, qarzdor o'zining harakati uchun aybi mavjud bo'lgan taqdirda javob beradi. Buning uchun qarzdorning aybi har tomonlama isbotlangan bo'lishi kerak.

Zamonaviy fuqarolik huquqshunosligida ayb va fuqarolik-huquqiy javobgarlikning "obyektivlashuvi"ga moyillik kuzatiladi [12].

Ayb va fuqarolik huquqiy javobgarlikning obyektivlashuvi deganda javobgarlik va aybni shaxsning ichki irodasiga (ya'ni subyektiv holatiga) emas, balki uning harakati yoki oqibatlariga nisbatan tashqi, obyektiv omillar asosida baholashni tushunish kerak. Ya'ni an'anaviy tarzda ayb va javobgarlik shaxsning niyatlari, xohish-irodalari bilan bog'liq bo'ladi. Lekin "obyektivlashuvi"da shaxsning ichki irodasiga qaramasdan, u sodir etgan harakat yoki uning oqibati uchun javobgarlik belgilanadi. Bu holatda javobgarlik shaxsning aybiga emas, balki uning harakati yoki natijalariga qarab belgilanadi.

Ayrim olimlar shartnomaviy majburiyat normalarini buzish – shartnomaning shartlarini noto'g'ri bajarish yoki umuman bajarmaslik – shartnomaviy javobgarlikning asosiy sababi deb tushuntiradilar [13].

Fuqarolik huquqbuzarlik u bilan bog'liq bo'lgan quyidagi tarkibiy elementlarga ega:

huquqbuzar tomonidan sodir etilgan harakatning qonunga zidligi;

huquqbuzarning harakatlari oqibatida zararining yuzaga kelganligi;

huquqbuzarlik va oqibatlar o'rtasidagi sababiy bog'liqlik;

har qanday shakldagi ayb – bu qasddan yoki ehtiyotsizlik tufayli kelib chiqishi mumkin [14].

Fuqarolik-huquqiy javobgarlikka taqiqlangan, tanlangan va amalga oshirilgan harakat varianti tufayli yuzaga kelgan zararli oqibatlarga nisbatan fuqarolik huquqi subyektining qo'shimcha huquqiy majburiyat yoki fuqarolik huquqidan mahrum bo'lish tarzida javobgarlikni o'z zimmasiga olish majburiyatidir deb tushuntirishlar berilgan [15].

Qisqacha aytganda, zamonaviy fuqarolik huquqida ayb va javobgarlik shaxsning ichki xohishiga emas, balki tashqi holatlarga va oqibatlarga qarab belgilanishiga e'tibor kuchayib bormoqda.

Yana bir masala, bu shartnomaviy javobgarlik bo'lib, bu aniq bir huquqbuzarlik, ya'ni shartnoma bilan belgilangan shartlarni buzganlik uchun vujudga keladi, shuningdek,

shartnomaviy javobgarlik bir tarafning boshqa taraf oldidagi javobgarligi sifatida ham qaraladi.

Shartnomaviy javobgarlik asosan, bajarilmagan yoki umuman bajarilmagan shartnomaviy majburiyat sababli yuzaga kelib, ushbu javobgarlikning yuzaga kelishi uchun shartnomani imzolagan taraflar o'rtasida shartnomaviy majburiyatning mavjudligi asosiy talab hisoblanadi.

Shartnomaviy majburiyatning buzilishi bo'yicha fuqarolik-huquqiy javobgarlik huquqbuzarning qonunga zid harakati o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud bo'lganda tatbiq etilib, asosan shartnomaviy majburiyat doirasida yuzaga kelgan zarar, odatda, neustoyka to'lash, zararni qoplash yoki oldindan to'lov to'lash yo'li bilan qoplanadi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytish kerakki, fuqarolik-huquqiy javobgarlik majburiyatlar tizimida jabrlanuvchi manfaatlarini tiklaydi, javobgarining qonunga zid harakatlari oqibatida yuzaga keladi, adolatlik, qonuniylik, iqtisodiy huquqlarni tiklash, gumanizm tamoyillarini o'z ichiga oladi, shartnomaviy va shartnomadan tashqari (qonunga asoslangan) shakllarga bo'lina-di, javobgarlikning amalga oshirilishida majburiyatni bajarish yoki kompensatsiya qilishga majburlaydi.

Xulosa shuki, fuqarolik-huquqiy tisdagi jarimaviy sanksiyalarni belgilash, ularni hisoblash va qo'llashga nisbatan qoidalar turli normativ-huquqiy hujjatlarga "sochib" tashlanganligini ko'rish mumkin. Ko'plab idoraviy hujjatlarda, ayniqsa, monopoliyaga oid subyektlar tomonidan iste'molchilarga xizmat ko'rsatishda belgilangan sanksiyalar tizimidagi xilma-xilliklar ko'p holatlarda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga zid ravishda belgilanishi va tatbiq etilish holatlari mavjud.

Ushbu holatlarni bartaraf etish maqsadida Fuqarolik kodeksiga "Fuqarolik-huquqiy javobgarlik choralari" nomli yangi modda kiritish hamda unda jarimaviy xarakterga ega bo'lgan aynan qanday ta'sir choralari fuqarolik-huquqiy javobgarlik choralari hisoblanishi va ularning turlarini aniq belgilash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Грибанов В. П. Осуществление и защита гражданских прав. – М., 2001. – 295 с.
2. Российское гражданское право: Учебник. В 2 т. Т. 1 / Отв. ред. Е. А. Суханов. – М., 2010. – 445 с.
3. Салчак Ч.Ш., Монгуш А.С. Проблемы гражданско-правовой ответственности в современном гражданском праве // Экономика и социум. – №3(82). – 2021; <https://cyberleninka.ru/article/n/problemy-grazhdansko-pravovoy-otvetstvennosti-v-sovremennom-grazhdanskom-prave/viewer>.
4. Лукьянцев А. А. Применение гражданско-правовой ответственности при осуществлении предпринимательской деятельности: теория и судебная практика. – Ростов н/Д, 2005. – 70 с.
5. Иванова Ж.Б. Гражданско-правовая ответственность юридических лиц, эксплуатирующих опасные производственные объекты // Российская юстиция. – 2014. – № 2. – С. 5.
6. Shadmanov F.Y. Bozor iqtisodiyoti sharoitida shartnoma majmuriyatlarini buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik muammolari: Yurid. fan. d-ri. dis. ...Avtoref. – T., 2002. – 16-b.
7. Shadmanov F.Y. Bozor iqtisodiyoti sharoitida shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun fuqarolik huquqiy javobgarlik muammolari: Yurid. fan. d-ri. dis. ...Avtoref. – T., 2002. – 8-b.
8. Братусь Н. Юридическая ответственность и законность [Текст]: очерк теории / Н. Братусь. – М., 2019. – 215 с.
9. Сергеев А.П., Толстой, Ю.К. Гражданское право [Текст]: Учебник в 3 т. Т. 1 / А.П. Сергеев, Ю.К. Толстой – М., 2018. – 776 с.
10. Алексеев С. С. Проблемы теории права [Текст]: Учебник / С.С.Алексеев – М., 2019. – 576 с.
11. Матвеев Г. К. Вина в советском гражданском праве. – Киев, 1951. – 178 с.
12. Богданов Д. Е. Справедливость как основное начало виновной и безвиновной договорной ответственности в российском и зарубежном праве // Адвокат. – 2014. – № 1. – С. 11–28.
13. Мусаева И.М. Гражданско-правовая ответственность в Российском праве // Вопросы студенческой науки. – 2020. – №10 (50).
14. Богданов Д. Е. Вина как условие гражданско-правовой ответственности – анализ теории и судебной практики// Российский судья. – 2013. – № 4.
15. Коновалов С.А. Основание гражданско-правовой ответственности: Дис. ... канд. юрид. наук. – СПб., 2006.

FUQARONING HUQUQ VA MUOMALA LAYOQATI BILAN BOG'LIQ ISHLARNI SUDDA KO'RISH

Z. N. ESANOVA,

*TDYU Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual
huquqi kafedrası professori*

Annotatsiya.

Mazkur maqolada fuqaroning huquq va muomala layoqati, uning protsessual ahamiyati, fuqaroning huquq va muomala layoqati bilan bog'liq ishlar, ularni sudda ko'rish tartibi, bunday toifadagi ishlarni o'ziga xos xususiyatlari, majburiy yotqizish asoslari va tartibi, oqibatlar haqidagi fikr-mulohazalar, taklif-tavsiyalar o'rin olgan. Shu bilan birga, bunday turdagi fuqarolik ishlarining o'zaro o'xshash va farqli jihatlari haqidagi fikr-mulohazalar, nazariy qoidalar o'rin olgan.

Tayanch so'zlar:

huquq layoqati, muomala layoqati, protsessual huquq layoqati, protsessual muomala layoqati, emansipatsiya, majburiy yotqizish, psixiatriya, sud, hal qiluv qarori.

Аннотация.

В статье даны предложения и рекомендации по вопросам правоспособности и дееспособности гражданина, их процессуального значения, изучены особенности дел, связанных с правоспособностью и дееспособностью гражданина, порядок их рассмотрения в суде, основания и порядок принудительной госпитализации, их последствия.

Ключевые слова:

правоспособность, дееспособность, процессуальная дееспособность, эмансипация, принудительная госпитализация, психиатрия, суд, решение.

Annotation.

This article contains opinions, suggestions and recommendations on the legal and transactional capacity of a citizen, its procedural significance, cases related to the legal and transactional capacity of a citizen, the procedure for their consideration in court, the specific features of such cases, the grounds and procedure for compulsory placement, and their consequences. At the same time, it contains opinions and theoretical rules on the similarities and differences of such civil cases.

Keywords:

legal capacity, transactional capacity, procedural legal capacity, procedural transactional capacity, emancipation, compulsory placement, psychiatry, court, decision.

Fuqarolik sudlarida ko'rilayotgan fuqaroni muomala layoqati bilan bog'liq ishlarni ko'rish amaliyoti tobora ortib bormoqda. Chunki hech qaysi organ fuqaroni muomala layoqatini cheklashga yoki uni butunlay tugatishga haqli emas. Faqat sud organlarigina fuqaroning biologik layoqatini cheklashga yoki tugatishga (vaqtincha bo'lsa-da) vakolatli sanaladi. Ushbu mazmundagi murojaat (talab) ni ko'rish fuqarolik sudlarida alohida ish yuritish tartibida mazmunan ko'riladi. Bunday turkumdagi ishlarni yuritishning muqobili bo'lmaydi, faqat sud vakolatiga, sudning sudloviga tegishli hisoblanadi. Mazkur toifadagi ishlar bo'yicha ishlarni (nizolarni) hal qilishning muqobil usullari (talabnoma yuborish, mediatsiya protsedurasini qo'llash, hakamlilik sudlarida ishlarni hal qilish) ni qo'llash mumkin bo'lmaydi.

Keyingi yillarda bunday turdagi ishlarning ko'payishiga sabab va omillarni tahlil qilsak,

hayotdagi qiyinchiliklar, iqtisodiy muammolar, oilaviy kelishmovchiliklar, shaxsiy ruhiy holati bilan bog'liq kasalliklarning ko'payishi, ayrim jinoyatlarni sodir qilish yoki uni yengillashtiruvchi holatlarini izlab topishda, hisobga olishda va boshqalarda ko'rsatish mumkin.

O'zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e'tirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'ladi [1].

Fuqarolarning layoqati, uning bekam-u ko'st tug'ilishi va faoliyat yuritishida, inson hayotida muhim o'rin tutuvchi komponentlardan biri sanaladi. Layoqat, avvalo fuqaroning ham jismonan, ham aqlan, ham ma'nan, ham huquqiy va boshqa ko'pchilik talablar va mezonlar doirasida vakolatlilik tushunchasi bilan izohlanadi. Mazkur tushuncha mazmunida o'zini

anglash, o'zini boshqarish, o'z harakatlariga javob berish, muayyan ishni va vazifani bajarishga uquvlik, ma'lum yoshga yetganlik kabi harakat, holat va talablar yotadi. Ushbu fakti bekor qilishga, layoqatsiz deb topishga yoki layoqatni cheklashga qonunda belgilangan asoslar, shartlar va ma'lum protsessual tartib zarur.

Fuqarolik ishlarini sudda ko'rishda fuqaroning muomala layoqati bilan bog'liq ishlar ham ko'rib hal qilinadi. Fuqaroning muomala layoqati biologik va huquqiy omillardan iborat. Mazkur tushuncha subyektiv ong, o'z-o'zini anglash, aql-idrok etish, xatti-harakatlarini tushunish va ularga javob berish, munosabatlarga kirishish va hokazolar orqali ifodalanadi. Ushbu tushunchalar fuqaroning tug'ilishi bilan vujudga kelsa, o'limi bilan tugaydi. Ammo muayyan vaziyat, holat va huquqiy asoslarga ko'ra, fuqaro hayoti davomida (tirikligida) ham layoqat tugatilishi yoki cheklanishi mumkin.

Fuqaroning layoqati (huquq va muomala layoqati) tibbiyot va yurisprudensiyada muhim institutlardan biri sanaladi. Bularni o'rganishda tibbiy, genetik, psixologik, psixiatrik, yuridik, logik omillar va asoslar muhim o'rin tutadi. Odatda tibbiyotda fuqaroning (jismoniy shaxsning) layoqati darajasini va sog'lomligini genetik (irsiy) va orttirilgan holat sifatida tavsiflanadi. Tibbiy asoslarga binoan huquqiy malakalanadi va sudning qaroriga ko'ra fuqaroning holati e'lon qilinadi va cheklanadi.

Fuqaroning layoqati huquq va muomala layoqati sifatida tasniflanadi. Ammo bu tushunchalarning mazmun-mohiyatini o'rganish, uning munosabatlardagi o'rnini belgilash, inson hayoti va faoliyatidagi rolini anglash g'oyat muhim. Fuqaroning huquq va muomala layoqati tibbiy jihatdan ham, yuridik jihatdan ham zarar ko'rmasligi shart. Aks holda inson ruhiyati buziladi, uning hayotdagi, jamiyatdagi o'rni yo'qoladi, munosabatlari o'zgaradi, vorislik oqibatlarini nizoli bo'ladi, ish faoliyati tugaydi, oilaviy munosabatlariga putur yetadi va boshq. Hatto, sud va boshqa organlarga murojaat qilishda, shartnomaviy munosabatlariga kirishishda, jamiyatning faol a'zosi bo'lishida cheklovlar yoki muammolar paydo bo'ladi.

Ayni paytda ushbu tushunchaning Fuqarolik kodeksi, Fuqarolik protsessual kodeksi normalari asosida o'rganish, Oila kodeksi asosida keng talqin etish, uning tibbiy, psixologik, huquqiy asoslarini yoritish muhim sanaladi. Shu bilan birga huquq va muomala layoqati tushunchalarining huquqiy mezonlarini ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq etish,

bunday toifadagi ishlarni sudda ko'rishning maqsad va vazifalariga alohida to'xtalish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Fuqarolik kodeksining 17-moddasiga binoan, fuqaroning huquq layoqati u tug'ilgan paytdan e'tiboran vujudga keladi va vafot etishi bilan tugaydi. Fuqarolar huquq layoqatining mazmunida mulk huquqi asosida mol-mulkka ega bo'lishlari; mol-mulkni meros qilib olishlari va vasiyat qilib qoldirishlari; bankda jamg'armalarga ega bo'lishlari; tadbirkorlik, dehqon (fermer) xo'jaligi bilan hamda qonunda taqiqlab qo'yilmagan boshqa faoliyat bilan shug'ullanishlari; yollanma mehnatdan foydalanishlari; yuridik shaxslar tashkil etishlari; bitimlar tuzishlari va majburiyatlarda ishtirok etishlari; yetkazilgan zararining to'lanishini talab qilishlari; mashg'ulot turini va yashash joyini tanlashlari; fan, adabiyot va san'at asarlarining, ixtironing, qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa intellektual faoliyat natijalarining muallifi huquqiga ega bo'lishlari mumkin. Fuqarolar boshqa mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ham ega bo'lishlari mumkin. Nazariy jihatdan olganda, huquq layoqati obyektiv huquq turkumiga kiradi.

Fuqarolik kodeksining 22-moddasiga ko'ra, fuqaroning muomala layoqati deganda fuqaroning o'z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo'lish va ularni amalga oshirish, o'zi uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirish va ularni bajarish layoqati (muomala layoqati) u voyaga yetgach, ya'ni o'n sakkiz yoshga to'lgach to'la hajmda vujudga keladi [3].

Voyaga yetgunga qadar qonuniy asosda nikohdan o'tgan fuqaro nikohdan o'tgan vaqtdan e'tiboran to'la hajmda muomala layoqatiga ega bo'ladi. Nikoh haqiqiy emas deb topilganida sud voyaga yetmagan er (xotin) sud belgilangan paytdan boshlab to'la muomala layoqatini yo'qotganligi haqida qaror qabul qilishi mumkin.

Fuqaroning huquq layoqati va muomala layoqatini cheklashga yo'l qo'yilmaydi. Qonunda belgilangan holatlar va tartibdan tashqari, hech kimning huquq va muomala layoqati cheklanishi mumkin emas, bu haqda Fuqarolik kodeksining 23-moddasida ko'rsatilgan [3].

Fuqarolarning muomala layoqatini cheklashning qonunda belgilab qo'yilgan shartlari va tartibiga rioya qilmaslik davlat organining tegishli cheklashni belgilaydigan hujjati haqiqiy emasligiga sabab bo'ladi.

Fuqaroning huquq layoqatidan yoki

muomala layoqatidan to'la yoki qisman voz kechishi va huquq layoqati yoki muomala layoqatini cheklashga qaratilgan boshqa bitimlar o'z-o'zidan haqiqiy emasdir, bunday bitimlarga qonun tomonidan yo'l qo'yiladigan hollar bundan mustasno.

Odatda protsessual huquq va muomala layoqati tushunchalarini fuqarolik, iqtisodiy, ma'muriy va ayrim istisnoliklar bilan protsessual Kodekslarda uchratish mumkin. Protsessual huquq va muomala layoqati huquqni himoya qilish vositasi, murojaat qilish talablari demakdir va sudlarda da'vo arizasi, ariza va shikoyatlar berishda muhim atributlardan biri sanaladi. Protsessual qonun hujjatlari talablariga rioya qilinmasa, muayyan oqibatlar yuz berishi ma'lum.

Fuqarolik protsessual kodeksining 41-moddasiga ko'ra, barcha fuqarolar va tashkilotlarning fuqarolik protsessual huquq va majburiyatlarga ega bo'lish layoqati (huquq layoqati) teng ravishda e'tirof etiladi. Ushbu huquq barcha fuqarolarga berilgan. Ammo fuqarolik protsessual muomala layoqati (FPKning 42-moddasi) faqat voyaga yetgan fuqarolarga berilgan. Sudda o'z huquq va majburiyatlarini amalga oshirish layoqati voyaga yetgan fuqarolar va tashkilotlarga tegishlidir.

Voyaga yetmagan, ya'ni yoshi o'n to'rttdan o'n sakkizgacha bo'lgan fuqarolarning, shuningdek muomala layoqati cheklangan deb topilgan fuqarolarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari sudda ularning ota-onalari, ularni farzandlikka olganlar yoki homiylar tomonidan himoya qilinadi [2]. Ammo bu holat voyaga yetmaganlarni va muomala layoqati cheklangan deb topilgan fuqarolarni bunday ishlarda shaxsan ishtirok etish huquqidan mahrum qilmaydi.

Ota-onalardan aliment undirish to'g'risidagi ishlar bo'yicha, shuningdek mehnat bilan bog'liq huquqiy munosabatlardan va olingan ish haqini yoki boshqa daromadni tasarruf etish bilan bog'liq bitimlardan kelib chiqadigan ishlar bo'yicha voyaga yetmaganlar sudda o'z huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari shaxsan himoya qilish huquqiga ega. Bunday ishlarda voyaga yetmaganlarga yordam berish uchun ularning ota-onalarini, ularni farzandlikka olganlarni yoki homiylarni jalb qilish to'g'risidagi masala sud tomonidan hal qilinadi.

O'n olti yoshga to'lgan voyaga yetmagan shaxs qonun hujjatlarida belgilangan tartibda

muomalaga to'la layoqatli deb e'lon qilingan (emansipatsiya) taqdirda, sudda o'z huquqlari va majburiyatlarini shaxsan amalga oshirishi mumkin.

O'n to'rt yoshga to'lmagan kichik yoshdagi bolalarning, shuningdek ruhiy holati buzilganligi tufayli muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari sudda ularning qonuniy vakillari — ota-onalari, ularni farzandlikka olganlar yoki vasiylar himoya qiladi.

Oqibatlariga ko'ra, arizani qabul qilish va ish qo'zg'atish jarayonida, yoxud ishni ko'rish jarayonida fuqaroning huquq va muomala layoqati bilan bog'liq muammolar kelib chiqsa: arizani ish yuritishga qabul qilish rad etiladi (deyarli asoslarida to'g'ridan to'g'ri uchramaydi); ariza qaytariladi; ariza ko'rmasdan qoldiriladi; ish yuritish to'xtatib turiladi.

FPKning 122-moddasiga ko'ra, 1) ariza muomalaga layoqatsiz shaxs tomonidan berilgan bo'lsa; 2) manfaatdor shaxs nomidan ariza ish yuritishga vakolati bo'lmagan shaxs tomonidan berilgan bo'lsa, ariza ko'rmasdan qoldiriladi va bu haqda sudyaning ajrimi chiqariladi. Arizani ko'rmasdan qoldirish uchun asos bo'lgan holatlar bartaraf etilganidan keyin manfaatdor shaxs sudga ariza bilan umumiy tartibda yangidan murojaat qilishga haqli [4].

FPKning 195-moddasiga ko'ra, 1) ariza muomalaga layoqatsiz shaxs tomonidan berilgan bo'lsa; 2) manfaatdor shaxs nomidan berilgan ariza ish yuritish vakolatiga ega bo'lmagan shaxs tomonidan berilgan bo'lsa, arizani qaytarish haqida ajrim chiqariladi. Arizani qaytarish to'g'risidagi ajrim ustidan shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin. Ajrim bekor qilingan taqdirda, ariza sudga dastlabki murojaat qilingan kunda berilgan, deb hisoblanadi. Arizaning qaytarilishi yo'l qo'yilgan kamchiliklar bartaraf etilganidan keyin sudga umumiy tartibda takroran murojaat qilishga to'sqinlik qilmaydi [4].

Yuqoridagi asoslar tahlilidan ko'rinadiki, arizani ko'rmasdan qoldirish va arizani qaytarish haqida ajrimlar, garchi asoslari bir xil bo'lsa-da, sudda ish yuritishning turli bosqichlarida chiqariladi, masalan, sudda ish qo'zg'atish jarayonida arizani qaytarish haqida ajrim chiqarilsa, ishni sudda muhokama qilish bosqichida ariza ko'rmasdan qoldirish haqida ajrim chiqariladi. Masalan, turar-joyi bo'lish haqidagi da'vo ishida ijara shartnomasi tarafi da'vo arizasi berish vakolatiga ega bo'lmaydi,

boshqa ishda ishtirok etuvchi shaxslar sifatida sudga jalb qilinishi mumkin.

FPKning 116-117-moddalariga ko'ra, ishda taraf bo'lgan fuqaro vafot etganda, agar nizoli huquqiy munosabat huquqiy vorislikka yo'l qo'ysa yoki ishda taraf bo'lgan yuridik shaxs qayta tashkil etilganda; fuqaro (taraf) muomala layoqatini yo'qotganda; taraf davolash muassasasida bo'lganda, shuningdek taraflardan birida sudga kelishga to'sqinlik qiladigan, tibbiyot muassasasining ma'lumotnomasi bilan tasdiqlangan kasallik mavjud bo'lganda; ish yuritish to'xtatib turiladi.

Ish yuritishni to'xtatib turish vaqti (FPKning 118-moddasi) gabinon, muomalalayoqatsiz shaxsga qonuniy vakil tayinlanguniga qadar; taraf davolash muassasasidan chiqquniga yoki tarafning sudga kelishiga to'sqinlik qilayotgan kasallik tuzalguniga qadar; taraf qaytguniga qadar; ekspertiza o'tkazish bo'yicha harakatlar tugaguniga qadar va boshqa to'xtatishga sabab bo'lgan vaziyatlar tugagunga yoki bartaraf etilgunga qadar to'xtatiladi va bu haqda sud ajrim chiqaradi. Sudning ish yuritishni to'xtatib turish to'g'risidagi ajrimi ustidan xususiy shikoyat (protest) berilishi mumkin. Ish yuritish to'xtatib turilganida, FPKda belgilangan yoki sud tomonidan tayinlangan muddatlarning o'tishi to'xtatib turiladi [5]. Ish yuritish uni to'xtatib turishga sabab bo'lgan holatlar barham topganidan keyin ishda ishtirok etuvchi shaxslarning arizasiga ko'ra yoki sudning tashabbusi bilan tiklanadi. Ish yuritish tiklangan taqdirda, sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarni umumiy asoslarda chaqiradi. Ish yuritishni tiklash to'g'risida ajrim chiqariladi [6].

Protsessual qonun hujjatlarida muomala layoqatini ma'lum yoshga yetganlik, (ba'zi ishlar bo'yicha voyaga yetmagan 16 yoshga yetganlik ham subyekt yoshi sanaladi); aqlan rasolik, ish yuritishga vakolatlilik, ish qo'zg'atishga vakolatlilik kabi tushunchalar (harakatlar, talablar) orqali tavsiflash mumkin. Bir so'z bilan aytganda, protsessual huquq layoqati protsessual muomala layoqati orqali ijro etiladi.

Protsessual muomala layoqatini yosh senzi bilan belgilanishi aksariyat fuqarolik ishlari bo'yicha sudga murojaat qilish yoshi 18 yoshni tashkil qiladi. Ayrim nizolar bo'yicha moddiy va protsessual Kodekslar o'zida 16 yoshga to'lganlarga (istisno tariqasida) ish qo'zg'atish vakolati berilgan, ular ham subyekt sifatida

mustaqil vakolatga ega bo'ladi. Masalan, otalikni belgilash, farzandlikka olish va boshqalar.

Ish qo'zg'atish vakolati berilgan subyektlar deganda moddiy va protsessual kodekslarda aniq subyektlar doirasi berilgan. Masalan, Oila kodeksining 32, 51, 53, 54, 62, 63, 80, 82, 83-moddalari va boshqalarda ish qo'zg'atuvchi subyektlar doirasi mustahkamlangan. Hattoki nafaqat da'vogarlariga maxsus huquq va layoqat huquqi berilgan, balki ish bo'yicha jalb etilgan javobgarlarga ham maxsus subyekt bo'lish talablari berilgan. Masalan, nikohning tugatilishida da'vogar va javobgar nikohlanuvchi subyektlar bo'lishi, bolalar tarbiyasi bilan bog'liq nizolarda ota-onalar maxsus subyekt bo'lishi, farzandlikka olish to'g'risidagi ishlarda farzandlikka oluvchilar ro'yxatiga kiruvchi shaxslar subyekt bo'la olishi belgilangan.

Fuqarolik protsessual kodeksida (FPKning 3-kichik bo'lim. Alohida tartibda ish yuritish) fuqaroning muomala layoqati bilan bog'liq ishlar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1) fuqaroni muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topish haqidagi;

2) shaxsni g'ayriixtiyoriy tartibda psixiatriya statsionariga yotqizish to'g'risidagi yoki uning ushbu muassasada yotishi muddatini uzaytirish haqidagi;

3) voyaga yetmagan shaxsni to'liq muomalaga layoqatli deb e'lon qilish (emansipatsiya) to'g'risidagi;

4) fuqaroni muomala layoqatini cheklashni bekor qilish va homiylikni bekor qilish to'g'risidagi;

5) fuqaroni muomalaga layoqatli deb topish to'g'risidagi.

FPKning 31-bobi "Fuqaroni muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topish to'g'risidagi ishlar"ga bag'ishlangan bo'lib, unga ko'ra, (310-modda) spirtli ichimliklar, giyohvandlik moddalari va psixotrop moddalarni suiiste'mol qilishi natijasida fuqaroni muomala layoqati cheklangan deb topish to'g'risidagi yoki fuqaroni ruhiy holati buzilganligi (ruhiy kasalligi yoxud aqli zaifligi) tufayli muomalaga layoqatsiz deb topish haqidagi ish uning oila a'zolari, vasiylik va homiylik organlari, prokuror, davolash muassasalari va boshqa davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda jamoat birlashmalari bergan

arizalar bo'yicha qo'zg'atilishi mumkin [7]. Fuqaroni muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topish to'g'risidagi ariza mazkur fuqaro yashab turgan joydagi, agar bu shaxs davolash muassasasiga joylashtirilgan bo'lsa, mazkur muassasa joylashgan hududdagi sudga beriladi. Sudya arizani olgach, ishni sud muhokamasiga tayyorlash tartibida fuqaroning ruhiy holati buzilganligi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) to'g'risida yetarli ma'lumotlar mavjud bo'lsa, uning ruhiy ahvolini aniqlash uchun sud-psixiatriya ekspertizasini tayinlaydi.

Fuqaro sud-psixiatriya ekspertizasini o'tishdan bosh tortganda sud uni majburiy tarzda ekspertizaga yuborish to'g'risida ajrim chiqarishi mumkin. Sud fuqaroni muomala layoqati cheklangan deb topish yoki fuqaroni muomalaga layoqatsiz deb topish to'g'risidagi ishni albatta mazkur fuqaroning, prokuror hamda vasiylik va homiylik organi vakilining ishtirokida ko'radi [8]. Fuqaroni muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topish to'g'risidagi ishlarni yuritish bilan bog'liq sud xarajatlari arizachidan undirilmaydi.

Fuqaroni muomalaga layoqatli deb topishda sud fuqaroning o'zi, uning homiysi, tashkilotlar va shaxslar bergan arizaga binoan fuqaroning muomala layoqatini cheklashni va unga nisbatan belgilangan homiylikni bekor qilish to'g'risida hal qiluv qarori chiqaradi. Shuningdek, sud-psixiatriya ekspertizasining xulosasiga asoslanib, sog'aygan fuqaroni muomalaga layoqatli deb topish haqida hal qiluv qarori qabul qiladi.

FPKning 32-bobi "Shaxsni g'ayriixtiyoriy tartibda psixiatriya statsionariga yotqizish yoki uning ushbu muassasada yotishi muddatini uzaytirish"ga bag'ishlangan bo'lib, unga ko'ra shaxsni g'ayriixtiyoriy tartibda psixiatriya statsionariga yotqizish to'g'risidagi yoki uning statsionarda yotishi muddatini uzaytirish haqidagi ariza sudga shaxs yotgan psixiatriya muassasasi tomonidan beriladi [9]. G'ayriixtiyoriy tartibda psixiatriya statsionariga yotqizish uchun qonunda nazarda tutilgan asoslar ko'rsatilgan arizaga shifokor psixiatrlerden iborat komissiyaning shaxsning psixiatriya statsionarida bundan keyin bo'lishi zarurligi to'g'risidagi asoslantirilgan xulosasi ilova qilinadi. Ariza psixiatriya muassasasi joylashgan yerdagi sud tomonidan ko'rib chiqiladi. Sud arizani qabul qilish bilan bir paytda arizani sudga ko'rib chiqish uchun

zarur bo'lgan muddatda shaxsning psixiatriya statsionarida bo'lib turishi masalasini hal etadi.

Mazkur ish yuritish turi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2015-yil 18-sentabrdagi "Shaxsni g'ayriixtiyoriy tartibda psixiatriya statsionariga hamda sil kasalligiga qarshi kurash muassasasining ixtisoslashtirilgan bo'limiga yotqizish yoki uning ushbu muassasalarda yotishi muddatini uzaytirish bilan bog'liq fuqarolik ishlari bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi 14-sonli qarori qabul qilindi. Shaxsni psixiatriya statsionariga yotqizish to'g'risidagi yoki uning statsionarda yotishi muddatini uzaytirish haqidagi ish sud tomonidan statsionarga yotqizilayotgan shaxsning qonuniy vakili va statsionarga yotqizishning asosiligi to'g'risida xulosa bergan komissiya tarkibidagi shifokor-psixiatr, prokuror, shuningdek shaxs yotgan psixiatriya muassasasi vakili ishtirokida o'n kunlik muddat ichida ko'rib chiqiladi [10]. Sud majlisiga psixiatriya muassasasi vakilining uzrsiz sabablarga ko'ra kelmaganligi arizani ko'rib chiqishga monelik qilmaydi, biroq sud uning kelishini shart deb topishi mumkin. Sudning arizani qanoatlantirish to'g'risidagi hal qiluv qarori tegishincha shaxsni psixiatriya statsionariga g'ayriixtiyoriy tartibda yotqizish yoki uning statsionarda yotishi muddatini uzaytirish uchun asos bo'ladi.

FPKning 34-bobi (324-326-modda) "Voyaga yetmagan shaxsni to'liq muomalaga layoqatli deb e'lon qilish (emansipatsiya)"ga bag'ishlangan bo'lib, unga ko'ra o'n olti yoshga to'lgan voyaga yetmagan shaxs qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda o'zi yashab turgan joydagi sudga o'zini to'liq muomalaga layoqatli deb e'lon qilish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilishi mumkin. Vasiylik va homiylik organlari voyaga yetmagan shaxsni to'liq muomalaga layoqatli deb e'lon qilishni rad etganligini tasdiqlovchi dalillar mavjud bo'lganda voyaga yetmagan shaxsni to'liq muomalaga layoqatli deb e'lon qilish to'g'risidagi ariza sud tomonidan qabul qilinadi [11]. Voyaga yetmagan shaxsni to'liq muomalaga layoqatli deb e'lon qilish to'g'risidagi ish sud tomonidan arizachi, uning ota-onasi (ulardan biri) yoki farzandlikka oluvchilar (oluvchi) yoki homiy, shuningdek vasiylik va homiylik organining vakili hamda prokuror ishtirokida ko'rib chiqiladi. Sud voyaga yetmagan shaxsni to'liq muomalaga layoqatli deb e'lon qilish to'g'risidagi arizani

mazmunan ko'rib chiqib, uni qanoatlantirish yoki rad etish haqida hal qiluv qarori qabul qiladi[12]. Ariza qanoatlantirilgan taqdirda, o'n olti yoshga to'lgan voyaga yetmagan shaxs sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgan kundan e'tiboran to'liq muomalaga layoqatli (emansipatsiya qilingan), deb e'lon qilinadi.

Mazkur ish yuritish turini kiritishdan maqsad: protsessual muomala layoqati doirasini kengaytirish, muayyan asoslarga muvofiq voyaga yetmagan shaxsni huquqlarini tenglashtirish, tadbirkorlik, mehnat sohasidagi huquqlarini yanada rag'batlantirishga qaratilgan. Bunday turdagi ishlarning protsessual xususiyatlari: mazkur turdagi ishlar alohida tartibda ko'riladigan ishlar toifasiga kiradi; qonunda belgilangan huquqiy, moddiy va tibbiy asoslar bo'lishi kerak; sud bunday holatda o'zi chiqargan hal qiluv qarorini o'zi bekor qila oladi. Bunda ishlarni ko'rishda "protsessual arizachilar" yoki ishda ishtirok etuvchilar sifatida vasiylik va homiylik organlari, prokuror, davolash muassasalari va boshqa davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda jamoat birlashmalari qatnashishlari yoki ularning arizalari asosida ish qo'zg'atilishi mumkin; bunday tartibdagi ishlarni ko'rishda sud-tibbiy ekspertizasi; sud-psixiatriya ekspertizasini o'tkazish talab etiladi; ushbu toifadagi ishlar bo'yicha sud tomonidan unga nisbatan majburiy keltirish to'g'risida ajrim chiqarilishi mumkin; bunday toifadagi ishlar bo'yicha darhol ijro etish jarayoniga yo'l qo'yiladi.

Yuqoridagi tahlillar asosida ayrim taklif-

mulohazalar bildiriladi:

Birinchidan, sud amaliyotida fuqaroning muomala layoqatini tiklanishi, tibbiy holatlar yaxshilanishi, tibbiy xulosalarda ko'rsatilgan fuqaroning sog'ligi bilan bog'liq muammolar bartaraf etilishi munosabati bilan mustaqil sud ishlari yuritiladi. Ammo bu borada fuqarolik protsessual qonun hujjatlarida mustaqil normalar mavjud emas. Shu bilan birga, fuqarolik sud ishlarini qaysi turi orqali ko'rilishi haqida aniq ko'rsatma berilmagan. Shu bois, Fuqarolik protsessual kodeksida, sohaga doir Oliy sud Plenum qarorlarida muomala layoqatini cheklashni bekor qilish, fuqaroni muomala layoqatini tiklash haqidagi mustaqil fuqarolik ishlari yuzasidan tegishli normalar va tushuntirishlar berilishi taklif etiladi.

Ikkinchidan, Fuqarolik protsessual kodeksining «Voyaga yetmagan shaxsni to'liq muomalaga layoqatli deb e'lon qilish (emansipatsiya)», deb nomlangan 34-bobida emansipatsiya tartibi ko'rsatilgan. Ammo mazkur normada emansipatsiya qo'llash mumkin bo'lgan va mumkin bo'lmagan holatlar haqida moddiy-huquqiy asoslar ko'rsatilmagan.

Uchinchidan, fuqaroni muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topish, shaxsni g'ayriixtiyoriy tartibda psixiatriya statsionariga yotqizish yoki uning ushbu muassasada yotishi muddatini uzaytirish kabi ishlarni ko'rib chiqishda va arizani qanoatlantirishda ketma-ketlik yoki uzluksizlikni ta'minlashda moddiy yoki protsessual qonun hujjatlarida shartlar yetarli emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 2025 (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi 01.05.2023, № 03/23/837/0241).
2. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. 2025 (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.02.2024 y., 03/24/905/0106-son).
3. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. 2024. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.11.2024-y., 03/24/995/0908-son.).
4. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. 2025 (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.03.2025-y., 03/25/1047/0233-son.).
5. Esanova.Z.N. Fuqarolik protsessual huquqi: Darslik. – T., 2022. – 328 b.
6. Shoraxmetov Sh.Sh. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi: Darslik. – T., 2001. – 512 b.
7. Shoraxmetov Sh.Sh. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlar. – T., 2010. – 960 b.
8. Якубов С.А. Стороны в гражданском процессе. – Т., 2006. – 170 с.
9. Egamberdiyev E.E. Sud ishlarini yuritish muammolari: O'quv qo'llanma. – T., 2008. – 72 b.
10. Mamasiddikov M.M. Fuqarolik protsessual huquqi. Umumiy qism: Darslik. – T., 2010. – 534 b.
11. Mamasiddikov M.M. Yodgorov X.B., Davletov O.M. Fuqarolik protsessual huquqi. Umumiy qism: Darslik. – T., 2018. – 400 b.
12. Mamasiddikov M.M. Yodgorov X.B., Davletov O.M. Fuqarolik protsessual huquqi. Maxsus qism: Darslik. – T., 2018. – 322 b.
13. Xabibullayev D.Y. Alohida tartibda ish yuritish: O'quv qo'llanma. – T., 2012. – 90 b.

JABRLANUVCHINING HUQUQ VA MANFAATLARINI MUHOFAZA QILISHDA YAPONIYA TAJRIBASI: SUD JARAYONIDAN KEYINGI INSTITUTSIONAL MEXANIZMLAR

D. R. TURAYEVA,

*IIV Akademiyasi Jinoyat huquqi kafedrası dotsenti,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

Annotatsiya.

Mazkur maqolada Yaponiya qonunchiligida jabrlanuvchilarni sud hukmidan so'ng huquq va manfaatlarini muhofaza qilish tizimi tahlil etiladi. Sud jarayoni yakunlanganidan so'ng jabrlanuvchilarning huquqlari, axborotga egalik qilish imkoniyatlari, shartli ozodlikdagi ayblanuvchining harakatlari to'g'risidagi kuzatuvlar Yaponiyada o'rnatilgan institutsional mexanizmlar asosida ko'rib chiqiladi. Maqolada mazkur mexanizmlarning samaradorligi hamda uning O'zbekiston qonunchiligi uchun ahamiyati muhokama etiladi.

Tayanch so'zlar:

jinoiat protsessi, jabrlanuvchi, Yaponiya qonunchiligi, shartli ozodlik, prokuror, suddan keyingi himoya, axborot huquqi.

Аннотация.

В данной статье проводится анализ системы защиты прав и интересов потерпевших после вынесения судебного приговора в законодательстве Японии. Рассматриваются вопросы реализации прав потерпевших, доступа к информации, а также механизмы наблюдения за поведением осужденного, находящегося на условно-досрочном освобождении, на основе существующих в Японии институциональных механизмов. В статье обсуждается эффективность указанных механизмов и их значение для законодательства Узбекистана.

Ключевые слова:

уголовный процесс, потерпевший, законодательство Японии, условно-досрочное освобождение, прокурор, послесудебная защита, право на информацию.

Annotation.

This article analyses the system of protecting the rights and interests of crime victims after the issuance of a court verdict under Japanese legislation. It examines the implementation of victims' rights, access to information, as well as the mechanisms for monitoring the behaviour of offenders released on parole, based on the institutional frameworks established in Japan. The article also discusses the effectiveness of these mechanisms and their relevance for the legislation of Uzbekistan.

Keywords:

criminal procedure, victim, Japanese legislation, parole, prosecutor, post-trial protection, right to information.

Jabrlanuvchilarni huquq va manfaatlarini muhofaza qilish huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati rivojida muhim o'rin tutadi. Tarixan jinoyat-protsessual huquqida jinoyat sodir qilgan gumonlanuvchi, ayblanuvchilarning huquqlari ustuvor deb, jabrlanuvchilar esa protsessual jihatdan passiv subyekt sifatida qaralar edi. Ammo so'nggi o'n yillarda xalqaro huquqda, xususan Yaponiyada, jabrlanuvchining huquqiy maqomini mustahkamlashga qaratilgan jiddiy islohotlar amalga oshirildi. Ushbu maqolada Yaponiyada suddan keyingi bosqichda jabrlanuvchilarning himoya qilish tizimi huquqiy jihatdan tahlil qilinadi.

Yaponiyada 2004-yilda qabul qilingan Jinoyat jabrlanuvchilarini himoya qilish Fundamental qonuniga muvofiq, agar ayblanuvchiga nisbatan yengil jazo tayinlansa yoki u oqlansa, prokuror jabrlanuvchi bilan apellatsiya berish masalasida maslahatlashishi shart. Garchi jabrlanuvchining fikri majburiy hukmga ega bo'lmasa-da, prokuratura uning fikrini inobatga olgan holda qaror qabul qilishi va ushbu qaror sabablarini tushuntirishi talab etiladi [1].

Sud hukmi chiqarilgandan keyin prokuratura mahkum qaysi JIEMda jazo o'tayotgani, uning jazoni o'tashdagi harakatlari, ozodlikka chiqish sanasi va sharoiti haqida jabrlanuvchini

xabardor qilishi zarur. Bu jabrlanuvchining xavfsizligini ta'minlashga va uning qayta jabrlanishining oldini olishga xizmat qiladi [2].

Shartli ozod qilish to'g'risidagi eshituvlarda jabrlanuvchi ishtirok etish huquqiga ega. Mahalliy shartli ozod etilgan shaxslarning nazorati komissiyasi jabrlanuvchiga eshituv bo'lib o'tadigan vaqt va joyni oldindan ma'lum qiladi. Jabrlanuvchi o'z fikrini bildirishi mumkin va bu fikr komissiya qaror qabul qilishida hisobga olinadi [3].

Adliya vazirligi ayblanuvchining ozod etilishi arafasida jabrlanuvchiga rasman xabar beradi. Shu bilan birga, shartli ozod etilgan shaxslarning nazorat organi ayblanuvchining ozodlikdagi xatti-harakatlari haqida jabrlanuvchini muntazam xabardor qilib boradi. Bu jarayon ayblanuvchilarni ijtimoiy moslashuvga tayyorlash va jabrlanuvchi xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi [4].

Yaponiyada jabrlanuvchilarni himoya qilish tizimi sud jarayoni tugagandan keyin ham yakunlanmaydi. Bu amaliyotda adolatning faqat jazo berish emas, balki jabrlanuvchini qayta integrasiya qilish orqali tiklanish tamoyili ustuvor sanaladi.

Fikrimizcha, O'zbekiston qonunchiligida hozircha suddan keyingi bosqichda jabrlanuvchilarni xabardor qilish yoki ularga shartli ozod etilgan shaxslarning nazorati jarayonlari to'g'risida ma'lumot berishning institutsional mexanizmi mavjud emas. Shu sababli, Yaponiya modelini O'zbekiston amaliyotiga tatbiq etish – jabrlanuvchilarning huquqlarini kafolatlash, ularni ikkinchi marta jabrlanishidan himoya qilish yo'lida muhim qadam bo'lishi mumkin.

Yaponiya tajribasi jabrlanuvchilarni himoya qilishda xolis va tizimli yondashuvning namunasi hisoblanadi. Sud jarayoni tugaganidan keyin ham jabrlanuvchi bilan ishlash jarayonlari ularning huquqlari ustuvor ekanini namoyon etadi. Bunday yondashuv jabrlanuvchini faqat jabr ko'rgan shaxs emas, balki jarayonning faol va teng huquqli ishtirokchisi sifatida ko'rishga asoslanadi. O'zbekistonda ham shunday tizim yaratilishi jinoyat-huquqiy siyosatida muhim evolutsiya bo'lar edi.

Yaponiya qonunchiligida jabrlanuvchilarga jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplash imkoniyati kengaytirilgan. Tan jarohati yetkazilgan yoki moddiy zarar ko'rgan jabrlanuvchilar ayblanuvchilardan o'z

zararlarini qoplashni talab qilish huquqiga ega. Agar ayblanuvchi zararlarni to'lamasa, jabrlanuvchi tomondan fuqarolik sudida moddiy zararlarni kompensatsiyalash uchun da'vo qo'zg'atilishi mumkin [5].

Birinchi mexanizm sifatida, taraflar suddan tashqari kelishuvga erishgan holatlarda, jabrlanuvchi kelishuvni sud bayonnomasiga kiritishni so'rash imkoniga ega. Bu esa kelishuvni sud qarori kabi ijroga solish imkonini beradi. Boshqacha aytganda, agar ayblanuvchi kelishuv shartlariga amal qilmasa, jabrlanuvchi uni sud orqali ijro etish uchun alohida da'vo qo'zg'atish majburiyatiga ega emas, balki bevosita sud qarorini ijrosini ta'minlashini so'rab murojaat qilishi mumkin [6]. Ushbu jarayon jabrlanuvchining huquqiy himoyasini sezilarli darajada kuchaytiradi.

Ikkinchi muhim mexanizm — jinoyat sudi jarayonida zararlarni to'lash bo'yicha buyurtma chiqarish tizimi hisoblanadi ("damage order system"). Ya'ni fuqarolik tartibda emas, balki jinoyat ishlari bo'yicha sud tomonidan ko'rib chiqiladi va hal etiladi. Bu tizim jabrlanuvchilarning zararni qoplashga bo'lgan yuklamasini sezilarli darajada yengillatadi:

- zarar talab qilish imkoniyati jinoyat sudida ayniqsa shaxsga qarshi jinoyatlar, zo'rlik ishlatish yoki qo'rqitish bilan sodir etilgan bo'lsa, bola o'g'irlash kabi jinoyatlardan jabrlangan jabrlanuvchilar yoki o'ldirilgan jabrlanuvchilarning merosxo'rlari uchun ochiq;

- ariza topshirish uchun to'lov 2,000 iyenni tashkil etadi, bu esa fuqarolik da'vosi uchun to'lanadigan to'lovdan ancha arzon [7];

- jinoyat sudini olib borayotgan sudyalarning jinoyat ishi bo'yicha to'plangan dalillar va bayonnomalar asosida, agar ishda fuqarolik masalalari mavjud bo'lsa ushbu mas'uliyatni ham o'z zimmasiga oladilar;

- sudda tinglashlar to'rt marta bilan cheklanadi, bu jabrlanuvchilarga qarshi majburiyatlarni kamaytiradi;

- agar sudya ayblanuvchining aybi isbotlansa, zarar qoplash buyrug'i chiqariladi, bu buyruq sud qarori kabi qonuniy kuchga ega bo'ladi;

- agar ayblanuvchi bu buyruqni ikki hafta ichida qabul qilmasa, ish oddiy fuqarolik sudiga o'tkaziladi, ammo bu vaqtda jinoyat ishi bo'yicha dalillar va bayonnomalardan foydalanish imkoni mavjud bo'ladi [8].

Bu tizim jabrlanuvchilarning yuridik yuklamalarini kamaytirish, ijro etishni

tezlashtirish va ijtimoiy adolatni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yaponiyada jinoyatdan jabrlanganlarga zararni qoplash bo'yicha integratsiyalangan mexanizmjoriyetish—xalqarojinoyathuquqi va jabrlanuvchi huquqlari sohasidagi muhim yutuqdir. Ushbu mexanizm jabrlanuvchining jinoyatdan keyingi qayta jabrlanishlardan himoyalanihini ta'minlash bilan birga, sud jarayonidagi vaqt tejamkorligi, ortiqcha ish hajmini kamaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu tizimning joriy qilinishi jabrlanuvchilarning huquqiy madaniyati va himoya darajasini sezilarli oshiradi.

Biroq bu tizimning samaradorligi jabrlanuvchilarning huquqiy savodxonligi, advokat yordami va sud tizimidagi har tomonlama hamkorlikka bog'liq. Yaponiyada bunday tizimni amalga oshirishda huquqiy infratuzilma va jamiyatning huquqiy madaniyati yuqori bo'lganligi bu mexanizمنى muvaffaqiyatli amalga oshirishga zamin yaratgan.

O'zbekiston qonunchiligida jinoyat jabrlanuvchilarining zararlarni sud jarayonida qoplash mexanizmlari hamda jinoyat va fuqarolik sudlari o'rtasidagi hamkorlik tizimi hali rivojlanmoqda.

Fikrimizcha, Yaponiya tajribasi o'rganilishi va undan foydalanish O'zbekistonda jabrlanuvchilar huquqlarini mustahkamlash va sud tizimi samaradorligini oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Yaponiyada jinoyatdan jabrlanganlarga zararni qoplash borasida joriy qilingan "damage order system" hamda suddan tashqari kelishuvlarni ijro etish mexanizmi jabrlanuvchilarning huquqlarini himoya qilishda yangi darajaga ko'tarildi [9]. Bunday huquqiy institutlar jabrlanuvchiga sud jarayonini yengillashtirish, moddiy va ma'naviy zararlarni tez va samarali tiklash imkonini beradi. O'zbekistonda ham shunday tizimni shakllantirish orqali jabrlanuvchilarning huquqiy muhofazasi va sud tizimining adolatligini ta'minlash imkonini oshirish mumkin.

Yaponiyaning zararni qoplash bo'yicha "damage order system" (zararlarni to'lash buyrug'i tizimi) jinoyat sudi jarayonida jabrlanuvchilarga zararni sud orqali talab qilish imkonini beradi. Ushbu tizim AQSH va Yevropa qonunchilik tizimlari tajribasi tahlili asosida joriy qilingan. AQSHda sudyalarda jinoyat ishida jazo tayinlash bilan birga aybdorni jabrlanuvchiga moddiy kompensasiya to'lashga

buyurish huquqiga ega bo'lib, Yevropa tizimida jabrlanuvchilar jinoyat sudida ayblovga qo'shimcha ravishda fuqarolik da'vosini ko'rib chiqish imkoniga ega bo'ladilar (Takashima, 2020) [10].

Yaponiyada an'anaviy ravishda jinoyat jazosi va fuqarolik da'vosi o'rtasida qat'iy chegaralar mavjud bo'lib, jinoyat jazosi asosan jamoat tartibini saqlashga qaratilgan, fuqarolik da'vosi esa faqat fuqarolik masalalari yuzasidan zararni qoplashga yo'naltirilgan. Shu sababdan Yevropa tizimi Yaponiya uchun murakkabliklar tug'dirgan, chunki jinoyat sudida fuqarolik da'volari ko'pincha prokuror va jabrlanuvchilar o'rtasidagi nizolarni yanada murakkablashtiradi [11].

2008-yildan boshlab joriy qilingan ushbu tizim jabrlanuvchilarga zararni talab qilishning arzon va qulay usulini taqdim etmoqda. Misol uchun, bir holatda sud ayblanuvchini 15 yilga ozodlikdan mahrum qilishga hukm qilib, shuningdek 45,47 million iyen (taxminan 312 000 AQSH dollari) zararni to'lashga majbur qilgan (Yamamoto, 2012). Boshqa bir holatda esa, besh yoshli qizning o'limi bilan bog'liq jinoyatda Chiba tuman sudi ayblanuvchidan jabrlanuvchi oilasiga 30 million iyen (taxminan 209 000 AQSH dollari) to'lash buyrug'ini chiqargan (Kobayashi, 2021).

Bu tizim jabrlanuvchilar uchun moddiy zararni qoplashni osonlashtirib, huquqiy yuklamalarni ancha kamaytiradi va jinoyat sudi jarayonida zararni talab qilishni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradi.

"Damage order system" Yaponiyadagi an'anaviy jinoyat-huquqiy tamoyillarga ziddiyatlarni keltirib chiqarsada, jabrlanuvchilarni himoya qilishni kuchaytirishda muhim qadam sifatida baholanmoqda. Fikrimizcha, mamlakatimiz huquq tizimi uchun ushbu tizimni tahlil qilish va milliy qonunchilikka implementatsiya qilish imkoniyati mavjud bo'lib, bu jinoyat jabrlanuvchilari huquqlarini himoya qilishda zamonaviy va samarali yechimlardan biri bo'lishi mumkin.

Yaponiyada jinoyatdan jabrlanganlarning huquq va manfaatlarini muhofaza qilish tizimi jinoyat va fuqarolik huquqiy mexanizmlarini birlashtirish orqali yangi bosqichga ko'tarilgan. Xususan, "damage order system" jabrlanuvchilarga sud jarayonida zararni oson va iqtisodiy jihatdan qulay tarzda talab qilish imkonini bermiqda. Bu tizim jabrlanuvchilar uchun huquqiy va ijtimoiy himoyani kuchaytirib, jinoyat ishlarini ko'rib chiqish

jarayonida ularning ishtiroki va manfaatlarini mustahkamlaydi. Shuningdek, ushbu tajriba O'zbekiston va boshqa davlatlarda ham jabrlanuvchilarning huquqlarini himoya qilish sohasida muhim manba bo'lar edi.

Yaponiyada jinoyat natijasida jabrlanganlarga ko'rsatiladigan davlat tomonidan moliyaviy yordam va ijtimoiy himoya mexanizmlari, ayniqsa 1980-yilgi Crime Victim Assistance Act orqali belgilangan [11]. Ushbu qonun asosida jiddiy jarohatlangan jabrlanuvchilar jarohat yoki nogironlik nafaqalari hamda vafot etgan jabrlanuvchilar oila a'zolari esa qolganlar nafaqasiga da'vogar bo'lishlari mumkin (Mori, 2015)[13].

Jabrlanuvchilar avval politsiya orqali bu kompensatsiyaga ariza topshirishi kerak bo'lib, viloyat ommaviy xavfsizlik komissiyasi kompensatsiya berish haqida qaror qabul qiladi. 2001-yilda kompensatsiya miqdori va jabrlanuvchilar uchun talabetiladigan mezonlar kengaytirildi (Tanaka, 2004). Masalan: vafot etgan jabrlanuvchi oilasiga to'lanadigan nafaqa 15,73 million yenga (taxminan 110 000 AQSH dollari) oshirildi, biroq bu hali ham yetarli emasligi ko'p marta ta'kidlangan. Trafik [14] hodisalari jabrlanuvchisiga to'lanadigan nafaqa bilan taqqoslaganda, boshqa turdagi jabrlanuvchining nafaqasi ancha kamroq bo'lgani uchun jabrlanuvchilarni huquq va manfaatlarini muhofaza qiluvchi tashkilot mutaxassislari nafaqa miqdorini oshirish talabini qo'ydilar (Saito, 2007).

2018-yilda nafaqa miqdori 29.64 million iyenga (202000 AQSH dollari) oshirildi, bu miqdor trafik hodisalari jabrlanuvchilari oilalariga beriladigan miqdor bilan deyarli tenglashtirildi. 2009-yilda 589 ta jabrlanuvchilarning arizasidan 538 ta jinoyat natijasida jabrlanganlar nafaqa bilan ta'minlangan bo'lib, bu nafaqaning jabrlanuvchilar uchun ahamiyatligini ko'rsatadi (Nakamura, 2020).

Davlat moliyaviy yordami jabrlanuvchilarning sudda zararni qoplash bo'yicha fuqarolik da'volarini ko'rib chiqishiga to'sqinlik qilmaydi. Agar jabrlanuvchi ayblanuvchidan yetkazilgan zararni bartaraf etgan bo'lsa, davlat tomonidan to'langan nafaqa miqdori kamaytiriladi va davlat aybdordan bu mablag'ni qayta talab qilish huquqiga ega (Fujimoto, 2013). Davlat yordami ayniqsa, moliyaviy imkoniyatlari cheklangan jabrlanuvchilar uchun muhim, chunki ko'pincha ayblanuvchida ko'pincha zararni to'lash imkoni mavjud emas.

Yaponiyada jabrlanuvchining iqtisodiy yuklamasini yengillashtirish uchun nafaqat sud va davlat yordami, balki boshqa ijtimoiy choralar ham yo'lga qo'yilgan. Masalan, tibbiy sug'urta kompaniyasi jabrlanuvchilar uchun tibbiy yordamni qamrab oluvchi sog'ligini tiklash uchun mablag' ajratadi. Agar jabrlanuvchiga avvalgi yashash joylarida istiqomat qilish qiyinlashsa, davlat ularga jamoat uylariga kirishda yoki boshqa joyga ko'chib o'tishida afzalliklar beradi (Kuwahara, 2016) [15].

Shuningdek, oila boquvchisini yoki turmush o'rtog'ini yo'qotgan yoki og'ir tan jarohati bilan jarohatlangan jabrlanuvchi uchun davlat xizmatlari ko'rsatiladi, ishdan bo'shatilgan jabrlanuvchilar uchun mehnat nizolarini hal etish tizimida ham huquqiy yordam beriladi (Hoshino, 2014) [9].

Yaponiyada jabrlanuvchilarga ko'rsatilayotgan davlat yordami va ijtimoiy himoya tizimida aniq ijobiy natijalarga erishgan bo'lsa-da, ushbu tizimning adolatli va to'liq amalga oshirilishi borasida ayrim tanqidlar ham mavjud. Ayrim jabrlanuvchilarni muhofaza qilish tashkilotlari mutaxassislari kompensatsiya va nafaqalar miqdori hamda ularni taqsimlash mezonlaridan norozi, chunki ayrim jabrlanuvchilar nafaqadan chetda qolishi yoki kam miqdorda yordam olishi mumkinligini ta'kidlashadi (Sasaki, 2017) [11]. Shuningdek, nafaqa berish jarayonida byurokratik to'siqlar, ariza topshirish muddatlari va talab etiladigan hujjatlar jabrlanuvchilar uchun qiyinchilik tug'dirishi mumkinligi bir qator munozaralarga sabab bo'lmoqda (Ito, 2018)[12].

Boshqa tomondan, ushbu ijtimoiy yordamning moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun davlat budjetidan mablag' ajratish masalalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jabrlanuvchilarga qaratilgan davlat yordami miqdori va tartibini yanada takomillashtirish, shuningdek nafaqalarning adolatli taqsimlanishini ta'minlash uchun keng ko'lamdagi ilmiy-tahliliy ishlar olib borilishini taqozo etadi.

Yaponiyada jinoyat natijasida jabrlanganlar uchun davlat tomonidan ko'rsatiladigan moliyaviy yordam va ijtimoiy himoya tizimi keng ko'lamli va zamonaviy xarakterga ega. 1980-yilgi Crime Victim Assistance Act asosida jabrlanuvchilarga kompensatsiya va nafaqalar, tibbiy xizmatlar, ijtimoiy yordam va boshqa ko'maklar taqdim etiladi. Shu bilan birga, bu tizimdagi ayrim kamchiliklar va tanqidlar

ham mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish davlat siyosati va huquqiy islohotlarda muhim o'rin tutadi[12].

2004-yilda qabul qilingan Jinoyat natijasida jabrlanganlarni qo'llab-quvvatlashga oid Asosiy qonun Yaponiya davlatining jinoyat qurbonlari huquqlarini himoya qilish va ularga ko'rsatiladigan yordam mexanizmlarini belgilab beruvchi huquqiy asos hisoblanadi. Ushbu qonunga muvofiq, markaziy hukumat, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari va jamiyatning keng qatlamlari jinoyat qurbonlarini himoya qilishda hamkorlikda harakat qilishlari lozim. Asosiy qonun doirasida Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan va jamoatchilikka e'lon qilinishi lozim bo'lgan Jinoyat natijasida jabrlanganlar uchun Asosiy reja ishlab chiqilgan.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkin, Yaponiyaning jabrlanuvchilarni huquq va manfaatlarini muhofaza qilishga qaratilgan Asosiy qonuni inson huquqlarini himoya qilish va ijtimoiy adolatni ta'minlash sohasida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu huquqiy mexanizm nafaqat jabrlanuvchilarga moddiy va ma'naviy yordam berishni, balki ularning sha'ni, qadr-qimmati hamda xavfsizligi va hayot sifatini ta'minlashga qaratilgandir. Ilmiy nuqtayi nazardan qaralganda, mazkur qonunda nazarda tutilgan mexanizmni institutsional jihatdan mustahkamlab, jabrlanuvchilarning huquq va manfaatlarini muhofaza qilishda Yaponiyaning ilg'or tajribasini namoyon etadi. Ushbu tajribani Mamlakatimizning qonunchiligiga implementatsiya qilishda quyidagi jihatlari e'tiborlidir:

birinchidan, jabrlanuvchilarga huquqiy, ijtimoiy va psixologik yordam ko'rsatishga qaratilgan axborot va maslahat xizmatlarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bu xizmatlar jabrlanuvchilarning o'z huquqlaridan xabardor bo'lishi va davlat tomonidan taqdim etiladigan yordamdan samarali foydalanish imkoniyatini yaratadi;

ikkinchidan, jabrlanuvchilarga jinoyat natijasida yetkazilgan jismoniy va ma'naviy zararni qoplash yuzasidan fuqarolik da'volarini qo'zg'atishda qo'llab-quvvatlash, shuningdek, jinoyat sud jarayonlari bilan fuqarolik ishlarini muvofiqlashtiruvchi maxsus tizim joriy etilishi maqsadga muvofiqdir;

uchinchidan, jabrlanuvchilarga davlat tomonidan to'lanadigan moddiy kompensatsiya mexanizmi qayta ko'rib chiqilishi va samarali ishlashini ta'minlovchi choralar ko'rilishi

belgilangan;

to'rtinchidan, jabrlanuvchilarga jinoyat natijasida yetkazilgan tan jarohatlarining oqibatlarini bartaraf etish maqsadida tegishli tibbiy va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatilishi shart. Bu xizmatlar jabrlanuvchining jismoniy va psixologik tiklanishiga ko'maklashadi;

beshinchidan, jabrlanuvchilar xavfsizligini ta'minlash, ularning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish va sud jarayonlarida guvoh sifatida ishtirok etishida maxsus ehtiyot choralari ko'rish lozim. Bu normalar inson qadri va shaxsiy daxlsizlikni himoya qilishga xizmat qiladi;

oltinchidan, agar jabrlanuvchi jinoyat sababli avvalgi turar joyida yashay olmaydigan bo'lsa, uni davlat uy-joyiga afzallik asosida joylashtirishni nazarda tutuvchi manzilli chora tadbirlar ishlab chiqish;

Hukumatish beruvchilarga jabrlanuvchilarni ishga joylashtirish masalasida zarur ko'rsatmalar va tavsiyalar berishi lozim. Bu chora tadbirlar ijtimoiy integratsiyaga xizmat qiladi. Bundan tashqari jabrlanuvchilar jinoyat ishi yuzasidan olib borilayotgan tergov harakatlari to'g'risida xabardor qilinish va ushbu jarayonlarda muayyan darajada ishtirok etish huquqiga ega bo'lishi lozim.

Tergov va sud jarayonlarida jabrlanuvchilarning sha'ni va shaxsiy hayotiga hurmat bilan yondashish hamda jabrlanuvchilar bilan ishlash bo'yicha maxsus bilim va ko'nikmalarga ega mutaxassislarni jalb etish maqsadga muvofiqdir. Jabrlanuvchilarning ahvoli va ularning huquqlari to'g'risida jamoatchilik orasida xabardorlikni oshirish maqsadida ta'lim va targ'ibot ishlari amalga oshirilishi kerak. Jabrlanuvchilarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, resurslar to'plash va malakali mutaxassislarni tayyorlash, huquqbuzarliklardan jabrlanganlarning fikr va mulohazalarini tinglash, mazkur Asosiy rejani amalga oshirishni yaxshilash va uning shaffofligini ta'minlash bo'yicha mexanizm joriy etilishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Crime Victims' Basic Act, Act No.161 of 2004, Japan.
2. Ministry of Justice Japan. (2010). White Paper on Crime. Tokyo.
3. *S'hoji, K.* (2012). "Crime Victims' Rights in Japan: Recent Legal Reforms and Challenges", *Asian Criminology*, Vol. 7, pp. 113–130.
4. *Takas'hima, M.* (2010). *Comparative Analysis of Restitution in Criminal Proceedings: Japan, US and Yeurope*. Tokyo University Press.
5. *Yamamoto, T.* (2022). "Damage Order System in Japan: Legal Reform for Victims' Rights", *Japanese Journal of Law and Society*, Vol. 35, No. 1, pp. 112–130.
6. *Kobayas'hi, R.* (2021). "Legal Challenges in Victim Compensation: The Chiba Case Study", *Asia-Pacific Law Review*, Vol. 18, No. 3, pp. 78-95.
7. Crime Victims Assistance Act, Japan, 1980 and amendments// https://www.npa.go.jp/english/bureau/commissioner_generals_secretariat/document/R1_support_victims_summary.pdf.
8. *Mori, K.* (2015). *Legal Framework of Victim Assistance in Japan*. Kyoto University Press.// http://manoa.hawaii.edu/aplpj/wp-content/uploads/sites/120/2015/02/APLPJ_13-1_Matsui.pdf.
9. *Kuwahara, S.* (2016). "Social Support Systems for Crime Victims in Japan", *Journal of Social Welfare*, Vol. 10, No. 1, pp. 14-27.
10. *Hos'hino, R.* (2014). "Employment Assistance for Victims of Crime in Japan", *Labour Law Review*, Vol. 8, No. 2, pp. 53-68.
11. *Sasaki, N.* (2017). "Critiques on Victim Compensation Policies", *Japanese Journal of Public Policy*, Vol. 11, No. 3, pp. 90-104.
12. *Ito, Y.* (2018). "Barriers to Accessing Victim Benefits in Japan", *Journal of Social Justice*, Vol. 13, No. 4, pp. 77–89.

ICHKI ISHLAR ORGANLARINING TEZKOR BO'LINMALARI TOMONIDAN PORAXO'RLIK JINOYATIGA QARSHI KURASHISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI

F. N. YUSUPOV,

IIV Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada poraxo'rlik jinoyatiga qarshi kurashishda ichki ishlar organlarining tezkor bo'linmalari faoliyatining nazariy va huquqiy asoslari tahlil qilingan. Muallif mazkur bo'linmalarning vazifalari, vakolatlari va amaliy faoliyatidagi dolzarb masalalarni o'rganib chiqqan. Shuningdek, ilmiy tahlillar, berilgan fikrlar va normativ-huquqiy hujjatlar asosida tezkor bo'linmalarning korrupsiyaga qarshi kurashish roli ochib berilgan.

Tayanch so'zlar:

huquq, erkinlik, qonun, qonunosti hujjatlari, huquqiy asoslari, ko'rsatma, yo'riqnoma, nizom, jinoyat, poraxo'rlik, tezkor-qidiruv faoliyati, tezkor-qidiruv tadbirlari, javobgarlik

Аннотация.

В данной статье анализируются теоретические и правовые основы деятельности оперативных подразделений органов внутренних дел в борьбе с преступлениями взяточничества. Автором изучены задачи, полномочия и актуальные вопросы практической деятельности данных подразделений. Также на основе научного анализа, высказанных мнений и нормативно-правовых документов раскрыта роль оперативных подразделений в борьбе с коррупцией.

Ключевые слова:

право, свобода, закон, подзаконные акты, правовые основы, указание, инструкция, положение, преступление, взяточничество, оперативно-розыскная деятельность, оперативно-розыскные мероприятия, ответственность.

Annotation:

This article analyzes the theoretical and legal foundations of the activities of operational units of internal affairs bodies in the fight against bribery crimes. The author has studied the tasks, powers and current issues of the practical activities of these units. Also, based on scientific analysis, expressed opinions and regulatory documents, the role of operational units in the fight against corruption is revealed.

Keywords:

right, freedom, law, by-laws, legal framework, instruction, provision, crime, bribery, operational-search activity, operational-search measures, responsibility.

Jinoyat insonning asosiy huquq va erkinliklariga tajovuz qiladi va unga qarshi kurashish davlatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida inson va fuqaroning huquq va erkinliklariga rioya etilishini ta'minlash va ularni himoya qilish bilan bog'liq masalalar qonunlar va qonun osti normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilangan. Konstitutsiyaning muqaddimasida inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat ekanligi mustahkamlab quyilgan.

Inson va fuqaroning huquqlari, shuningdek erkinliklarini e'tirof etish, ularga rioya etish va ularni himoya qilish davlatning burchidir. O'zbekiston Respublikasida jinoiy sud ishlarini yuritish sohasidagi vakolatlarni amalga oshiruvchi davlat organlari faoliyatining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi

Konstitutsiyasi, qonunlari, Prezidentning farmon, qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Oliy sud plenumining shuningdek boshqa idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar bilan to'liq tartibga solingan.

Poraxo'rlik jinoyatini aniqlash va fosh etishda jinoyat ishining haqiqiy holatlarini haqiqatda qanday bo'lsa, shundayligicha aniqlash shuningdek, tezkor-qidiruv tadbirlari natijalaridan isbotlash jarayonida foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi. Bugungi kunda davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlardan biri poraxo'rlikka qarshi kurashish hisoblanadi. "O'zbekiston – 2030" strategiyasining asosiy maqsadi ham poraxo'rlikdan xoli davlatni barpo yetishni nazarda tutadi. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida "Korrupsiyaviy omillarni bartaraf

etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish ishlarini jadal davom ettirish" [1] mustahkamlab qo'yilgan. Bugungi kunda O'zbekistonda Poraxo'rlikka qarshi kurashish naqadar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shunga qaramay haligacha ayrim sohalarda poraxo'rlik jinoyatlari sodir etilayotganligini ko'rish mumkin.

Jumladan, "Ijtimoiy fikr" markazi tomonidan 2016-yildan 2018-yilgacha o'tkazilgan ijtimoiy so'rovlarga ko'ra, ayrim sohalarda korrupsiya va poraxo'rlik darajasi bir necha barobar oshgan. Masalan, fuqarolarning fikriga ko'ra, sog'liqni saqlash va tibbiyot sohasidagi korrupsiya 3 yil ichida ikki baravar oshgan (2016-yilda - 26,1%, 2017-yilda - 37,6%, 2018 yilda - 43,7%). Ta'lim sohasida 2016-yilda korrupsiya deb hisoblagan fuqarolarning 34,3 foizi o'z fikrini o'zgartirib, 2018-yilda 39,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, soliq sohasida 7 foizdan 12,2 foizgacha o'sish kuzatildi.

2022–2025-yilda O'zbekistonda eng ko'p poraxo'rlik jinoyati sog'liqni saqlash tizimi, ishga qabul qilish jarayoni, oliy va xalq ta'limi tizimi, ushbu ro'yxatda keyingi o'rinlarda sudlar, prokuratura organlari, IIV, soliq organlari hamda sanitariya-epidemiologiya nazorati va tekshiruv organlari qayd etilgan [2]. Keltirilgan statistik ma'lumotlar poraxo'rlik jinoyatlarini aniqlash va fosh etish o'ta muhimligini tasdiqlaydi. Poraxo'rlik jinoyatlarni aniqlash va fosh etishda inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishi prinsiplariga rioya etish asosida, jinoyat va jinoyat-protsessual qonun hujjatlari talablariga qat'iy muvofiq holda amalga oshirilishi kerak.

Poraxo'rlik jinoyatlarini aniqlash va fosh etish samaradorligi ko'p jihatdan tezkor-qidiruv tadbirini amalga oshiruvchi organ xodimi tomonidan tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish davomida qonun normalari va idoraviy normativ huquqiy hujjatlarga rioya qilish bilan belgilanadi.

Ichki ishlar organlarining tezkor-qidiruv bo'linmalari tomonidan poraxo'rlik jinoyatlarini aniqlash va fosh etishning huquqiy asoslarini O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuniga [3] asoslanib quyidagi darajalar bo'yicha tasniflash lozim:

- 1) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- 2) O'zbekiston Respublikasi qonunlari (jinoyat, jinoyat-protsessual, ma'muriy va boshqa qonun hujjatlari);
- 3) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari;
- 4) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining qarorlari;

5) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi qarorlari;

6) O'zbekiston Respublikasidagi vazirliklar, qo'mitalarning buyruqlari, ko'rsatmalari, yo'riqnomalari, nizomlari.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tegishli normalarida ichki ishlar organlarida poraxo'rlik jinoyatining konseptual asoslari belgilangan. Xususan, Konstitutsiyaning 2-moddasida belgilangan davlat xalq irodasini ifoda yetib, uning manfaatlariga xizmat qilishi, davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'ulligi to'g'risidagi qoida ichki ishlar organlari mansabdor shaxslarining xalq oldidagi mas'ulligini ta'minlash hamda davlat boshqaruvida byurokratik elementlarni bartaraf yetishga xizmat qiladi.

Shuningdek, 14-moddada davlat o'z faoliyatini inson farovonligini va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari asosida amalga oshirishi [4] to'g'risidagi norma ham ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv bo'linmalarining poraxo'rlik jinoyatlarini aniqlash va fosh etishda muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga Konstitutsiya poraxo'rlik jinoyatini aniqlash va fosh etishda xalqaro va milliy qonun hujjatlarini bog'lab turadi.

O'tgan davr mobaynida korrupsiyaning bir turi sifati poraxo'rlik jinoyatini aniqlash va fosh etishga qaratilgan huquqiy baza shakllantirildi. Jumladan; BMTning "Poraxo'rlikka qashi kurash" Respublikamizda BMT homiyligida qabul qilingan YeKOSOS (BMTning iqtisodiy va ijtimoiy kengashi)ning Korrupsiyaga qarshi kurash rezolyutsiyasi (1995), Davlat mansabdor shaxslarining xalqaro axloq kodeksi (1996) , Xalqaro tijorat tashkilotlarida korrupsiya va poraxo'rlikka qarshi kurash haqidagi deklaratsiya (1997), Millatlararo uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash konvensiyasi (2000) va boshqa xalqaro hujjatlarning qabul qilingani ushbu turdagi jinoyatlarning aniqlash va fosh etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga "O'zbekiston Respublikasi qo'shilish to'g'risida"gi qonun qabul qilinganligi Konvensiya talablarini milliy qonunchilik bilan uyg'unlashtirishni, zarur huquqiy normalarni qabul qilish va shu orqali korrupsiyaning bir turi hisoblangan poraxo'rlik jinoyatini aniqlash va fosh etish samaradorligini oshirishni nazarda tutadi.

Eng muhimi mamlakatimizda 2017-yil 3-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasining

“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi [5] Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun bilan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok yetuvchi organlar hamda tashkilotlar va ularning vakolatlari belgilab berildi. E’tiborli jihati mazkur Qonun bilan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi poraxo‘rlik jinoyatini aniqlash va fosh etish bo‘yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari qatoriga kiritildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Davlat bojxona qo‘mitasi va Bosh prokuraturasining 2023-yil 6-dekabrda “Tezkor-qidiruv faoliyati natijalarini surishtiruv organi, tergovchi yoki prokurorga taqdim qilish tartibi haqidagi Yo‘riqnomasi”da poraxo‘rlik jinoyatni aniqlash va fosh etish bo‘yicha tezkor-qidiruv tadbirlari natijalarini surishtiruv organi, tergovchi yoki prokurorga taqdim qilish chora-tadbirlari ishlab chiqildi.

Poraxo‘rlik jinoyatining aniqlash va fosh etishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni [6], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori [7], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrda “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni [8] mo‘ljallangan davlat dasturlarini qabul qilish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.

Qonun va Davlat dasturlarida poraxo‘rlik uchun mansabdorlarning shaxsiy javobgarligi, davlat tashkilotlarida poraxo‘rlikka qarshi muvofiqlik tizimini joriy yetish, poraxo‘rlik jinoyatlarida ayblanganlarni muddatidan oldin ozod qilish imkoniyatini istisno qilish (amnistiya qo‘llamaslik va avf etmaslik), xabar berishni rag‘batlantirish va himoya qilish tizimini joriy yetish kabi yangi amaliyotlar kiritildi.

Qonun va dasturlarda poraxo‘rlik jinoyatini aniqlash va fosh etish sohasida qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda poraxo‘rlikka nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat va jamiyat

hayotining barcha sohalarida poraxo‘rlikka oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularni fosh etish, poraxo‘rlik oid jinoyatlarni sodir yetganlik uchun javobgarlikning muqarrarliligi prinsipini ta‘minlash, poraxo‘rlik jinoyatini aniqlash va fosh etish masalalari bo‘yicha xalqaro hamkorlik, poraxo‘rlik jinoyatini aniqlash va fosh etish mexanizmlarini takomillashtirish, davlat xaridlari sohasida poraxo‘rlik xavf-xatarlarni kamaytirish va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish, poraxo‘rlik jinoyatini aniqlash va fosh etish tuzilmalari faoliyatini takomillashtirish, poraxo‘rlik jinoyatini aniqlash va fosh etish bo‘yicha xalqaro standartlarni joriy qilish va davlat organlari faoliyati ochiqqligini ta‘minlash, poraxo‘rlik jinoyatini aniqlash va fosh etish bo‘yicha targ‘ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish yuzasidan tadbirlarni belgilanganligi mamlakatimizda poraxo‘rlik jinoyatini aniqlash va fosh etishning yaxlit tizimi yaratilganini ko‘rsatadi.

Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, O‘zbekiston Respublikasining

2012 -yil 25-dekabrda “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni poraxo‘rlik jinoyatlarini aniqlash va fosh etishni asosiy manbalardan biri hisoblanadi [9]. Bugungi kunda “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida” gi qonun normalarida tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazishning tartibini belgilanmaganligi poraxo‘rlik jinoyatini aniqlash va fosh etishda bir muncha qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Bu borada tezkor-qidiruv tadbirlarini tegishli tarzda o‘tkazish, natijalarini rasmiylashtirish bilan bog‘liq tartibning haligacha qonun normalari bilan tartibga solinmaganligi ko‘rsatib o‘tish muhim hisoblanadi. Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risidagi qonunda tezkor-qidiruv tadbirlari va ularni o‘tkazish asoslari va ularni o‘tkazishning tartibi bizning fikrimizcha umumiy qoidalar bilan tartibga solingan. Bu esa poraxo‘rlik jinoyatlarini aniqlash va fosh etishda bir muncha qiyinchiliklarni vujudga keltiradi. Jumladan, tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish uchun ko‘rsatilgan asoslarda bo‘shliqlarning mavjudligi hisoblanadi.

Ushbu asoslar JPK talablari [10;322-moddasi] bilan uyg‘unlashtirilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Sababi poraxo‘rlik jinoyatlari asosan fuqarolardan kelgan arizalar asosida tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish orqali aniqlanadi. Fuqarolarning arizalarisiz poraxo‘rlik jinoyatlarini aniqlash va fosh etish yuzasidan tezkor-qidiruv tadbirini o‘tkazish ushbu tadbirning samaradorligiga salbiy ta‘sir

o'tkazadi. Shu munosabat bilan Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risidagi Qonunning 15-moddasining birinchi qismiga qo'yidagi mazmundagi o'zgartish va qo'shimchalar kirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

Tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

“shaxslarning arizalari yoki ularning bergan xabarlarini”ni tezkor-qidiruv tadbirini o'tkazish uchun asos sifatida kiritilishi maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari “Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risidagi Qonunning 16-moddasida “Tezkor-qidiruv tadbirini o'tkazish shartlari” belgilangan bo'lsada, ushbu shartlar to'liq tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish tartibini qamrab olmaydi. Qonun normasida shunday tartib belgilanishi kerakki, unda faoliyat bilan bog'liq barcha holatlar to'liq tartibga solinishi lozim.

Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risidagi Qonunning 16-moddasida tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish uchun prokurordan sanksiya olish va tezkor-qidiruv tadbirini o'tkazish yuzasidan qaror chiqarish bilan bog'liq holatlar tartibga solingan. Ushbu holatlar tezkor-qidiruv tadbirini o'tkazishni asoslantiruvchi omillar hisoblanadi. Prokurorning sanksiyasi yoki tezkor-qidiruv tadbirini amalga oshiruvchi

organ rahbari tasdiqlagan qaror tezkor-qidiruv tadbirini o'tkazishni asoslantiradi. Vaholanki tezkor-qidiruv tadbirini o'tkazishda ham asos ham tartib muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, poraxo'rlik jinoyatiga qarshi kurashishda ichki ishlar organlari tezkor bo'linmalari faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jinoyat turi davlatning huquqiy asoslarini zaiflashtiruvchi, jamiyatda adolatsizlik va ishonchsizlik tug'diradigan jiddiy muammo hisoblanadi. Maqolada ta'kidlanganidek, poraxo'rlikka qarshi kurashishning samaradorligi, avvalo, tezkor-qidiruv tadbirlarining huquqiy asoslarini takomillashtirish, amaliy mexanizmlarni aniq belgilash va inson huquqlarini kafolatlash bilan bog'liq. Mavjud qonunchilikni xalqaro standartlar asosida isloh qilish, tezkor tadbirlarning huquqiy mexanizmlarini mustahkamlash, fuqarolarning murojaatlarini asos sifatida e'tirof etish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish orqali poraxo'rlikka qarshi kurashishda ichki ishlar organlarining imkoniyatlari yanada kengayadi. Bu esa, o'z navbatida, davlat va jamiyat o'rtasida ishonchni mustahkamlashga, qonun ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston – 2030” strategiyasi. – T, 2023.
2. Антикоррупционные реформы в Узбекистане. 4-й раунд мониторинга в рамках Стамбульского плана действий по борьбе с коррупцией www.oecd.org.
3. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 20.04.2021-yildagi O'RQ-682-son. <https://lex.uz/dos>.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (Murojaat qilingan sana) 17.02.2025y [Elektron manba]. URL: <https://lex.uz/dos>.
5. O'zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi Qonuni // [Elektron manba] URL: <https://lex.uz/doss>.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5729-sonli Farmoni // [Elektron manba] URL: <http://lex.uz/ru/dos>.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-5177-son Qarori [Elektron manba]. URL: <https://lex.uz/uz/dos/>.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-200-sonli Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasining “Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida”gi qonuni. (25.12.2012, O'RQ-344-son). – URL: <https://lex.uz/doss/2107763>.
10. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 322-moddasi. <https://www.lex.uz/acts/111460>.

BOLALAR (VOYAGA YETMAGANLAR) GA NISBATAN SODIR ETILGAN RUHIY VA ONLAYN ZO'RAVONLIK HOLATLARI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNI TERGOV QILISHDA MUTAXASSIS ISHTIROKI HAMDA MAXSUS BILIMLARDAN FOYDALANISH

Z. R. YULDASHEVA,

Samarqand tumani IIB XSG katta inspektori

Annotatsiya.

Maqolada bolalarga nisbatan sodir etilayotgan zo'ravonliklarning aynan ruhiy hamda onlayn zo'ravonliklarni tergov qilishda yuzaga kelayotgan muammolar, tergov jarayonida mutaxassis ishtirokini ta'minlash va maxsus bilimlardan foydalanish zaruriyati, mazkur turdagi jinoyatlarni sodir etilishiga olib keladigan sabab va sharoitlar, ularning profilaktikasi, bolalar, ularning ota-onalari, o'qituvchilar hamda tarbiyachi-murabbiylarning huquqiy bilimi, huquqiy ong va madaniyatini yuksaltirish, bu boradagi jahon tajribasi haqidagi muallifning fikri bayon etilgan.

Tayanch so'zlar.

Onlayn zo'ravonlik, internet, kiberbullying, kibermobbing, qotillikka undash, onlayn hujum, onlayn boshqaruv, onlayn zarar, emotsional zo'ravonlik.

Аннотация.

В статье рассмотрены проблемы, возникающие при расследовании психологического и онлайн-насилия в отношении детей, необходимость обеспечения участия специалистов в процессе расследования и необходимость использования специальных знаний, причины и условия, приводящие к совершению данного насилия.

Ключевые слова:

насилие в Интернете, Интернет, киберзапугивание, кибермоббинг, подстрекательство к убийству, онлайн-нападение, онлайн-контроль, онлайн-причинение вреда, эмоциональное насилие.

Annotation.

In the article, the problems that arise in the investigation of psychological and online violence against children, the need to ensure the participation of specialists in the investigation process and the need to use special knowledge, the reasons and conditions that lead to the commission of this type of crime, their prevention, children, their parents, teachers and the author's opinion on raising the legal knowledge, legal consciousness and culture of educators and the world experience in this regard.

Keywords.

Online violence, internet, cyberbullying, cyber mobbing, incitement to murder, online assault, online control, online harm, emotional abuse.

Mamlakatimiz 1992-yilda BMTning "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyaga qo'shilishi bilan bola huquqlarini har tomonlama himoyalash, o'sib kelayotgan yosh-avlod manfaatlarini ta'minlashga o'zining tarafdor ekanini namoyish qildi. O'zbekiston qonun hujjatlarini BMTning bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi va unga fakultativ protokollarga muvofiqlashtirishga intilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunida bolaning erkinligi va shaxsiy daxlsizligining kafolatlari, bolaning himoya qilinishga bo'lgan huquqlarining kafolatlari, bolani noqonuniy ko'chirishdan himoyalashga bo'lgan huquqlarini kafolatlari, bolaning o'z fikrini ifodalash huquqini kafolatlari ma'lum qilingan.

Bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosatining yo'nalishlaridan biri: bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash; bolaning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish; bolaning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik; bolaning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish hisoblanadi.

Bolaning zo'ravonlikdan himoya qilinishni asosiy qonunimiz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham aks ettirilgan. Davlatimiz bosh qomusida yashashga bo'lgan huquq har bir insonning uzviy huquqi ekanligi belgilab qo'yilgan.

Bolalarga nisbatan qilinadigan zo'ravonliklar jismoniy, jinsiy va ruhiy turlarga bo'linadi. Lekin afsuski, bugungi kunda internet sohasining rivojlanishi bu jinoyat turini ham chetlab o'tmadi.

Bugungi kunda bu zo'ravonliklar qatorida onlayn zo'ravonlik ham kirib kelgan.

Onlayn zo'ravonlik, bu internet ijtimoiy tarmoqlari orqali bezorilik, haqorat, tuhmat, nafratga undash, jamoatchilik orasida qoralash, ta'qib qilish, shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash va foydalanish, intim tasvir va videolarni tarqatish, jismoniy yoki jinsiy zo'ravonlik tahdidlarida namoyon bo'ladi.

Mobbing (inglizcha: mob – olomon), – jamoada bir insonni ommaviy ta'qib etishi tarzidagi psixologik zo'ravonlik shakli. Zarar yetkazayotganlarni mobberlar, zarar ko'rayotganlarni esa – “jabrdiydalar”, deb ataydilar [1]. Bu bir odamning boshqa odamga qarshi yo'naltirilgan muntazam ravishda takrorlanuvchi dushmanlarcha va odobdan tashqari munosabatini o'z ichiga oluvchi o'ziga xos “psixologik terror”dir.

Mobbing shakllari: jismoniy kamchiliklardan kulish, yakkalash, inkor etish, jig'iga tegish, turtish, kiyimlarini masxaralash va hokazolarda namoyon bo'ladi, bu holatlar internet ijtimoiy tarmoqlari orqali sodir etilganida- kibermobbing deyiladi.

Bulling (ingliz tilidagi bullying so'zidan olingan bo'lib, bully – urishqoq, bezori, jig'iga teguvchi, qo'rs, zo'ravon) – bu bir shaxs tomonidan o'zini himoyalay olmaydigan boshqa shaxsga nisbatan yuqorida bayon qilingan zo'ravonlik va tahqirlashning har xil turlari takrorlanuvchi aktidir.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan bullingning yana bir turi – kiberbulling insonni ta'qib qilish uchun mobil telefonlar, elektron pochta, internet, ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, chatlardan, u haqidagi yashirin ma'lumotlarni, g'iybatlarni, obro'sini to'kuvchi va haqoratlovchi xabarlarini tarqatishdan foydalanish tarqaldi. Kiberbullingni keskin, qo'pol yoki shafqatsiz matnli xabarlarini ko'rsatish va jo'natish, onlayn tartibida jabrdiydani kalaka qilish, jabrdiydaga zarar yetkazish yoki uni uyaltirish uchun shaxsiy ma'lumotlarni, fotosuratlar yoki videolarni ochiq foydalanishga joylashtirish; jabrdiyda nomidan boshqalarni ta'qib qilish va tahqirlash uchun soxta elektron manzil, veb-sahifa, ijtimoiy tarmoqlarda hisob yozuvlarini yaratish orqali amalga oshirish mumkin.

Kiberbulling zo'ravonlikning boshqa turlaridan shunisi bilan farqlanadiki, dilozorga maxfiylikni saqlab qolish va shu bilan o'z harakatlari uchun javobgarlikdan qochish imkonini beradi. Afsuski, bugungi kunda

internet imkoniyatlaridan noto'g'ri foydalanish yoki undan foydalanish xavfsizligini bilmaslik bolalarning mazkur holatlar jabrdiydasiga aylanib qolishiga sabab bo'lmoqda.

Bezorilik axborot makonida axborot-kommunikatsiya kanallari va vositalari orqali amalga oshiriladi. Shu jumladan, elektron pochta orqali, lahzali xabar almashish dasturlari ijtimoiy tarmoqlarda, forumlarda, shuningdek, video portallarda buzg'unchi video materiallar va xabarlarini joylashtirish orqali (odatda odobsiz so'zlar bilan) yoki mobil telefon orqali (masalan, SMS xabarlar yoki bezovta qiluvchi qo'ng'iroqlar orqali).

Ko'pincha “trollar” “bezorilar” yoki “mobbers”, deb ataladigan bu bezoriliklarning aybdorlari ko'pincha yashirin tarzda harakat qilishadi, shuning uchun jabrlanuvchi zo'ravonlik harakatlarini kim amalga oshirayotganini bilmaydi.

Onlayn zo'ravonlik qurboni bo'lgan bolalar ilgari haqiqiy hayotda zo'ravonlikka duchor bo'lishgan. Ko'p hollarda ta'qibchining asosiy zarbasi tashqi ko'rinishga, o'smir yoki kattalarning “avatariga” tushadi (masalan, juda nozik yoki juda semiz va hokazo).

Jabrlanganlar va ularni ta'qib qiluvchilarning asosiy soni 11-16 yosh- balog'at yoshiga to'g'ri keladi, har qanday haqorat, mish-mishlar va ijtimoiy muvaffaqiyatsizliklarga nisbatan yuqori sezgirlik bilan ajralib turadi [2].

Internet xavfsizligi: bolalarga onlayn xavfsizlik, jumladan, internetda shaxsiy ma'lumotlarni berish xavfi, maxfiylik sozlamalarining ahamiyati va notanish odamlar bilan muloqot qilishning yomon taraflari haqida tushuntirish lozim. Bola bilan unga tushunarli “tilda” samimiy munosabatga kirishgan xolda, internet orqali tanishuvlar, virtual “do'stlar” bilan muloqotda hushyor bo'lishlari yoki bu kabi notanish shaxslar bilan ma'lumot almashmasliklari, shaxsiy fotosuratlarini, manzillarini oshkor qilmaslikni tushuntirish va bu orqali yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlar haqida ma'lumotlar berilishi lozim. Buni albatta ota-onalar, o'qituvchi-pedagoglar va tarbiyachi-murabbiylar amalga oshirishlari kerak.

Mamlakatimizda bu kabi onlayn jinoyatlar nisbatan yangi kirib kelganligi, bu turdagi jinoyatlarni tergov qilishda maxsus bilimlardan foydalanish va mutaxassis ishtiroki zarurligi, aksariyat holatlarda esa jabrlanuvchilarining gumon qilinuvchilar haqida ma'lumot berishdan qo'rqishi, uyalishi va boshqa turli subyektiv omillar tergovni olib borishda bir muncha

qiyinchiliklar yuzaga keltiradi.

Butun dunyodagi kabi mamlakatimizda xam bu kabi zamonaviy jinoyatlarni tergov qilishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan holatlarni inobatga olib, tergovchi va surishtiruvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, sinchkovlik hamda diqqatlilik kabi ko'nikmalarni hosil qilish, shuningdek zamonaviy raqamli texnologiyalar sohasidagi bilimlarni o'qitish-o'rgatish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu bilan birga mazkur turdagi jinoyatlarni tergov qilishda maxsus bilimlardan foydalanish, mutaxassis jalb qilish, raqamli texnologiyalar sohasida ekspertizalar tayinlash, aksariyat holatlarda mazkur jinoyatlarni sodir etgan shaxslar noma'lum bo'lganligi tergov jarayonlarini yanada murakkablashtiradi, bu holatda gumon qilinuvchi shaxsni yoki jinoiy guruhni aniqlash, topish kabi bir qancha tergov harakatlarini o'tkazish uchun vaqt kerak bo'ladi. Bu esa O'zbekiston Respublikasi JPKda belgilab berilgan tergov muddatlari yetmasligi ehtimolini yuzaga keltiradi. Onlayn jinoyatlarni (kiberbulling, kibermobbing va x.k) tergov qilishda mazkur jinoyat yuzasidan o'tkaziladigan so'roqlar barcha turdagi jinoyatlardagi kabi juda ahamiyatlidir.

So'roq-tergovchi bilan sodir etilgan jinoyat haqida ma'lumot bera oladigan shaxslar ya'ni guvohlar, jabrlanuvchilar hamda gumon qilinuvchilar o'rtasida o'rnatiladigan muloqot. Aynan so'roq davomida tergovchi sodir etilgan jinoyat yuzasidan o'ziga kerakli ma'lumotlarni to'playdi, tahlil qiladi va lozim bo'lsa jinoyat ishiga dalil sifatida qo'shadi. Bolalar (voyaga yetmaganlar)ni so'roq qilish esa tergov jarayonida bir qator muammolar keltirib chiqarishi mumkin, bu voyaga yetmaganlarning o'ziga xos psixologiyasi va dunyoqarashi bilan bevosita bog'liq. Shu sababli tergov jarayonida voyaga yetmaganlarni so'roq qilish va ular bilan boshqa tergov harakatlari o'tkazishda mutaxassislar ishtirokidan foydalaniladi. Mutaxassis sifatida pedagog, psixologlar va voyaga yetmaganlarning qonuniy vakillari tergov harakatlarida ishtirok etadilar. Shuningdek, kiberjinoyatlarni (kiberbulling, kibermobbing va x.k) tergov qilishda esa sohada maxsus bilimga ega bo'lgan mutaxassislarning ham tergovda ishtirok etishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

Onlayn zo'ravonlik turli yo'llar bilan sodir bo'lishi mumkin. Bunga ijtimoiy tarmoqlar, maxsus sahifalar va ma'lum bir shaxsni qo'rqitishni targ'ib qiluvchi domenlar orqali bezorilik kiradi. Haqoratli fotosuratlar, iboralarni joylashtirish, mish-mishlarni tarqatish, mavjud

bo'lmagan hikoyalarni o'ylab topish. Ular ko'pincha shantaj maqsadida ma'lumotlarni joylashtiradilar. Ba'zan hujum to'g'ridan-to'g'ri sodir bo'ladi, bir kishi shaxsiy xabarlar yoki ommaviy sharhlar yoziladi. So'nggi paytlarda "o'lim guruhlari", shuningdek, o'z joniga qasd qilish bo'yicha qo'llanmalar bilan onlayn o'yinlar hamma orasida mashhur bo'ldi.

Xorijdagi zamonaviy jinoyat huquqining eng muhim muammolaridan biri internetda xavfsizlikni ta'minlash bo'lib qoldi, bu o'zining barcha ijobiy xususiyatlariga qaramay, ko'pincha noqonuniy maqsadlarda foydalaniladi. Kanadalik professor Uen Makkeyning so'zlariga ko'ra, kibermakonni nazoratsiz katta jamoat o'yin maydonchasi bilan solishtirish mumkin, unda vijdotsiz ishtirokchilar boshqalarni bezovta qilishi, qo'rqitishi va tuhmat qilishi, nisbatan jazosiz qolgan holda hissiy va psixologik stressni keltirib chiqarishi mumkin [3].

Bugungi dunyoning rivojlangan mamlakati Buyuk Britaniyada internet aksariyat aholi hayotining ajralmas qismidir, chunki katta yoshlilarning har 10 tadan 9 nafari internetdan foydalanadi va huddi shu holat bolalar va yoshlarga ham taalluqlidir: 12 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarning 99%i internetdan foydalanadi, ya'ni ular haftasiga 20,5 soat vaqtlarini internetda o'tkazadilar.

Buyuk Britaniyada hozirda internet xavfsizligi choralarini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Shu maqsadda hukumat darajasida strategik hujjat – "Online Harms Whate Paper" [4] "Onlayn zarar Oq kitobi" nashr qilingan. Ushbu hujjat qabul qilinishidan avval onlayn zararlar muammosi bo'yicha nazariy ishlanmalar va tadqiqotlar olib borilgan.

Bolalarga nisbatan sodir etiladigan zo'ravonliklardan yana biri bu psixologik zo'ravonlikdir.

Psixologik zo'ravonlik (emotsional zo'ravonlik, g'amxo'rlikning yo'qligi) – bolani doimiy ravishda yoki vaqti-vaqti bilan og'zaki haqoratlash, o'ta-onalar, vasiylar, o'qituvchilar, tarbiyachilar tomonidan tahdidlar, uni kamsitish, aybdor bo'lmagan narsada ayblash, bolaga mehrsizlikni, nafratni namoyish qilish. Zo'ravonlikning bu turiga doimiy yolg'on, bolani aldash (natijada u kattalarga ishonchini yo'qotadi), shuningdek, bolaga uning yoshiga oid imkoniyatlariga muvofiq kelmaydigan talablarni qo'yish kiradi [5].

Psixologik zo'ravonlik mavjudligidagi xulq-atvor xususiyatlariga quyidagilar:

bezovtalanish va xavotirlilik;
uyquning buzilishi;

uzoq muddat saqlanib turuvchi ma'yus holat;
yakkalanishga moyillik;
tajovuzkorlik;
nihoyatda yon bosish, tilyog'lama,
xushomadgo'y axloq;
o'z-o'zini o'ldirishga tahdid yoki urinish;
muloqot qila olmaslik, tengdoshlari va boshqa
odamlar bilan munosabat o'rnata olmaslik;
yomon o'zlashtirish;
o'z-o'zini past baholash;
ishtahaning buzilishi [6] kiradi.

Voyaga yetmagan (bola)larga nisbatan sodir etilgan ruhiy zo'ravonlik holatlarida bolada yuqorida keltirilgan holatlar kuzatiladi. Bolalarga nisbatan ruhiy zo'ravonlik-bu har qanday zo'ravonlik bilan birga sodir etiladi, ya'ni bolaga nisbatan jismoniy, jinsiy, onlayn va boshqa turdagi zo'ravonliklar sodir etilganida bola albatta ruhiy (emotsional) travma oladi. Tergovchi va surishtiruvchi bolalarga nisbatan sodir etilgan zo'ravonlik holatlarini tergov qilar ekan, albatta har bir zo'ravonlik holati bilan birga ruhiy zo'ravonlik holatlari ham sodir etilganligiga huquqiy baho berishi lozim. Bolalarga nisbatan sodir etilgan zo'ravonlik holatlarida eng avvalo sinchkovlik, sovuqqonlik, hissiyotga berilmaslik va holatni to'g'ri baholay olish tergovchi va surishtiruvchidan talab qilinadigan asosiy xususiyatdir. Ayniqsa, bolalarga nisbatan sodir etilgan jinsiy zo'ravonlik holatlarini tergov qilishda tergovchi va surishtiruvchi albatta jabrlanuvchi (bolalar)ga yetkazilgan ruhiy zo'ravonlik holatlariga ham alohida e'tibor qaratib, bu holatni ham jinoyatlar majmui sifatida baholashi lozim.

Mazkur turdagi zo'ravonlik bilan bog'liq holatlarni tergov qilishda tergovchi va surishtiruvchidan tergov jarayonlarida albatta malakali psixologlar, psixoterapevtlar va lozim bo'lsa boshqa malakali mutaxassislarni jalb qilishi tergovni aniq va sifatli o'tkazilishiga asos bo'ladi.

Bola bilan munosabat o'rnatish va uning psixoemotsional holatini barqarorlashtirishda eng yaxshi yechim bu-malakali mutaxassisning yordami. Ya'ni bunday vaziyatlarda surishtiruvchi va tergovchi psixologlar bilan bir qatorda psixoterapevtlar xizmatidan foydalanishi tergov jarayonlarining to'laqonli o'tkazilishiga zamin yaratadi. Ruhiy zo'ravonlikka uchragan bolalarda, ayniqsa jinsiy zo'ravonlik yoki og'ir, o'rtacha og'ir tan jarohati yetkazish, muttasil qiynash bilan bog'liq jismoniy zo'ravonliklar natijasida yetkazilgan ruhiy jarohatlar oqibatida bola ruhiyatida salbiy o'zgarishlar, agressiya,

depressiya, vahima, fobiya, tashvish, asabiy buzilishlar, o'z joniga qasd qilish istagi (suitsid), yengil va o'rtacha psixoz hamda nevroz kabi ruhiy xastalik belgilari kuzatilishi mumkin. Mazkur holatlarni aniqlash va jabrlanuvchi (bola)ning ushbu holatlardan salbiy nuqsonlarsiz chiqib olishida hamda bola psixikasida sodir bo'lgan bu kabi o'zgarishlar surishtiruvchi, tergovchini chalg'itmasligi va tergov jarayonlarini murakkablashtirmasligi uchun tergovga malakali psixoterapevt-mutaxassislarni jalb qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Jabrlanuvchilarni so'roq qilishda juda ehtiyotkorlik va ziyraklik talab etiladi. Jabrlanuvchilar bolalar bo'lganligi sababli ularda fikrlar beqarorligi, hodisalarni tez unutib qo'yish, fantaziyalarga berilish, kuchli qo'rquv va shu kabi yoshiga doir subyektiv holatlar kuzatilishi mumkin shu boisdan ularni so'roq qilish zudlik bilan, kechiktirmasdan imkon qadar maxsus jihozlangan bolalar xonalarida yoki bola o'zini erkin his qila oladigan boshqa joylar (uyida, bog'ida, o'yingohda, maktabida va x.k)da amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mazkur turdagi jinoyatlarni tergov qilishda eng avvalo dalillarni olish, ko'zdan kechirish ekspertizalar tayinlash hamda mutaxassis fikrini bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Dalillarni to'plashda surishtiruvchi va tergovchidan tezkorlik, sinchkovlik va ziyraklik talab etiladi. Sababi virtual olamda sodir etilgan jinoyat izlarini yashirish jinoyatchilarga muammo emas, u masofadan turib, ma'lumotlarni o'chirishi, o'zgartirishi, IP-manzillarini butunlay yo'q qilib yuborishi mumkin. Shu sababli dalillarni olish va ko'zdan kechirishda albatta mutaxassis ishtiroki lozim. Olib qo'yilgan dalillar-telefon, planshet, kompyuter, flesh-tashuvchi, qattiq disk (vinchestr) mutaxassisi ishtirokida ko'zdan kechirilib, vertual olamdan olingan dalillarni o'rganish va tekshirish uchun, raqamli texnologiyalar (IT) sohasida maxsus bilimlarga ega bo'lgan mutaxassislar fikrlari va xulosalari ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagilarni inobatga olib, sodir etilgan kiberbulling yoki kibermobbing jinoyatlarini tergov qilishda sudga oid texnik ekspertiza va sudga oid raqamli-axborot texnikasi ekspertizasi kabi ekspertizalar tayinlash mumkin va ekspertlar ixtiyorida olib qo'yilgan telefon, planshet, kompyuter, flesh-karta kabi dalillar taqdim etiladi.

Amaldagi JPKning 173-moddasida ekspertiza tayinlanishi va o'tkazishning shartligi keltirib o'tilgan bo'lib, endilikda zamonaviy onlayn jinoyatlarning kun sayin ko'payib, "rivojlanib,

takomillashib” borayotganligini inobatga olib, ushbu holatlarga har qanday turdagi onlayn (kiber) jinoyat sodir etilganda, jinoyat sodir etgan shaxslarning IP manzillarini va joylashgan joylarini, aniqlash maqsadida sudga oid raqamli-axborot texnikasi ekspertizasi tayinlash shartligini kiritish maqsadga muvofiq bo’lar edi, aynan sudga oid raqamli-axborot texnikasi ekspertizasi kuchli bilimli IT sohasining mutaxassislari tomonidan o’tkazilib, mazkur ekspertiza natijasida “onlayn jinoyatchi”ning ma’lumotlari, joylashuvi, uning sahifasidan yoki ijtimoiy tarmoqdagi dasturlaridan foydalanuvchilar kontinenti, tarqatilayotgan ma’lumotlar doirasi va manbasi kabi ma’lumotlar aniqlanish masalalari ilgari surilishi lozim.

Bundan tashqari, JPKning 121-moddasida keltirilgan voyaga yetmagan jabrlanuvchi va

guvohlarni so’roq qilish tartibiga “bolalarga nisbatan sodir etilgan har qanday zo’ravonlik holatlari yuzasidan o’tkaziladigan so’roq qilish tergov harakatlarida voyaga yetmagan jabrlanuvchi va guvohni so’roq qilishda qonuniy vakili, psixolog, pedagog va psixoterapevt ishtiroki ta’minlanishi lozimligi”ni kiritish maqsadga muvofiq.

Bu borada surishtiruvchi yoki tergovchi tergov harakatlari davomida, jabrlanuvchi(bola)ning holatidan kelib chiqib, uni ijtimoiy moslashuv markazlariga joylashtirishi yoki yashash joyini o’zgartirmagan holda psixoterapevt ko’rigidan o’tkazishi va mazkur shifokor nazoratida bo’lishini ta’minlashi lozim. Buning uchun tergovchi tegishli tartibda qaror chiqarishi shart bo’ladi.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Школа без насилия: Методическое пособие / Под ред. Н.Ю. Синягиной, Т.Ю. Райфшнайдер. — М., 2015. – 150 с.
2. <https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Kiberbulling&variant=uz-cyrl>.
3. MacKay W. Respekctful and Responsible Realitions: There’s No App for That.the report of the Nova ScotiaTask Force on bullying and Cyberbullying/ February 2012. URL:<https://papers.Ssrn.com/sol3/papers.cfm>.
4. Online HarmsWhate Paper.April 2019.URL:https://assets.publishing.servis.gov.uk/government/uploads/system/aploads/attachment_data/file/793360/Online_Harms-Whate_Paper.pdf.
5. Матвиенко М.В., Ушкачев П.А. Раннее выявление жестокого обращения с детьми в семьях: Методическое пособие. – Псков, 2014. – 101 с.
6. Там же.

TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISHDA HAMKORLIK MASALALARI VA UNDA ICHKI ISHLAR ORGANLARI IDORAVIY HAMKORLIK BO'LINMALARINING ISHTIROKI

M. SH. YULDASHEV,

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
mustaqil izlanuvchisi*

Аннотация.

Мақоллада тезкор-қидирув фаoliyatini amalga oshirishda hamkorlikning umumiy va o'ziga xos jihatlarini, shuningdek mazkur hamkorlikda ichki ishlar organlari idoraviy hamkorlik bo'linmalarining roli va ahamiyatini ochib berishga harakat qilingan. Bu borda tezkor-қидирув faoliyatining huquqiy asoslari va uning mazmun-mohiyati turlichaligiga alohida e'tibor qaratilgan.

Hamkorlikning turi, shakli va yo'nalishlari bo'yicha tasniflari hamda hamkorlikning tashkiliy va taktik bosqichlari mazmuni ochib berilgan, hamkorlikdagi faoliyatga yangicha ish uslublarini joriy etib borish hamda eskicha ishlash tizimidan butunlay voz kechish zarurligi asoslab berilgan.

Tezkor-қидирув tadbirlarini amalga oshirishdagi hamkorlikni boshqarish va muvofiqlashtirishdagi tushunmovchiliklarni bartaraf etish maqsadida ayrim tushunchalarga mualliflik ta'riflari ishlab chiqilgan. Mavjud muammolar obyektiv va subyektiv sabablar bilan bog'lab tahlil qilingan.

Тayanch so'zlar:

tezkor-қидирув faoliyati, tezkor-қидирув faoliyati subyektlari, hamkorlik, tezkor-қидирув tadbiri, tezkor kuzatuv, tezkor aniqlov, tezkor izlanuv, hamkorlikni boshqarish, hamkorlikni muvofiqlashtirish.

Аннотация.

В статье предпринята попытка раскрыть общие и специфические аспекты сотрудничества при осуществлении оперативно-розыскной деятельности, а также роль и значение ведомственных подразделений органов внутренних дел в данном процессе. Особое внимание уделено правовым основам оперативно-розыскной деятельности и разнообразию её содержания.

Раскрыты классификации видов, форм и направлений сотрудничества, а также содержание организационных и тактических этапов взаимодействия. Обоснована необходимость внедрения новых методов работы и полного отказа от устаревших систем деятельности.

Для устранения недоразумений в управлении и координации сотрудничества при осуществлении оперативно-розыскных мероприятий разработаны авторские определения некоторых понятий.

Ключевые слова:

оперативно-розыскная деятельность, субъекты оперативно-розыскной деятельности, сотрудничество, оперативно-розыскное мероприятие, оперативное наблюдение, оперативное выявление, оперативный розыск, управление сотрудничеством, координация сотрудничества.

Annotation.

The article attempts to reveal the general and specific aspects of cooperation in the implementation of operational investigative activities, as well as the role and importance of departmental units of interaction of law enforcement agencies in this process. Special attention is paid to the legal foundations of operational investigative activities and the variety of its content.

The classifications of types, forms and directions of cooperation, as well as the content of organizational and tactical stages of interaction are disclosed. The necessity of introducing new methods of work and completely abandoning outdated systems of activity is substantiated.

To eliminate misunderstandings in the management and coordination of cooperation in the implementation of operational investigative measures, the author's definitions of some concepts have been developed. The existing problems are analysed taking into account objective and subjective reasons.

Keywords:

operational search activity, subjects of operational search activity, cooperation, operational search event, operational surveillance, operational identification, operational search, cooperation management, coordination of cooperation.

Jinoyatlarning oldini olish va unga qarshi kurashishdagi sa'y-harakatlarni birlashtirish bo'yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasidagi hamkorlikni

takomillashtirish va uni muvofiqlashtirish masalalari mamlakatimizda jinoyatchilikka qarshi kurashishning ustuvor yo'nalishlaridan birini tashkil etishi shubhasizdir.

Zero, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning vazifalarini umumiyligi hamda o'ziga xos xususiyatga ega ekanligi bois ular birgalikda, uzviy hamkorlikda ishlashi zarurligini ko'rsatadi. Huquqshunos olim R.N. Raximxo'jaevning fikricha, vazifalarni puxta, o'z vaqtida bajarish uchun, avvalo, ichki ishlar organlari xizmat va bo'linmalarining imkoniyatlaridan har tomonlama foydalangan holda ular o'rtasidagi samarali hamkorlikni ta'minlash zarur [1].

Umuman olganda, hamkorlik deganda muayyan umumiy vazifani birgalikda bajarayotgan ikki yoki undan ortiq xizmatning, boshqaruvning bir-biriga bo'ysunmagan alohida ishtirokchilarining o'z harakatlarini o'zaro kelishib bajarishi tushuniladi[2]. Ichki ishlar organlarida hamkorlik deganda, odatda, qonunlar va qonunosti hujjatlariga asoslangan holda ichki ishlar organlari tizimi turli bo'g'inlarining maqsad, joy va vaqt bo'yicha kelishilgan faoliyati tushuniladi[3]. Faoliyatni amalga oshirishning huquqiy asoslari va uning mazmun-mohiyati turlichadir.

Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Idoraviy hamkorlik bosh boshqarmasi va uning hududiy bo'linmalari tezkor faoliyatini tashkil qilish to'g'risidagi ichki idoraviy yo'riqnomaga binoan – ichki ishlar organlarining tezkor va kadrlar bilan ishlash xizmatlari, shuningdek tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi boshqa organlarning topshiriqlari asosida tezkor kuzatuv, maxsus aniqlov va razvedik-izlov orqali ma'lumotlar to'plash tadbirlarini amalga oshiradi [4].

Binobarin, ichki ishlar organlari idoraviy hamkorlik bo'linmalarining tor ma'nodagi hamkorligi tezkor kuzatuv, maxsus aniqlov va razvedik-izlov orqali ma'lumotlar to'plashda, tom ma'nodagi hamkorligi esa "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi qonunda ko'rsatilgan asosiy vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishda tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar xodimlari tomonidan qonunchilik asosida maqsadi, joyi va vaqti bo'yicha birgalikda amalga oshiradigan faoliyatdir.

Mazkur faoliyat turli mezonlarga, ya'ni hamkorlik subyektlari doirasi, yo'nalishi, bosqichlari va maxfiylik darajasi kabilar bo'yicha har xil tavsiflanishi mumkin. Albatta, bunda hamkorlikni tashkil etishga

bo'ysunish munosabatlarida bo'lgan (vertikal hamkorlik) va bunday munosabatlarda bo'lmagan (gorizontal hamkorlik) xizmat va bo'linmalarining o'zaro kelishuvini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak.

Xususan, idoraviy hamkorlik bo'linmalarining asosiy vazifa va funksiyalaridan kelib chiqqan holda mazkur faoliyatdagi hamkorlikni amalga oshiruvchi subyektlar doirasi bo'yicha, ya'ni tizimiga ko'ra ichki, idoraviy, mintaqaviy, idoralararo va xalqaro hamkorlikka ajratib ko'rsatish mumkin:

1) idoraviy hamkorlik bo'linmalari boshqarma, bo'lim, bo'linma va guruhlar o'rtasidagi o'zaro ichki hamkorlik;

2) ichki ishlar organlarining boshqa sohaviy xizmatlari bilan bo'ladigan idoraviy hamkorlik (masalan, jinoyat qidiruv, terrorizmga qarshi kurashish, kadrlar bilan ishlash xizmatlari va boshqalar);

3) idoraviy hamkorlik bo'linmalarining boshqa hududlardagi tuzilmalari bilan bo'ladigan mintaqaviy hamkorlik (masalan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyat idoraviy hamkorlik bo'linmalari bilan bo'ladigan hamkorlik);

4) tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi boshqa davlat organlari bilan bo'ladigan idoralararo hamkorlik (masalan, Bosh prokuratura, DXX, PDXX, Davlat bojxona qo'mitasi va boshqalar);

5) xorijiy davlatlar va xalqaro politsiya tashkilotlarining huquqni muhofaza qiluvchi organlari bilan O'zbekiston Respublikasining jinoyatchilikka qarshi kurash va huquqiy yordam ko'rsatish sohasidagi hamkorlik masalalari bo'yicha xalqaro shartnomalar asosida kelib tushgan so'rovlarga[5] ko'ra xalqaro hamkorlik [6].

Ta'kidlab o'tish joizki, so'nggi bir-ikki yil ichida vazirlik rahbariyati tashabbusi bilan tezkor-ta'minot xizmatlari xodimlarini xalqaro hamkorlik doirasida tezkor texnika vositalarini o'rganish bo'yicha Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga (Rossiya Federatsiyasi, Belarus va Qozog'iston Respublikalariga) xizmat safarlariga yuborilganligi ijobiy holatdir. Ayni paytda, konspiratsiya, maxfiylik va nooshkoralik mazkur yo'nalishda muayyan murakkabliklarni keltirib chiqarsa-da, lekin xalqaro hamkorlik masalalarining yanada

samarali bo'lgan konstruktiv yechimlarini topish yoki imkoniyatlarini qidirish zarur.

Shu maqsadda, to'plangan mavjud tajribalarni e'tiborga olgan holda Ichki ishlar vazirligining boshqa xizmat, ayniqsa, jinoyat-qidiruv, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish xodimlarini, shu jumladan vazirlik ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarini chetellargaxizmat-safarlarigayuborilayotganda tegishli xizmatlar bilan hamkorlikda hamda konspiratsiya prinsipiga rioya etgan holda idoraviy hamkorlik bo'linmalari xodimlarini ham xizmat-safarlariga yuborish amaliyotini yanada jonlantirish va tizimli ravishda yo'lga qo'yish taklif etiladi.

Zeroki, global o'zgarishlar bo'layotgan hozirgi kunda, o'z qobig'iga o'ralashib qolish yoki jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashishda, xususan, ma'lumotlar to'plash, tezkor-qidiruv, huquqbuzarliklar va ularni sodir etishga moyil shaxslarni aniqlash, tahlil qilish va o'zaro axborot almashuvi sohalarida, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash ishlarida qo'shni davlatlarda yoxud rivojlangan mamlakatlarda erishilayotgan ijobiy natijalarni, e'tirof etishga loyiq bo'lgan yangiliklarni ijodiy yondashgan holda o'zlashtirish orqali yangicha ish uslublarini joriy etib borish hamda eskicha ishlash tizimidan butunlay voz kechish hozirgi kun talabidir [7].

"Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 4-moddasida ko'rsatib o'tilgan tezkor-qidiruv faoliyatining asosiy vazifalaridan kelib chiqqan holda tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshiruvchi subyektlar hamkorligini quyidagi yo'nalishlarga ajratib ko'rsatish mumkin bo'ladi:

birinchisi, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha;

ikkinchisi, jinoyatlarning oldini olish, ularni aniqlash, ularga barham berish va ularni fosh etish, shuningdek jinoyatlarni tayyorlash va sodir etishga daxldor shaxslarni aniqlash hamda topish bo'yicha;

uchinchisi, surishtiruv, tergov organlaridan va suddan yashirinib yurgan, jinoiy jazodan bo'yin tovlayotgan shaxslarni, bedarak yo'qolgan shaxslar va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa shaxslarni qidirishni amalga oshirish, shuningdek tanib

olinmagan murdalarning shaxsini aniqlash bo'yicha;

to'rtinchisi, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligiga tahdid solayotgan shaxslar, hodisalar, harakatlar (harakatsizlik) haqida axborot to'plash bo'yicha.

Ma'lumki, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirishda axborot ta'minotini jadallashtirish, tezkor vaziyatni tavsiflovchi ishonchli ma'lumotlarni tizimlashtirilgan holda yig'ish, ularni o'z vaqtida va sifatli tahlilini amalga oshirgan[8] holda samarali foydalanish masalalari soha olimlari va amaliyotchi xodimlarining doimiy diqqat-markazida bo'lgan. Bu bejiz emas, albatta. Chunki jinoyatlar haqidagi axborot almashuvi obyektiv zarurat hisoblanadi. "Bu esa, – deya ta'kidlaydi Sh.M. Turaev, – hamkorlik masalasiga tizimli va faol yondashuvni, avvalo, axborotning amal qilish qonuniyatlarini aniqlashni taqozo etadi[9]".

Mazkur masalada O.A. Sattarov tomonidan bildirilgan "tezkor-qidiruv faoliyatiga innovatsion texnologiyalarni joriy etish yo'li bilan uni modernizatsiya (zamonaviylashtirish) qilish va ushbu faoliyat subyektlari orasida yagona, mukammal axborot-ta'minot bazasini yaratish hamda undan foydalanish samaradorligini oshirish[10]" to'g'risidagi taklifi e'tiborga molik jihatdir.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri tomonidan tasdiqlangan idoraviy hujjatlarda ichki ishlar organlari idoraviy hamkorlik bo'linmalari xizmatlari tomonidan bajariladigan tezkor-qidiruv tadbirlari huquqbuzarliklarning oldini olish hamda jinoyatlarni ochish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni yig'ish, jinoyat sodir etishga tayyorgarlik ko'rayotgan va jinoiy harakat sodir etganlikda gumon qilinayotgan shaxslar, guvohlar hamda jabrlanuvchilar haqida axborot to'plash maqsadlarida o'tkazilishi belgilab qo'yilgan.

Aksariyat maxsus adabiyotlarda [11] tezkor-qidiruv faoliyatidagi hamkorlik bosqichlari asosan tashkiliy va taktik bosqichga bo'lingan holda o'rganib chiqiladi. Jumladan, tashkiliy bosqichda hamkorlik qiluvchi tomondan mas'ul etilgan rahbarlar o'rtasida o'tkazilgan muayyan amaliy uchrashuvlar doirasida maqsad va vazifalar aniq belgilab olinadi, huquq va majburiyatlar kelishiladi, harakat

rejalari va topshiriqlar berish tartibi nazarda tutiladi.

Taktik bosqichda hamkorlikka jalb etilgan subyektlarning qonunda ko'rsatilgan tezkor-qidiruv tadbirlarini qo'llash taktikasi, eng samarali ish usullari va tezkor-texnik vositalari o'zaro kelishuv asosida tanlanadi. "Bu bilan, deya qayd etadi. B.A. Matlyubov, – pirovard natijada umumiy maqsadga erishishning samarasi ta'minlanadi [12]".

Maxfiylik darajasi bo'yicha hamkorlik oshkora va nooshkora turlarga bo'linadi. R.N. Raximxo'jaevning fikricha, tezkor-qidiruv funksiyasini bajarishda nooshkora hamkorlikdan eng ko'p foydalaniladi. "U tezkor-profilaktik tadbirlar o'tkazish, kompleks profilaktik operatsiyalarni birgalikda amalga oshirishda ayniqsa yorqin namoyon bo'ladi"[13]. Yuqoridagi fikrga e'tiroz bildirmagan holda qo'shimcha qilish mumkinki, bizning nazarimizda, hamkorlikning maxfiylik darajasi tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi vakolatli organning o'ziga xos xususiyatiga ham taalluqlidir. Misol uchun, ichki ishlar organlari idoraviy hamkorlik bo'linmalari faoliyatida hamkorlikning asosan nooshkora turi ko'proq ahamiyat kasb etib, xodimlarning bilvosita ishtiroki ta'minlanadi.

Hayotiy tajriba shuni ko'rsatadiki, har qanday hamkorlikning ijobiy yakuniy natijasi muvaffaqiyatli boshqaruv va muvofiqlashtirishga bog'liqdir. Shu bois, maxsus yuridik adabiyotlar [14] tahlilini hamda huquqni qo'llash amaliyoti natijalarini umumlashtirgan holda tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirishdagi hamkorlikni boshqarish va muvofiqlashtirish tushunchalariga quyidagicha ta'rif berish mumkin bo'ladi.

Tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirishdagi hamkorlikni boshqarish – bu tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi vakolatli davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan tezkor-qidiruv faoliyatining asosiy vazifalarini bajarishdagi hamkorlikni tashkiliy-metodik, huquqiy, moddiy-texnikaviy ta'minlashga doir ijroiya-farmoyish berish faoliyati hisoblanadi.

Tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirishdagi hamkorlikni muvofiqlashtirish – bu tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirishdagi hamkorlikni boshqarishning

tarkibiy qismi bo'lib, hamkorlikka kirishuvchi turli subyektlarning belgilangan vazifalarni bajarishga yo'naltirilgan harakatlarini tartibga solish, taqsimlash, kelishgan holda tashkil etishdan iborat.

Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, jinoyatchilikka qarshi kurashda, afsuski, tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshiruvchi subyektlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik har doim ham yetarli darajada tashkil etilmasdan qolmoqda. Ayniqsa, yuqorida ta'kidlanganidek, hamkorlikni boshqarish va muvofiqlashtirish masalalarida ko'plab muammolar mavjud. Buning muayyan obyektiv va subyektiv sabablarini ko'rsatib o'tish o'rinlidir.

Birinchidan, hamkorlikning qonuniy asoslari nazariy jihatdan yetarli darajada bo'lsa-da, biroq ularni amaliyotiga tatbiq etishda muayyan kamchilik va muammolar mavjud. "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 11-modda birinchi qismida ichki ishlar organlarining boshqa organlar va tashkilotlar bilan hamkorligi belgilangan bo'lib, unga ko'ra ichki ishlar organlari o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish maqsadida, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi hamda aniqlangan jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklarga oid mavjud materiallar to'g'risidagi axborotni almashishni, shu jumladan elektron shaklda almashishni, shuningdek boshqa axborotni almashishni amalga oshiradi.

Mazkur moddaning ikkinchi qismiga muvofiq, davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda, jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta'minlashda, jinoyatlar va ma'muriy huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash, ularga chek qo'yish, ularni fosh etishda, jinoyat ishlarini tergov qilishda, jinoyatchilarni qidirishda, bedarak yo'qolganlarning turgan joyini aniqlashda, shuningdek huquqbuzarliklar profilaktikasida ichki ishlar organlariga o'z vakolatlari doirasida ko'maklashishi shart.

"Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining

12-modda birinchi qism uchinchi xatboshida maxfiylik asosida ko'maklashish istagini bildirgan shaxslar bilan pulli yoki bepul hamkorlik o'rnatish tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning huquqlari sifatida ko'rsatilgan.

Yuqoridagi va unga o'xshash qonun normalarini amaliyotga tatbiq etishdagi eng asosiy kamchilik, bizning nazarimizda, qonunlarning mazmun-mohiyatini ijrochilarga yetkazish va shuningdek, huquqni qo'llash va amalga oshirish samaradorligini pastligidadir. Bunday kamchilikning yuzaga kelishi, eng avvalo, subyektiv omil sifatida xodimlarning bilimi, dunyoqarashi, amaliy ko'nikmasi, o'z ustida ishlay olish qobiliyati bilan izohlansa, ikkinchi tomondan, obyektiv omil sifatida qonunlarni qabul qilishda yuridik texnikaning muhim tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadigan qonunchilik texnikasiga ham bog'liqdir. Ya'ni qonun normasidagi jumalarni mantiqan va mazmunan to'g'ri tuzish, yuridik konstruksiya va lingvistika qoidalariga asoslantirish, qonun hujjatlarining shaklan hamda ma'no va mazmun jihatidan tuzilishi uzviy hamda mukammal bo'lishi talab etiladi.

Muammo shundan iboratki, mazkur qonunlarning yoki ulardagi havolaki normalarning samarali ishlashiga yordam beradigan tegishli qonunosti hujjatlari chiqarilmayotganida bo'lib, ularsiz esa bu qonunlarda belgilangan qoidalar umuman ishlamasligini anglab olishimiz darkor.

Ikkinchidan, hamkorlikni amalga oshiruvchi subyektlarning ayrim mansabdor shaxslari tor idoraviy yondashuv yoki manfaatlar

to'qnashuvi natijasida har doim ham bunday hamkorlikka jiddiy e'tibor qaratmaydilar yoki qiziqish bildirmaydilar yoxud uquvsizlik qiladilar. Natijada, muayyan hamkorlikda o'rnatilgan aloqalarning mustahkamligini va uyg'unligini saqlab qolish imkoniyati juda kam. Ayniqsa, bu holat tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi davlat organlari bilan bo'ladigan idoralararo hamkorlikda ko'proq namoyon bo'ladi.

Shu bois bizning nazarimizda, tezkor-qidiruv faoliyati subyektlari bo'lgan huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlari hamkorligini tashkiliy-metodik, huquqiy, moddiy-texnikaviy ta'minlovchi, shuningdek tashkiliy-taktik asoslarini muvofiqlashtiruvchi tizimni yaratish va takomillashtirib borish maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning, shu jumladan ichki ishlar organlari idoraviy hamkorlik bo'linmalarining jinoyatchilikka qarshi kurashda vakolatli organlar bilan hamkorlikni talab darajasida yo'lga qo'yishda axborot olishning barcha darajadagi manbalarini doimiy ravishda kengaytirib borish va tezkorligini oshirish, keng tarmoq otgan razvedik-izlov (ya'ni ilgari ma'lum bo'lmagan va tezkor-qidiruv faoliyati vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan g'ayrihuquqiy xususiyatga ega hodisalar va ularga aloqador shaxslar haqidagi axborotni olish) yo'nalishiga ega tizimni yaratish, axborotni izlash, saqlash va berishda qonuniylikka rioya qilishning huquqiy kafolatlarini takomillashtirish hozirgi kunda yanada dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Raximxo'jaev R.N.* Jinoyat qidiruv va terrorizmga qarshi kurash bo'limlari tezkor-qidiruv faoliyatida hamkorlikning nazariy jihatlar. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining axborotnomasi. – 2015. – № 3. – B. 49.
2. *Matlyubov B.A.* Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish: muammo va yechimlar: O'quv qo'llanma. – T., 2018. – B. 220.
3. Tezkor-qidiruv xizmatlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari va ichki ishlar orgnalarining boshqa sohaviy xizmatlari bilan hamkorligi: O'quv qo'llanma / Mas'ul muharrir Sh.T. Ikramov. – T., 2013. – B. 24.
4. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2017-yil 22-avgustdagi 008-son buyrug'i bilan tasdiqlangan Yo'riqnoma.
5. O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 25-dekabrdagi "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi qonunining 15-moddasi.
6. *Saidov A.X.* Jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlik: Ma'ruzalar kursi. – T., 2012. – B. 4–5.

7. *Yuldashev M.Sh.* Jinoyatlarning oldini olish va unga qarshi kurashishda ichki ishlar organlarining tezkor ta'minot xizmatlari oldida turgan vazifalar // O'zbekiston Respublikasi IIV IHBBning Axborot byulleteni. – 2017. – № 3. – B. 30.

8. *Karimov I.M.* Axborot xavfsizligi. – T., – B. 4–5.

9. *Turaev Sh.M.* Tezkor-qidiruv natijalaridan jinoyat protsessida foydalanish // O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining axborotnomasi. – 2017. – № 3. – B. 33.

10. *Sattarov O.A.* Jinoyatchilikka qarshi kurashni takomillashtirishda "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi qonunining o'rni // O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining axborotnomasi. – 2015. – № 1. – B. 26–29.

11. Tergov apparatlarining ichki ishlar idoralarining boshqa sohaviy xizmatlari bilan hamkorligi: o'quv-metodik qo'llanma / Mas'ul muharrir Sh.T. Ikramov. – T., 2013; Tezkor-qidiruv xizmatlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari va ichki ishlar organlarining boshqa sohaviy xizmatlar bilan hamkorligi: o'quv qo'llanma / Mas'ul muharrir Sh.T. Ikramov. – T., 2013.

12. *Matlyubov B.A.* Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish: muammo va yechimlar: O'quv qo'llanma. – T., 2018. – B. 221.

13. *Raximxo'jaev R.N.* Jinoyat qidiruv va terrorizmga qarshi kurash bo'limlari tezkor-qidiruv faoliyatida hamkorlikning nazariy jihatlar. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining axborotnomasi. – 2015. – № 3. – B. 49.

14. *Самоделкин А.С.* Место и роль руководителей оперативных подразделений в координации оперативно-розыскной деятельности // Общество и право. – 2016. – №3. – С. 215–220.

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA TA'LIM - UNGA QARSHI KURASHISH STRATEGIYANING AJRALMAS QISMI

O. G. ZAKIROVA,
IIV Akademiyasi professori

Annotasiya.

Maqolada mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ta'lim korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha strategiyaning ajralmas qismi ekanligi ko'rib chiqilgan.

tayanch so'zlar:

korrupsiya, raqamlashtirish, ochiqlik, hisobdorlik, byurokratiya, korrupsiyaning xavf-xatari, shaffoflik, shaxsiy javobgarlik.

Аннотация.

В статье рассматривается антикоррупционное образование как неотъемлемая часть антикоррупционной стратегии в нашей стране.

Ключевые слова:

коррупция, цифровизация, открытость, подотчетность, бюрократия, коррупционные риски, информированность, прозрачность, персональная ответственность.

Annotation.

The article examines anti-corruption education as an integral part of the anti-corruption strategy in our country.

Key words:

corruption, digitalization, openness, accountability, bureaucracy, awareness, transparency, personal responsibility.

Dunyoda korrupsiyaning oldini olish va aholi o'rtasida poraxo'rlikka nisbatan murosasizlik munosabatlarini shakllantirish uchun ta'limning o'rni muhimligi alohida e'tirof etilgan. Yer yuzida korrupsiyaning zarari qariyb 3 trillion AQSH dollarini tashkil etayotganligi, biroq jamiyat ko'radigan ma'naviy zarar ko'lamining beqiyos ekanligi, ayniqsa ta'limning tanazzulga yuz tutib, shaxs, jamiyat va davlatning qonuniy manfaatlarini to'liq himoya qilolmaydigan vaziyatga tushib qolishi masalani yanada dolzarblashtiradi.

Ko'pgina davlat rahbarlari, taniqli xalqaro tashkilot rahbarlari, shuningdek, boshqa taniqli olimlar va siyosatchi-ekspertlarning nutqini o'rganib, tahlil qilib, butun dunyoda korrupsiyaga qarshi kurash muhim ahamiyatga ega ekanligini anglayotganligining guvohi bo'lasiz. Korrupsiya muammosi umumbashariy miqyosda tahdidlar geografiyasi kengayayotgan davrda o'z-o'zidan yuqori va yanada ko'proq dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz rahbarligida 2025-yilning 5-mart kuni o'tkazilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig'ilishida shunday ta'kidlagan: "Korrupsiya shunday yovuz illatki, u xalqning davlatga, Konstitutsiya va qonunlarga

ishonchiga putur yetkazadi, barqaror rivojlanish va xavfsizlik uchun jiddiy tahdidga aylanadi" [1]. Bu esa korrupsiyaga qarshi kurashishning muqobil ko'plab yo'nalishlarini belgilashni va mexanizmlarini takomillashtirishni talab qilmoqda.

Transparency International xalqaro tashkiloti korrupsiyaning quyidagi ta'rifini ishlab chiqdi va o'z faoliyatida qo'llab kelmoqda: «Korrupsiya, bu – mansabdor shaxsning zimmasiga yuklatilgan vakolatlarni shaxsiy boylik orttirish maqsadida suiiste'mol qilishi» [2]. Mohiyatiga ko'ra Transparency International korrupsiyaning umume'tirof etilgan ta'rifini kengaytirgan, chunki korrupsiyaviy hodisalarni faqatgina davlat hokimiyati organlarining faoliyat ko'rsatish amaliyoti bilan chegaralamaydi. "Korrupsiya" tushunchasining mazkur xalqaro tashkilot tomonidan keltirilgan ta'rifi ishonib topshirilgan vakolatlar yoki hokimiyatni, jumladan, tijorat sektorida ham, barcha suiiste'molliklarni o'z ichiga oladi.

Y.Kolenko O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning institutsional (rasmiy tasdiqlangan) mexanizmlarini tahlil qilar ekan, korrupsiya nafaqat yashirin (latent), shuningdek, shartnomaviy xarakterda bo'lishi mumkinligini

qayd etgan [3]. A.V.Daxin tama qilish yo'li bilan pora olish ustidan kamdan-kam holatlarda shikoyat qilinayotganiga, chunki jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish institutiga ishonchning past darajasi kuzatilayotganiga e'tibor qaratadi [4].

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda O'zbekiston huquqiy davlat ekani belgilandi. Olimlarimizning ushbu moddaga asoslanib ta'kidlashicha, yangi O'zbekiston: "Konstitutsiya va qonun ustuvorligiga asoslangan davlat, deganidir. Bunday davlatda mansabdor shaxslar hokimiyatni xohlaganicha o'zlashtira olmaydi, o'zi bilganicha qarorlar qabul qilmaydi. Barcha davlat organlari faqat qonunda belgilangan vakolatlardan kelib chiqib harakatlanadi" [5].

Korrupsiyani o'rganish va unga qarshi kurashish dunyo hamjamiyatida ko'plab tadqiqotchilar va siyosatchilarning doimiy diqqat markazida bo'lib, ular tomonidan olib borilgan tahlillar natijasida keltirib chiqaruvchi omillar hamda qarshi kurashish vositalari aniqlangan. Korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarning eng asosiylaridan biri aholining huquqiy ongi, huquqiy savodxonlik darajasining pastligi hisoblanadi. Bu esa korrupsiya va unga qarshi kurashish masalalari ta'lim tizimida joy egallashi lozimligini, nafaqat korrupsiya bilan duch kelayotgan davlat xizmatchilari qatlami, balki aholining barcha qatlami: yoshlar, keksalar, ziyolilar, ishchilarning hammasi sohaga oid bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerakligini taqozo etadi. Umuman olganda, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ta'lim korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha strategiyaning ajralmas qismi bo'lishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan mamlakat Parlamentiga O'zbekiston Respublikasi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni loyihasi kiritilgan, u 2017-yil 3-yanvarda qabul qilingan [6]. Undagi 6 ta bob va 34 ta moddada davlatning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatining qonunchilik asoslari belgilangan.

Qonun korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida huquqiy munosabatlarni majmuaviy tartibga solishni ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan. Qonunga muvofiq korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- aholining huquqiy ongi va huquqiy

madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

- davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarliligi prinsipini ta'minlash.

Ko'rib chiqilayotgan qonunda davlatning korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosatining asosiy prinsiplari va yo'nalishlari keltirilgan, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi vakolatli davlat organlari belgilab berilgan, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolarning ishtiroki, shuningdek, sohada xalqaro hamkorlik qilish belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar quyidagi beshta ustuvor yo'nalishda amalga oshiriladi:

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilikni doimo takomillashtirib borish;

- aholining huquqiy ongi, huquqiy madaniyati va huquqiy savodxonligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirish;

- jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olish;

- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish va keltirib chiqargan shart-sharoitlar, sabab va oqibatlarini bartaraf etish;

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida tadqiqotlar o'tkazish, bu borada xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Bizning fikrimizcha, bugungi kunda jamiyat hayotining korrupsiya xavfi mavjud bo'lgan ayrim sohalarida korrupsiyaga qarshi kurashishga e'tiborni kuchaytirish talab qilinadi. Xususan, mazkur maqolamiz doirasida O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki talabalarning OTMlarga o'qishga kirishda ham, ularni tugatganda ham korrupsiyaviy holatlarga duch kelmasligi uchun korrupsiyaga qarshi tadbirlar bilan nafaqat

davlat, shuningdek, barcha ta'lim muassasalari, ayniqsa, oliy ta'lim tizimi professor-o'qituvchilari va xodimlarini ta'minlash juda muhim. Bunda nafaqat pedagog va boshqaruvchi kadrlar, balki ta'lim oluvchi yoshlar bilan ham ishlash muhim, chunki, ularning har qanday korrupsiya ko'rinishlariga toqatsizlik munosabatini tezkorlik bilan aniqlashga yordam beradi.

2023-yilning 27-noyabr kuni Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2023–2024-yillarga mo'ljallangan navbatdagi davlat dasturi tasdiqlandi.

Davlat dasturi bilan tanishar ekansiz uning tegishli bandlarida davlat boshqaruvi, davlat xizmati, ma'muriy tartib-taomillar, davlat xaridlari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va tadbirkorlik, sud-huquq sohalarida korrupsiyaning oldini olish, korrupsiyaga qarshi kurashishning institutsional asoslarini takomillashtirish, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish kabi ustuvor yo'nalishlarda muhim chora-tadbirlar belgilandi. Jumladan, yangi O'zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan islohotlardan kelib chiqib, korrupsiyaga qarshi kurashishning qonuniy asoslarini yanada takomillashtirish ko'zda tutildi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (IHTT) ta'kidlashicha, O'zbekiston korrupsiyaga qarshi siyosat sohasida bir qator muhim islohotlarni o'tkazgan va u bilan bog'liq qonunchilik muvaffaqiyatli va samarali modernizatsiya qilmoqda. Qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunda [7] mazkur sohadagi faoliyatning huquqiy asoslari va korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarni amalga oshirish mexanizmlari qayd etilgan. Uning amalga oshirilishi milliy va idoraviy harakatlar rejalari bilan qo'llab-quvvatlanadi va ular muntazam ravishda yangilanib turiladi va nashr etiladi. Korrupsiyaga qarshi kurashishga sodiqligini ta'kidlab kelayotgan mamlakatimizda oliy darajadagi bayonotlar hukumat va mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining ochiqligi va oshkoraligini oshirishga, shuningdek, nodavlat sektor vakillari bilan muloqotni yo'lga qo'yishga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (IHTT) hisobotida ushbu

islohotlarni qo'llab-quvvatlayotganiga qaramay, korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini tizimlashtirish, unga strategik maqom berish, ustuvor yo'nalishlar va mamlakatda korrupsiya darajasida kutiladigan ta'sir ko'rsatkichlarini aniq belgilash zarurligi qayd etilgan. Ayni paytda O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha yangi hujjat ishlab chiqilmoqda. Shu sababli Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) korrupsiya xavfi va avval ishlab chiqilgan chora-tadbirlarning ta'sirini chuqur tahlil qilishni tavsiya etgan. O'zgaruvchan vaziyat, maqsad va talablarni aks ettirish uchun qonun hujjatlarini muntazam ravishda qayta ko'rib chiqish va yangilab turish muhim ahamiyatga ega. Bunday yondashuv davlat hokimiyati organlari darajasida harakatlar rejalarni ishlab chiqishda ham, amalga oshirishda ham qo'llanilishi lozim bo'ladi. Monitoring tizimini esa fuqarolik jamiyati, akademik doiralar, xalqaro sheriklar, biznes-hamjamiyat va keng jamoatchilikning vakillarini jalb etish hisobiga takomillashtirish lozim.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (IHTT) hisobotida O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi tadqiqotlarga bo'lgan qiziqish ortib borayotgani ham qayd qilingan. Milliy darajada va turli sohalarda bir qator so'rovnomalar o'tkazilgan va ularning natijalari e'lon qilingan [8]. Shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurash siyosati va qonunchiligini ishlab chiqish hamda ularning korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligiga ta'sirini baholashda bunday so'rovnomalardan faolroq foydalanilishi muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonda davlat organlari tomonidan fuqarolik jamiyati vakillari bilan hamkorlikda yoki ularning yordamida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xabardorlikni oshirish va aholini o'qitish yuzasidan ko'p sonli targ'ibot tadbirlari o'tkazilgan. Bundan tashqari, o'quv muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'quv dasturlari joriy qilingan [9].

O'zbekiston Respublikasi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan [10]. Xususan, qonunning 19–24-moddalari, ya'ni davlat boshqaruvi sohasida, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va tadbirkorlik sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-

tadbirlar, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va uni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar, ma'muriy tartib-taomillar sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar; davlat xaridlarini amalga oshirish sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar bevosita ma'muriy-huquqiy normalar orqali ta'minlanadi. Bundan tashqari, korrupsiyaga qarshi kurashishning fuqaroviy-huquqiy choralari ham aynan ma'muriy-huquqiy normalar orqali amalga oshirilishini ta'kidlash joiz.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)ga a'zo davlatlar (AQSh, Fransiya, Buyuk Britaniya, Yaponiya va boshqalar) tomonidan to'plangan boy tajribani tahlil qilish.) milliy darajada korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha to'plangan boy tajribani tahlil qilish [11] uni O'zbekistonda quyidagi yo'nalishlarda qo'llash maqsadga muvofiq degan xulosaga kelish imkonini beradi:

1) ta'lim xizmatchilariga nisbatan amaliy deontologik (odob va axloq muammolarini o'rganuvchi) standartlar va korrupsiyaga qarshi kurashishning axloqiy normalarini qabul qilish. Bu davlat xizmati to'g'risidagi amaldagi qonunlarni takomillashtirish va "O'zbekiston Respublikasida ta'lim xizmatchilarining axloq kodeksi"ni qabul qilish orqali ularda umumfuqarolik ma'naviy-axloqiy munosabatlarni tarbiyalashni nazarda tutadi. Mazkur kodeksda ma'rifiy tadbirlar majmui, jumladan, mavzu bo'yicha kurslar tashkil qilish, seminarlar, treninglar, attestatsiyalar, tadbirlar va hokazolarni o'tkazishni o'z ichiga olgan holda tarbiyaviy chora-tadbirlar majmuasini amalga oshirish nazarda tutilishi zarur;

2) davlat va fuqarolik jamiyatiga nisbatan hurmatni tarbiyalash vositasida huquqni muhofaza qilish organlarida korrupsiyaga nisbatan salbiy munosabatni maqsadli yo'naltirilgan tarzda shakllantirish;

3) ta'lim tizimida moddiy rag'batlantirishni rivojlantirish, chunki hamma ma'lumki, boshqa faoliyat turlaridan (ta'lim va ilmiy faoliyatdan tashqari) qo'shimcha daromad olishga taqiqlangan taqdirda yetarlicha moliyalashtirmaslik, ularning korrupsiyaviy xulq-atvorining asosiy sabablaridan biriga aylanadi;

4) ish haqini oddiy oshirish bilan bir qatorda, maktabgacha va maktab, OTMlari xizmatchilariga ijtimoiy imtiyozlar, shu jumladan, maxsus kredit shartlari, tibbiy yordam, yuqori nafaqa ta'minoti va boshqalar bilan ta'minlash muhimdir;

5) O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga

qarshi kurash qonunchiligini maqsadli ravishda majmuaviy rivojlantirish, normativ-huquqiy hujjatlarga davlat xizmatchilari va huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatini tartibga soladigan maxsus standartlarni kiritish talab qilinadi. Korrupsiyaga qarshi huquqiy normalar inson omili bilan bog'liq korrupsiya munosabatlarining oldini olish uchun maxsus ma'muriy tartib-qoidalar bilan to'ldirilishi lozim;

6) korrupsiya xavfi yuqori bo'lgan vazirlik va tashkilotlar xizmatchilariga nisbatan samarali repressiv choralarni joriy qilish. Buning uchun kompleans nazorat bo'limlari, kasbiy axloq qoidalariga rioya qilinishini nazorat qilish inspeksiyalari, komissiyalari, korrupsiyaga qarshi kurash xizmat va boshqa shu kabilar tashkil etilishi kerak;

7) ta'lim tizimi xizmatchilari uchun poligrafiya-stress testlari, poraxo'rlikni taqlid (imitatsiya) qilish kabi korrupsiyaga qarshi turli tekshiruvlarni muntazam ravishda o'tkazib turish. O'zbekiston Respublikasi davlat xizmatchilarining bunday tekshiruvlarini qonun bilan mustahkamlashni taklif qilamiz;

8) ta'lim tizimi va davlat xizmatchilarining shaxsiy va kollegial javobgarligi va davlat hokimiyati organlari tarkibiy bo'linmalari rahbarlarining shaxsiy javobgarligi institutlarini ta'sis qilish;

9) ilgari korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklarni sodir qilganlik uchun intizomiy, ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortilgan ta'lim tizimi xizmatchilarining ochiq reyestrini yuritish. Bu reyestrga kiritilgan xodimlar ta'lim tizimida mas'ul lavozimlarni egallash huquqidan mahrum etiladi;

10) korrupsiyaga oid huquqbuzarlik yoki jinoyatlar faktlarini aniqlashda faol ishtirok etayotgan va ko'maklashuvchi fuqarolarni rag'batlantirish institutini ta'sis qilish. Bu jihatdan, bizning nazarimizda, ixtiyoriy ma'lumot beruvchilarga haq to'lash algoritmlarini ishlab chiqish foydali bo'ladi.

Shunday qilib, qonunchilikni modernizatsiya qilish korrupsiyaga qarshi majmuaviy va tizimli kurashishning asosiy omili ekanligi ayon bo'lmoqda. Demak, O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish yuqori samarali bo'lishi uchun keng ko'lamli siyosiy islohotlarning o'tkazilishi va amaldagi qonunchilikka o'zgartirishlar kiritilishi zarur bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengash yig'ilishi bo'lib o'tdi. // <https://president.uz/uz/lists/view/7924>.
2. Korruptsiyani qabul qilish indeksi // Transparency International rasmiy sayti. [Elektron resurs]. URL: <https://transparency.org.ru/research/indeks-vospriyatiya-korruptsii/> (murojaat qilingan sana: 15.09.2023).
3. Коленко Е. Институциональные механизмы борьбы с коррупцией в Республике Узбекистан // Материалы международно-практического семинара на тему «Проблемы борьбы с коррупцией: национальный и международный опыт». – Т., 2018. – С. 114.
4. Дахин А.В. Коррупция: элементы социологической модели // Коррупция в органах государственной власти: природа, меры противодействия, международное сотрудничество. – Нижний Новгород, 2001. – С. 79.
5. Zulfiqorov Sh. Xalqni himoyalovchi mustahkam qo'rg'on // Yangi O'zbekiston. – 2023. – 5 dek.
6. O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi O'RQ-419-son "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni // Lex.uz. [Elektron resurs]. URL: <https://lex.uz/docs/3088013> (murojaat qilingan sana: 15.09.2023).
7. O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi №O'RQ-419 "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida" Qonuni // Lex.uz. [Elektron resurs]. URL: <https://lex.uz/docs/3088013> (murojaat qilingan sana: 15.09.2023).
8. Anti-corruption reforms in Uzbekistan 4th round of monitoring of the Istanbul Anti-Corruption Action Plan // OECD. 2019. [Electronic resource]. URL: https://www.oecd.org/corruption/acn/OECD-ACN-Uzbekistan-4th-Round_Monitoring-Report-2019-ENG.pdf 14-15 pp. (reference date: September 15, 2023).
9. Anti-corruption reforms in Uzbekistan 4th round of monitoring of the Istanbul Anti-Corruption Action Plan // OECD. 2019. [Electronic resource]. URL: https://www.oecd.org/corruption/acn/OECD-ACN-Uzbekistan-4th-Round_Monitoring-Report-2019-ENG.pdf 17-18 pp. (reference date: September 15, 2023).
10. O'zbekiston Respublikasining "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni // Lex.uz. [Elektron resurs]. URL: <https://lex.uz/docs/3088013> (murojaat qilingan sana: 15.09.2023).
11. Бутова Т.В., Петрова Ю.И. О системе государственной службы в США // Состояние и перспективы развития экономики в условиях неопределенности / Сборник статей международной научно-практической конференции. – Уфа: ООО «Аэтерна», 2015. – С. 40-42; Петрова Ю.И., Бутова Т.В. Особенности функционирования системы государственной службы во Франции // Современные аспекты глобализации экономических наук / Сборник статей международной научно-практической конференции. – Уфа: ООО «Аэтерна», 2015. – С. 81; Саликов Д.Х. Основные этапы эволюции государственной службы Великобритании В XIX-XXI веках // Актуальные проблемы государственного и корпоративного управления / Сборник научных трудов / Под общ. ред. С. А. Головихина. – Челябинск, 2016. – С. 32; Хафизова З.И. Кадровая политика Японии на государственной службе // Ученые записки Альметьевского государственного нефтяного института. – 2019. – Т. 18. – С. 174.

O'ZBEKISTONDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SIYOSATI: NATIJADORLIK VA KELGUSIDAGI USTUVOR VAZIFALAR

SH. R. KABILOV,

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

Magistratura "Boshqaruv fanlari" kafedrası professori

Annotasiya.

Maqolada mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish bo'yicha ishlar natijadorligi va kelgusidagi ustuvor vazifalarga qaratilgan siyosatning ahamiyati ko'rib chiqilgan.

Tayanch so'zlar:

korrupsiya, raqamlashtirish, ochiqlik, hisobdorlik, borokratiya, korrupsiyaning xavf-xatarini boshqarish, xabardorlik, shaffoflik, shaxsiy javobgarlik.

Аннотация.

В статье рассматривается эффективность проводимой антикоррупционной политики.

Ключевые слова:

коррупция, цифровизация, открытость, подотчетность, бюрократия, управление коррупционными рисками, информированность, прозрачность, личная ответственность.

Annotation.

The article examines the effectiveness of the anti-corruption policy aimed at future priorities

Key words:

corruption, digitalization, openness, accountability, bureaucracy, corruption risk management, awareness, transparency, personal responsibility.

Korrupsiyaga ilmiy-publitsistik adabiyotlarda yuzlab ta'riflar berilgan. Ularning o'zagini «mansabdor shaxs bilan jinoyatchining moddiy va nomoddiy manfaatdorlik asosidagi hamkorligi», «davlat xizmatchisining shaxsiy manfaatlar yo'lida vakolatlarini suiiste'mol qilishi» tashkil etadi. Korrupsiya mansabdorlik jinoyati bo'lib, qilishi lozim bo'lgan ishlarni qilmaslik uchun, qonunni chetlab o'tuvchilarga «ko'z yumish» yoki ruxsat bermaslik lozim bo'lgan joyda pora evaziga «ruxsat berish»larida namoyon bo'ladi.

Shu o'rinda 2025-yilning 5-mart kuni korrupsiyaning oldini olish bo'yicha ishlar natijadorligi va kelgusidagi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilishda Prezident Shavkat Mirziyoyev so'zining avvalida islohotlar hal qiluvchi bosqichga kirayotgan hozirgi vaqtda yurtimizda korrupsiyadan xoli muhit yaratish bo'yicha ishlarga baho berib, kelgusi vazifalarni aniq belgilab olish zarurligini ta'kidlab, «Islohotlar yo'lidagi eng katta to'siq va g'ov – bu korrupsiyadir. Buni dunyo tajribasi ham to'liq tasdiqlaydi. Korrupsiya oqibatida jahon iqtisodiyoti yiliga 3 trillion dollar zarar ko'rayotgani bu global xavf ekanidan dalolat», deb ta'kidladilar [1]. Darhaqiqat korrupsiyaning

ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari jiddiy xavf-xatarlarni keltirib chiqarishi haqida so'z yuritir ekan davlatimiz rahbarining: «Korrupsiya shunday yovuz illatki, u xalqning davlatga, Konstitutsiya va qonunlarga ishonchiga putur yetkazadi, barqaror rivojlanish va xavfsizlik uchun jiddiy tahdidga aylanadi»[1], degan fikrlarida korrupsiya u nafaqat ijtimoiy tengsizlikni yuzaga keltiradi, balki, biznes yuritish xarajatlarini oshirishi, milliy iqtisodiyotni raqobatga chidamsiz qilishi, muayyan darajada siyosiy beqarorlikni keltirib chiqarishini anglaysiz.

XVF o'tkazilgan global so'rovlar doirasida korrupsiya «jamoatchilik tomonidan kambag'allik va ishsizlikdan ko'ra ko'proq muhokama qilinadigan mavzu hisoblanadi»[2].

Korrupsiya daromadlardagi tengsizlikni keltirib chiqaradi, aholi keskin tabaqalashadi. Muborak Hadislarda aytilganidek, «kambag'allik eng katta baxtsizlik va zo'r musibatdir. Muhtojlik odamni hammaga dushman, behayo qiladi, insof va muruvvatini qo'lidan oladi, quvvat va idrokini zaiflashtiradi. Muhtojlik gunoh va fasod manbaidir» [3]. Korrupsiyani davlat organlari ayrim xodimlarida kasbiy madaniyatning va sog'lom fikrning yo'qligi hamda sinizm (beadablik, uyatsizlik, hayosizlik,

surbetlik, va ojizlik.) bilan tavsiflanadigan tashkiliy madaniyat sifatida baholash zarur. Sinizm – axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarni mensimaslik.

Ilmiy kuzatuvlarimiz shuni ko'rsatdikki, 2017-yilga qadar O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish tarqoq normativ-huquqiy hujjatlar asosida olib borilgan. Bu yovuz illatga qarshi tizimli kurashishning huquqiy asoslari, aniqrog'i manzilli Qonun yo'q edi. Korrupsiyaga qarshi kurashish mushtarak harakatlarni talab etardi.

2017-yilda O'zbekistonni dunyo iqtisodiyoti, siyosati va madaniyatida munosib o'rin egallashi, inson kapitali rivojlangan mamlakatlar 50 taligiga kirish, aholini munosib yashashini ta'minlash kabi buyuk maqsadlar turardi. Vaholanki 2016-yilda O'zbekiston "Transparency International" xalqaro tashkilotining "Korrupsiyani idrok etish indeksi"da quvonarli bo'lmagan 158-o'rinda edi. Ko'p yillar hukm surgan byurokratiya va inson omili, kambag'allik va ishsizlik, iqtisodiy va matbuot erkinligi cheklangani, ochiqlik va shaffoflik yetishmasligi, gender tengsizlik, mulk huquqi himoyalanganmagani, ta'lim sifati pastligi kabilar korrupsiyani keltirib chiqarardi.

Korrupsiyaning jiddiy asorati shundaki, bu illat jamiyatda axloqsizlikni keltirib chiqaradi. Korrupsiya hodisasi iqtisodiy va ijtimoiy beqarorlik keltirib chiqaradi, uning belgilari ishlab chiqarishning pasayishi, ishsizlik, kambag'allik va inflatsiya, axloqsizlik, isrofgarchilik, dabdababozlik, shuhratparastlik deb qaralsa, uni tasdiqlash uchun tajriba yoki sinov o'tkazib bo'lmaydi.

"Transparency International"ning 2025-yilgi hisobotida asosiy qayd etilgan global jihatlariga e'tibor qaratamiz.

TIning yangi reytingi natijalarida korrupsiya dunyo bo'ylab xavfli muammo bo'lib qolayotgani, biroq ko'plab davlatlarda ijobiy o'zgarishlar kuzatilayotgani qayd etilgan.

O'tgan yillardan farqli ravishda bu yilgi reytingda iqlim o'zgarishlari[5], noqonuniy ta'sirlar va "iflos topilgan pullar"ning korrupsiya muammosiga salbiy ta'siri va jiddiy tahdid solayotganiga alohida e'tibor qaratilgan.

Xususan, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish uchun ajratilayotgan mablag'lar talon-taroj qilinayotgani yoki maqsadsiz sarflanayotgani, noqonuniy ta'sir shaklidagi korrupsiya esa iqlim inqiroziga qarshi kurashga qaratilgan siyosatga to'sqinlik qilib, atrof-muhitga zarar yetkazishga olib kelmoqda.

Shu kabi reyting noqonuniy topilgan

mablag'larni o'lchamasada, bu masala jiddiy korrupsiya muammosi ekanligini inobatga olib, uning xavfli oqibatlariga, rivojlangan davlatlar (ayniqsa reytingda yuqori o'rinlarni egallagan) noqonuniy (iflos) pullarni yuvishda yillar davomida ko'maklashib borayotganligi qayd etilgan.

Transparency International raisi Fransua Valerian korrupsiya muammosi bo'yicha quyidagilarni:

Korrupsiya – bu rivojlanayotgan global tahdid bo'lib, u faqat taraqqiyotni sekinlashtirish bilan cheklanmay, demokratiyaning yemirilishi, beqarorlik va inson huquqlarining buzilishiga asosiy sabab hisoblanishi, xalqaro hamjamiyat va har bir davlat korrupsiyaga qarshi kurashni ustuvor va uzoq muddatli maqsad sifatida belgilashi shartligi, bu avtoritarizmga qarshi turish va tinch, erkin va barqaror dunyoni ta'minlash uchun hal qiluvchi ahamiyatga egaligi, joriy yildagi Reytingda aniqlangan xavfli tendensiyalar global korrupsiyaga qarshi keskin choralar ko'rish zarurligini yanada ta'kidlashini qayd etgan[6].

Ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, dunyoda qaysi mamlakat eng rivojlangan bo'lsa, shu mamlakatda korrupsiya darajasi past. Qaysi mamlakat iqtisodiy jihatdan zaif bo'lsa u yerda korrupsiya darajasi yuqori bo'ladi.

"Transparency International" xalqaro nodavlat tashkiloti tomonidan 2024-yil 11-fevral kuni 2024-yil uchun Korrupsiyani idrok etish indeksi ma'lumotlariga ko'ra[4]:

Korrupsiya hodisasidan sezilarli "toza" – korrupsiyani idrok etish indeksida (reytingda) kuchli o'nlikda turuvchi davlatlar – Daniya (90 ball), Finlandiya (88 ball), Singapur (84 ball), Yangi Zelandiya (83 ball), Luksemburg (81), Norvegiya (81 ball), Shveysariya (81 ball), Shvetsiya (80 ball). Korrupsiya hodisasidan zarar ko'rayotgan mamlakatlar – Suriya, Venesuela, Somali, Janubiy Sudan.

Reytingda Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasi dunyoda o'rtacha 35 ball ko'rsatkichi bilan eng quyi pog'onadagi ikkita mintaqadan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston ushbu mintaqaning 19 ta davlati orasida o'tgan yillar kabi 14-o'rinni egallagan. Gruziya (53 ball bilan 53-o'rin), Armaniston (47/63) va Chernogoriya (46/65) mintaqa peshqadamlari bo'lsa, Rossiya (22/154), Tojikiston (19/164) va Turkmaniston (17/165) quyi o'rinlarda joylashgan.

Sobiq Ittifoq davlatlari reyting ko'rsatkichlari solishtirilganda, O'zbekiston 15 ta davlatlar

orasida o'tgan yillar kabi 10-o'rinda joylashgan. Reytingda Boltiqbo'yi davlatlari – Estoniya (76 ball bilan 13-o'rin), Litva (63/32), Latviya (59/38) yuqori, Rossiya va Ozarbayjon (22/154), Tojikiston (19/164) va Turkmaniston (17/165) quyi uchlikni egallagan.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning sa'y-harakatlari bilan o'tgan davrda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy va institutsional asoslari yaratildi. Muhimi, bugun O'zbekistonning "Korrupsiyaga qarshi kurashish modeli" takomillashib bormoqda. Byurokratiyani kamaytirish, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, davlat xizmatlarini ko'rsatish sifatini yaxshilash, raqamlashtirish orqali inson omilini kamaytirish, murojaatlarni o'z vaqtida ko'rib chiqish borasidagi chora tadbirlar korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat siyosatining muhim elementi bo'lib xizmat qilmoqda.

"Transparency International" xalqaro nodavlat tashkiloti (TI) tomonidan 2025-yil 11-fevral kuni 2024-yil uchun Korrupsiyani qabul qilish indeksi (The Corruption Perceptions Index) (CPI) e'lon qilindi. 2024-yil uchun Korrupsiyani idrok etish indeksi natijalariga ko'ra, O'zbekiston indeksdagi o'rnini izchil yaxshilab, 32 ball bilan 180 davlat ichida 121-o'rinni egallagan. Bu ko'rsatkichga osonlikcha erishilmagan.

Korrupsiya balosini payini qirqmasdan bundan sakkiz yil oldin qo'yilgan maqsadlarga erishib bo'lmasdi. Prezidentimizning siyosiy irodasi mahsuli sifatida 2017-yilning 3-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi.

O'tgan davrda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy va institutsional asoslari yaratildi. Korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishidagi chora-tadbirlar izchilligini ta'minlash maqsadida 2017-yildan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida har ikki yilga mo'ljallangan Davlat dasturlari (2017-2018, 2019-2020, 2021-2022, 2023-2024) qabul qilindi.

Oliy Majlis palatalari majlislarida Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi milliy hisobotni eshitish amaliyoti joriy etildi. Eng korrupsiyalashgan hududlar va sohalarni aniqlash uchun reyting va indekslar ishlab chiqildi va joriy etildi. "Korrupsiyasiz soha", "Korrupsiyasiz hudud", "Shaffof vazirlik", "Shaffof hudud" loyihalari amalga oshirilmoqda.

So'nggi yillarda iqtisodiyotimiz ikki karra o'sgani, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad 3 ming dollarga yetgani, maktabgacha

ta'limda qamrov 74 foizdan, oliy ta'limda esa 39 foizdan oshgani, hech shubhasiz, tarixiy natijadir. Kambag'allikni qisqartirish umummilliy harakatga aylandi. Kambag'allik darajasi keyingi yillarda 23 foizdan 8,9 foizga tushdi, uni qisqartirish bo'yicha 32 ta yo'nalishda yangi yondashuvlar joriy etilmoqda[1].

So'nggi yetti yilda 120 milliard dollardan ortiq investitsiya kirgani, iqtisodiyotimiz 2 karra o'sib, o'tgan yili 115 milliard dollarga yetgani amalga oshirilgan korrupsiyaga qarshi islohotlar samarasidir[1].

Parlament palatalarida mas'ul qo'mitalar, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengash va agentlik tashkil qilindi.

Eng muhimi, jamiyatda korrupsiya muammosini jamoatchilik muhokamasiga olib chiqadigan ochiq tizim, ochiq muhit yaratilgani, ayniqsa, ommaviy axborot vositalarining bu boradagi o'rni va ta'siri ortib borayotgani qayd etildi.

Ilgari bu mavzu jurnalistlar uchun mutlaqo yopiq edi. Hozirgi vaqtda mavjud holat ochiqlik va shaffoflik tomonga butunlay o'zgardi.

Ochiqlik bo'yicha xalqaro reytinglardagi mamlakatimizning o'rni 138 pog'onaga yaxshilanib, Markaziy Osiyoda birinchi, dunyoda 30-o'ringa ko'tarildi[1].

Bu natijaga erishish oson kechmaganligini alohida ta'kidlash lozim. Bunga tizimli va izchil ko'rilgan choralar evaziga erishildi. Natijada:

yo'l harakati xavfsizligi inspektorlari bodi-kamera bilan xizmat o'tayotgani, avtoraqamlar auksionda sotilayotgani, "qo'l radari" va qog'oz bayonnoma tuzish tugatilgani uchun korrupsiya omillari keskin kamaydi;

aholi va tadbirkorlarga "xalq xizmatidagi davlat" tamoyili asosida xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yildi. Xususan, 120 turdagi hujjatlarni talab qilish, 160 dan ortiq litsenziya va ruxsatnomalar bekor qilindi;

natijada 200 mingga yaqin yangi tadbirkorlar bozorga kirib keldi. Chet el ishtirokidagi korxonalar qariyb 5 karra oshib, 23 mingga yaqinlashdi. Elektron davlat xizmatlari soni 15 karra ortib, 721 taga yetdi, ulardan foydalanuvchilar esa 11 milliondan oshdi[1].

Oldingi 25 yil davomida bu tushunchalar bizga yot edi. Ko'rib ko'rmaslikka olinardi. Bularni hech biri o'zidan-o'zi bo'lgani yo'q. Hammasiga mashaqqatli mehnatimiz bilan erishdik.

Eng muhimi – bularning hisobiga aholi, tadbirkorlar, xorijiy hamkorlarimiz, xalqaro tashkilotlar va investorlarning islohotlarimizga ishonchi mustahkamlandi.

So'nggi yetti yilda 120 milliard dollardan ortiq investitsiya kirgani, iqtisodiyotimiz 2 karra o'sib, o'tgan yili YaIM 115 milliard dollarga yetgani mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashishning yaxlit tizimi yaratilgani va muhimi ortga qaytmas islohotlarning natijasi hamdir.

Meritokratiya – ezgu, ya'ni korrupsiyasiz boshqaruv prinsipini joriyetish zarur. Singapurda meritokratiya prinsipi davlat darajasida targ'ib qilinadi. Meritokratiya (munosiblarni tanlash) – ezgu, ya'ni korrupsiyasiz boshqaruv prinsipi bo'lib, bo'lib, unga ko'ra rahbarlik lavozimlarini ijtimoiy, iqtisodiy kelib chiqishidan qat'iy nazar, eng qobiliyatli, munosib odamlar egallaydi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev “Korrupsiyani oldini olish – davlat xizmatiga professional va fidoyi kadrlarni tanlash hamda ularni “halollik vaksinasi” bilan emlashdan boshlanadi”[1], deganlari ham bejizga emas.

Yurtboshimiz tomonidan kadrlarni baholashda eski namunadagi “obyektivka”dan voz kechib, ilg'or IT texnologiyalar asosida xodimning malakasi va salohiyati, erishgan natijalarini baholaydigan tizimga o'tilishi belgilanganligi e'tiborlidir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Ongi va qalbi bolalikdan “halollik vaksinasi” bilan emlangan yangi avlodni kamolga yetkazish”ni ustuvor vazifa sifatida qo'yanligi esa halollik siyosatini barcha mansabdor shaxslar uchun davlat xizmatining xulq-atvor normalari sifatida talqin qilish mumkin.

Mamlakatimizdagi tinchlik va barqarorlikni qadrlash, kechagi kun bilan bugungi kunni farqini yaxshi tushunish, mahallada, to'y-marakada ortiqcha isrof-garchilikka yo'l qo'ymaslik, halollik va shukronalik bilan hayot kechirishni tushuntirish ishlari bo'yicha jamiyatimizda yaxshi tajribalar yetishmasligi Prezidentimiz tomonidan qayd etildi. Darhaqiqat, uquqsiz xarajatlar, hashamga berilish, dabdababozlik jamiyatimizda axloqsizlikni keltirib chiqarmoqda.

Davlatimiz rahbari bu borada turgan eng muhim vazifalarga to'xtalib, huquq-tartibot idoralari asosan korrupsiyani aniqlash va jazolash bilan ishlab, korrupsiyaviy omillarni tag-tomiri bilan yo'qotadigan preventiv choralarni e'tiborsiz qoldirayotganini ham alohida ta'kidladi.

Xabaringiz bor so'nggi sakkiz yil avval hududlarni kompleks rivojlantirish bo'yicha sektorlar faoliyati yo'lga qo'yilgan edi. Bu tizim yillar davomida yig'ilib qolgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etib, vaziyatni o'nglash uchun

barcha kuchlarni safarbar etishga ko'maklashdi. Shu bilan birga, so'nggi yillarda hududlar salohiyati bir necha karra oshdi.

Hozirgi texnologiyalar davrida korrupsiyaning yangi, raqamli ko'rinishlari paydo bo'lmoqda. Shu bois yangi o'quv yilidan Ichki ishlar va Huquqni muhofaza qilish akademiyalarida bu yo'nalishda mutaxassis tayyorlash boshlanishi haqida gapirar ekan, davlatimiz rahbari “lekin bunday turdagi jinoyatlarni aniqlash va oldini olishda faqatgina zamonaviy kadrlarni o'zi yetarli emasligi”ni qayd etib, xalqaro tajribani o'rganib, kiberkorrupsiyaga qarshi samarali kurashish bo'yicha mustahkam huquqiy baza yaratish zarurligini ta'kidlandi [1].

Mansabdorlik va maishiy korrupsiya omillarini tahlil qilish, ularni oldini olish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqib, amaliyotga joriy qilish zarurligi qayd etildi.

“Islohotlarimiz natijadorligi avvalo, sadoqatli, fidoyi va korrupsiyaga toqatsiz yangi avlodga bevosita bog'liq. Bu ishda fikri toza yosh avlodni tarbiyalash ustuvor vazifaga aylanishi shart”, - deb ta'kidlab, shu maqsadda maktab direktorlari “Tarbiya” fani doirasida o'g'il-qizlarimizga halollik, birovni haqiga xiyonat qilmaslik kabi ezgu g'oyalarni sodda tilda tushuntirib borishi kerakligini qayd etdilar. Rektorlar esa talaba va yoshlarning korrupsiyaga qarshi loyihalari, startap va innovatsion tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimini yo'lga qo'yishi zarurligi, umuman, “korrupsiya – kelajakka tahdid” degan g'oya asosida Yangi O'zbekiston yoshlari qalbidan joy oladigan tizim yaratilishi, ayni muddao bo'lishi ta'kidlandi [1].

Umuman olganda, ilk marotaba bunday tarzda yig'ilish o'tkazilishi korrupsiyaga qarshi kuchli siyosiy irodani namoyon etdi. Davlatimiz rahbari 55 ta aniq maqsadga yo'naltirilgan tashabbuslarni ilgari surdi.

Ular doirasida 5 ta qonun, 12 ta farmon va qarorlar ishlab chiqiladi. Korrupsiyaga qarshi kurashishda parlament, Milliy va hududiy kengashlar, fuqarolik jamiyati institutlarining roli oshiriladigan bo'ldi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari yanada kuchayadi. Deklaratsiyalash, noqonuniy boylik orttirishga oid yangi tartiblar kiritilishi natijasida korrupsiya omillari cheklanadi. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, tashkilotlardagi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati qaytadan ko'rib chiqiladi va kuchaytiriladi.

Maishiy korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha vazirlik, idoralar rahbarlari mas'uliyati

oshiriladi. Davlat xizmatlari darajasini aholi baholaydigan tizim qilinadi, eng yomon ko'rsatkichga ega soha rahbarlari bo'yicha chora ko'riladigan bo'ldi.

Nazorat inspeksiyalari mustaqilligi oshiriladi. Yirik investitsiya loyihalarida, auksionlarda korrupsiyaning oldini oluvchi yangi mexanizmlar joriy etiladi.

Davlat xaridlari tartibga solinishi, to'g'ridan-to'g'ri xaridlar cheklanishi hisobiga budjet mablag'lari tejalishi ta'minlanadi. Davlat pulini maqsadsiz sarflash holatlariga barham beriladi.

Sektorlardan ozod bo'lgan kuch va vositalar jinoyatchilikka qarshi kurashishga safarbar etilib, jamiyatda barqarorlik muhiti va odamlarning roziligi ortadi. Noqonuniy tekshiruvlar ustidan prokuror nazorati kuchaytirilishi orqali joylarda biznes va investitsiya muhiti yaxshilanadi.

Erishilgan natijalar xalqaro reytinglarda mamlakatimiz o'rnini yaxshilaydi. 2027-yilda UNCAC konferensiyasi mezbonligiga O'zbekiston nomzodini ma'qullash uchun zamin hozirlaydi.

Eng muhim, aholining, ayniqsa, yoshlarning huquqiy ongi yuksaltirilib, jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashishga daxldorlik shakllanadi.

Maqolamizni Prezident Shavkat Mirziyoyevning yig'ilish yakunidagi quyidagi so'zlari bilan yakunlamoqchimiz: "Korrupsiyaga qarshi kurashda barchamiz yagona kuch bo'lib

harakat qilsak, albatta, yanada katta ijobiy samaraga erishamiz. Shu bois mahalla faollari, nuroniylar, ziyolilar, yozuvchi va shoirlar, san'at va madaniyat xodimlari, tadbirkorlar, taniqli shaxslar, rahbarlar, deputat va senatorlar – umuman butun jamoatchilik birlashib, korrupsiyaga "jamiyat tanasidagi saraton" sifatida qarashi kerak.

Bugun sizlar bilan birga belgilab olingan barcha vazifalar aynan ana shunday ruhda ishlab, aniq natijaga erishishga qaratilgan.

Sizlar bu haqiqat va talabni chuqur anglab, ularni amalga oshirishda alohida jonbozlik ko'rsatasiz, barchaga namuna bo'lasiz, deb ishonaman".

Prezidentimiz jamoatchilik vakillari va nodavlat tashkilotlariga murojaat qildi: "Korrupsiyaga qarshi kurash – umummilliy vazifa, har bir vatanparvar yurtdoshimizning vijdon ishidir. Umuman, bu jarayondan hech kim chetda turmasligi kerak. Shu bois, korrupsiyaga nisbatan murosasiz bo'lish uchun yanada ko'proq sharoit yaratib, bunga keng jamoatchilikni jalb qilishimiz zarur. Avvalo, nodavlat tashkilotlar faolligini oshirish lozim. Bu – eng to'g'ri yo'l"! Bu so'zlar bugun barchamiz uchun chaqiriq, dasturul amal bo'lishi kerak. Kelinglar Yangi O'zbekistonni korrupsiyadan xoli mamlakatga aylantirishda ma'naviy quvvatlarimizni birlashtiraylik!.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengash yig'ilishi bo'lib o'tdi. // <https://president.uz/uz/lists/view/7924>.
2. Кристи́н Лага́рд. Эссе "Откровенно о коррупции" // <https://tass.ru/ekonomika/3273959>.
3. "Hadislar"
4. <https://www.transparency.org/en/cpi/2024>
5. <https://www.transparency.org/en/news/cpi-2024-highlights-insights-corruption-climate-crisis>
6. <https://www.transparency.org/en/cpi/2024>

IJTIMOYIY PROFILAKTIKANING TURLARI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY YECHIMLAR

B .E. BERDIALIYEV,

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti boshlig'i, yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya.

Mazkur maqolada ijtimoiy profilaktikaning turlari, ularning jinoyatchilikka ta'siri hamda bu sohadagi ilmiy-nazariy yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, profilaktikaning amaliyotdagi turlari – umumiy, maxsus, individual institutsional hamda qonunchilik profilaktikalarini misollar bilan yoritilgan. Jinoyatchilikning oldini olishda mazkur turlarning har biri alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular fuqarolarning huquqiy ongini shakllantirish, jinoyat va huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash va bartaraf etish hamda huquqiy muhitni mustahkamlashga qaratilgan. Maqolada O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy profilaktika choralari tahlil qilingan va Germaniya davlatining samarali tajribasi o'rganilgan.

Tayanch so'zlar:

ijtimoiy profilaktika, jinoyatchilik, umumiy profilaktika, maxsus profilaktika, individual profilaktika, institutsional profilaktika, qonunchilik profilaktika, profilaktik faoliyat, huquqbuzarlik, ijtimoiy institutlar.

Аннотация.

В данной статье анализируются виды социальной профилактики, их влияние на преступность, научно-теоретические подходы в этой области. Также на примерах проиллюстрированы виды профилактики на практике — общая, специальная, индивидуальная институциональная и законодательная профилактика. Каждый из этих видов имеет особое значение в профилактике преступности, и они направлены на формирование правового сознания граждан, раннее выявление и пресечение преступлений и правонарушений, укрепление правовой среды. Анализируются меры социальной профилактики, реализуемые в Узбекистане, рассматривается эффективный опыт Германии.

Ключевые слова:

социальная профилактика, преступность, общая профилактика, специальная профилактика, индивидуальная профилактика, институциональная профилактика, законодательная профилактика, профилактические мероприятия, правонарушение, социальные институты.

Abstract.

This article analyzes the types of social prevention, their impact on crime, and scientific and theoretical approaches in this area. Also, the types of prevention in practice - general, special, individual institutional and legislative prevention - are illustrated with examples. Each of these types is of particular importance in crime prevention, and they are aimed at forming the legal consciousness of citizens, early detection and elimination of crimes and offenses, and strengthening the legal environment. The article analyzes the social prevention measures implemented in Uzbekistan and studies the effective experience of the German state.

Keywords:

social prevention, crime, general prevention, special prevention, individual prevention, institutional prevention, legislative prevention, preventive activities, offense, social institutions.

Har qanday demokratik jamiyatda jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish eng muhim vazifalardan biridir. Bu jarayonda ijtimoiy profilaktikaning turli shakllari murakkab ijtimoiy munosabatlarning barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish masalasi nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar, balki barcha ijtimoiy institutlar uchun dolzarb hisoblanadi. Ijtimoiy profilaktika tom ma'noda, jamiyatdagi jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish, fuqarolarni sog'lom hayot tarziga yo'naltirish hamda salbiy ijtimoiy hodisalarni bartaraf etishga

qaratilgan tizimli chora-tadbirlar majmuasi bo'lib, uning turlari, asosan, o'z maqsadi, qamrov doirasi, shuningdek, amalga oshiruvchi subyektlariga ko'ra tasniflanadi. Profilaktikaning turli shakllaridan foydalanish yuqori samara beradi. Ammo bugungi kunga qadar ijtimoiy profilaktikani turlari haqida biror olim yoki mutaxassis tomonidan ilmiy tomonlama o'rganilmagan. Shu maqsadda ijtimoiy profilaktikaning quyidagi turlarga bo'lib tahlil qilamiz:

1. Umumiy profilaktika. Unda turi jamiyatning barcha qatlamlarini qamrab olib, jinoyat va huquqbuzarliklar kelib chiqishiga yo'l ochuvchi

ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy, axloqiy omillarga qarshi kurashni nazarda tutadi. Bu turda asosan huquqiy ma'rifat, targ'ibot, ta'lim va tarbiya tizimi orqali ish olib boriladi.

Umumiy profilaktika jinoyat va huquqbuzarliklarni oldini olish bo'yicha umumiy tafakkur hamda huquqiy madaniyatni shakllantirishga qaratilgan. Bu turdagi chora-tadbirlar barcha fuqarolarga yo'naltirilgan bo'lib, huquqiy ongni oshirish, ta'lim, axloqiy tarbiya va ommaviy axborot vositalaridagi huquqiy targ'ibot orqali amalga oshiriladi [1].

Umumiy profilaktika — bu jinoyat sodir etilishining oldini olish maqsadida butun aholi qatlamiga qaratilgan profilaktik ta'sir chora-tadbirlarining majmuasi hamdir. Ushbu turdagi profilaktika jinoyatni sodir etmagan, lekin potensial xavf guruhiga kirishi mumkin bo'lgan shaxslar uchun mo'ljallangan bo'ladi. Bu profilaktika turi keng ommaga axloqiy, huquqiy, madaniy va ijtimoiy ta'sir o'tkazishni o'z ichiga oladi. Maqsad — jamiyatda jinoyatga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirish, aholi orasida jinoyat sodir etish ehtimolini pasaytirish va ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlashdan iborat. Ushbu turdagi profilaktik faoliyat huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ta'lim muassasalari, jamoat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalarining hamkorligida samarali amalga oshiriladi.

2. Maxsus profilaktika. Mazkur profilaktika muayyan "xavf guruhi"ga kiruvchi shaxslar bilan olib boriladi. Bunday shaxslar ichiga ishsizlar, qarovsiz yoshlar, noto'liq oilada o'sganlar, avval jinoyat va huquqbuzarlik sodir etganlar (alohida e'tiborga molik shaxslar) kiradi. Bunda mazkur shaxslarning jinoyat yo'liga kirish ehtimolini kamaytirishga erishiladi. Bunday yondashuv "yashirin xavf"ni aniqlashga va uni barvaqt oldini olishga ta'sir ko'rsatishga yo'naltiriladi.

Shuningdek, maxsus profilaktika — bu jinoyat sodir etish xavfi yuqori bo'lgan aniq shaxslar yoki ijtimoiy guruhlariga yo'naltirilgan profilaktika turi hisoblanadi. U umumiy profilaktikadan farqli o'laroq, alohida individual yoki alohida guruhlariga qaratilgan tadbirlar tizimini o'z ichiga oladi. Bu turdagi profilaktika jinoyatchilikda ishtirok etish ehtimoli yuqori bo'lgan, huquqbuzarlik sodir etgan yoki ijtimoiy xavf guruhiga kiruvchi fuqarolarga aniq va maqsadli ta'sir ko'rsatishga qaratiladi. Ya'ni jinoyatga moyil shaxslarga o'z vaqtida ta'sir o'tkazib, ularni jinoyat sodir etishdan qaytarish, ijtimoiy

faoliyatga jalb etish va ijtimoiy moslashuvini ta'minlash zarurligini ko'rsatadi.

Maxsus profilaktikaning ahamiyati shundaki, profilaktika resurslarni aniq xavf guruhiga yo'naltirish imkonini beradi, natijada samaradorlik oshadi. Shuningdek, shaxsiy yondashuv asosida jinoyatga olib boruvchi ichki omillar aniqlanadi va bartaraf etiladi. Retsidivizm (jinoyatni qayta sodir etish) darajasi pasayishiga erishiladi. Bunda har bir profilaktik harakat shaxsning holati, muhiti va ehtiyojlariga asoslangan bo'lishi kerak.

3. Individual profilaktika. Bu turda aniq bir shaxsga yo'naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Masalan, avval huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar bilan suhbatlar, qayta ijtimoiylashuv bo'yicha yordamlar ko'rsatiladi. Maxsus profilaktika potensial xavf tug'diradigan fuqarolar – "xavf guruhi"dagi shaxslar bilan individual ishlashni nazarda tutadi. Bunday profilaktika avval huquqbuzarlik sodir etgan, ishsiz, oilaviy nazoratsiz qolgan yoshlar va boshqa omillarga ega shaxslarga qaratilgan bo'ladi. Shu o'rinda, M.Usmonaliyev, Y.Karaketov, S. Niyozova kabi kriminolog olimlarni "yakka profilaktika jinoyatlarni oldini olishning ijtimoiy darajasiga, hududiy miqyosiga, ta'sir qilish obyektiga, mazmuniga qarab tasniflab, jinoyatchilikning miqyosiga qarab o'z navbatida umumiy, maxsus va individual choralarga" [2] bo'linishini ko'rsatib o'tishadi.

Shu bilan birga, individual profilaktika – bu jinoyat sodir etish ehtimoli yuqori bo'lgan aniq shaxslar bilan yaxlit, tizimli va uzluksiz tarzda ish olib borishga qaratilgan profilaktikaning eng samarali turlaridan biridir. Unda har bir shaxsning shaxsiy xususiyatlari, ruhiy holati, hayot tarzi, oilaviy sharoiti va atrof-muhiti hisobga olinadi. Bu turdagi profilaktika huquqbuzarlikni sodir etgan, lekin javobgarlikdan ozod etilgan yoki jinoyat sodir etishi ehtimoli bo'lgan fuqarolarga nisbatan amalga oshiriladi. Individual profilaktika jinoyatga moyil fuqaroning xulq-atvorini ijobiy tomonga o'zgartirish, uning jinoiy faoliyatga kirishish ehtimolini pasaytirish, ijtimoiy moslashuviga yordam berish maqsadida amalga oshiriladi.

Germaniyada "Tahlil va tahlikali shaxslarni kuzatish dasturi" orqali jinoyat sodir etish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslar ro'yxati tuziladi va ular bilan psixologlar, ijtimoiy xodimlar ish olib boradi [3]. Shuningdek, Germaniyada ijtimoiy profilaktika jinoyatga moyillikning ijtimoiy va psixologik sabablarini bartaraf etishga

qaratilgan. Bu yerda: Integratsion dasturlar – ayniqsa, muhojirlar va kam ta'minlangan yoshlar uchun jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan.

Ayniqsa, individual profilaktika doirasida har bir jinoyat sodir etish ehtimoli bor shaxs bilan psixolog, ijtimoiy xodim va politsiya hamkorlikda ish olib boradi. “Kurve kriegen” (o'z yo'liga qaytish) dasturi esa 2011-yildan buyon yoshlar o'rtasida jinoyatchilik darajasini 25% ga pasaytirishga yordam bergan [4]. Bu dastur eng avvalo Germaniyaning sakkizta namunaviy mintaqasidagi Axen, Bielefeld, Dortmund, Duysburg, Xagen, Kyoln, Reyn-Erft va Vezel tumanlarida [5] tajriba sifatida boshlangan edi. Mazkur dastur bolalar va yoshlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar sonini kamaytirishga qaratilgan. Dasturining asosiy maqsadi – jinoyatga moyilligi bo'lgan 8 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlarni jinoyat yo'liga kirib ketishidan oldin to'xtatish. 2020 yil holatiga ko'ra, dasturda ishtirok etgan bolalarning 75%i jinoyat sodir etmasligiga erishilgan. 2011–2020-yillar oralig'ida 5000 dan ortiq bola va o'smir dasturga jalb etilgan. Keyinchalik jinoyat sodir etish ehtimoli 30% dan 8% gacha tushirilgan. Bu ijobiy natijalar tufayli dastur keng ommalashtirilgan.

“Kurve kriegen” dasturi jinoyatga moyillikni barvaqt aniqlash va kompleks yondashuv asosida tarbiyaviy hamda ijtimoiy yordam berish orqali profilaktikaning samaradorligini oshirishda muhim namuna hisoblanadi. Bu tajriba ijtimoiy profilaktikaning faqat jazo emas, balki qayta ijtimoiylashtirish vositasi ekanini namoyon etadi.

Individual profilaktika obyektiga huquq-buzarlar, ishsiz va ijtimoiy xavfli fuqarolar, oilaviy zo'ravonlikka moyil shaxslar, alkogol va giyohvand moddalar iste'molchilari kiradi. Subyektlariga esa Ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlari, mahalla fuqarolar yig'ini mutaxassislari, psixologlar, sotsiologlar, pedagoglar, oila a'zolari va fuqarolik jamiyati institutlarini kiritish mumkin. Individual profilaktikaning yetarlicha o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi sababli jinoyatlar ko'paymoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti tomonidan tayyorlangan tanqidiy tahlillarni ko'rib chiqishimiz mumkin.

O'rganishlarga ko'ra, birgina misol qilib, Toshkent viloyatida 2024-yilda 14 702 ta jinoyat sodir etilgan va jinoyatchilik o'tgan yilga

nisbatan 65,5 foizga (5 821 ta) oshgan. Ya'ni, oldini olish mumkin bo'lgan jinoyatlar viloyatda har 100 ming aholiga 183,4 tadan to'g'ri kelgan bir vaqtda, bu ko'rsatkich Ohangaron shahrida 317 ta, Angren shahrida 300 ta, Olmaliq shahrida 245,3 ta, Ohangaron tumanida 233,3 ta, Yangiyo'l shahrida 229,3 ta, O'rtachirchiq tumanida 219,7 ta, Zangiota tumanida 206,8 ta, Chirchiq shahrida 195 tani tashkil etib, viloyat ko'rsatkichiga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

Viloyatda 2024-yil hisobot davrida 7 560 nafar shaxs jinoyat sodir etgan bo'lib, bu yoshlar (18-30 yosh) – 2 797, voyaga yetmaganlar (14-17 yosh) – 342, ayollar – 737, ishsizlar – 1159, ilgari sudlanganlar – 906 nafarni tashkil etgan. Barcha toifalar (ishsizlar jinoyatchiligidan tashqari) bo'yicha o'sishi kuzatilgan.

Zangiota tumanida yoshlar, Bo'stonliq tumanida voyaga yetmaganlar, Olmaliq shahrida ayollar, Toshkent tumanida ishsizlar, Angren shahrida esa barcha alohida toifadagi shaxslar (ishsizlar jinoyatchiligidan tashqari) tomonidan sodir etilgan jinoyatlar salmog'i eng yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Toshkent viloyatining 841 ta mahallasi hududida 2 872 ta jinoyat (mahalla jinoyatchiligi) sodir etilishiga yo'l qo'yilib, 198 ta (19,3 foiz) mahalla “qizil” va 643 ta (62,7 foiz) mahalla “sariq” toifaga kiritilgan.

Qizil toifadagi mahallalar salmog'i Yangi yo'l tumani (26,6 foiz), Olmaliq shahri (25 foiz), Quyichirchiq tumani (24,3 foiz), Piskent tumani (24,1 foiz)da yuqori [6].

O'rganishlarga ko'ra, hududlarda jinoyatchilik salbiy tendensiyalarini va omillarini bartaraf etish bo'yicha quyidagi ishlar amalga oshirilgan:

- har bir mahallaga “mahalla yettiligi”, jumladan, kamida bittadan profilaktika inspektori ajratilgan;

- kriminogen vaziyati og'ir mahallalarni “qizil” toifaga ajratib, ularni xavfsiz hududga aylantirish uchun manzilli “yo'l xarita”larni ishlab chiqish bo'yicha huquqiy mexanizmlar ishlab chiqilgan;

- hududlardagi kriminogen vaziyati eng og'ir mahallalar Xivadagi “Istiqlol” mahallasi namunasi asosida raqamlashtirilgan;

- profilaktika inspektorlari planshetlar bilan ta'minlanib, ularning xavfsizlikni ta'minlash borasidagi faoliyatini onlayn baholash amaliyoti joriy etilgan.

Shu bilan birga, o'rganilgan hududlarda jinoyatchilikning salbiy tendensiyalarini va

omillarini bartaraf etish bo'yicha yetarli chora-tadbirlar amalga oshirilmagan. Jumladan:

- ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlami, jumladan yoshlar, ayollar va sudlangan shaxslarning bandligi to'liq ta'minlanmagan;
- huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi subyektlar tomonidan "ijtimoiy profilaktika" va huquqbuzarliklar profilaktikasi chora-tadbirlari manzilli va samarali tashkil etilmagan;
- sudlangan shaxslarning axloqan tuzalishi ta'minlanmagan, ular sodir etgan jinoyatlarining oqibatlarini to'liq tushunib yetmagan.

Bundank o'rib turibdiki, individual profilaktika — bu shaxsga yo'naltirilgan, tizimli, uzoq muddatli va aniq maqsadli ta'sir mexanizmdir. Uning samaradorligi har bir shaxsga psixologik yondashuv, jamiyat va oila tomonidan qo'llab-quvvatlashni talab etadi. Ushbu profilaktika turi jamiyat xavfsizligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

4. Institutsional profilaktika. Bu profilaktika turida oila, maktab, mahalla, diniy tashkilotlar va NNTlar faol ishtiroki ta'minlanadi. Har bir institut o'z ijtimoiy vazifasi orqali jamiyatda barqarorlik va huquqbuzarliklar profilaktikasida ishtirok etadi. Mazkur profilaktika turida ham aniq bir shaxsga yo'naltirilgan va u bilan muntazam ravishda suhbatlar, psixologik maslahatlar va nazorat vositasidagi ishlar ko'riladi. Bu shaklda ijtimoiy xizmatchilar, mahalla va ichki ishlar organlari faol ishtirok etadi. Masalan, oilada axloqiy tarbiyani kuchaytirish, mahallada yoshlar bilan ishlar olib borish, maktabda profilaktika soatlari tashkil etish mumkin.

Institutsional profilaktika – bu jinoyatchilikning oldini olishda davlat organlari, nodavlat tashkilotlar, ta'lim muassasalari, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalarining tizimli, hamkorlikdagi harakatlarini o'z ichiga oluvchi profilaktika turidir. Uning asosiy vazifasi jinoyatlarni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etish bo'yicha institutlararo hamkorlik mexanizmlarini shakllantirish va amalga oshirishdan iborat. Shuningdek, jamiyatda jinoyatchilikka qarshi institutsional immunitetni shakllantirish, jinoyatlarning ildiz omillarini bartaraf etishda muassasalar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, har bir ijtimoiy institut (maktab, OAV, IIO va b.) ning o'z oldiga qo'yilgan vazifalarini belgilash, jinoyatchilikka qarshi kurashda tizimli va muvofiqlashtirilgan harakatlarni tashkil etish,

profilaktik faoliyatda qonuniylik va inson huquqlariga rioya etilishini ta'minlash nazarda tutiladi.

Mahallalarda jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha jamoatchilik institutlari bilan birgalikda olib borilgan keng qamrovli profilaktik tadbirlari natijasida 1765 ta mahallada jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yilmadi. Bu borada yana bir muhim masala – huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish faqat ichki ishlar organining vazifasi degan eskicha qarashdan voz kechilmagani bilan bog'liqdir. Xususan, sodir etilgan og'ir jinoyatlarning har beshinchisiga oilaviy turmush munosabatlari sabab bo'lgan. Vaholanki, mahallalar, xotin-qizlar qo'mitalari oilaviy kelishmovchiliklarni o'rganib, o'z vaqtida bartaraf etishi mumkin edi [7].

Kriminologiya tadqiqot instituti tomonidan 2024-yil jinoyatchilikning mazmun-mohiyatini jamiyat a'zolari in'ikosida obyektiv va chuqur tahlil qilish maqsadida, respublika aholisi o'rtasida jinoyatchilikning kelib chiqish sabablarini o'rganish va ularni barvaqt oldini olish yo'nalishida sotsiologik tadqiqotlar o'tkazildi [8].

So'rovnoma mamlakatimizda jinoyatchilikning salbiy tendensiyalari va omillarini bartaraf etish masalalari bo'yicha aholining ijtimoiy fikrini o'rganish yuzasidan tuzilgan savollar asosida shakllantirilgan va unda respublika bo'yicha jami 4 874 nafar respondent (aholi) ishtirok etgan.

"Jinoyatchilikning oldini olish yo'nalishida davlat organlari faoliyatida qanday islohotlar amalga oshirilishi lozim deb hisoblaysiz?", degan savolga respondentlarning 897 nafari – "amaldagi islohotlarni yetarli", 1764 nafari – "jinoyat uchun jazo choralari kuchaytirish lozim", 858 nafari – "ochiq sud jarayonlarini to'g'ridan-to'g'ri ommaviy axborot vositalarida ko'rsatib borish amaliyotini yo'lga qo'yish lozim", 68 nafari – "jinoyat uchun jazo choralari yengillashtirish zarur", 1209 nafari – "jinoyatchilik ko'rsatkichi past bo'lgan xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish va O'zbekiston sharoitiga joriy etish lozim" degan fikrni bildirganlar.

Sotsiologik diagnoz tahlili shuni ko'rsatadiki, jinoyatchilik ko'rsatkichi past bo'lgan xorijiy davlatlarda jinoyatchilikning oldini olishda jazo choralari kuchaytirish ijobiy samara berganligini alohida ta'kidlash lozim.

Institutsional profilaktika nafaqat muayyan shaxslar bilan ishlashni, balki boshqa profilaktika turlari (umumiy, maqsadli, individual) uchun

tashkiliy va me'yoriy asos yaratishni ta'minlaydi. Jinoyatchilikka qarshi kurashda nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar, balki barcha ijtimoiy institutlar ishtirok etsa, natija yuqori bo'ladi. Ya'ni, institutsional profilaktika – bu jamoaviy mas'uliyat va hamkorlikni kuchaytirish vositasi deyish mumkin.

5. Qonunchilik profilaktikasi. Qonunchilik profilaktikasi jinoyatchilikning oldini olishda qonun normalarining samarali qo'llanilishini nazarda tutadi. Bu profilaktikada normativ-huquqiy hujjatlar orqali jinoyatchilikka ta'sir ko'rsatiladi. Misol uchun, jinoyatlar uchun javobgarlikni kuchaytirish, yangi huquqiy mexanizmlarni joriy qilish. Ushbu turda qabul qilinadigan qonunlar va me'yoriy hujjatlar orqali jinoyatchilikni cheklash ko'zda tutiladi.

Shuningdek, qonunchilik profilaktikasi — jinoyatchilik va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida normativ-huquqiy baza yaratish, mavjud huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish hamda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasidir. Bu profilaktika turi ijtimoiy munosabatlarni huquqiy yo'l bilan tartibga solish orqali jinoyatchilikni cheklashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, jinoyatchilikni keltirib chiqaruvchi omillarni hisobga olgan holda qonunlar qabul qilish, qonun hujjatlari orqali huquqbuzarlikka moyil guruhlarini cheklash, huquqiy tarbiya va huquqiy xabardorlikni ta'minlash, qonunlar ijrosini nazorat qilish va tahlil qilish, jamiyatda paydo bo'layotgan yangi xavfli holatlarga qarshi turish maqsadida yangi qonunlar va me'yoriy hujjatlar qabul qilish, jinoyatlar tahlili asosida mavjud qonunlarning samaradorligini baholash va kerak bo'lsa, ularni qayta ishlab chiqish, qonunlar qanday amalga oshirilayotganini kuzatish, ijro mexanizmlaridagi kamchiliklarni aniqlashni o'z ichiga oladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida”gi qonun [9] (2014-y.) — O'zbekistonda profilaktikaning huquqiy asosini belgilab bergan va profilaktik tadbirlar subyektlari, ularning vakolatlarini aniqlagan qonun hisoblanadi. Shuningdek, 2021-yilda O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga kiritilgan o'zgartishlar [10] ba'zi ijtimoiy xavfli harakatlar uchun jazo choralari qayta ko'rib chiqildi va jazoning muqarrarlari tamoyili mustahkamlandi, bu profilaktik ta'sirni kuchaytirdi.

Qonunchilik profilaktikasi — jinoyatchilikka

qarshi tizimli kurashda eng muhim strategik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu profilaktika turi orqali jinoyatlarning ildiz sabablari huquqiy nuqtayi nazardan bartaraf etiladi. Qonunlarning samarali ishlashi uchun ularni aniqlashtirilgan va amaliyotga yo'naltirilgan tarzda ishlab chiqish zarur. Qonunchilik profilaktikasi huquqbuzarliklarga “huquqiy to'siq” yaratadi va javobgarlikning aniqligini ta'minlaydi.

Ijtimoiy profilaktikaning har bir turi o'z o'rniga ega bo'lib, ularning o'zaro bog'liq va kompleks qo'llanilishi orqali huquqbuzarlik va jinoyatlar sonini kamaytirish mumkin. Profilaktika nafaqat huquqni muhofaza qilish, balki ijtimoiy adolat, tartib va ma'naviy muhitni ta'minlash vositasi hamdir. Ijtimoiy profilaktikaning turlari o'zaro bog'liq bo'lib, ularning kompleks qo'llanilishi jinoyatchilik darajasini pasaytirishda katta ahamiyatga ega. Davlat va jamoatchilikning hamkorligida har bir profilaktika turini samarali amalga oshirish orqali jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish imkoni yaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy profilaktika – huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olishga qaratilgan tizimli va uzluksiz faoliyat hisoblanadi. U nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar, balki butun jamiyatning, jumladan, oila, ta'lim muassasalari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalarining hamkorligi asosida amalga oshirilishi lozim bo'lgan keng qamrovli sohadir.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, ijtimoiy profilaktika o'z ichiga: umumiy, maxsus, individual va institutsional hamda qonunchilik profilaktikalarini oladi. Umumiy profilaktika aholi o'rtasida huquqiy ongni oshirish va jinoyatchilikning salbiy oqibatlarini tushuntirish orqali jinoyatlarning sodir etilishiga sharoit tug'diruvchi omillarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Maxsus profilaktika esa, jinoyatchilik xavfi yuqori bo'lgan muhit, joy yoki ijtimoiy guruhlariga nisbatan qaratilgan maqsadli tadbirlar orqali amalga oshiriladi. Individual profilaktika esa, avval huquqbuzarlik sodir etgan yoki xavf guruhiga kiruvchi shaxslar bilan aniq reja asosida ish olib borishni o'z ichiga oladi. Qonunchilik profilaktikasi – jamiyatda jinoyat sodir etilishining oldini olish uchun huquqiy asos yaratish, jinoyatchilikka qarshi kurashishga qaratilgan qonunlar, farmonlar, qarorlar va dasturlarni qabul qilish va ularni amaliyotda tatbiq etish jarayonlaridir.

O'zbekistonda so'nggi yillarda profilaktik tadbirlarning institutsional va tashkiliy asoslari mustahkamlandi. Huquqbuzarlikka moyil yoshlar bilan ishlash bo'yicha maxsus dasturlar amalga oshirilmoqda hamda fuqarolar yig'inlari, maktab va ta'lim muassasalarda huquqiy targ'ibot ishlari faollashtirildi. Shu bilan birga, profilaktika faoliyatini yanada takomillashtirish uchun yangi yondashuvlar talab etiladi. Jamiyatda huquqbuzarlik va jinoyatchilikka nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, oilada farzand tarbiyasida ijobiy munosabatlarni mustahkamlash, ta'lim muassasalarida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yanada oshirish hamda jamoatchilik nazoratining ta'sirini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususan, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda profilaktik tadbirlarni raqamlashtirish, ma'lumotlar bazasi orqali tahlillar olib borish, jinoyatchilik tahdidini erta aniqlash va unga tezkor chora ko'rish imkonini beradi. Shu bois, ijtimoiy profilaktika faqatgina an'anaviy usullar bilan cheklanib qolmasligi, balki innovatsion yondashuvlar bilan boyitilishi lozim. Uning samaradorligi fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash va xavfsiz muhitni shakllantirish orqali namoyon bo'ladi.

Takliflar:

Ijtimoiy sheriklikni kuchaytirish. Ichki ishlar organlari, ta'lim muassasalari, NNTlar va ommaviy axborot vositalari o'rtasida hamkorlikni mustahkamlash, jamoatchilikni faol jalb etish zarur.

Profilaktika subyektlarining malakasini oshirish. Profilaktika sohasida faoliyat yurituvchi xodimlar uchun muntazam malaka oshirish kurslari, treninglar tashkil etilishi lozim.

Aholiga yo'naltirilgan huquqiy targ'ibotni kengaytirish. Ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar orqali huquqiy madaniyatni oshirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish.

Yoshlar uchun moslashtirilgan profilaktik dasturlar joriy etish. Ta'lim muassasalarda interaktiv profilaktika darslari, huquqiy viktorinalar va rolli o'yinlar tashkil etish.

Mahalliy profilaktika kengashlarini faollashtirish. Har bir mahallada profilaktika bo'yicha kengashlar tashkil etilib, ularning nazorat faoliyati kuchaytirilishi kerak.

Analitik bazani shakllantirish. Jinoyatchilikning kelib chiqish sabablari, tendensiyalari va omillarini muntazam tahlil qilish orqali tadbirlarning natijadorligini baholab borish lozim. Farzand tarbiyasida oilaning rolini kuchaytirish. Ota-onalarga psixo-sotsiologik maslahatlar, treninglar tashkil etib, oilada sog'lom muhitni ta'minlash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi O'RQ-371-son qonuni, 14.05.2014 yil. <https://lex.uz>.
2. Usmonaliyev M., Karaketov Y. Kriminologiya: Darslik. – T., 2001. – B. 259; Niyozova S. "Oila institutining ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rni va oila mustahkamligini ta'minlash omillari" mavzusida onlayn Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Namangan, 2020. – B. 21–28.
3. Federal Criminal Police Office (Germany), Crime Prevention Unit, 2020-yil hisoboti.
4. Federal Ministry of the Interior, Germany. Kurve kriegen – Youth Prevention Program, 2020.
5. <https://polizei.nrw/en/article/kurve-kriegen-2>.
6. Jinoyatchilik tendensiyalari va omillari davlat hisobotlari (2024 yil bo'yicha): Axborot-tahliliy hujjat. – T., 2025. – 136 b.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida ichki ishlar organlari tizimida olib borilayotgan ishlarning ahvoli, muammolar va kelgusidagi vazifalarga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi. – 2017. – 17-avg.
8. Mazkur so'rovnoma bo'yicha har bir hududga elektron havolalar yuborilib, onlayn so'rovnoma anonim shaklda o'tkazildi. Aholidan tadqiqot jarayonlariga xolisona yondashib o'z fikrini bildirishi so'raldi.
9. <https://www.lex.uz/acts/2387357>.
10. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining qarori, 03.02.2021 yildagi 731-IV-son. <https://lex.uz/uz/docs/5322469>.

XORIJIY MAMLAKATLARDA HUDUDLARNI KRIMINOGEN VAZIYATGA KO'RA TASNIFLASH ASOSIDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI BO'YICHA TAJRIBASI

J. S. SHARIPOV,

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya.

Mazkur maqolada xorijiy mamlakatlarning aholi punktlarini kriminogen vaziyatga ko'ra tasnif qilish asosida huquqbuzarliklar profilaktikasi jinoyatlarni oldini olish sohasidagi tajribasi batafsil tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida to'rt asosiy: texnologiyalarga asoslangan metodlar (CompStat, Array of Things), jamoat ishtirokidagi dasturlar (Neighbourhood Watch, Community Safety), arxitektura va shaharsozlik orqali profilaktika (CPTED prinsiplari) hamda madaniy-institutsional yondashuvlar (Koban tizimi, Skandinaviya modeli) tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar:

huquqbuzarliklar profilaktikasi, jinoiy vaziyat, aholi punktlari tavsifi, CPTED, jamoat politsiyasi, xalqaro tajriba, shahar xavfsizligi, qishloq jinoyatkorligi, texnologik profilaktika, arxitektura orqali profilaktika.

Аннотация.

В статье проведен детальный анализ зарубежного опыта профилактики преступлений на основе градации населенных пунктов по криминогенной обстановке. На основании проведенного исследования выявлены четыре основных подхода: технологические методы (CompStat, Array of Things), программы с участием сообществ (Neighbourhood Watch, Community Safety), профилактика через архитектуру и градостроительство (принципы CPTED) и культурно-институциональные подходы (система Koban, скандинавская модель).

Ключевые слова:

профилактика преступлений, криминогенная обстановка, классификация населенных пунктов, CPTED, общественная полиция, международный опыт, городская безопасность, сельская преступность, технологическая профилактика, профилактика через архитектуру.

Abstract:

This article provides a detailed analysis of international experience in crime prevention based on the classification of settlements according to their criminogenic situation. The study was conducted four main approaches were identified: technology-based methods (CompStat, Array of Things), community participation programs (Neighbourhood Watch, Community Safety), prevention through architecture and urban planning (CPTED principles), and cultural-institutional approaches (Koban system, Scandinavian model).

Key words:

crime prevention, criminogenic situation, settlement classification, CPTED, community policing, international experience, urban safety, rural crime, technological prevention, prevention through architecture.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi zamonaviy jamiyatning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Butun dunyo bo'ylab siyosatchi va huquqni muhofaza qilish organlari jinoyatlarni kamaytirish, jamoat xavfsizligini ta'minlash uchun turli xil strategiyalarni ishlab chiqishga intilmoqda. Aholi punktining kriminogen vaziyati deganda, turli ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va ekologik omillarga asoslangan jinoiy faoliyat potentsiali tushuniladi va bu jinoyatlarni oldini olishning eng samarali strategiyalarini belgilashda muhim rol o'ynaydi.

Zamonaviy kriminologiya ilmi shuni ko'rsatdiki, yagona universal jinoyat profilak-

tikasi strategiyasi barcha aholi punktlari uchun samarali bo'lmaydi. Shahar, qishloq va shaharcha tipidagi aholi punktlari turli xil jinoiy tavakkal va xavflarga duch keladi. Masalan, shahar hududlarida ko'chalar buzg'unchiligi, talonchilik va moddiy zarar yetkazish kabi jinoyatlarning darajasi yuqori bo'lsa, qishloq joylarda oilaviy zo'ravonlik, mol-mulkka oid jinoyatlarning nisbiy o'lchamlari oshadi.

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, aholi punktlarini kriminogen vaziyatga ko'ra tasnif qilish va har bir toifa uchun maxsus profilaktika choralari ishlab chiqish zarur. Bu sohada Amerika Qo'shma Shtatlari, Kanada, Yevropa

Ittifoqi mamlakatlari, Avstraliya, Yaponiya va boshqa rivojlangan davlatlar qimmatli tajribaga ega. Mazkur tajribalar texnologiyalarga asoslangan yondashuvlardan tortib jamoat ishtirokidagi dasturlargacha keng spektrni qamrab oladi.

AQSHning bir qator shaharlarida «aqli shahar» konsepsiyasiga asoslangan jinoyat profilaktikasi tizimi muvaffaqiyatli joriy etilgan. Nyu-Yorkda CompStat tizimi orqali turli mahallalarning kriminogen vaziyati real vaqtda kuzatiladi va yuqori tavakkalli hududlar aniqlanadi. Bu tizim yordamida 1990-yilning o'rtalaridan buyon shaharda jinoyatlarning umumiy soni 80% gacha kamaygan.

Chikagoda «Array of Things» loyihasi doirasida aqli sensorlar yordamida aholi punktlarining turli ko'rsatkichlari – ovoz balandligi, harakat intensivligi, havo sifati, yo'lovchilar oqimi kabi omillar kuzatiladi va ularning kriminogen vaziyat bilan statistik bog'liqligi tahlil qilinadi. Natijada oldindan ko'ra olish imkoniyatlari 60% gacha oshirilgan.

Los-Anjelesda «LAPD RACR» (Real-time Analysis and Critical Response) tizimi orqali politsiya kuchlari jinoyatlar ehtimoli yuqori bo'lgan joylarga oldindan joylashtiriladi. Bu yondashuv natijasida talonchilik jinoyati 35%, avto o'g'irligi 20% kamaygan.

Yevropada Niderlandiyaning Amsterdam shahrida «Sensing Amsterdam» dasturi doirasida IoT sensorlari, video tahlil tizimlari va mashina o'rganishi algoritmlari birgalikda qo'llaniladi. Shahar markazidagi to'rt rayonda joriy etilgan dastur to'g'risidagi hisobot ko'rsatishicha, hududlarda jinoyatlarning umumiy soni 45% kamaygan.

Kanadaning Toronto shahrida «Neighbourhood Watch» dasturi doirasida aholi punktlari jinoiy tavakkalga ko'ra tasnif qilinadi va har bir toifa uchun maxsus jamoa dasturlari ishlab chiqiladi. Yuqori tavakkalli hududlarda ijtimoiy xizmatlar kuchaytiriladi, yoshlar uchun sport va madaniy dasturlar tashkil etiladi. Besh yillik kuzatishlar davomida jamoa ishtiroki yuqori bo'lgan rayonlarda zo'ravonlik jinoyati 52% kamaygan.

Kanadaning Vankuver shahrida «Integrated Community Safety» dasturi oilaviy zo'ravonlik, giyohvandlik va boshqa ijtimoiy muammolarni kompleks ravishda hal qilishga qaratilgan. Dastur psixologik yordam, ijtimoiy rehabilitatsiya, kasb ta'limi va ish joylari bilan ta'minlashni o'z

ichiga oladi. Natijada qayta jinoyat sodir etish ko'rsatkichi 70% ga kamaygan.

AQSHning Flint shahrida «Clean and Green» dasturi CPTED tamoyillariga asoslanib amalga oshirilgan. Jamoa a'zolari qatnashadigan ekologik tozalash, bog'dorchilik va mahalliy bexatarlik faoliyati natijasida besh yillik davrda ushbu ko'chalarda zo'ravonlik jinoyati 40% kamaygan.

Britaniyaning bir qator shaharlarida «Crime Prevention Through Environmental Design» (CPTED) prinsiplari keng qo'llanilmoqda. Londonning Brekston markazidagi tajriba ko'rsatishicha, arxitektura va shaharsozlik nuqtayi nazardan qayta loyihalangan hududlarda jinoyatkorlik darajasi 2011-yildan buyon 60% kamaygan.

CPTED yondashuvi bo'yicha aholi punktlari to'rt asosiy prinsip asosida tahlil qilinadi: tabiiy kuzatuv (natural surveillance), tasodifiy kirishni nazorat qilish (access control), hududiy mustahkamlash (territorial reinforcement) va fazo boshqarish (space management). Qorong'i joylar, kuzatilmaydigan burchaklar, noqonuniy to'planish uchun qulay joylar aniqlanadi va ularni qayta loyihalash orqali jinoiy faoliyat imkoniyatlari cheklanadi.

Avstraliya tajribasida «Safer by Design» prinsipi qo'llaniladi. Yangi Janubiy Uels shtatida yangi turar-joy komplekslari loyihalashtirish bosqichidayoq jinoyat profilaktikasi prinsiplari asosida rejalashtiriladi. 2001-yildan buyon amalga oshirilgan qonunchilikda barcha yirik qurilish loyihalari uchun jinoyat profilaktikasi ekspertizasi majburiy hisoblanadi.

Yaponiya tajribasi «Koban» tizimi orqali ajralib turadi. Bu tizim bo'yicha shahar kichik uchastkalarga bo'linadi va har biridagi politsiya uchastkasi atrofdagi jamoa bilan uzviy aloqador bo'ladi. Politsiya xodimlari aholi bilan kundalik aloqada bo'lib, muammolarni dastlabki bosqichdayoq aniqlab, hal qiladi. Yaponiyaning past jinoyatlar darajasi ushbu tizimning samara-dorligini ko'rsatadi.

Skandinaviya mamlakatlarining o'ziga xos yondashuvlari alohida e'tiborga molikdir. Finlandiyada «Ennaltaehkaisu» (oldini olish) konsepsiyasi doirasida aholi punktlari ijtimoiy va iqtisodiy ko'rsatkichlarga ko'ra tasnif qilinadi. Kambag'al hududlarda bepul ta'lim, kasb-hunar o'rgatish, ish joylari yaratish, yoshlar dasturlari amalga oshiriladi. Natijada yoshlar orasidagi jinoyatlar darajasi 1980-yillarga nisbatan 80% kamaygan.

Shvetsiyaning «olkhäsa» xalq salomatligi) dasturi jinoyat profilaktikasini salomatlikni saqlash dasturlari bilan integratsiya qiladi. Psixologik yordam, narkomaniya davolash, ijtimoiy adaptatsiya va kasbiy qayta tayyorlash dasturlari kompleks ravishda amalga oshiriladi.

Kanadadagi qishloq joylarda «Rural Crime Watch» dasturi joriy etilgan. Bu dastur keng hududlarni qamrab sondagi politsiya kuchlari bilan nazorat qilish uchun mahalliy aholini o'zini-o'zi muhofaza qilish tizimiga jalb qiladi. Aloqa vositalari orqali darhol xabar berish tizimi va koordinatsiyalangan javob choralari tashkil etilgan.

AQSHning qishloq hududlarida «arm Watch» dasturlari fermerlar va chorvachilar o'rtasida hamkorlikni tashkil qiladi. GPS treking, uyali aloqa orqali ogohlantirish tizimlari va mahalliy huquq-tartibot organlari bilan uzviy ishlash natijasida qishloq xo'jaligi obyektlariga qarshi jinoyatlarning soni 50% kamaygan.

Yevropaning qishloq hududlarida «LEADER» dasturi doirasida iqtisodiy rivojlantirish orqali jinoyatlarni oldini olish strategiyasi qo'llaniladi. Ishsizlikni kamaytirish, yoshlar ishbilarmonligini qo'llab-quvvatlash va turizmni rivojlantirish orqali ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash yo'li tanlangan.

Olib borilgan keng qamrovli tahlil natijalari jinoyat profilaktikasi siyosati va amaliyoti uchun bir qator muhim xulosalarni beradi.

Birinchidan, tadqiqot natijalari yagona universal yondashuv yo'qligini tasdiqlaydi. Har bir aholi punkting o'ziga xos kriminogen vaziyati, demografik tuzilishi, iqtisodiy holati va madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda differensiallashgan yondashuvlar zarur. Shahar hududlarida samarali bo'lgan strategiyalar qishloq joylarda natija bermasligi mumkin va aksincha.

Statistik ma'lumotlar ko'rsatishicha, shahar hududlarida jinoyatkorlik ko'rsatkichlari odatda yuqori bo'lgani holda (AQSHda 2021-yilda shaharda 1000 nafarga 24.5 zo'ravonlik jinoyatiga nisbatan qishloqda 11.1), qishloq joylarda a'lam qilinmagan jinoyatlarning foizi oshadi. Bu esa har xil tipdagi hududlar uchun turli xil yondashuvlarni talab qiladi.

Ikkinchidan, samarali jinoyat profilaktikasi kompleks xarakterga ega bo'lishi va turli sohalar orasida uzviy aloqani ta'minlashi kerak. Eng natijali dasturlar huquqni muhofaza qilish, ta'lim, salomatlikni saqlash, ijtimoiy

himoya, shaharsozlik va iqtisodiy rivojlantirish siyosatlarini birlashtiradi.

Masalan, Torontodagi «Neighbourhood Watch» dasturining muvaffaqiyati politsiya faoliyati, ijtimoiy xizmatlar, ta'lim tizimi va mahalliy biznesning koordinatsiyalangan ishiga asoslangan. Bunday multisektoral yondashuv jinoyatlarning ildiz sabablariga ta'sir etish imkoniyatini beradi.

Texnologiyalarga asoslangan yondashuvlarning samaradorligi yuqori bo'lsa-da, ular bir qator cheklovlarga ega. Birinchidan, bunday tizimlar qimmatga tushadi va yuqori texnik va kadr ta'minotini talab qiladi. Ikkinchidan, xususiylik va shaxsiy erkinlikka oid masalalar paydo bo'ladi. Uchinchidan, texnologiya insonlar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalarni almashtira olmaydi.

Eng samarali yechimlar texnologik imkoniyatlarni insoniy omil bilan muvozanat-lashtiradi. Chikagodagi «Array of Things» loyihasi texnik kuzatishni jamoat ishtiroki dasturlari bilan birlashtirgani uchun muvaffaqiyatli hisoblanadi.

Yapon tajribasi madaniy xususiyatlar ahamiyatini yaqqol ko'rsatadi. «Koban» tizimi-ning samaradorligi nafaqat tashkiliy jihatlarida, balki kollektivizm, ijtimoiy hamjihatlik va qonunlarga hurmat kabi Yapon madaniyati qadriyatlariga asoslangan. Bu tizimni boshqa madaniy kontekstga ko'chirish uchun mahalliy sharoitlarga moslashtirish zarur.

Skandinaviya tajribasi ham shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy adolat va tenglikni ta'minlash jinoyat profilaktikasining muhim omilidir. Biroq bu yondashuv yuqori iqtisodiy rivojlanish darajasi va kuchli ijtimoiy institutlarni talab qiladi.

Turli strategiyalarning iqtisodiy samaradorligi ham muhim masala. CPTED yondashuvlari uzoq muddatli investitsiyalar bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan o'zini oqlaydi. Britaniyadagi tajriba ko'rsatishicha, jinoyat profilaktikasiga sarflangan har bir funt sterling 3-4 funt iqtisodiy foyda keltiradi (jinoyatlarning kamayishi, xavfsizlik xizmatlariga sarflarning pasayishi, turizm va biznesning rivojlanishi orqali).

Jamoat asosidagi dasturlar nisbatan arzonroq bo'lsa-da, ularning samaradorligi aholi faolligiga bog'liq. Kanadadagi «Neighbourhood Watch» dasturiga yiliga aholi bosh sarflanadigan mablag' politsiya xizmatlarining kengaytirishga sarflanadigan xarajatlardan 5 marta kam.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasini rivojlanayotgan mamlakatlarga ko'chirish uchun bir

qator omillarni hisobga olish zarur. Nigeriya qishloqlaridagi tadqiqot ko'rsatishicha, infratuzilmaning yetishmasligi va resurslar tanqisligi murakkablik yaratadi, lekin jamoat ishtirokiga asoslangan dasturlar samarali bo'lishi mumkin.

Braziliyaning ayrim shaharlarida «Community Peace Units» (UPP) dasturi orqali favelalarda (qashshoqlar mahallasi) jinoyatlarni kamaytirish tajribasi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun qiziq bo'lishi mumkin. Dastur politsiya faoliyati, ijtimoiy dasturlar va infratuzilma rivojlantirishni birlashtiradi.

Tadqiqot natijalari asosida kelgusi izlanishlar uchun bir qator ustuvor yo'nalishlar belgilandi:

Birinchidan, turli xalqaro kontekstlarda turli jinoyat profilaktikasi strategiyalarining samaradorligini qiyosiy tadqiq qilish zarur. Ayniqsa, madaniy va iqtisodiy jihatdan o'xshash mamlakatlar orasida tajriba almashish imkoniyatlarini o'rganish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, texnologik yondashuvlarning uzoq muddatli iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini batafsil tahlil qilish talab etiladi. Ayniqsa, sun'iy intellekt va mashina o'rganishi texnologiyalarining jinoyatlar profilaktikasidagi salbiy va ijobiy tomonlarini baholash zarur.

Uchinchidan, iqlim o'zgarishi va shaharlashuv jarayonlarining kriminogen vaziyatga ta'siri yangi tadqiqot sohasi sifatida o'rganilishi kerak. Ekologik qochqinlar, tabiiy ofatlar va ekologik degradatsiya jinoyatlarning oshishiga olib kelishi mumkin.

To'rtinchidan, pandemiya davrida raqamlashtirish jarayonining jinoiy faoliyatga ta'siri va yangi turi jinoyatlarga qarshi kurashish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Xorijiy mamlakatlarning aholi punktlarini kriminogen vaziyatga ko'ra tasnif qilish asosida jinoyatlarni oldini olish sohasidagi tajribasi ko'p qirrali va boyligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi asosiy xulosalarni chiqarish mumkin.

Birinchidan, jinoyat profilaktikasida yagona universal yechim mavjud emas. Eng samarali yondashuvlar mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda turli metodlarni kombinatsiya qilishga asoslangan. Shahar va qishloq joylari uchun alohida strategiyalar ishlab chiqish zarur, chunki bu hududlarning jinoiy profili, resurs imkoniyatlari va ijtimoiy tuzilishi sezilarli darajada farq qiladi.

Ikkinchidan, texnologiyalarga asoslangan

yechimlar, jamoat ishtiroki dasturlari, arxitektura va shaharsozlik yondashuvlari hamda madaniy-institutsional metodlar har biri alohida samaradorlikka ega bo'lsa-da, ularning kompleks qo'llanishi maksimal natija beradi. AQSh va Yevropa tajribasi ko'rsatishicha, multisektoral yondashuv jinoyatlarning ildiz sabablariga ta'sir etish imkoniyatini beradi.

Uchinchidan, jinoyat profilaktikasining muvaffaqiyati ko'p jihatdan mahalliy madaniy kontekst va ijtimoiy institutlarning mustahkamligiga bog'liq. Yaponiya, Skandinaviya mamlakatlari va Kanada tajribasi shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy adolat, hamjihatlik va qonunlarga hurmat kabi qadriyatlar jinoyat profilaktikasida muhim rol o'ynaydi.

To'rtinchidan, iqtisodiy samaradorlik nuqtayi nazardan, jinoyat profilaktikasiga sarflangan investitsiyalar uzoq muddatda o'zini oqlaydi. Britaniya va Avstraliya tajribasi ko'rsatishicha, profilaktik choralarga sarflangan har bir so'm bir necha baravar iqtisodiy foyda keltiradi.

Beshinchidan, zamonaviy jahon sharoitida raqamlashtirish, globallashtirish va iqlim o'zgarishi kabi yangi chaqiriqlar jinoyat profilaktikasi strategiyalarini doimiy ravishda yangilashni talab qiladi. Pandemiya davri tajribasi shuni ko'rsatdiki, inqilobiy o'zgarishlarga tez moslashish qobiliyati muhim ahamiyatga ega.

Oltinchidan, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun rivojlangan mamlakat tajribasini mexanik ravishda ko'chirish natijasiz bo'lishi mumkin. Mahalliy sharoitlarga moslashtirish, bosqichma-bosqich joriy etish va mahalliy resurslarni hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Yettinchidan, kelgusi tadqiqotlar uchun rivojlanayotgan mamlakatlarning o'ziga xos sharoitlarida jinoyat profilaktikasi modellarini ishlab chiqish, raqamli texnologiyalarning jinoiy faoliyatga ta'sirini o'rganish, iqlim o'zgarishi va urbanizatsiya jarayonlarining kriminogen vaziyatga ta'sirini tahlil qilish ustuvor yo'nalishlar hisoblanadi.

Umuman olganda, xalqaro tajriba jinoyat profilaktikasida kompleks, differensiallashgan va madaniy jihatdan sezgir yondashuvlarning zarurligini tasdiqlaydi. Barcha mamlakatlar uchun yagona retsept mavjud bo'lmasa-da, umumiy tamoyillar va samarali amaliyotlarni o'rganish hamda moslashtirish orqali har bir mamlakat o'z sharoitiga mos keladigan samarali tizimni ishlab chiqishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Allen, M. (2020). Police-reported crime statistics in Canada, 2019. Statistics Canada.
2. Archbold, C. A. (2015). Policing and security in practice: challenges and achievements. Springer.
3. Babacan, A. (2012). Crime prevention through community engagement: Rural communities. Australian Institute of Criminology.
4. Ceccato, V. (2016). Rural crime and community safety. Routledge.
5. Ceccato, V., & Uittenbogaard, A. (2019). Crime and safety in rural areas: International perspectives. Springer.
6. Choi, K. S., & Lee, J. R. (2016). Theoretical analysis of cyber-interpersonal violence victimization and offending using cyber-routine activities theory. *Computers in Human Behavior*, 73, 394-402.
7. Clancey, G., Lee, M., & Fisher, D. (2012). Crime prevention through environmental design (CPTED) and the New South Wales crime risk assessment guidelines: A critical review. *Crime Prevention and Community Safety*, 14(1), 1-15.
8. Cozens, P., & Sun, M. (2019). Environmental criminology meets the built environment: Current progress and future directions. *Cities*, 95, 102406.
9. Crowe, T. D. (2000). Crime prevention through environmental design: Applications of architectural design and space management concepts. Butterworth-Heinemann.
10. European Crime Prevention Network. (2023). Best practices in crime prevention. Brussels: European Commission.
11. Heinze, J. E., Krusky, A. M., Reischl, T. M., et al. (2018). The effect of Clean and Green vacant lot remediation on crime in Detroit, Michigan. *Injury Prevention*, 24(6), 460-464.
12. Jeffery, C. R. (1971). Crime prevention through environmental design. Beverly Hills: Sage Publications.
13. Kaylen, M. T., & Pridemore, W. A. (2013). Social disorganization and crime in rural communities: The first direct test of the systemic model. *British Journal of Criminology*, 53(5), 905-923.
14. Kneebone, E., & Raphael, S. (2011). City and suburban crime trends in metropolitan America. Brookings Institution.
15. Kosciw, J. G., Clark, C. M., Truong, N. L., & Zongrone, A. D. (2020). The 2019 National School Climate Survey: The experiences of lesbian, gay, bisexual, transgender, and queer youth in our nation's schools. GLSEN.
16. Newman, O. (1972). Defensible space: Crime prevention through urban design. Macmillan.
17. Nilsson, A., & Estrada, F. (2006). The inequality of victimization: Trends in exposure to crime among rich and poor. *European Journal of Criminology*, 3(4), 387-412.
18. Park, M., & Stokowski, P. A. (2009). Social disruption theory and crime in rural communities: Comparisons across three levels of tourism growth. *Tourism Management*, 30(6), 905-915.
19. Perreault, S. (2022). Police-reported crime statistics in Canada, 2021. Statistics Canada.
20. Piroozfar, P., Farr, E. R., Aboagye-Nimo, E., & Osei-Berchie, J. (2019). Crime prevention in urban environments: The influence of residential satisfaction and social capital. *Sustainable Cities and Society*, 51, 101778.
21. Ruddell, R. (2017). Oil, gas, and crime: The dark side of the boomtown. Palgrave Macmillan.
22. Sampson, R. J. (1997). Collective regulation of adolescent misbehavior: Validation results from eighty Chicago neighborhoods. *Journal of Adolescent Research*, 12(2), 227-244.
23. Shaw, C. R., & McKay, H. D. (1999). Juvenile delinquency and urban areas: A study of rates of delinquency in relation to differential characteristics of local communities in American cities. University of Chicago Press.
24. Statistics Canada. (2024). Characteristics of police-reported crime in rural areas in the Canadian provinces, 2023. Ottawa: Government of Canada.
25. Stokowski, P. A. (1996). Crime in rural recreational and tourism areas: A sociological perspective. In G. Geason & P. Wilson (Eds.), *Designing out crime: Crime prevention through environmental design* (pp. 179-199). Australian Institute of Criminology.
26. Tseloni, A., Mailley, J., Farrell, G., & Tilley, N. (2010). Exploring the international decline in crime rates. *European Journal of Criminology*, 7(5), 375-394.
27. United Nations Office on Drugs and Crime. (2022). Global study on homicide 2019. Vienna: UNODC.
28. US Department of Justice. (2023). Classification of urban, suburban, and rural areas in the National Crime Victimization Survey. Bureau of Justice Statistics.
29. Wells, L. E., & Weisheit, R. A. (2004). Patterns of rural and urban crime: A county-level comparison. *Criminal Justice Review*, 29(1), 1-22.
30. Yarwood, R. (2015). Lost and hound: The more than human networks of rural policing. *Journal of Rural Studies*, 39, 278-286.

YOSHLAR O'RTASIDA SODIR ETILADIGAN HUQUQBUZARLIKLARNING UMUMIY PROFILAKTİKASINI TASHKIL ETISH

G. S. QARSHIYEV,

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Jazoni ijro etish faoliyati kafedrası boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya.

Maqolada yoshlar o'rtasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi tashkil etish, yoshlarni vatanparvarlik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalashga oid masalalari yoritilgan.

Tayanch tushunchalar:

yoshlar, huquqbuzarliklar, umumiy profilaktika, chora-tadbirlar.

Аннотация.

В статье освещены вопросы, связанные с организацией общей профилактики преступлений, совершаемых среди молодежи, воспитанием молодежи в духе патриотизма, уважения к законам, национальным и общечеловеческим ценностям.

Ключевые слова:

молодежь, правонарушения, общая профилактика, меры.

Annotation:

The article covers issues related to the organization of general prevention of crimes committed among young people, education of young people in the spirit of patriotism, respect for laws, national and universal values, and having strong faith and views on life.

Key words:

youth, offenses, general prevention, measures.

Dunyo aholisining 2 milliarddan, ya'ni 25 foizdan ortig'ini yoshlar tashkil etadi. Yoshlar har bir davlatning kelajagini, salohiyatini belgilovchi muhim ijtimoiy qatlam sanaladi. Zero, har bir jamiyatning holati, taqdiri va istiqboli unda yashayotgan yoshlarning salmog'i, ma'naviyati va bilimli darajasi bilan belgilanadi. Yoshlar jamiyatning ertangi kelajagi, uning faol a'zosi, ta'bir joiz bo'lsa jamiyat ertasining munosib vorislaridir. Boshqacha aytganda, yoshlar muammolari jamiyatdagi muammolarning muhimi hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo'nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy kabi kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirilmoqda.

Bu yondashuv "O'zbekiston-2030" strategiya-sida ham aksini topgan. Misol uchun, ushbu muhim hujjatning "Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish", deb nomlangan birinchi yo'nalishi 44 banddan iborat bo'lsa, shuning 25 dan ortig'i bevosita yoshlar manfaatlariga qaratilgan [1]. Mamlakatimizda 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar soni 18 milliondan ziyod. Bu aholining qariyb 55 foizini tashkil etadi [2]. Binobarin, aholisining yarmidan ko'prog'i yoshlardan iborat

bo'lgan mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol, intellektual salohiyatli, o'z qat'iy pozitsiyasiga ega, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga befarq bo'lmagan, maqsadga intiluvchan, serg'ayrat, vatanparvar, sadoqatli, komil inson sifatida tarbiyalash muhim vazifadir.

Bu borada 30-iyun – O'zbekiston yoshlari kuni munosabati bilan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlarga yo'llagan bayram tabrigida "Bugungi kunda maktab, kollej, texnikum va oliygohlarda bilim olayotgan, o'z shaxsiy ishini ochib, tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan, Qurolli Kuchlarimiz saflarida yigitlik burchini sharaf bilan ado etayotgan, ishlab chiqarish, qurilish, ilm-fan, ta'lim, tibbiyot, madaniyat, adabiyot va san'at, sport sohalariga, zamonaviy IT-texnologiyalari yo'nalishlariga dadil kirib borayotgan, katta orzu-umidlar bilan yashayotgan 18 milliondan ziyod o'g'il-qizlarimiz – bizning bebaho boyligimiz, oltin xaziramizdir. "Yangi O'zbekiston bunyodkori bo'laman!", "Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga munosib hissa qo'shaman!", degan yuksak maqsadlar farzandlarimiz qalbidan chuqur joy olib, ularning hayoti va faoliyati mazmuniga aylanib borayotgani bilan har qancha faxrlansak, arziydi" [3], deb ta'kidladi.

Yoshlar tarbiyasi har bir davrning o'ta

dolzarb masalasi bo'lib kelgani ayni haqiqat. Muarrixlarning yozishicha, Gerodot Sharqqa qilgan safarlari chog'ida Misr ehromlaridagi bir bitikka ajablangan: "Yoshlarning tarbiyasi buzilib ketyapti. Nima qilish kerak?!" Muarrix bu yozuvni o'qiganiga ham ikki ming yildan oshib ketdi. Yozuvning bitilganiga esa, kim bilsin qancha vaqt bo'lgan?

Demak, yoshlar masalasi hamisha o'z dolzarbligini yo'qotmagan, bunga hamma davrlarda ham turli darajada munosabat bildirilgan ekan-da [4]. Gap yoshlar tarbiyasi haqida ketar ekan, shunday savol tug'iladi: Biz yoshlarga o'rnak bo'la olyapmizmi? Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, hozirda yaratilgan imkoniyatlardan faqat yoshlar emas, balki ayrim ota-onalar ham to'g'ri foydalanmayotgani hech kimga sir emas. O'z farzandini nazorat qilmaydigan, qayerda, kim bilan yurgani, nima bilan mashg'ul ekanligini surishtirmaydigan ota-onalar ham bor afsus. Farzandi iqboli uchun, avvalo, ota-onaning o'zi, ibrat bo'lishi kerak emasmi?. Nahotki, bu odamlar farzandlariga shu tariqa "ibrat va namuna" ko'rsatishayotgan bo'lsa?. Bugungi kunda afsuski shunga o'xshash holatlarni ko'plab uchratish mumkin. Axir, farzand uchun birinchi navbatda namuna vazifasini o'tovchi uning ota-onasi bo'lishi lozim. Ko'chadan beri kelmay, biror ishning, kasbning boshini tutmagan, o'z hayot yo'lini yorug' qilish, kelajagini mustahkamlash o'rniga befoyda ishlar bilan vaqtini sovurayotgan yoshlarning uchrayotgani achinarli holdir. Shu o'rnida, 2023-yilning 12 oyida respublikamizda jinoyat sodir etgan shaxslarning har uchinchisi (88913 nafardan 31006 nafari yoki 34,8%) yoshlarni tashkil etib, ularning 3 013 nafari xotin-qizlar, 1058 nafari talabalar, 4151 nafari ishlaymaydigan va o'qimaydigan yoshlardan iborat. Yoshlar tomonidan jinoyatlarning 5 316 tasi guruh bo'lib, 682 tasi mast holda, 3 045 tasi retsizidiv holatda sodir etilgan.

Mazkur jinoyatlarning kelib chiqish sabablari o'rganilganda:

- 1 282 tasi yoki 27,4 foizi yengil daromad topishga qiziqishdan;
- 2 282 tasi yoki 15,4 foizi moddiy yetishmovchilikdan;
- 2 623 tasi yoki 13,4 foizi ishsizlikdan;
- 3 412 tasi yoki 10,3 foizi o'zini boshqalardan ustun ko'rsatishdan;
- 3 739 tasi yoki 9,4 foizi tarbiyaviy yoki axloq buzuvchilikdan;
- 1 458 tasi yoki 24 foizi boshqa sabablarga ko'ra sodir etilgan [5].

Yoshlar o'rtasida sodir etiladigan huquq-

buzarliklarning umumiy profilaktikasi va uni tashkil etish jamiyatdagi qonunga itoatsizlik darajasini pasaytirish, ayniqsa yoshlar o'rtasida sodir etilgan huquqbuzarliklarga qarshi kurashish alohida ahamiyatga ega. Yoshlar o'rtasida sodir etilgan huquqbuzarliklar bir necha yildan so'ng «kattalar» jinoyatchiligiga aylanishi tabiiy. Jinoyatchilikning o'sishi nafaqat islohotlar yo'liga jiddiy to'siq bo'lishi, balki bugungi taraqqiyot maqsadlarga erishishda ham o'z salbiy ta'sirini namoyon etadi.

O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi 2014-yil 14-may qonuni o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, u huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi munosabatlarni kompleks jihatdan tartibga soluvchi huquqiy asos hisoblanadi.

Ushbu qonunga asosan, huquqbuzarliklar profilaktikasi – bu huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkamlash, huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek ularning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo'llaniladigan huquqbuzarliklar umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlari tizimidir [6].

Professor I. Ismailov ta'kidlaganidek, huquqbuzarliklar profilaktikasining afzalliklari: birinchidan, salbiy hodisalarning ildizi va manbalari, sabab va shart-sharoitlarini aniq-lash hamda bartaraf etishga qaratilgani; ikkinchidan, qonun bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga katta zarar yetkazishi mumkin bo'lgan voqea-hodisalar zanjiriga dastlabki ta'sirni ko'rsatishi; uchinchidan, kriminogen omillarga ular endigina paydo bo'layotgan va hali mustahkam ildiz otmagan vaqtda, kamroq kuch va xarajat sarf etgan holda ta'sir qilish, bartaraf etish va kuchsizlantirish imkoniga egaligi; to'rtinchidan, huquq-tartibotni ta'minlash tizimida boshqa yo'nalishlarga nisbatan insonparvarligi; beshinchidan, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma'naviy, huquqiy va boshqa chora-tadbirlarni kompleks qo'llash imkoniga egaligi; oltinchidan, oshkoralik, keng jamoatchilikning ishtiroki, ommaning fikriga tayanish prinsiplariga asoslangan holda amalga oshirilishida namoyon bo'ladi [7].

Sh.A. Ganiyev "Axloqqa qarshi huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi" bu – huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlarining aholi o'rtasida huquqiy targ'ibot olib borish, axloqqa qarshi huquqbuzarliklarning oldini olish va bartaraf etish, ularning sodir etilishi sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-

sharoitlarni aniqlash, o'rganish hamda bartaraf etishga doir faoliyati [8] ekanligini ta'kidlaydi.

Demak, huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi o'zining maqsad, vazifalariga va o'ziga xos xususiyatlar (afzalliklar)iga ega.

Huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi bir vaqtning o'zida bir guruh shaxs yoki keng jamoatchilikka nisbatan g'ayriijtimoiy xulq

atvor hamda huquqbuzarlik sodir etilishi natijasida kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar, huquqbuzarliklarning sabablari va ularga imkon

berganshart-sharoitlar, huquqbuzarlikni sodir etish usul va shakllari, viktimologik omillarning o'rni va ahamiyatini tushuntirish, qabul qilingan qonunlarning mazmun-mohiyatini targ'ibot qilish va ogohlikka chaqirish maqsadida amalga oshiriladi.

Bugungi kunda yoshlar o'rtasida sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning eng asosiy sabablaridan biri, ba'zi yoshlarda ma'naviy ongning salbiy o'zgarishi natijasida huquqiy ongda mavjud bo'lgan kamchiliklar va kriminogen motivatsiya bilan bog'liq holda ongning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatishidir, ya'ni yoshlarda huquqqa xilof bo'lgan xulq aksariyat holatlarda salbiy ta'sir tufayli vujudga kelishidir. Shuningdek, katta yoshdagi shaxslar tomonidan yoshlarni jinoiy qilmishlarga jalb etish holatlari ham sabab bo'lmoqda.

Tadqiqotlar natijasida yoshlar o'rtasida sodir etiladigan huquqbuzarliklar umumiy profilaktikasining tashkiliy va huquqiy choralari belgilash va hal etishda bir qator muammolar mavjudligi aniqlandi. Xususan, ota-onalar tomonidan farzandlarining ta'lim muassasalarida ta'lim olishini pedagogik nazorat qilish darajasi juda sust. Shu bilan birga, yoshlar (18-30 yosh) bilan shug'ullanuvchi davlat va nodavlat tashkilotlarining mas'ullik darajasini belgilovchi va ularga majburiyat yuklovchi qonun normalarining yagona tizimi mavjud emasligi shular jumlasidandir. Jamiyatdagi barcha nojo'ya holatlar, jumladan, oiladagi notinchlik kabi kamchiliklar yoshlarning normal rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yoshlar o'rtasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasini amalga oshirish butun jamiyatning vazifasi. Tadqiqotlarda aksariyat yoshlar o'rtasida sodir etiladigan huquqbuzarliklar ularning tarbiyasizligi oqibatida shakllanishini ko'rsatmoqda. Tarbiyasi og'ir o'smir – axloqan tuzatish va qayta tarbiyalashga muhtoj bo'lgan shaxsdir. Uni axloqan tuzatish va tarbiyalash jinoyatchiga aylanishining oldini olish, shuningdek, jamiyat

bilan normal aloqalarini tiklash, unda faol hayotiy pozitsiyani shakllantirish maqsadida amalga oshiriladi. Agar yoshlar o'rtasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi o'z vaqtida amalga oshirilmasa, tarbiyasi og'ir o'smirlar pedagogik va ijtimoiy beqarorlikning navbatdagi bosqichiga o'tadilar. Bundan tashqari yoshlar birinchi noo'rin harakati (huquqbuzarligi) uchun qonunga muvofiq, jazo olmasa, unda qonun talablariga bepisandlik, atrofdagilar fikri bilan hisoblashmaslik odati rivojlanadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, yoshlar o'rtasida sodir etiladigan huquqbuzarliklar umumiy profilaktikasining chora-tadbirlari amalga oshirishda ko'zlangan maqsadga erishish yo'lida puxta o'ylab ishlab chiqilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.

Bunday chora-tadbirlarga quyidagilar kiradi:

birinchidan, yoshlar o'rtasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning profilaktikasiga qaratilgan dasturlarning ishlab chiqilishi;

ikkinchidan, yoshlar o'rtasida sodir etiladigan huquqbuzarligining profilaktikasiga qaratilgan mahalla va ta'lim muassasalarida manzilli huquqiy targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish.

Aholi o'rtasidagi huquqiy targ'ibot huquqbuzarliklar umumiy profilaktikasida asosiy o'rin egallaydi [9].

Binobarin, yoshlar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiya va qonunlarini bilishni, unga hurmat va itoat bilan qarashni singdirish, avvalo, yoshlarda inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmati oliy qadriyat hisoblanishi, davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribaga ega ekanligini, shuningdek jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma'naviy merosiga tayanishimiz kerakligini bilishlari lozim. Qolaversa, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish muayyan darajada yoshlar o'rtasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning profilaktikasiga xizmat qiladi. Shu sababli ham, yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish hamda ularning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirishga qaratilgan kompleks huquqiy targ'ibot tadbirlarini o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, huquqiy madaniyat qonunchilik, fuqarolar huquqiy kafolatini ta'minlash barobarida davlat ahamiyatiga molik siyosat bo'lib, jamiyatda fuqarolar huquqiy madaniyatining darajasi

jinoyatchilik holatiga asosiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardandir.

Bundan tashqari, yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, shuningdek ularning bandligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish davlat siyosatida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, ishsizlikning 1 %ga ko'payishi jinoyatchilikning 3,4-6,5 foiz o'sishiga olib keladi [10]. Tadqiqotlar tahliliga ko'ra, yoshlar o'rtasidagi huquqbuzarliklarni taqozo etuvchi asosiy omili moddiy yetishmovchilik ekanligi ma'lum bo'ldi.

Buyuk ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning "Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" [11], degan so'zlari asrimiz boshida

millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, joylarda umumiy profilaktikadan unumli foydalanish va o'zaro hamkorlikni yaxshi yo'lga qo'yilishi ijobiy natijalarni beradi. Aynan yoshlar tarbiyasi biz kattalar uchun mas'uliyat, zimmamizdagi kechiktirib bo'lmaydigan muhim vazifadir.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. <https://lex.uz/ru/docs/6600413> (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023 y., 06/23/158/0694-son; 29.12.2023 y., 06/23/214/0984-son).
2. <https://www.gazeta.uz/uz/2021/01/27/youth-policy>.
3. <https://www.xabar.uz/mahalliy/prezident-ozbekiston-yoshlariga-tabrik-yolladi-toliq-matn>.
4. <https://xs.uz/uzkr/post/yoshlar-talim-tarbiyasi-eng-ustuvor-vazifa>
5. IIV ma'lumotnomasi
6. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2014. – №20. – 221-m.
7. Zaripov Z.S., Ismailov I. Kriminologiya: darslik. – T., 1996. – B. 173
8. Ganiyev Sh.A. Axloqqa qarshi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlikni takomillashtirish: Doktorlik dissertatsiyasi. — T., 2016. — B. 198–199.
9. Ziyodullayev M.Z. Ichki ishlar organlarining tayanch punktlarini boshqarishni takomillashtirish: Yurid. fan. d-r. ... Dis. – T., 2019. – B. 294., 43.
10. Ismailov I. Jinoyatchilikda uyushganlik: nazariya va amaliyot muammolari: Monografiya. – T., 2005. – B. 80.
11. Avloniy, Abdulla. Tanlangan asarlar: 2 jildlik, 2-nashri, 2-jild. Pandlar, ibratlar, hikoyalar, nabiyalar hayoti, dramalar, maqolalar, sayohat xotiralari // Tahrir hay'ati: N.Karimov va boshq.; To'plovchi: B.Qosimov; Izohlar va lug'atni O.To'laboyev tuzgan. – T, 2006. – B.37.

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ПРОФИЛАКТИЧЕСКОГО УЧЕТА ЛИЦ, РАНЕЕ СОВЕРШИВШИХ ПРЕСТУПЛЕНИЯ

Р. Х. Наимов,

Самостоятельный соискатель Университета
общественной безопасности Республики Узбекистан

Аннотация.

В статье освещен анализ международного опыта профилактического учета лиц, ранее совершивших преступления, с целью выявления эффективных стратегий предупреждения рецидивной преступности и реабилитации правонарушителей. Эффективность профилактического учета зависит от интеграции с социальными службами, использования технологических инноваций и соблюдения баланса между общественной безопасностью и правами человека. Результаты исследования имеют важное значение для совершенствования национальной системы предупреждения преступности.

Ключевые слова:

международный опыт, профилактический учет, общественная безопасность, национальная система.

Annotatsiya.

Maqolada retsidiv jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlarni reabilitatsiya qilishning samarali strategiyalarini aniqlash maqsadida ilgari jinoyat sodir etgan shaxslarni profilaktik hisobga olish bo'yicha xalqaro tajriba tahlili keltirilgan. Profilaktik ro'yxatga olishning samaradorligi ijtimoiy xizmatlar bilan integratsiyalashuv, texnologik innovatsiyalardan foydalanish, jamoat xavfsizligi va inson huquqlari o'rtasidagi muvozanatni saqlashga bog'liq. Tadqiqot natijalari huquqbuzarliklar profilaktikasi milliy tizimini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Tayanch so'zlar:

xalqaro tajriba, profilaktik ro'yxatga olish, jamoat xavfsizligi, milliy tizim.

Abstract.

The article presents an analysis of international experience in preventive registration of individuals who have previously committed crimes in order to identify effective strategies for preventing recidivism and rehabilitating offenders. The effectiveness of preventive registration depends on integration with social services, the use of technological innovations, and maintaining a balance between public safety and human rights. The results of the study are important for improving the national crime prevention system.

Keywords: international experience, preventive registration, public safety, national system.

Key words:

international experience, preventive registration, public safety, national system.

Профилактический учет лиц, ранее совершивших преступления, представляет собой одну из ключевых мер предупреждения рецидивной преступности в современных правовых системах. Данный институт направлен на систематическое наблюдение за лицами, имеющими криминальное прошлое, с целью предотвращения совершения ими новых правонарушений и оказания им необходимой социальной поддержки для успешной реинтеграции в общество. Актуальность исследования зарубежного опыта профилактического учета обусловлена несколькими факторами.

Во-первых, статистические данные свидетельствуют о том, что рецидивная преступность остается серьезной проблемой для большинства государств. По данным Управления

ООН по наркотикам и преступности, уровень рецидива в различных странах варьируется от 20% до 80%, что указывает на значительные различия в эффективности применяемых мер предупреждения. Во-вторых, развитие информационных технологий и изменение социальных условий требуют постоянного совершенствования методов профилактического воздействия. Традиционные подходы, основанные исключительно на контроле и надзоре, показывают ограниченную эффективность и часто критикуются с точки зрения соблюдения прав человека.

В-третьих, процессы глобализации и международной интеграции способствуют обмену опытом между различными правовыми системами, что создает возможности для адап-

тации лучших практик с учетом национальных особенностей. Концептуальные основы профилактического учета базируются на нескольких криминологических теориях. Теория социального контроля подчеркивает важность формальных и неформальных механизмов социального воздействия для предотвращения девиантного поведения. В контексте профилактического учета это выражается в систематическом наблюдении за поведением лиц, склонных к совершению преступлений.

Теория дифференциальной ассоциации обращает внимание на влияние социального окружения на формирование криминального поведения. Соответственно, эффективный профилактический учет должен включать меры по изменению социальной среды подучетных лиц и формированию позитивных социальных связей. Теория рационального выбора исходит из предположения, что преступное поведение является результатом рационального расчета потенциальных выгод и рисков. Профилактический учет должен повышать риски совершения новых преступлений и одновременно создавать легальные альтернативы получения желаемых благ.

Цель исследования заключается в комплексном анализе международного опыта организации и осуществления профилактического учета лиц, ранее совершивших преступления, для выявления наиболее эффективных моделей и стратегий предупреждения рецидивной преступности. Основные задачи исследования включают систематизацию существующих моделей профилактического учета в различных правовых системах, выявление факторов, определяющих эффективность профилактических мер, анализ влияния технологических инноваций на развитие систем профилактического учета, оценку соотношения мер контроля и реабилитационных программ в различных национальных моделях, а также определение перспективных направлений развития профилактического учета с учетом международного опыта.

На основе проведенного анализа выделены четыре основные модели организации профилактического учета, различающиеся по приоритетам, методам и институциональному устройству. Американская система профилактического учета характеризуется приоритетом общественной безопасности над реабилитационными целями. Система включает различные формы надзора: условно-досрочное освобо-

ждение, пробацию, электронный мониторинг и специализированные программы для отдельных категорий правонарушителей. Ключевые особенности включают децентрализованную систему с различиями между штатами, широкое использование технологических средств контроля, публичные реестры определенных категорий преступников и длительные сроки наблюдения.

По данным Bureau of Justice Statistics, в 2022 году под различными формами надзора находилось около 3,7 млн человек. Уровень рецидива в течение трех лет после освобождения составляет 68%, однако для лиц, участвующих в программах интенсивного надзора, этот показатель снижается до 45%. Инновационные элементы включают систему GPS-мониторинга с возможностью создания запретных зон, использование алгоритмов искусственного интеллекта для оценки рисков и интеграцию с системами социальных служб через единые информационные платформы.

Скандинавские страны развивают модель профилактического учета, основанную на принципах восстановительного правосудия и социальной реинтеграции. Контрольные функции минимизированы в пользу поддерживающих и реабилитационных мер. Ключевые особенности включают краткосрочные периоды формального надзора, акцент на добровольном участии в реабилитационных программах, интеграцию с системой социального обеспечения и индивидуальный подход к каждому случаю. В Норвегии уровень рецидива составляет 20% в течение двух лет после освобождения, что является одним из самых низких показателей в мире. В Швеции аналогичный показатель составляет 25%.

Инновационные программы включают переходные центры для постепенной реинтеграции, программы профессиональной переподготовки с гарантированным трудоустройством, а также семейную терапию и восстановление социальных связей. Европейские страны континентальной правовой традиции развивают административную модель профилактического учета, характеризующуюся формализованными процедурами и четким разделением функций между различными ведомствами. Ключевые особенности включают централизованное управление системой профилактического учета, строгое соблюдение процедурных требований, интеграцию с системой административного права и баланс между контроль-

ными и поддерживающими функциями.

Германская система надзора за поведением сочетает элементы контроля с реабилитационными мерами. Статистика показывает снижение рецидива на 30% среди лиц, находящихся под таким надзором. Французская система судебно-социального сопровождения предусматривает комплексное сопровождение освобожденных лиц с участием социальных работников, психологов и других специалистов. Канада развивает модель, сочетающую элементы американского и скандинавского подходов, с акцентом на научно обоснованные методы оценки рисков и индивидуализации мер воздействия.

Ключевые особенности включают использование валидированных инструментов оценки рисков, дифференциацию мер в зависимости от уровня риска, активное участие общественных организаций и регулярную оценку эффективности программ. Уровень рецидива в Канаде составляет 38% в течение трех лет, что значительно ниже американских показателей при сохранении высокого уровня общественной безопасности.

Электронный мониторинг стал одним из наиболее значимых технологических достижений в сфере профилактического учета. Современные системы включают GPS-мониторинг, обеспечивающий отслеживание местоположения в режиме реального времени с точностью до нескольких метров. В США более 125,000 лиц находятся под GPS-надзором. Радиочастотный мониторинг контролирует соблюдение режима домашнего ареста или ограничений на посещение определенных мест. Биометрический контроль включает распознавание голоса, отпечатков пальцев, черт лица для подтверждения личности при удаленных проверках. Исследования показывают снижение рецидива на 15-25% среди лиц, находящихся под электронным мониторингом, по сравнению с традиционными формами надзора.

Современные системы профилактического учета все более активно используют автоматизированные инструменты оценки рисков. COMPAS используется в США для оценки вероятности рецидива на основе анализа множественных факторов. LS/CMI представляет канадскую систему оценки, широко применяемую в различных юрисдикциях. OASys является британской системой комплексной оценки правонарушителей. Алгоритмические системы оценки критикуются за потенциальную

дискриминацию и непрозрачность принятия решений. Исследования выявили расовые предубеждения в некоторых алгоритмах.

Интегрированные информационные системы обеспечивают координацию между различными службами. Единые базы данных обеспечивают доступ к информации для всех участвующих в надзоре служб. Мобильные приложения позволяют подучетным лицам поддерживать связь с кураторами, получать уведомления, подтверждать местонахождение. Аналитические системы используют большие данные для выявления паттернов поведения и прогнозирования рисков.

Эффективные системы профилактического учета характеризуются интеграцией с широким спектром социальных служб. Программы профессиональной переподготовки и содействия в трудоустройстве показывают высокую эффективность. В Германии 78% участников программ трудоустройства не совершают повторных преступлений в течение двух лет. Обеспечение стабильным жильем критически важно для успешной реинтеграции. Исследования в США показывают, что бездомность увеличивает риск рецидива в три раза. Медицинские услуги особенно важны для лиц с психическими расстройствами и наркотической зависимостью. Комплексные программы лечения снижают рецидив на 40-60%. Повышение уровня образования коррелирует со снижением риска повторных преступлений.

Неправительственные организации играют важную роль в системах профилактического учета. В Великобритании организации типа Probation Trusts обеспечивают индивидуальное сопровождение и поддержку. В Канаде John Howard Society предоставляет жилищную поддержку, программы трудоустройства и психологическую помощь. В Нидерландах система Reclassering включает специализированные НПО для работы с различными категориями правонарушителей.

Лица, совершившие сексуальные преступления, требуют особого подхода в силу высокого общественного резонанса и специфических рисков. Когнитивно-поведенческая терапия в рамках программ типа Sex Offender Treatment Programme в Великобритании показывает снижение рецидива на 35%. Полиграфические проверки используются в ряде юрисдикций как дополнительный инструмент контроля. Ограничения и запреты включают запрет на проживание вблизи школ, использование ин-

тернета, контакты с детьми.

Для лиц с наркотической зависимостью заместительная терапия и метадоновые программы снижают как наркопотребление, так и рецидивную преступность. Наркологические суды в США и других странах сочетают лечение с судебным надзором. Терапевтические сообщества предоставляют долгосрочные программы реабилитации в условиях контролируемой среды. Для несовершеннолетних применяются программы восстановительного правосудия, включающие примирение с потерпевшими и возмещение ущерба, семейную терапию и образовательные программы, обеспечивающие продолжение образования и профессиональной подготовки.

Сравнительный анализ различных национальных моделей позволяет выделить ключевые факторы, определяющие эффективность систем профилактического учета. Наиболее эффективными оказываются системы, достигающие оптимального баланса между контрольными и поддерживающими функциями. Чрезмерный акцент на контроле может привести к стигматизации и затруднить социальную реинтеграцию, в то время как недостаток контроля может не обеспечить необходимый уровень общественной безопасности.

Скандинавская модель демонстрирует, что приоритет реабилитационных мер может давать лучшие долгосрочные результаты, однако требует высокого уровня социальной поддержки и культурной гомогенности общества. Американская модель показывает важность технологических решений для обеспечения контроля, но высокие показатели рецидива указывают на необходимость усиления реабилитационного компонента.

Эффективность профилактического учета значительно повышается при применении индивидуализированного подхода, учитывающего специфические риски и потребности каждого подчетного лица. Системы оценки рисков позволяют дифференцировать интенсивность надзора в зависимости от вероятности рецидива. Исследования показывают, что излишне интенсивный надзор за лицами с низким риском может парадоксально увеличивать вероятность рецидива за счет криминогенного влияния системы уголовной юстиции. Планы индивидуального сопровождения должны учитывать не только криминологические риски, но и социальные потребности: трудоустройство, жилье, лечение зависимостей,

семейные отношения.

Эффективный профилактический учет требует координации усилий множества государственных и общественных организаций. Фрагментированность системы снижает ее эффективность и может создавать дополнительные барьеры для реинтеграции. Единые информационные системы обеспечивают обмен информацией между различными службами и предотвращают дублирование усилий. Координационные советы на различных уровнях позволяют согласовывать политику и практику различных ведомств.

Технологические достижения последних десятилетий существенно расширили возможности профилактического учета, однако их внедрение сопряжено с рядом проблем и вызовов. Электронный мониторинг позволяет осуществлять непрерывный контроль за соблюдением установленных ограничений с минимальными затратами человеческих ресурсов. Технологические решения часто оказываются более экономичными по сравнению с традиционными формами надзора. Стоимость GPS-мониторинга составляет около 5-10 долларов в день против 50-100 долларов в день содержания в тюрьме. Автоматизированные системы оценки рисков могут снижать влияние субъективных факторов на принятие решений.

Однако технологические решения имеют и ограничения. Недостаточная надежность оборудования может приводить к ложным тревогам или пропуску нарушений. Системы оценки рисков могут воспроизводить существующие социальные предрассудки и дискриминировать определенные группы населения. Интенсивный технологический мониторинг может нарушать право на частную жизнь и создавать эффект цифровой тюрьмы.

Профилактический учет должен соответствовать международным стандартам прав человека и конституционным принципам. Ключевые принципы включают пропорциональность, при которой ограничения должны быть пропорциональны риску и тяжести совершенного преступления. Принцип законности требует, чтобы все меры имели четкое законодательное основание и подлежали судебному контролю. Принцип недискриминации означает, что система не должна дискриминировать по признакам расы, пола, религии или социального статуса. Право на реабилитацию предполагает, что меры должны способствовать, а не препятствовать социальной реинтеграции.

Профилактический учет может способствовать стигматизации лиц, имеющих криминальное прошлое, что затрудняет их реинтеграцию в общество. Публичные реестры преступников, существующие в ряде юрисдикций, вызывают споры о соотношении общественной безопасности и права на реабилитацию. Ограничения в трудоустройстве могут толкать бывших преступников к повторному совершению преступлений. Социальная изоляция усиливает криминогенные факторы и препятствует формированию просоциальных связей.

Экономическая эффективность профилактического учета определяется соотношением затрат на его осуществление и предотвращенного ущерба от преступлений. Прямые затраты включают содержание персонала служб надзора, технологическое оборудование, административные расходы, затраты на реабилитационные программы. Косвенные затраты могут включать снижение трудового потенциала подучетных лиц, социальные выплаты, затраты на правоохранительную деятельность. Каждое предотвращенное преступление экономит обществу средства на расследование, судопроизводство, исполнение наказания, компенсацию ущерба потерпевшим.

Развитие технологий искусственного интеллекта открывает новые возможности для повышения эффективности профилактического учета. Предиктивная аналитика позволяет алгоритмам машинного обучения выявлять паттерны поведения, предшествующие совершению преступлений. Искусственный интеллект может помогать в разработке индивидуальных планов реабилитации на основе анализа множественных факторов. Роботизация рутинных процедур может освободить человеческие ресурсы для более сложных задач.

Будущее профилактического учета связано с более глубокой интеграцией с системами социального обеспечения. Создание комплексных центров, оказывающих все необходимые услуги, разработка интегрированных информационных систем для координации услуг и смещение акцента с реагирования на профилактику социального неблагополучия представляют перспективные направления развития.

Анализ международного опыта профилактического учета лиц, ранее совершивших преступления, демонстрирует значительное разнообразие подходов и моделей, применяемых в различных правовых системах. Исследование выявило четыре основные модели орга-

низации профилактического учета, каждая из которых имеет свои преимущества и ограничения. Американская модель с акцентом на общественную безопасность показывает важность технологических решений, но требует усиления реабилитационного компонента. Скандинавская модель демонстрирует эффективность приоритета реабилитационных мер, но требует высокого уровня социальной поддержки. Континентально-европейская административная модель обеспечивает баланс различных функций через формализованные процедуры. Канадская сбалансированная модель сочетает научно обоснованные методы с индивидуальным подходом.

Ключевыми факторами эффективности профилактического учета являются достижение оптимального баланса между контрольными и поддерживающими функциями, применение индивидуализированного подхода и обеспечение межведомственной координации. Технологические инновации, включая электронный мониторинг, автоматизированные системы оценки рисков и цифровые платформы управления, существенно расширяют возможности профилактического воздействия, но требуют внимательного отношения к вопросам прав человека и предотвращения дискриминации.

Интеграция с социальными службами и участие неправительственных организаций повышают эффективность профилактического учета за счет комплексного подхода к решению проблем реинтеграции. Специализированные программы для различных категорий правонарушителей позволяют учитывать специфические риски и потребности. Соблюдение международных стандартов прав человека и предотвращение стигматизации являются критически важными для успешной реабилитации.

Перспективы развития профилактического учета связаны с использованием искусственного интеллекта и машинного обучения, более глубокой интеграцией с системами социального обеспечения и развитием международного сотрудничества. Результаты исследования имеют важное значение для совершенствования национальных систем предупреждения преступности и могут быть использованы при разработке эффективных стратегий профилактического воздействия с учетом международного опыта и национальных особенностей.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. *Andrews, D. A., & Bonta, J.* (2019). *The psychology of criminal conduct* (6th ed.). Routledge \ \ <https://www.taylorfrancis.com/chapters/mono/10.4324/9781315677187-9/psychology-criminal-conduct-james-bonta-andrews>.
2. Bureau of Justice Statistics. (2022). *Probation and parole in the United States, 2021*. U.S. Department of Justice \ \ <https://bjs.ojp.gov/library/publications/probation-and-parole-united-states-2022>.
3. Council of Europe. (2020). *Probation rules: Recommendation CM/Rec(2010)1 of the Committee of Ministers*. Council of Europe Publishing \ \ <https://rm.coe.int/16800cc249>.
4. Durnescu, I. (2019). European probation supervision: Between assistance and control. *European Journal of Probation*, 11(3), 147-161 \ \ <https://www.cep-probation.org/knowledgebases/probation-in-europe-research>.
5. European Monitoring Centre for Drugs and Drug Addiction. (2021). *Treatment and care for older drug users*. Publications Office of the European Union.
6. Farrall, S., & Calverley, A. (2021). *Understanding desistance from crime: Theoretical directions in resettlement and rehabilitation*. Open University Press.
7. *Gendreau, P., & Andrews, D. A.* (2019). What works in corrections: A century of research. *Journal of Criminal Justice*, 67, 45-52.
8. International Centre for Prison Studies. (2020). *World prison brief: Global trends in imprisonment*. Birkbeck, University of London.
9. *Maruna, S.* (2018). *Making good: How ex-convicts reform and rebuild their lives* (2nd ed.). American Psychological Association.
10. *McNeill, F., & Beyens, K.* (2021). *Offender supervision in context: Comparative perspectives on probation and parole*. Willan Publishing.
11. Ministry of Justice. (2021). *Proven reoffending statistics quarterly bulletin: July 2020 to September 2020*. Her Majesty's Stationery Office.
12. National Institute of Justice. (2020). *Electronic monitoring reduces recidivism*. U.S. Department of Justice.
13. OECD. (2019). *Government at a glance 2019: Criminal justice system*. OECD Publishing.
14. *Paparozzi, M. A., & Gendreau, P.* (2019). An intensive supervision program that worked: Service delivery, professional orientation, and organizational supportiveness. *The Prison Journal*, 99(4), 399-416.
15. *Petersilia, J.* (2020). *When prisoners come home: Parole and prisoner reentry*. Oxford University Press.
16. Public Safety Canada. (2021). *Corrections and conditional release statistical overview: Annual report 2020*. Government of Canada.
17. *Raynor, P., & Robinson, G.* (2019). *Rehabilitation, crime and justice* (2nd ed.). Palgrave Macmillan.
18. Statistics Norway. (2021). *Crime statistics: Recidivism rates in Norway 2018-2020*. Statistics Norway.
19. *Travis, J., Western, B., & Redburn, S.* (2019). *The growth of incarceration in the United States: Exploring causes and consequences*. National Academies Press.
20. United Nations Office on Drugs and Crime. (2020). *Global study on homicide 2019: Trends in criminal justice responses*. United Nations.
21. *Van Kalmthout, A., & Durnescu, I.* (2019). *Probation in Europe*. Wolf Legal Publishers.
22. *Walmsley, R.* (2021). *World prison population list* (13th edition). Institute for Crime & Justice Policy Research.
23. *Wodahl, E. J., Garland, B., Culhane, S. E., & McCarty, W. P.* (2020). Utilizing behavioral interventions to improve supervision outcomes in community-based corrections. *Criminal Justice and Behavior*, 47(9), 1106-1125.
24. *Zara, G., & Farrington, D. P.* (2019). Childhood and adolescent predictors of late onset criminal careers. *Journal of Youth and Adolescence*, 48(8), 1519-1532.
25. *Zheng, Y.* (2019). Electronic monitoring in the criminal justice system: A review of the literature. *International Journal of Offender Therapy and Comparative Criminology*, 63(12), 2075-2097.

OILA-TURMUSH DOIRASIDAGI HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI TIZIMIDA “MAHALLA YETTILIGI”NING IJTIMOYIY PROFILAKTIK FAOLIYATI

M. M. BOLTAYEV,

IIV Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

SURXONDARYO VILOYATI TERMIZ SHAHAR IIO FMB BOSHIG'I

Annotatsiya.

Maqolada oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklar, oila-turmush doirasidagi ma'muriy huquqbuzarliklar va jinoyatlar, 2024-yilda Surxondaryo viloyatida qayd etilgan oila-turmush doirasidagi jinoyatlarning statistik tahlili, oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasi, mahallada “mahalla yettiligi”ning faoliyati, ijtimoiy profilaktika, oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklarning ijtimoiy profilaktikasi, oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimida “mahalla yettiligi”ning ijtimoiy profilaktik faoliyatini takomillashtirish yuzasidan fikr-mulohazalar bildirilgan.

Tayanch so'zlar:

oil, huquqbuzarlik, oila-turmush doirasidagi huquqbuzarlik, huquqbuzarliklar profilaktikasi, mahalla yettiligi, ijtimoiy profilaktika, oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklarning ijtimoiy profilaktikasi, “mahalla yettiligi”ning ijtimoiy profilaktika faoliyati.

Аннотация.

В статье рассматриваются правонарушения семейно-бытового характера, статистический анализ преступлений семейно-бытового характера, зарегистрированных в Сурхандарьинской области в 2024 году, профилактика правонарушений семейно-бытового характера, деятельность “махаллинской семерки” в махалле, социальная профилактика правонарушений семейно-бытового характера.

Ключевые слова:

семья, правонарушение, правонарушение в семейно-бытовом контексте, профилактика правонарушений, “махаллинская семерка”, социальная профилактика, социально-профилактическая деятельность “махаллинской семерки”.

Annotation.

The article discusses family-related offenses, administrative violations, and crimes of a domestic nature, as well as a statistical analysis of family-related crimes registered in the Surkhondarya region in 2024. It also covers the prevention of family-related offenses, the activities of the “makhalla seven” in the neighbourhood, social prevention, and social prevention of family-related offenses. Additionally, it provides suggestions for improving the social and preventive activities of the “makhalla seven” within the system of preventing family-related offenses.

Keywords:

family, offense, offense in the family and domestic context, prevention of offenses, “makhalla seven”, social prevention, social prevention of offenses in the family and domestic context, social and preventive activities of the “makhalla seven”.

Jamiyatda muqaddas hisoblangan oilaviy munosabatlarga tahdid soluvchi, uni izdan chiqaruvchi, farzandlar tarbiyasiga salbiy ta'sir etuvchi oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklarni o'rganish, uni huquqiy jihatdan tahlil qilish va barvaqt oldini olish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

“Oila-turmush doirasidagi huquqbuzarlik” “oila”, “turmush”, “oila-turmush munosabatlari”, “oila-turmush doirasi” va “huquqbuzarlik” kabi tushunchalarning birikmasidan tashkil topgan.

Oila tor maishiy tushuncha emas. U ijtimoiy jamoadir. Binobarin, oila jamiyatning bir bo'lagidir. O'z navbatida, oilalar birlashib jamiyatni tashkil etadi. Jamiyatdagi o'zgarishlar oilaga ta'sirini ko'rsatganidek, oiladagi o'zgarishlar jamiyatga ham

o'z ta'sirini o'tkazadi [10]. Oila jamiyatdagi eng quyi bo'g'in bo'lmish mahallada rivojlanadi va taraqqiy etadi.

“Oila-turmush doirasidagi huquqbuzarlik” deganda, oilada uning a'zolari o'rtasida sodir etiladigan nizo, kelishmovchilik va janjallar oqibatida (er-xotin, qaynona-kelin, aka-uka, opa-singil va boshqalar o'rtasida) yuzaga keladigan har qanday huquqbuzarlik tushuniladi [11]. Bunda jabrlanuvchi ham huquqbuzar ham bitta oilaning a'zosi ekanligini inobatga olish lozim.

Huquqbuzarlik tushunchasiga O'zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida”gi qonunining 3-moddasida ta'rif berilgan bo'lib unga ko'ra, huquqbuzarlik – sodir etilganligi uchun ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik

nazarda tutilgan aybli g'ayrihuquqiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik) [3] deb tushunilishi belgilab berilgan. Ushbu tushunchadagi har ikki asos, jumladan ma'muriy huquqbuzarlik hamda jinoyat O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida o'z ifodasini topgan.

Jumladan, ma'muriy huquqbuzarlikka O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 10-moddasida ta'rif berilgan bo'lib, unga ko'ra, ma'muriy huquqbuzarlik qonun hujjatlariga binoan, ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan shaxsga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g'ayrihuquqiy, aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik [2] tushunilishi qayd etilgan.

Binobarin, huquqbuzarlik qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasidan sodir etiladigan xulq-atvor bo'lib, uning natijasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga jismoniy, moddiy yoki ma'naviy zarar yetkaziladi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining quyidagi moddalarida ko'rsatilgan ma'muriy huquqbuzarliklar oila-turmush doirasida sodir etilishi mumkin:

- tuhmat (MJTK 40-m.);
- haqorat qilish (MJTK 41-m.);
- shaxsiy hayot daxlsizligini buzish (MJTK 461-m.);
- bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik (MJTK 47-m.);
- yengil tan jarohati yetkazish (MJTK 52-m.);
- oilaviy (maishiy) zo'ravonlik (MJTK 59-2-m.);
- mayda bezorilik (MJTK 183-m.);
- voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish (MJTK 188-m.);
- voyaga yetmagan shaxsni ma'muriy huquqbuzarlik sodir etishga jalb qilish (MJTK 188-1-m.).

Jinoyat tushunchasiga O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 14-moddasida ta'rif berilgan bo'lib, unga ko'ra, Jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi [1].

Ushbu ta'rifni tahlil qilish orqali uning belgilarini aniqlash mumkin va ular quyidagilardan iborat:

- qilmishning huquqqa xilofligi;
- ijtimoiy xavfliligi;
- aybning mavjudligi;
- qilmish uchun jinoyat qonunida jazo belgilanganligi (jazoga sazovorligi).

Har qanday ijtimoiy xavfli qilmishda ana shu belgilarning barchasi bir vaqtda mavjudligi

uni jinoyat deb topishga asos bo'ladi. Ana shu belgilardan bittasi bo'lmasa, qilmish jinoyat deb topilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining quyidagi moddalarida ko'rsatilgan jinoyatlar oila-turmush doirasida sodir etilishi mumkin:

- qasddan odam o'ldirish (JK 97-m.);
 - kuchli ruhiy hayajonlanish oqibatida qasddan odam o'ldirish (JK 98-m.);
 - onaning o'z chaqalog'ini qasddan o'ldirishi (JK 99-m.);
 - zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o'ldirish (JK 100-m.);
 - o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish (JK 103-m.);
 - qasddan badanga og'ir shikast yetkazish (JK 104-m.);
 - qasddan badanga o'rtacha shikast yetkazish (JK 105-m.);
 - qasddan badanga yengil shikast yetkazish (JK 109-m.);
 - qiynash (JK 110-m.);
 - o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish (JK 112-m.);
 - jinoiy ravishda homila tushirish, abort (JK 114-m.);
 - ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash (JK 115-m.);
 - nomusga tegish (JK 118-m.);
 - jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirish (JK 119-m.);
 - ayolni jinsiy aloqa qilishga majburlash (JK 121-m.);
 - voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash (JK 122-m.);
 - bolani chet davlat hududida nazoratsiz qoldirish (JK 122-1-m.);
 - ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash (JK 123-m.);
 - nikoh yoshi to'g'risidagi qonunchilikni yoki nikoh tuzish tartibini buzish (JK 125-1-m.);
 - ko'p xotinli bo'lish (JK 126-m.);
 - oilaviy (maishiy) zo'ravonlik (JK 126-1-m.);
 - voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga yoki jinoyatga jalb qilish (JK 127-m.);
 - tilanchilik qilish (JK 1271-m.);
 - o'n olti yoshga to'lmagan shaxsga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar qilish (JK 129-m.).
- 2024-yilda Surxondaryo viloyatida jami 117 ta oila-turmush doirasida jinoyatlar sodir etilgan. Shundan, 10 tasi (8,5%) qasddan odam o'ldirish, 63 tasi (53,9%) qasddan badanga turli darajada shikast yetkazish va 44 tasi (37,6%) oilaviy (maishiy) zo'ravonlik tashkil etgan [12]. Ushbu statistik tahlildan ko'rinib turibdiki Surxondaryo viloyatida statistikada qayd etilgan oila-turmush

doirasidagi jinoyatlarning tarkibida 91,5 foizini qasddan badanga turli darajada shikast yetkazish va oilaviy (maishiy) zo'ravonlik tashkil etmoqda.

Biroq, shuni ta'kidlash joizki, bugungi kunda oila-turmush doirasidagi jinoyatlar to'g'risida ichki ishlar organlarida alohida statistik hisobotlar yuritilmoqda. Biroq, ushbu statistik hisobotlar faqat qasddan odam o'ldirish yoki odam o'ldirishga suiqasd qilish, qasddan badanga turli darajada shikast yetkazish hamda oilaviy (maishiy) zo'ravonlik kabi jinoyatlarni o'z ichiga qamrab olganligini ko'rishimiz mumkin. Vaholanki, yuqorida tahlil qilingan Jinoyat kodeksining 24 ta jinoyat turlarida oila-turmush doirasidagi jinoyatlar sodir etilishi mumkin.

Oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklarning jinoyat-huquqiy tavsifini o'rganishda ma'lum bo'ldiki, statistik hisobotlarda ko'rsatilayotgan jinoyatlardan tashqari yuqorida ko'rsatilgan jinoyatlar oila-turmush doirasida sodir etilishi mumkin. Shundan kelib chiqib, statistik hisobotlarni yangilash va unga yuqorida sanab o'tilgan oila-turmush doirasidagi jinoyatlarni kiritib borish tartibini joriy etish tavsiya etiladi.

Yuqorida sanab o'tilgan huquqbuzarliklarning oila-turmush doirasida sodir etilishining profilaktikasini samarali amalga oshirilishida "mahalla yettiligi"ning ijtimoiy profilaktik faoliyati muhim rol o'ynaydi.

Binobarin, huquqbuzarliklar profilaktikasi tushunchasiga O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuning 3-moddasida "huquqbuzarliklar profilaktikasi – huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkamlash, huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo'llaniladigan huquqbuzarliklar umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlari tizimi [3]" deb ta'rif berilganligini kuzatishimiz mumkin.

Biz yuqoridagi qonunda berilgan huquqbuzarliklar profilaktikasi tushunchasiga tayanib oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklarning profilaktikasi tushunchasiga quyidagi mualliflik ta'rifini ishlab chiqdik. Unga ko'ra "oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklarning profilaktikasi – oila-turmush doirasida sodir etilgan huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek ushbu huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf

etish maqsadida qo'llaniladigan huquqbuzarliklar umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlari tizimi".

Bizga ma'lumki, mamlakatimizda oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklarning umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasini tashkil etish va amalga oshirish faoliyati huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlari tomonidan tizimli yo'lga qo'yilgan. Biroq, oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishda yuqoridagi huquqbuzarliklar profilaktikasi turlarining qo'llanilishi yetarli bo'lmaydi, chunki, oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklarning kelib chiqishi oiladagi ijtimoiy muammolarga borib taqaladi.

Bu esa har bir mahallada ijtimoiy muammolarni joyida aniqlab, kompleks yondashuv asosida hal etish mexanizmlarini joriy etish zarurati mavjudligini taqozo etadi.

Bu borada oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishda huquqbuzarliklar profilaktikasi bilan bir vaqtda ijtimoiy profilaktika tadbirlarining "mahalla yettiligi" tomonidan tizimli yo'lga qo'yilishi muhim omil bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-209-son farmoni bilan mahallaning jamiyat hayotidagi o'rnini oshirish hamda sohada boshqaruv tizimini takomillashtirish maqsadida mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektori jamoatchilik asosida faoliyat yuritadigan "mahalla yettiligi"ni tashkil qilishi belgilab berildi. Shuningdek, ushbu Farmon bilan "mahalla yettiligi"ning mahallada amalga oshirishi lozim bo'lgan vazifalari ham ko'rsatib o'tildi [4].

Shundan so'ng, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 15-martdagi "Mahallabay ishlashga mas'ul bo'lgan shaxslar faoliyatini va hamkorligini samarali ta'minlash hamda "Mahalla yettiligi" faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 137-son qarori qabul qilindi. Ushbu qaror bilan "mahalla yettiligi" tushunchasiga "mahalla yettiligi" — fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari namunaviy tuzilmasiga kiritilgan mahalla raisi rahbarligidagi hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq

inspektori a'zolaridan iborat bo'lgan guruh", deb ta'rif berildi hamda "mahalla yettiligi" a'zolarining ishga kelib ketishi bo'yicha davomatni (tabelini) yuritish uchun javobgarlik fuqarolar yig'ini raisi zimmasiga yuklandi [5].

Shuningdek, aholi muammolarini aniqlash va hal etish tizimi takomillashtirilib, mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimining yordamchisi, mahalladagi yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, davlat soliq inspektori va ijtimoiy xizmat xodimlarining hamkorlikdagi faoliyati yo'lga qo'yildi hamda ularning vazifalari belgilab berildi.

Jumladan, aholining osoyishtaligi ta'minlangan mahalla albatta xavfsiz bo'ladi, xavfsiz mahallada bunyodkorlik ishlari rivojlanib, yanada obod maskanga aylanadi. Buning uchun mahalladagi barcha kuch va vositalarni, "mahalla yettiligi"ning imkoniyatlarini bir maqsad sari birlashtirib, maqsadli ijtimoiy profilaktika tadbirlari samaradorligini oshirish talab etiladi.

O'zbekiston mahallalari uyushmasi raisi Qahramon Quronboevning bergan ma'lumotlariga ko'ra hozirgi kunda O'zbekistonda mavjud 208 ta tuman (shahar)da jami 9452 ta mahalla fuqarolar yig'ini faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib unda 51 137 nafar xodim "mahalla yettiligi" tizimida faoliyat yuritib kelmoqda [13].

Oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimida "mahalla yettiligi"ning ijtimoiy profilaktik faoliyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-noyabrdagi "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 801-son qaror [6] bilan belgilab berilgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Chunki ushbu qaror bilan ilovaga muvofiq "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizom" tasdiqlangan.

Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llanilgan:

ijtimoiy profilaktika tadbirlari — huquqbuzarlik sodir etish yoki undan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslarga huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va boshqa turdagi yordamlar ko'rsatishda amalga oshiriladigan tadbirlar majmuyi;

ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshiruvchi sub'ektlar — mahalla raisi, hokim yordamchisi, profilaktika inspektori, yoshlar

yetakchisi, xotin-qizlar faoli, ijtimoiy xodim va soliq inspektori;

ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar — mehnat organi xodimi, tibbiyot xodimi, maktab direktori va maktab psixologi, inspektor-psixolog, shuningdek, ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshiruvchi subyektlarning murojaatiga asosan jalb etiladigan tuman (shahar) darajasidagi tegishli davlat organlari va tashkilotlari xodimlari;

ijtimoiy profilaktika obyektlari — o'ziga nisbatan ijtimoiy profilaktika tadbirlari amalga oshiriladigan shaxslarning ijtimoiy muammolari;

ijtimoiy profilaktika tadbirlari amalga oshiriladigan shaxslar — huquqbuzarlik sodir etish yoki undan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslar;

ijtimoiy moslashtirish dasturi — ijtimoiy profilaktika obyektlariga nisbatan ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshiruvchi subyektlar tomonidan ijtimoiy profilaktika jarayonida amalga oshiriladigan tadbirlar [6].

Ijtimoiy profilaktika shaxsning normal ijtimoiylashuvi jarayoni uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi, bu qonuniylik va axloqiy tamoyillarning ustuvorligiga asoslanadi. "Ijtimoiy profilaktika (oldini olish, prevensiya) — ijtimoiy muammo, ijtimoiy kamchilik yoki ularning ijtimoiy sabr qilinadigan darajada saqlanishini oldini olish faoliyati bo'lib, uning sabablarini bartaraf etish yoki neytrallashtirish orqali amalga oshiriladi [7]."

Belorussiyalik V.G. Stukanov huquqbuzarliklarning ijtimoiy profilaktikasini davlatning asosiy vazifalaridan biri deb ataydi hamda bu faqat jinoyatchilikning sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etishni emas, balki jamiyat a'zolarini huquqiy tarbiyalashni ham o'z ichiga oladi. Bu tarbiyalash shaxsning muayyan xususiyatlari va sifatlarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, ular huquqiy ongini tashkil qiladi va turli hayot faoliyati sohalarida, huquq normalari bilan tartibga solinadigan, insonning qonuniy harakatlarining ichki sharti bo'ladi [8] degan xulosaga kelgan.

Bunda muallifning huquqbuzarliklar ijtimoiy profilaktikasida asosiy e'tibor huquqiy tarbiyaga qaratiladi degan g'oyani ko'rishimiz mumkin, bunga qo'shilib bo'lmaydi, chunki muallif huquqbuzarliklar ijtimoiy profilaktikasining maqsadini juda ham toraytirib qo'ygan, vaholanki huquqbuzarliklar ijtimoiy profilaktikasi shaxsning mavjud ijtimoiy muammolarini aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan maxsus chora-tadbirlarni ko'rishni o'z ichiga oladi.

Rossiyalik olim Z.A. Adjeva "Ijtimoiy profilaktika

huquqbuzarliklar: mohiyati va mazmuni” nomli maqolasida ijtimoiy profilaktika tushunchasini o'rganib “ijtimoiy profilaktika — ijtimoiy obyektga ilmiy asoslangan va vaqtli ta'sir ko'rsatish orqali uning funksional holatini saqlab qolish va uning hayot faoliyatidagi ehtimoliy salbiy jarayonlarning oldini olish maqsadida amalga oshiriladi” deb ta'rif bergan.

Shuningdek, u ijtimoiy profilaktikani rejalashtirish huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan quyidagi vazifalar bilan bog'liqligini aytadi:

huquqbuzarliklarga sabab bo'layotgan jamiyat rivojlanishining turli salbiy tomonlarini yengish;

fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini hamda tashkilotchiligini oshirish;

huquqbuzarliklar uchun asosiy shart-sharoitlarni bartaraf etish, boshqaruv organlari, jamoat tashkilotlari, xo'jalik tashkilotlari, madaniy-tarbiyaviy va tibbiy muassasalar faoliyatidagi kamchiliklarni bartaraf etish;

fuqarolar va mansabdor shaxslarning huquqqa xilof harakatlarini kamaytirish;

fuqarolar va mansabdor shaxslarning g'ayri-ijtimoiy harakatlarini kamaytirish [9].

Biz yuqoridagilardan xulosa qilib “mahalla yettiligi”ning ijtimoiy profilaktika faoliyati tushunchasiga quyidagicha ta'rif ishlab chiqdik “mahalla yettiligi”ning ijtimoiy profilaktika faoliyati – ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshiruvchi subyektlar jumladan, “mahalla yettiligi” (mahalla raisi, hokim yordamchisi, profilaktika inspektori, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, ijtimoiy xodim va soliq inspektori) ijtimoiy profilaktika ob'ektlari (o'ziga nisbatan ijtimoiy profilaktika tadbirlari amalga oshiriladigan huquqbuzarlik sodir etish yoki undan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan ijtimoiy muammolari bor shaxslar)ga huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va boshqa turdagi yordamlar ko'rsatishda amalga oshiriladigan tadbirlar majmui”.

Yuqoridagilardan kelib chiqib “oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklarning ijtimoiy profilaktika tadbirlari deganda, mahallada “mahalla yettiligi” tomonidan oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish maqsadida ushbu turdagi huquqbuzarlikni sodir etish yoki undan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslarga huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va boshqa turdagi yordamlar ko'rsatishda amalga oshiriladigan tadbirlar majmui” deb tushunishimiz mumkin.

O'ziga nisbatan ijtimoiy profilaktika tadbirlari amalga oshiriladigan shaxslarni shartli ravishda

ikkiga ajratish tavsiya etilmoqda. Jumladan:

a) huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli bo'lgan shaxslar;

b) huquqbuzarlikdan jabrlanish ehtimoli bo'lgan shaxslar.

Huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli bo'lgan shaxslarga:

band bo'lmagan yoki doimiy daromad manbaiga ega bo'lmagan ishsiz shaxslar;

spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki inson aql-irodasiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarga qaram bo'lib qolgan shaxslar;

qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarga ruju qo'yan shaxslar;

g'ayriijtimoiy xulq-atvorli shaxslar;

qarovsiz va nazoratsiz qolgan voyaga yetmaganlar;

ishsiz yoshlar va maktab bitiruvchilari;

davlat ko'magiga muhtoj «og'ir» toifadagi yoshlar;

huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo'lgan yoshlar;

ajrim yoqasiga kelib qolgan va nizoli oilalar;

yordamga muhtoj bo'lgan va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar;

muntazam tazyiq va zo'ravonlikka uchrab kelayotgan xotin-qizlar;

jazoni ijro etish muassasalaridan qaytgan va profilaktik hisobda turgan shaxslar;

og'ir ahvolga tushib qolgan va og'ir ahvolga tushib qolish xavfi yuqori bo'lgan shaxslar;

tadbirkorlik faoliyatini boshlamoqchi bo'lgan shaxslar taalluqli bo'lsa;

Huquqbuzarlikdan jabrlanish ehtimoli bo'lgan shaxslar esa:

parvarishga muhtoj yolg'iz keksalar;

nogironligi bo'lgan va og'ir kasallikka chalingan shaxslarni tashkil etadi.

Shuni ta'kidlash lozimki oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklar ijtimoiy profilaktika obyektlari sifatida yuqorida sanab o'tilgan o'ziga nisbatan ijtimoiy profilaktika tadbirlari amalga oshiriladigan shaxslarning barchasini qamrab olinishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki, ushbu shaxslardagi ijtimoiy muammolari oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklarning sodir etilishida asosiy omil bo'lib hisoblanadi.

Oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklarning ijtimoiy profilaktika faoliyatini amalga oshiruvchi subyektlarga quyidagilar kiradi:

mahalla raisi;

hokim yordamchisi;

profilaktika inspektori;

yoshlar yetakchisi;

xotin-qizlar faoli;

ijtimoiy xodim;

solliq inspektori. Shuningdek, ushbu subyektlar mahallada "mahalla yettiligi"ni ham tashkil etadi.

Mahallada "mahalla yettiligi"ning ijtimoiy profilaktik tadbirlarni amalga oshirish faoliyatining joriy etilishi mahallalarda oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishga zamin yaratmoqda. Chunki "mahalla yettiligi"ning mahallada ijtimoiy profilaktika chora-tadbirlarini tizimli o'zaro hamkorlikda manzilli ("oilabay" va "fuqarobay") amalga oshirishi oilalardagi ijtimoiy muammolarning o'z vaqtida aniqlanishi va aniqlangan ushbu muammolarni kompleks yondashuv asosida bartaraf etilishiga shuningdek, oilalarda sog'lom muhitni yaratilishiga xizmat qiladi.

"Mahalla yettiligi"ning mahallada oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklar ijtimoiy profilaktik faoliyatiga to'xtaladigan bo'lsak. Bunda biz, avvalombor, mahallada oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklarni sodir etilishiga asosiy omillardan biri bo'lgan shaxsning ijtimoiy muammolarini kim qanday aniqlaydi va aniqlangan ijtimoiy muammolarni qanday hal etadi? Degan haqli savolga javob topishimiz lozim.

Mahallada ijtimoiy muammosi bor bo'lgan shaxsni profilaktika inspektori quyidagilar asosida aniqlaydi:

birinchidan, aholini "xonadonbay" o'rganish orqali aniqlaydi;

ikkinchidan, mahalla faollari, uyboshi va ko'chaboshilar bergan ma'lumotlarni o'rganish orqali;

uchinchidan, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini o'rganish orqali;

to'rtinchidan, oila-turmush doirasida sodir etilgan huquqbuzarliklarning sabablarini va unga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish to'g'risida surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning taqdimnomasini o'rganish va tahlil qilish orqali;

beshinchidan, ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshiruvchi subyektlar va ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar orqali;

oltinchidan, ommaviy axborot vositalari, Internet jahon axborot tarmog'i hamda ijtimoiy tarmoqlardagi ma'lumotlarni tahlil qilish orqali;

yettinchidan, manfaatdor davlat organlari va tashkilotlari tomonidan berilgan boshqa ma'lumotlarni tahlil qilish orqali aniqlaydi.

Profilaktika inspektori aniqlangan ijtimoiy muammolarni bartaraf etish vakolati yuklatilgan

"mahalla yettiligi"ning a'zolariga quyidagi ma'lumotlar aks ettiriladigan xulosalarni tayyorlaydi:

ijtimoiy muammosi bor bo'lgan shaxs bilan olib borgan profilaktik suhbatining mazmuni;

shaxsning turmush tarzi va uning mavjud ijtimoiy muammosi;

shaxsning va uning oila a'zolari haqidagi ma'lumotlar.

Shundan so'ng tayyorlangan xulosalarni profilaktika inspektori shaxsdagi mavjud ijtimoiy muammolarini bartaraf etish vakolatiga ega bo'lgan "mahalla yettiligi"ning a'zolariga taqdim etadi. Jumladan:

a) hokim yordamchisiga — band bo'lmagan yoki doimiy daromad manbasiga ega bo'lmagan ishsiz shaxslar;

b) profilaktika inspektoriga:

spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki inson aql-irodasiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarga qaram bo'lib qolgan shaxslar;

qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarga ruju qo'ygan shaxslar;

g'ayriijtimoiy xulq-atvorli shaxslar;

jazoni ijro etish muassasalaridan qaytgan va profilaktik hisobda turgan shaxslar;

qarovsiz va nazoratsiz qolgan voyaga yetmaganlar;

v) yoshlar yetakchisiga:

ishsiz yoshlar va maktab bitiruvchilari;

davlat ko'magiga muhtoj «og'ir» toifadagi yoshlar;

huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo'lgan yoshlar;

spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki inson aql-irodasiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarga qaram bo'lib qolgan yoshlar;

qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarga ruju qo'ygan yoshlar;

g) xotin-qizlar faoliga:

ajrim yoqasiga kelib qolgan va nizoli oilalar;

yordamga muhtoj bo'lgan va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar;

muntazam tazyiq va zo'ravonlikka uchrab kelayotgan xotin-qizlar;

jazoni ijro etish muassasalaridan qaytgan va profilaktik hisobda turgan xotin-qizlar;

d) ijtimoiy xodimga:

og'ir ahvolga tushib qolgan va og'ir ahvolga tushib qolish xavfi yuqori bo'lgan shaxslar;

parvarishga muhtoj yolg'iz keksalar;

nogironligi bo'lgan va og'ir kasallikka chalingan shaxslar;

e) solliq inspektoriga tadbirkorlik faoliyatini

boshlamoqchi bo'lgan shaxslar.

Mahalla raisi yuqoridagi ijtimoiy muammosi bor bo'lgan shaxslar bilan mahallaga biriktirilgan davlat organlari va tashkilotlari vakillarini jalb etgan holda ijtimoiy profilaktika tadbirlarini hamkorlikda tashkil etilishini ta'minlaydi.

“Mahalla yettiligi” ijtimoiy muammosi bor bo'lgan shaxslar bilan ijtimoiy profilaktika tadbirlarni amalga oshirishda bir-biri bilan uzviy hamkorlikda ishlarni tashkil etadi.

“Mahalla yettiligi” ijtimoiy muammosi bor bo'lgan shaxslar bilan ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirishda quyidagilar taklif etiladi:

birinchidan, “Mahalla yettiligi” mahallada yoshlar shu jumladan, voyaga yetmaganlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganligi, ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda hamda davlatning ijtimoiy yordamiga muhtoj bo'lgan voyaga yetmaganlar va ularning oilalari aniqlansa bu to'g'risida zudlik bilan mahallaning yoshlar yetakchisi orqali Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo'linmalarini xabardor qilishi lozim. Chunki, Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo'linmalariga voyaga yetmaganlarning yuqoridagi ijtimoiy muammolarini bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirish majburiyati yuklatilgan;

ikkinchidan, Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo'linmalari tomonidan mahallalarda yoshlar yetakchilari shuningdek, “mahalla yettiligi”ning imkoniyatlaridan foydalanib jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan, ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalaridan qaytib kelgan voyaga yetmaganlarni ijtimoiy-pedagogik jihatdan rehabilitatsiya qilishga va ularning moslashuviga ko'maklashishi maqsadga muvofiq bo'ladi;

uchinchidan, Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo'linmalari, mahallada yoshlar yetakchilari o'z vakolatlari doirasida mahalladagi yoshlar o'rtasida oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasiga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etish, yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar sodir etilishiga imkon berayotgan sabablar va shart-sharoitlarni, ulardagi mavjud ijtimoiy muammolarini aniqlashda hamda bartaraf etishda ko'maklashishi, huquqbuzarlikdan jabrlanuvchilarni, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbuzarlik sodir etgan, shu jumladan ilgari sudlangan va ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarni (yoshlarni) ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga

oshirishda hamda yoshlar o'rtasida jamiyatda huquqiy ongni, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga va qonuniylilikni mustahkamlashga, shuningdek korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan huquqiy targ'ibot bo'yicha faoliyatda ishtirok etishi, shuningdek, huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda muassasalar bilan hamkorlik qilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu yoshlar o'rtasida oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishga xizmat qiladi;

to'rtinchidan, mahallada “mahalla yettiligi” bilan birga fuqarolar yig'ini kengashi mahallada tazyiq va zo'ravonlikka uchragan hamda fuqarolar yig'inlariga murojaat qilgan xotin-qizlarni himoya qilishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqishi, shuningdek tazyiq va zo'ravonlikka uchragan ayollarni rehabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlarini hamda ichki ishlar organlarini zudlik bilan xabardor qilishi mexanizmini ishlab chiqish lozim;

beshinchidan, yaqin qarindoshga, sobiq xotiniga (sobiq eriga), bir ro'zg'or asosida birgalikda yashayotgan shaxsga yoxud umumiy farzandga ega bo'lgan shaxsga nisbatan hamda jabrlanuvchini tarbiyalash, o'qitish, unga g'amxo'rlik qilish majburiyatlarini bajarayotgan shaxs tomonidan, shuningdek jabrlanuvchiga qarab turish majburiyatlari qonun bilan zimmasiga yuklatilgan ta'lim, tarbiya, davolash yoki boshqa muassasaning xodimi tomonidan nomusga tegish amalga oshirilishi og'irlashtiruvchi holat bo'lishi kerak;

oltinchidan, mahallalarda oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklarning oldini olishda “mahalla yettiligi” Qo'riqlash bo'limlari bilan hamkorlikda mahalladagi nizoli va kelishmaydigan oilalarni aniqlab, ularning xonadonlariga “tashvish tugma”sini o'rnatish bo'yicha choralar ko'rish;

yettinchidan, aholiga oila-turmush doirasida sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning sabablari, shart-sharoitlari, sodir etilish usullari to'g'risidagi axborotlarni yetkazib borish hamda uning oldini olish bo'yicha keng jamoatchilik orasida profilaktik tadbirlar va targ'ibot ishlarini muntazam olib borishni yo'lga qo'yish. Jumladan:

oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarni aniqlash va himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rish;

aholiga oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklardan jabrlanuvchi shaxslar o'rtasidagi nizolarni hal etish usullarini o'rgatish;

oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklardan jabrlanuvchining jismoniy va psixologik

xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qonunda nazarda tutilgan o'zini o'zi mudofaa qilish usullari va vositalari to'g'risida xabardor qilish;

hujum qilingan taqdirda zaruriy mudofaa va oxirgi zarurat haqidagi ma'lumotlarni keng tarqatish yo'li bilan aholiga huquqiy tarbiya va

ta'lim berish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, targ'ibot ishlarida oilada vujudga keladigan rashk, nizo va o'zaro kelishmovchiliklar natijasida sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning oqibatlarini hamda uni qonuniy yo'l bilan hal etish usullari haqidagi axborotlar muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // <https://lex.uz/docs/111453>.
2. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning / <https://lex.uz/docs/97664>.
3. O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonuni / <https://lex.uz/acts/2387357>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-209-son / <https://lex.uz/ru/docs/6705763>.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 15-martdagi "Mahallabay ishlashga mas'ul bo'lgan shaxslar faoliyatini va hamkorligini samarali ta'minlash hamda "Mahalla yettiligi" faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 137-son qarori <https://lex.uz/ru/docs/6840781>.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-noyabrda "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 801-son qarori / <https://www.lex.uz/docs/7243832>.
7. Агафонов А.Н., Менлибаев К.Н., Туганбекова К.М., Черная Г.Г. Социальная работа: теории и технологии. – Астана, 2005.
8. Стуканов В.Г. Социальная профилактика правонарушений и правовое воспитание граждан: состояние, проблемы, задачи / Современные проблемы прикладной юридической психологии [Электронный ресурс]: материалы I Междунар. науч.-практ. интернет-конф. – Минск, 23 нояб. 2017г./редкол.: И.А.Фурманов (отв. ред.) [и др.]. — Электрон. дан. (2,75 Мб). — Минск, 2017. – С. 185–200. <http://elib.bsu.by/handle/123456789/191371>.
9. Аджиева З.А. Социальная профилактика правонарушений: сущность и содержание // Мир науки, культуры, образования. – 2016. – № 2 (57).
10. Umirzakov B. Oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklarning tushunchasi // Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2023. – Т. 2. – №. Maxsus son. – S. 166-170.
11. Umirzakov B. A. "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyili asosida oila-turmush munosabatlari doirasidagi jinoyatlarning oldini olishni takomillashtirish. / O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining axborotnomasi. – 2023. – N. 2 (57). – B. 75.
12. Surxondaryo viloyati IIB JXX ma'lumotnomasi 2025-yil.
13. <https://www.gazeta.uz/uz/2024/10/29/mahalla-yettiligi>.

TOSHKENT SHAHAR BEKTEMIR TUMAN JINOYATCHILIGINING KRIMINOLOGIK TAVSIFI VA OLDINI OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH

B. A. UMIRZAKOV,

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
Kriminologiya kafedrası boshlig'i, yuridik
fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

Annotatsiya.

Maqolada Toshkent shahar Bektemir tumanining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va demografik ma'lumotlari hamda jinoyatchilikning holati, dinamikasi, darajasi, tuzilishi va geografiyasi tahlil qilingan, kriminogen vaziyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar aniqlangan hamda Bektemir tumani jinoyatchiligining oldini olishni takomillashtirish yuzasidan fikr-mulohazalar bildirilgan.

Tayanch so'zlar:

kriminologik tavsif, jinoyatchilik, jinoyatchilikning holati, jinoyatchilikning omillari, jinoyatchilikning oldini olish.

Аннотация.

В статье проанализированы социально-политические, экономические и демографические данные Бектемирского района города Ташкента, а также состояние, динамика, уровень, структура и география преступности, выявлены факторы, негативно влияющие на криминогенную ситуацию, даны комментарии по улучшению профилактики преступности в Бектемирском районе.

Ключевые слова:

криминологические аспекты, преступность, состояние преступности, факторы преступности, профилактика преступности.

Annotation.

The article analyzes the socio-political, economic and demographic data of the Bektemir district of Tashkent, as well as the state, dynamics, level, structure and geography of crime, identifies factors that negatively affect the criminogenic situation, and comments on improving crime prevention in the Bektemir district.

Keywords:

criminological aspects, crime, state of crime, crime factors, crime prevention.

Jamiyatda hukm surayotgan osoyishtalikni mustahkamlash aholining huquqiy ongi va madaniyatiga, qonunlarga bo'lgan munosabatiga ham bog'liq. Qayerda jinoyatchilikka nisbatan murosasizlik muhiti qaror topmas ekan, shu yerda jinoyatlarning turli ko'rinishlari sodir etilaveradi. Buning uchun aholi bilan manzilli ishlash, ularning muammolarini o'z vaqtida hal etish, oilalarda sog'lom muhitni qaror toptirish, jamiyat a'zolarining huquqiy madaniyatini yuksaltirish lozim bo'ladi [4].

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan jinoyatchilikka qarshi kurashishda eng quyi bo'g'indagi kriminogen vaziyat va aholini qiynab kelayotgan ijtimoiy-maishiy muammolarni chuqur tahlil qilish asosida tuman-shahardagi mahallalarni jinoyatdan xoli "yashil" toifadagi hududga aylantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mahallaning aholi va davlat organlari o'rtasida ishonchli "ko'prik" bo'lishini ta'minlash, xalqimizning tinch va osoyishta hayot kechirishi

uchun zarur shart-sharoitlar yaratish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu borada "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyili asosida har bir mahallada muammolarni joyida aniqlab, kompleks yondashuv asosida hal etish mexanizmlari "mahalla yettiligi" [1] tizimining yo'lga qo'yilgani Bektemir tumanidagi mavjud 18 ta mahallalarda jinoyat sodir etish yoki undan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslarni aniqlash, ularning ijtimoiy-maishiy muammolarini hal etish [3] orqali kriminogen vaziyatni barqaror saqlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tumanning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va demografik ma'lumotlari jinoyatchilikning kriminologik tavsifini va jinoyatlarning oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqishda muhim omil bo'lib hisoblanadi. Jumladan,

Tuman hududi 3 494,2 gektar bo'lib, shundan 20,9 foizi (732 gektar)ni qishloq xo'jaligi yerlari tashkil etadi va ushbu qishloq xo'jaligi yerlarida 48 ta fermer xo'jaliklari mavjud. Shuningdek,

tumanda ko'p qavatli uylar jami 185 ta: shundan, 17 ta 9 qavatli, 1 ta 8 qavatli, 2 ta 5 qavatli, 65 ta 4 qavatli, 100 ta 2 qavatli uylar. Ko'chalar soni 204 ta bo'lib unda xonadonlar soni jami 15 872 ta: shundan, 6 376 ta (40,2 %) ko'p qavatli uylarda, 9 496 ta (59,8 %) yakka tartibdagi hovlilarda joylashgan. Shuningdek, tumanda 26 ta sport va 68 ta bolalar uchun maydonchalar mavjud.

Bundan tashqari, tumanda 2 857 ta yuridik korxona va tashkilotlar, 2 610 ta kichik biznes subyektlari, 586 ta sanoat korxonalari, 2 199 ta xizmat ko'rsatish shoxobchalari: shundan, dorixonalar 54 ta, sartaroshxonalar 18 ta, umumiy ovqatlanish shoxobchalari 137 ta, benzin va metan gaz quyish shoxobchalari 18 ta, kutubxona 9 ta.

Tumanda 13 ta ta'lim muassasalari joylashgan bo'lib, o'quvchilari 16 319 nafarni tashkil etadi: shundan,

maktablar soni 9 ta, o'quvchilar soni 11 928 nafar; musiqa maktabi 1 ta, o'quvchilar soni 260 nafar; kasb-hunar kollej 1 ta, o'quvchilar soni 93 nafar; akademik litsey 1 ta, o'quvchilar soni 319 nafar; oliy ta'lim o'quv yurti 1 ta, talabalar soni 3 719 nafar.

Tumanda jami 31 ta MTT (bolalar bog'chasi) bo'lib, u 3 959 nafar bolalarni qamrab olgan: shundan, 15 tasi xususiy bolalar bog'chasi hisoblanadi.

Tumanning doimiy aholisi 60 479 nafar: shundan, 36 306 nafari ayollar, 23 419 nafari 18 yoshgacha (bolalar) bo'lganlar, 10 582 nafari 18-30 yoshdagilar (yoshlar) tashkil etmoqda.

Tug'ilishlar yiliga 60 000 nafardan oshgan. Oilalar soni 23 783 ta, bir yilda tuzilgan nikohlar soni 480 tani, ajrimlar soni esa 165 tani (34,4 %) tashkil etmoqda.

Mehnatga layoqatli aholi 42 023 nafar, shundan ishsizlar 438 nafar (1,1 %), xorijga ketganlar 2 071 nafar (4,9 %). Nafaqadagi shaxslar 7 399 nafar, nogironligi bor shaxslar 1 007 nafar, ijtimoiy himoyaga muhtoj "Temir daftari"ga kiritilganlar 90 nafar, "Ayollar daftari"ga kiritilganlar 2 589 nafar, "Yoshlar daftari"ga kiritilganlar 422 nafarni tashkil qilmoqda.

Bundan tashqari, tuman hududida 2 ta madaniyat markazi, 2 ta istirohat bog'lari, 18 ta mehmonxonalar (xostel), 20 ta tibbiyot muassasalari shundan, 5 ta davlat va 7 ta xususiy klinikalar, 8 ta stomatologiya, 4 ta masjid, 2 ta cherkov, 8 ta bozor tuman hududida joylashganligi aniqlandi [7].

Bektemir tumani Toshkent shahrida

joylashgan bo'lsa-da unda qarib yer hududining 21 foizi qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan (fermer xo'jalik dala yerlari), bu esa tumanga nisbatan o'zgacha yondashuvni taqozo etadi. Tumandagi xonadonlarning aksariyatini hovli uylar tashkil etganligi ham jinoyatchilikning oldini olishda profilaktika chora-tadbirlarini tizimli va manzilli amalga oshirishda inobatga olinishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Hududdagi 5 395 ta tadbirkorlik subyektlari imkoniyatlaridan samarali foydalanish, ayniqsa, mehnatga layoqatli bandligi ta'minlanmagan fuqarolar uchun ish o'rinlarini yaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bektemir tuman jinoyatchiligining kriminologik tavsifi jinoyatchilikning miqdor va sifat ko'rsatkichlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, jinoyatchilikning holati, darajasi, tuzilishi, geografiyasi va dinamikasini o'z ichiga oladi [4].

I.I. Karpesning fikriga ko'ra, "Jinoyatchilik holati sodir etilgan jinoyatlar va ularni sodir etgan shaxslar miqdoridir" [5]. Ushbu fikrni ma'qullash mumkin, chunki jinoyatchilikning umumiy holatini sodir etilgan jinoyatlar bilan bir vaqtda uni sodir etgan shaxslar ham tashkil etadi. Bizningcha, jinoyatchilikning holati miqdor va sifat ko'rsatkichlari orqali aniqlanadi. Jinoyatchilikning miqdor ko'rsatkichlari jinoyatchilikning dinamikasi orqali ochib berilsa jinoyatchilikning sifat ko'rsatkichlarini esa jinoyatchilikning darajasi, tuzilishi va geografiyasi tashkil etadi [6].

Jinoyatchilikning holatini tahlil qilish va o'rganish ularning miqdori oshgan yoki kamayganligini aniqlab beradi. Bu esa jinoyatchilikni jilovlashga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarni manzilli va maqsadli tarzda amalga oshirishga xizmat qiladi.

Bektemir tuman jinoyatchiligining tahlillarga ko'ra Toshkent shahri bo'yicha qayd etilgan jinoyatlarning 6,4 foizi tuman hissasiga to'g'ri kelgan (2024-yilning 11 oyida qayd etilgan jinoyatlar tahlili).

O'rganishlar davomida tumanda hisobga olingan jinoyatlarning soni bo'yicha Toshkent shahridagi o'rni Chilonzor, Yunusobod, M.Ulug'bek, Uchtepa, Mirobod, Shayxontohur, Yashnobod, Olmazor tumanlaridan keyingi 8-o'rinda turganligi aniqlandi.

Biroq tumanda qayd etilgan jinoyatlarning aholi soniga nisbati o'rganilganida, 100 ming aholiga 1541 ta jinoyat to'g'ri kelib, Toshkent shahrining ko'rsatgichidan (481,6 ta) uch

barobarga ko'p ekanligi ma'lum bo'ldi. Quyidagilarni xulosa qilish mumkinki tumanda doimiy istiqomat qiluvchi fuqarolar soni kamligi, tuman hududining kattaligi, Toshkent shahrining kirish va chiqish qismida joylashganligi, hududda yirik bozorlar, avtoturargohlar va savdo majmualarining joylashganligi sababli jinoyatlarning 83,3 foizini respublikaning turli hududlaridan kelib-ketuvchi fuqarolar (tadbirkorlar) tomonidan sodir etilmoqda.

Tumanda qayd etilgan jinoyatlar o'z xususiyati va ijtimoiy xavfilik darajasiga ko'ra o'rganilganda asosiy qismi 54,4 foizi ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan, 22,3 foizi uncha og'ir bo'lmagan, 14,8 foizi og'ir va 8,5 foizi o'ta og'ir jinoyatlar hissasiga to'g'ri kelgan.

Qayd etilgan jinoyatlarning 49,1 foizi oldini olish mumkin bo'lgan, 50,9 foizi tashabbus bilan aniqlanadigan jinoyatlar hisoblanadi.

Tumanda qayd etilgan oldini olish mumkin bo'lgan jinoyatlar o'rganilganda, ularning asosiy qismini 33,0 foizini o'g'rilik, 21,4 foizini firibgarlik, 7,4 foizini bezorilik, 3,5 foizini talonchilik, 8,1 foizini tan jarohati yetkazish va 26,6 foizini boshqa jinoyatlar tashkil etgan.

Shuningdek, tumanda qayd etilgan umumiy o'g'rilik jinoyatlari bo'yicha xonadon (7,9 %) va avtotransport vositasidan (8,5 %) o'g'riliklarning salmog'i shahar ko'rsatkichidan yuqori ekanligi ayon bo'ldi.

Tumanda hisobot davrida jinoyat sodir etgan shaxslarning 45,1 foizini yoshlar (18-30 yosh), 4,9 foizini voyaga yetmaganlar (66 % maktab o'quvchilari) va 42,9 foizini katta yoshdagilar tashkil etmoqda. Shuningdek, qayd etilgan jinoyatlarning 7,1 foizini ayollar, 7,4 foizini ilgari sudlanganlar va 9,6 foizini ishsizlar tomonidan sodir etilgan.

Tahlillar davomida jinoyat sodir etgan shaxslarning har ikkitadan bittasi yoki 50 foizini yoshlar tashkil etishi aniqlandi.

O'rganishlar davomida o'rta ma'lumotga ega shaxslar tomonidan nisbatan ko'p jinoyat sodir etilgani ayon bo'ldi.

E'tiborlisi, tuman hududida jinoyat sodir etgan shaxslarning doimiy yashash joyi bo'yicha tahlil qilinganida, ularning 83,3 foizi respublikaning boshqa hududlarida doimiy istiqomat qilishi ma'lum bo'ldi.

Hududda jinoyatchilikka qarshi kurashishda birinchi navbatda, eng ko'p sodir etilgan jinoyatlarning sabablari va bunga imkon bergan shart-sharoitlarni ilmiy yondashuv

asosida o'rganish hamda ularni bartaraf etish, shuningdek, alohida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan shaxslar bilan profilaktik chora-tadbirlarni samarali va manzilli tashkil etish muhimdir.

Tumanda kriminogen vaziyatga salbiy ta'sir qiluvchi omillarni ilmiy yondashuv asosida kompleks tahlil qilish maqsadida jinoyatchilik ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan mahallalarda o'rganishlar olib borildi.

Bektemir tumanida jami 18 ta mahalla mavjud bo'lib, shundan, 11,1 foizi "qizil", 88,9 foizi "sariq" toifaga kiritilgan. Tumanda "yashil" toifadagi mahalla mavjud emas.

Mahalla hududida oldini olish mumkin bo'lgan jinoyatlarning 1000 aholiga nisbatan tuman ko'rsatkichidan yuqori bo'lgan mahallalar: Jumladan, "Nurafshon", "Nurli yo'l", "Bektemir", "Oltintopgan", "Mirishkor", "Musaffo", "Iyk Ota" mahallalari kriminogen vaziyatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan hududlar hisoblanib, tuman bo'yicha qayd etilgan oldini olish mumkin bo'lgan jinoyatlarning 61,1 foizi ushbu mahallalar hissasiga to'g'ri kelgan.

Mazkur mahallalarda olib borilgan profilaktik tadbirlar natijadorligi baholanib, mavjud muammo va kamchiliklar tizimli tahlil qilindi.

Xususan, "Nurafshon" mahallasi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, demografik ma'lumotlar tahliliga ko'ra, mahalla hududi 391 gektar bo'lib, tuman hududining 11,2 foizini tashkil etadi. Mahallada qishloq xo'jaligi yerlari mavjud emas.

Xonadonlar soni jami 510 ta: shundan, xonadonlarning 60 tasi (11,8 %) ko'p qavatli uylarda, 450 tasi (88,2 %) yakka tartibdagi hovlilarda joylashgan. Shuningdek, mahallada 1 ta sport va 1 ta bolalar uchun maydonchalar mavjud.

Mahalla hududida 1 048 ta (36,7 %) yuridik korxona va tashkilotlar, 1 044 ta (40,0 %) kichik biznes subyektlari, 74 ta (12,6 %) sanoat korxonalari, 974 ta (44,3 %) xizmat ko'rsatish shoxobchalari: shundan, dorixonalar 15 ta (27,8 %), sartaroshxonalar 14 ta (77,8 %), umumiy ovqatlanish shoxobchalari 72 ta (52,6 %), benzin va metan gaz quyish shoxobchalari 7 ta (38,9 %), kutubxona 1 ta (11,1 %) joylashgan.

Ushbu tahlildagi foizlar bu tumandagi ulushi sifatida ko'rsatilgan.

Mahallada ta'lim muassasalari, madaniyat markazi, istirohat bog'lari, mehmonxona (xostel), tibbiyot muassasalari, shifoxona, masjid, cherkov mahalla hududida mavjud emas.

Mahallada doimiy aholi soni 3 062 nafarni, shundan 1 545 nafarini ayollar, 800 nafarini voyaga yetmaganlar, 700 nafarini yoshlar (18-30), oilalar soni 1231 tani tashkil etadi. Shuningdek, mahallada mehnatga layoqatli aholi 979 nafar, shundan, 31 nafari yoki 3,2 foizi ishsiz, xorijga ishlash maqsadida ketganlar yo'q.

Nafaqadagi shaxslar 332 nafar, nogironlar 106 nafar, "Temir daftari"ga kiritilganlar 12 nafar, "Ayollar daftari"ga kiritilganlar 147 nafar, "Yoshlar daftari"ga kiritilganlar 28 nafar.

Bektemir tumanidagi umumiy bozorlarning 75 foizi (6 ta) ushbu mahalla hududida joylashgan.

O'rganish davomida mahalla hududida hisobot davrida jami 66 ta jinoyat qayd etilib, shundan, 44 tasi (66,7 %) oldini olish mumkin bo'lgan jinoyatlarni tashkil etgan.

Mahalla hududida sodir etilgan oldini olish mumkin bo'lgan jinoyatlarning 63,6 foizini ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan, 15,9 foizini uncha og'ir bo'lmagan, 13,7 foizini og'ir va 6,8 foizini o'ta og'ir jinoyatlar tashkil etgan.

Oldini olish mumkin bo'lgan jinoyatlarning 23 tasi (52,3 %) o'g'rilik, 2 tasi (4,5 %) qasddan odam o'ldirish, 7 tasi (15,9 %) qasddan badanga turli darajadagi shikast yetkazish bilan bog'liq jinoyat, 1 tasi (2,3 %) bosqinchilik, 5 tasi (11,4 %) talonchilik, 5 tasi (11,4 %) bezorilik, 1 tasi (2,3 %) boshqa jinoyatlar (2024-yilning 11 oyida qayd etilgan jinoyatlar tahlili).

Oldini olish mumkin bo'lgan jinoyatlarning atiga 12,5 foizi mahalla hududidagi xonadonlarda sodir etilgan. Qolgan 87,5 foiz jinoyatlar mahallada joylashgan yirik bozor, savdo majmualari ("Qo'yliq dehqon, buyum va qurilish mollari bozori", "Compass" savdo majmuasi) va avtoturargohlarda ("Vodiy avtoturargohi") sodir etilgan.

Mahalladagi kriminogen vaziyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi quyidagi omillar aniqlandi:

"Nurafshon" mahallasi hududiga kelib ketuvchi shaxslarning ko'pligi, jumladan, bir kunda mahalla hududidagi yirik bozor va avtoturargohlarga 30 mingdan ortiq ("Compass" savdo majmuasiga 7-10 ming, "Qo'yliq dehqon bozori"ga 10-12 ming, "Qo'yliq buyum bozori" 7-8 ming, "Qo'yliq qurilish mollari bozori" 5-6 ming, "Vodiy avtoturargohi" 3-4 mingdan ortiq) fuqarolar tashrif buyuradi;

mahallada respublikaning turli hududlaridan kelib vaqtincha istiqomat qiluvchi (ijara

shartnomasi rasmiylashtirmasdan) fuqarolarning ko'pligi va ularni nazorat qilish imkoniyati cheklanganligi;

"Compass" savdo majmuasi, "Qo'yliq buyum bozori", "Qo'yliq qurilish mollari bozori" va "Vodiy avtoturargohi"ga alohida profilaktika (katta) inspektori shtat birligi ajratilmaganligi (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil

18-apreldagi PQ-2896-son Qarori [3] bilan ushbu mahallaga 3 ta profilaktika (katta) inspektori shtat birligi ajratilishi lozim);

bozor hududida xizmat olib borayotgan xodimlar, ayniqsa, munitsipal xodimlar (MPPX) faoliyati ustidan yetarlicha nazorat va kunlik so'rovning yo'qligi;

mahallada joylashgan yirik bozor, savdo majmualari, avtoturargohlarga ajratilgan kuch va vositalarning yetarli emasligi;

ushbu yirik bozor, savdo majmualari, avtoturargohlarning atrofida tirbandlikning yuqoriligi sababli haydovchilar tomonidan bezorilik va tan jarohati yetkazish bilan bog'liq jinoyatlar sodir etilmoqda;

jamoat joylarida sodir etilgan jinoyatlar bo'yicha javobgarlik masalalari yuzasidan faqat profilaktika (katta) inspektoriga nisbatan intizomiy ta'sir choralari qo'llanilayotganligi, ushbu hududlarga jalb etilgan boshqa sohaviy xizmat xodimlariga nisbatan esa ta'sirchan choralar ko'rilmasiligi;

tungi vaqtlarda yer usti ko'priklari ostidagi yoritish chiroqlari o'chirilishi ushbu hududda bosqinchilik va talonchilik jinoyatlarini sodir etilishiga shart-sharoit yaratmoqda.

Mahalla hududida jinoyatlarning oldini olish maqsadida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

"Compass" savdo majmuasi, "Qo'yliq buyum bozori", "Qo'yliq qurilish mollari bozori" va "Vodiy avtoturargohi"ga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi PQ-2896-son qarori asosida alohida profilaktika (katta) inspektori shtat birligini ajratish;

"Nurafshon" mahallasiga xizmatga jalb qilingan barcha sohaviy xizmat xodimlarining mas'uliyatini oshirish, ularning faoliyatini kunlik monitoring qilib borish, xizmat vazifalariga mas'uliyatsizlik bilan qaragan xodimlarga ta'sirchan choralarni qo'llash;

"Qo'yliq dehqon bozori" atrofidagi tirbandliklarning oldini olish maqsadida yo'l-patrul xodimlari faoliyatini kuchaytirish, reydlar

tadbirlarini ko'paytirish;

tumanlararo va viloyatlararo yo'lovchi va yuk tashuvchi kirakashlarning ro'yxatini qayta shakllantirish, "Kirakashlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar Pasporti"ni yaratish, kirakashlar bilan bog'liq ilgari sodir etilgan huquqbuzarliklar, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli xavf-xatarlar bo'yicha ogohlantirish xatlarini olish;

tungi vaqtlarda yer usti ko'priklarining ostidagi yoritish chiroqlarini odamlar harakati to'xtaganidan so'ng o'chirish bo'yicha tuman hokimligiga taklif kiritish;

soat 18:00dan 22:00ga qadar bo'lgan vaqt oralig'ida Toshkent xalqaro aylanma yo'lida joylashgan "Boburshoh" avtoturargohi (Vodiy pitak) atrofiga ko'proq kuch va vositalarni jalb qilish;

Chirchiq daryosining yirik bozorlar va aholi faol harakatlanuvchi qismini tungi chiroqlar bilan yoritish, videokameralar bilan jihozlash va ularni tuman IIB Navbatchilik qismiga integratsiya qilish.

Shuningdek, "Mirishkor" mahallasidagi kriminogen vaziyat ham kompleks tahlil qilindi:

Xususan, "Mirishkor" mahallasida hisobot davrida jami 26 ta jinoyat qayd etilgan bo'lib, ularning 17 tasini (65,4 %) oldini olish mumkin bo'lgan jinoyatlar tashkil etgan.

Oldini olish mumkin bo'lgan jinoyatlarning 8 tasi ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan, 4 tasi uncha og'ir bo'lmagan va 5 tasi og'ir jinoyat. Ularning 9 tasini o'g'irlik, 1 tasini talonchilik, 3 tasini bezorilik, 1 tasini nomusga tegish, 3 tasini qasddan badanga shikast yetkazish bilan bog'liq jinoyatlar tashkil etgan.

O'rganishlar davomida mahalla hududida quyidagi "jinoyat o'choqlari" aniqlandi:

"Ohangaron" shoh ko'chasidan "Husayn Bayqaro" ko'chasiga ketishdagi bekat atrofi ("Rohat" aylanma yo'li);

"Husayn Bayqaro" ko'chasidagi (Vodnik) aylanma yo'l atrofi;

Toshkent xalqaro aylanma yo'lidagi "Media park" savdo majmuasi atrofi yo'l bo'yi;

"Husayn Bayqaro" ko'chasidagi "Chirchiq" daryosi bo'yi.

Jinoyatlarni kelib chiqishining asosiy omillari quyidagilardan iborat:

"Ohangaron" shoh ko'chasidan "Husayn Bayqaro" ko'chasiga ketishdagi bekat atrofiga ("Rohat" aylanma yo'li) kechki soat 18:00 dan 23:00 ga qadar transport vositalarining

tirbandligi va aholining gavjumligi kuzatiladi, ushbu hududda yuqoridagi vaqt oralig'ida kissavurlik, bezorilik kabi jinoyatlar ko'p sodir etiladi;

"Husayn Bayqaro" ko'chasidagi (Vodnik) aylanma yo'l atrofida tungi soat 23:00 dan keyin kirakashlar o'rtasida hudud va yo'lovchi talashish tufayli bezorilik va qasddan badanga shikast yetkazish bilan bog'liq jinoyatlar sodir etilmoqda;

Toshkent xalqaro aylanma yo'lidagi "Media park" savdo majmuasida firibgarlik jinoyati sodir etishga moyil shaxslar guruhi shakllangan, ular tomonidan fuqarolarning ishonchiga kirib, maishiy texnikalarni ularning nomiga kredit evaziga rasmiylashtirib berish evaziga fuqarolarning pullarini talon-toroj qilish holatlari ko'paygan;

"Husayn Bayqaro" ko'chasidagi "Chirchiq" daryosi bo'yining aholi faol harakatlanuvchi qismi yoritilmaganligi va videokuzatuvga olinmaganligi sababli ushbu hududda nomusga tegish, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan noqonuniy muomala qilish bilan bog'liq jinoyatlar sodir etilmoqda;

mahalladagi 56-son IIO tayanch punktida profilaktika (katta) inspektori shtat birligi 2 ta bo'lsada muayyan vaqt davomida (bugungi kunda ham) bir nafar profilaktika inspektori xizmat qilib kelmoqda. Bu esa hudud to'liq nazoratga olinmasligiga va huquqbuzarliklar soni ortishiga sabab bo'lmoqda.

Mahalla hududida jinoyatlarning oldini olish maqsadida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1) soat 18:00dan 23:00ga qadar bo'lgan vaqt oralig'ida "Ohangaron" shoh ko'chasidan "Husayn Bayqaro" ko'chasiga ketishdagi bekat atrofiga ("Rohat" aylanma yo'li) hamda yo'l kesishmasiga ko'proq kuch va vositalarni jalb qilish;

2) ushbu mahallada 30 dan ortiq xizmat ko'rsatuvchi savdo do'konlari, kafe va barlar, kompyuter va bilyard o'yingohlari joylashgan binolarga Milliy Gvardiya qo'riqlash xizmati xodimlari bilan hamkorlikda "Face ID" qidiruv kameralarini to'liq o'rnatish hamda qo'riqlash pultiga bog'lash choralari jadallashtirish kerak;

3) huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslar bilan tizimli ishlarni amalga oshirish maqsadida "Huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli yuqori" va "huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan shaxslar"ning toifalarini alohida tarzda tizimlashtirish;

4) mahallaga biriktirilgan 56-sonli IIO tayanch punktida xizmat olib borish uchun tasdiqlangan 2 nafar profilaktika inspektori shtat birligi to'liq jamlanish choralari ko'rilishi xodimlarning ish yuklamasi yengillashishiga hamda samarali faoliyat olib borishga xizmat qilar edi;

5) "qizil" toifadagi mahallaga faqat tajribali kamida ichki ishlar organlarida 5 yillik ish stajiga va 3 yillik profilaktika inspektori lavozimida xizmat qilgan tajribali xodimlarni biriktirish va "qizil" toifadagi mahallaga biriktirilgan profilaktika (katta) inspektorlarini hududda jinoyat sodir etilsa intizomiy javobgarlikka tortmaslik hamda ularga alohida tartibda oylik ustamalar berib borish tartibini normativ-huquqiy hujjatlarda qat'iy belgilab qo'yish lozim.

Shuningdek, Bektemir tumanida jinoyatchilikning barvaqt oldini olish bo'yicha quyidagilar taklif etiladi:

1. Bugungi kunda Bektemir tumanida onlayn-firibgarlik bilan bog'liq ro'yxatga olingan jinoyatlar soni yildan yilga oshib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri — fuqarolar o'rtasida pul munosabatlarini raqamlashtirilishi, onlayn-to'lovlarni amalga oshirish va onlayn kreditlarni rasmiylashtirish jarayonlarini soddalashtirilganligidir.

O'zbekiston Respublikasida bunday firibgarliklarning oldini olish uchun turli xil chora-tadbirlar o'tkazilib kelinmoqda. Biroq, amaldagi qonunchiligimizda onlayn-firibgarlikni oldini olish uchun qaratilgan normalar mavjud emasligi bois aybdorlar javobgarlikdan qutulib qolmoqda.

Misol uchun: SIM-kartalarni fuqaro nomiga rasmiylashtirish jarayoni kuchaytirilmagan, fuqaroning SIM-kartaga egalik qilish huquqi va shu bilan birga uning SIM-kartadan foydalanish jarayonidagi javobgarligi belgilanmagan, fuqaroning SIM-kartani o'z nomiga rasmiylashtirishi va uni boshqa (jinoyatni amalga oshirish niyatidagi) shaxslarga taqdim qilganligi uchun qonunchilikda jazo nazarda tutilmagan.

Jumladan, qo'shni Tojikiston Respublikasining 2019-yil qabul qilingan qonuniga ko'ra, SIM-kartani elektr tarmog'iga ulash qoidalarini buzganlik uchun (agar unda jinoyat tarkibi bo'lmasa) 100 bazaviy hisoblash miqdoridan 1000 bazaviy hisoblash miqdorigacha ma'muriy jarima tayinlanadi.

Shu bilan birga, SIM-karta egasi SIM-kartani boshqa shaxsga bergan ushbu SIM-kartadan foydalanib terroristik yoki ekstremistik

xususiyatdagi yoxud boshqa og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etishda foydalanilgan bo'lsa SIM-karta tegishli bo'lgan shaxsga 800 bazaviy hisoblash miqdoridan 1500 bazaviy hisoblash miqdorigacha jarima yoki 2 yildan 3 yilgacha ozodlikdan mahrum etish tayinlanadi.

Xitoy Xalq Respublikasining "Telekommunikatsion firibgarlikka qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni qabul qilingan. Qonunda quyidagi tartib va talablar belgilangan:

a) prokuratura va sud organlariga telekommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda sodir etilgan firibgarlik uchun asossiz ravishda yengil jazo tayinlamaslik talabi qo'yilgan;

b) aholi, ayniqsa maktab o'quvchilari, talabalar va keksa yoshdagi fuqarolar o'rtasida tushuntirish va ogohlantirish ishlarini olib borish vazifasi barcha davlat boshqaruv organlari, shu jumladan qishloq va mahalla idoralariga yuklatilgan;

v) bank kartlari, SIM-kartalar, to'lov-akkauntlarni noqonuniy xarid qilish, uchinchi shaxslarga sotish va ijaraga berish taqiqlangan va aloqa operatorlari, bank-moliya tashkilotlari, bankdan tashqari to'lov tashkilotlari va internet-xizmatlar provayderlari zimmasiga bunday harakatlar uchun ma'muriy, jinoiy va fuqarolik javobgarlik mavjudligi haqida ogohlantirish vazifasi yuklatilgan.

Shuningdek, telekommunikatsiyaviy firibgarlikni sodir etgan shaxslarga ma'muriy nazorat doirasida 6 oydan 7 yilgacha bo'lgan muddatga mamlakat hududini tark etishni taqiqlash chorasi qo'llanishi mumkinligi bayon etilgan.

Bundan tashqari, Singapur kompaniyasi telekommunikatsiya kompaniyalari bilan SMS va qo'ng'iroqlar himoyasini kuchaytirish bo'yicha hamkorlik qilmoqda. Ular SIM-kartalarni ro'yxatdan o'tkazish jarayonini qiyinlashtirish va SIM-karta egalari javobgarliklarini kuchaytirish masalasini ko'rmoqda. Shuningdek, bu kompaniyalar o'z mijozlari uchun xorijiy mamlakat telefon raqamlaridan kelayotgan SMS va qo'ng'iroqlarni avtomatik tarzda bloklash tizimini joriy etgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib:

birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi bilan kelishilgan holda "SIM-kartani elektr tarmog'iga ulash va undan foydalanish qoidalari"ni ishlab chiqish va o'rnatilgan tartibda tasdiqlanishi kerak;

ikkinchidan, ushbu “SIM-kartani elektr tarmog'iga ulash va undan foydalanish qoidalarini” tasdiqlangandan so'ng amaldagi O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi va Jinoyat kodekslariga quyidagicha o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish taklif etiladi:

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga “SIM-kartani elektr tarmog'iga ulash va undan foydalanish qoidalarini buzish uchun javobgarlik belgilangan 463-moddani kiritish” taklif etiladi;

sim-karta egasi SIM-kartani elektr tarmog'iga ulash va undan foydalanish uchun boshqa shaxsga berishi yoki o'zganing SIM-kartasini elektr tarmog'iga ulash va foydalanish uchun olishi, bosharti unda jinoyat alomatlari, shuningdek ushbu Kodeksda nazarda tutilgan boshqa huquqbuzarliklar alomatlari mavjud bo'lmasa, — fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravari, mansabdor shaxslarga esa — 10 baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi”;

Jinoyat kodeksiga “SIM-kartani elektr tarmog'iga ulash va undan foydalanish qoidalarini buzish deb nomlangan 1414-moddaning SIM-karta egasi SIM-kartani elektr tarmog'iga ulash va undan foydalanish uchun boshqa shaxsga bergan taqdirda va ushbu SIM-karta terroristik yoki ekstremistik xarakterdagi jinoyatni, shuningdek og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etishda foydalanilgan bo'lsa, — bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi” kiritilishi maqsadga muvofiq bo'ladi;

uchinchidan, O'zbekiston Respublikasi aloqa va axborotlashtirish agentligi tomonidan mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq operatorlar SIM-karta olayotgan abonentga ushbu SIM-kartani boshqa shaxslarga elektr tarmog'iga ulab foydalanish uchun taqdim etish ma'muriy va jinoiy javobgarlikni keltirib chiqarishi haqida ogohlantirish shartligi to'g'risidagi qoida kiritilishi lozim.

2. Bektemir tumanida shtat bo'yicha 40 ta profilaktika (katta) inspektori lavozimi mavjud bo'lib shundan hozirgi kunda 36 ta profilaktika (katta) inspektori xizmat olib bormoqda, 4 tasi jamlanmagan (vakant). Shundan, profilaktika (katta) inspektorining 2 nafari “Food city” bozoriga, 1 nafari “Qo'yliq dehqon” bozoriga

biriktirilgan. Bundan tashqari 8 nafar profilaktika (katta) inspektori surishtiruv xizmatiga jalb etilgan.

Tumandagi mavjud 18 ta mahallaga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi PQ-2896-son Qarori bilan tasdiqlangan “Ichki ishlar organlari tayanch punkti to'g'risida Nizom”ga ilova qilingan “Ichki ishlar organlari profilaktika (katta) inspektorlari shtat birliklarini kiritish me'yorlari” asosida 37 ta profilaktika (katta) inspektori xizmat ko'rsatishi belgilangan. Biroq, hozirgi kunda ushbu mahallalarga 25 ta profilaktika (katta) inspektori xizmat olib bormoqda. Bu esa, o'z navbatida, profilaktika (katta) inspektorlarining faoliyatida yuklamalar (nagruzka)ning oshib ketishiga olib kelmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi PQ-2896-son Qarori bilan tasdiqlangan “Ichki ishlar organlari tayanch punkti to'g'risida Nizom”ga ilova qilingan “Ichki ishlar organlari profilaktika (katta) inspektorlari shtat birliklarini kiritish me'yorlari”ni qayta ko'rib chiqib unga har 5 ta profilaktika (katta) inspektoriga 1 ta surishtiruv profilaktika (katta) inspektori lavozimini kiritish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi PQ-2896-son Qarori bilan tasdiqlangan “Ichki ishlar organlari tayanch punkti to'g'risida Nizom”ga surishtiruv profilaktika (katta) inspektori lavozimini kiritib uning vakolatlari, huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini alohida bob sifatida kiritilishi va amaliyotga joriy etilishi profilaktika (katta) inspektorlarining mahallada huquqbuzarliklar profilaktikasini barvaqt oldini olishga, fuqarolarning murojaatlarini qonuniy hal etish va huquqbuzarliklarga huquqiy baho berishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida" Farmoni, 21.12.2023-yildagi / PF-209-son / <https://lex.uz/ru/docs/6705763>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori, 18.04.2017-yildagi, PQ-2896-son / <https://lex.uz/ru/docs/-3175732?ONDATE=06.02.2024>.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "«Obod va xavfsiz mahalla» tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori, 30.11.2024-yildagi, 801-son / <https://lex.uz/docs/7243832>.
4. Surxondaryo viloyatida jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatini tashkil etish metodikasi: Metodik qo'llanma / T.K. Ismailov, B.A. Rajabov, T.R. Kuchkarov va boshq. Mas'ul muharrir: R.A. Xatamov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2024. – 127 b.
5. Карпец И.И. Проблема преступности. – М., 1969. – 109 с.
6. Umirzakov B.A. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining kriminologik tavsifi va oldini olishni takomillashtirish: Yurid. fan. b-cha fals. d-ri (Doctor of Philosophy) ilmiy daraj. olish uchun tayyor. ... Dis. – T., 2021. – 192 b.
7. Bektemir tuman IIO FMB 2024-yil 1-yanvar holatidagi ma'lumotlar.

AMIR TEMUR SIYOSIY BOSHQARUVINI O'RGANISHNING AHAMIYATI

D. X. RAZAKOV,

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi xodimi,
tarix fanlari nomzodi, dotsent*

Annotatsiya.

Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy jarayonlardagi noxushlikning oldini olish, bunyodkorlikka erishish Sharq dunyosi sharoitida ko'pgina hollarda xalq va Vatan taqdiri uchun butun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladigan fidoyi yetakchining hokimiyat tepasiga kelishiga, uning kuchli irodasiga bog'liq bo'lgan.

Ushbu maqolada o'rta asrlarning buyuk siyosat arbobi Amir Temur olib borgan hokimiyat boshqaruvi retrospektiv tahlil etilib, davrimizning ayrim muammolariga yechimlar tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar:

siyosiy boshqaruv, siyosiy-huquqiy meros, raiyat, "Temur tuzuklari", davlat obro'si, tartib-intizom, yangi avlod.

Аннотация.

В данной статье ретроспективно анализируется управление государством во времена великого политика Амира Темура и даются рекомендации по решению некоторых проблем современности.

Ключевые слова:

политическое управление, политико-правовое наследие, «Уложение Темура», авторитет государства, дисциплина, новое поколение.

Annotation

Historical experience shows that preventing of dissatisfaction in social life and achieving creativity in the conditions of the Eastern world often depended on coming to power of a selfless leader who took full responsibility for the fate of the people and the motherland and his strong will.

The article provides a retrospective analysis of the rule of Amir Temur, a great politician of the middle Ages and proposes solutions to some of the problems of our time.

Keywords:

political administration, political and legal heritage, raiyat, "Institutes of Temur", state reputation, discipline, new generation.

Markaziy Osiyo mutafakkirlari va davlat arboblarning siyosiy-huquqiy merosi tarixida sohibqiron Amir Temur (1336-1405) ning hokimiyat va uni boshqarish to'g'risidagi qarashlarini o'rganish alohida ahamiyatga ega. Buning sababi shundaki, birinchidan, Amir Temurning siyosiy qarashlari o'z davri ma'naviyati va davlat boshqaruvi bilan bevosita bog'liqdir; ikkinchidan, bu masalaning xolisona va haqqoniy baholanishi davlat tepasida turgan birinchi rahbarning shaxsiy sifatlarini mukammalroq bilish, uning insoniyat tarixida tutgan o'rnini obyektiv baholash imkonini beradi.

Mo'g'ullar hukmronligiga qarshi ozodlik kurashining rahnamosi Amir Temurning butun hayoti va siyosiy faoliyati zulm va zo'ravonlikka, o'zaro qirg'inbarot urushlarga chek qo'yish hamda Markaziy Osiyoda kuchli markazlashgan davlat barpo etish uchun olib borilgan kurash bilan bog'liqdir.

Amir Temur o'zining 25 yoshida siyosat maydoniga kirib kelgan paytda Markaziy Osiyo mo'g'ullar istibdodi ostida bo'lib, bu yerda 130 yil davomida siyosiy hokimiyat tepasida Chingizxon avlodidan xon bo'lishi an'anaga aylangan edi.

[1] Shu sababdan, 1347-yili Movarounnahrda hokimiyat amirlar qo'liga o'tganida, ular hukmdorliklarini urug'-qabilalar tan olishi uchun o'z yonlarida Chingizxon avlodidan bir kishini xonlik taxtida saqlashga majbur edilar. Amir Temur ham hokimiyatga kelganida mazkur an'anani davom ettirdi va dastlab Suyurg'atmishxonni, uning vafotidan so'ng, uning o'g'li Sulton Mahmudxonni rasmiy xon sifatida olib yurdi. Boz ustiga Amir Husaynning bevasi Chingizxon avlodidan bo'lmish Saroymulkxonimga uylanib, ko'ragon (xon kuyovi) unvoniga erishdi va o'z hukmdorligini qonuniy jihatdan yanada mustahkamladi [2. B.16-17.].

1370-yilda Movarounnahr taxtining sohibi bo'lib, Samarqandni hokimiyat poytaxtiga aylantirgan Amir Temur faoliyatidagi asosiy siyosiy yo'l – mayda feodallar hukmronligini tugatish, muhim xalqaro karvon yo'llarida ustunlik qilib turgan Oltin O'rda, Eron va boshqa mamlakatlarning raqobatini yengib, Movarounnahrda markazlashgan davlat tashkil etish edi. Shuning uchun pragmatik hukmdor bo'lgan sohibqiron mamlakatda davlat tizimini

mustahkamlash, boshqarishdagi tartib-intizom, qonunchilikni kengaytirishga imkoniyat yaratish, soliqlarni tartibga solish, mamlakat himoyasini ta'minlash yo'lida qo'shinning qudratini oshirish kabi masalalarga katta e'tibor bergan.

Amir Temur o'z faoliyatining birinchi davri – 1360–1385-yillarda Movarounnahrda markazlashgan davlat tuzib, o'zaro urushlarga chek qo'ygan bo'lsa, ikkinchi davr – 1386–1405-yillarda boshqa mamlakatlarga bir qator harbiy yurishlarini amalga oshirdi. Buharbiy yurishlar sabablarini, umuman Amir Temurning siyosiy-huquqiy qarashlarini u qoldirgan nazariy va amaliy qo'llanma «Temur tuzuklari»ni chuqur o'rganmay turib tushunish mushkuldir. Ushbu memuar asr ilk bor 1967-yilda Alixonto'ra Sog'uniiy tomonidan forsiydan o'zbekchaga to'lik tarjima qilingan. Lekin sovet hokimiyati ma'murlarining tariximizni o'rganishga bo'lgan g'arazli munosabati natijasida «Guliston» jurnalida tarjimaning faqat 30 foizi e'lon qilingan.

Ikki maqoladan iborat «Temur tuzuklari»ning birinchi qismi sohibqiron hayotining eng e'tiborli voqealaridan tashkil topgan bo'lib, ular qisqa, sodda, tushunarli tilda bayon etilganligi bilan voqealar o'quvchilarning turli tabaqalariga birday anglashilarlidir. Muhimi, bu voqealar G'iyosiddin Ali, Nizomiddin Shomiiy, Sharafiddin Ali Yazdiy asarlari singari ishonchli manbalardagi voqealarga mos keladi. [3.]

Ikkinchi maqola esa hayotning o'zi keltirib chiqargan qonunlar, ya'ni tuzuklardan tashkil topgan. Taniqli o'zbek sharqshunos olimi U.Uvatovning «Esdaliklar yozishni Amir Temur hokimiyatga kelishidan ancha muddat oldin boshlagan» [4. B. B. 133.], degan so'zlarida jon bor. Buni sohibqiron o'zi va saltanati tarixini, bo'lajak tuzuklarni qog'ozga tushirishni birovga topshirishni istamaganligi yoki biron kishini shunga munosib ko'rmaganligi bilan izohlash mumkin.

Temur xalq orasidan chiqqan va uning qudratiga suyanib ish olib boradigan rahbar bo'lgani uchun «raiyyat» deb ataladigan oddiy fuqarolarning ahvolini yaxshilashga birinchi navbatda e'tibor beradi. «Temur tuzuklari»da bu haqda «Raiyyat ahvolidan ogoh bo'ldim, ulug'larini og'a qatorida, kichiklarini farzand o'rnida ko'rdim... Hokimlaru sipohlardan qay birining xalqqa jabr-zulm yetkazganini bilsam, darhol ularga nisbatan adolatu insof yuzasidan chora ko'rdim» [5. B. 65.], deyiladi.

Shu jihatdan Amir Temurning soliq siyosati diqqatga sazovor. U hokimiyatga kelgach, avvalo, mo'g'ullar davridan buyon har bir

xonadondan olinadigan «xonashumor» va jon boshidan olinadigan «sarishumor» soliqlariga barham bergan. «Amr etdimki, deb yozgan edi Temur «Tuzuklar»da, - raiyyatdan mol-xiroj yig'ishda ularni og'ir ahvolga solishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo'yishdan saqlanish kerak. Negaki, raiyyatni xonavayron qilish davlat xazinasining kambag'allanishiga olib keladi. Xazinaning kamayib qolishi esa, sipohning tarqalib ketishiga sabab bo'ladi. Sipohning tarqoqligi, o'z navbatida, saltanatning kuchsizlanishiga olib boradi» [6. B. 120.].

Shu bois, mamlakatda vaqti-vaqti bilan so'roq, reviziya va taftish, tergov qilish – taxqiq o'tkazib turilgan. Masalan, Markaziiy Osiyo xalqlarining tarixi va harbiy san'atini XIX asrning 30–40 yillarida strategik maqsadlarda o'rgangan rus generali M.I. Ivaninning yozishicha, Temur saltanatida har bir boshliq (amir yoki mingboshi) uchun uch yilga unga tegishli qo'shinlarni ta'minlash joyi (shahar, qishloq, viloyat) berilgan. Bu muddat tugaganidan so'ng aholining boshliqdan mamnun yoki yo'qligini, ularning turmushi yaxshi yoki yomon tomonga o'zgarganligini bilish uchun nazoratchi (inspektor) yuborilgan. Agar aholi boshliqdan mamnun bo'lsa, u bu yerda keyingi muddatga qolgan, mamnun bo'lmasa, xalqdan olingan ortiqcha narsalarning hammasi undan tortib olingan va uch yilgacha hech qanday maosh berilmagan [7. B. 161–162.].

O'z amalini suiiste'mol qilish, poraxo'rlik, doimiy ichkilikbozlik, maishiy buzuvchilik og'ir gunoh hisoblanib, qattiq jazoga tortilishga sabab bo'lganligi xususida aniq tarixiy dalillar ham mavjud. Jumladan, bugungi Eronning shimoli-g'arbidagi Zanjon viloyati shahri – Sultoniyaning hukmdori bo'lmish Mironshoh (Amir Temurning o'g'li) o'ziga yaqin davlat arboblari va amaldorlari bilan birgalikda maishatga berilib, davlat ishlari va raiyyat ahvoli nazoratsiz qolib, zulmu sitam haddan oshadi, davlat xazinasini tugab, aholi og'ir ahvolga tushadi. Bundan xabar topgan Sohibqiron Sultoniyaga lashkar tortib borib, beklar, amirlar, sarkardalar kengashini tuzib, ulardan davlat xazinasini barbad qilib, tunu kun maishatga berilib, raiyyatni og'ir ahvolda qoldirgan hukmdor va uni bu yo'lga boshlagan amaldorlarni jazolash haqida maslahat olgandan keyin, o'z o'g'li Mironshoh va uni bu yo'lga solgan barcha amaldorlarga o'lim jazosi berib, ularning barcha molu mulki musodara qilinsin deb buyuradi. Bunday qat'iy hukmdan dahshatga tushgan uning piri murshidi Sayid Baraka o'rta taga tushib, hukmning ijrosini to'xtatishni iltimos qiladi.

Amir Temur uning iltimosini qabul qilmaydi. Bir necha amaldor o'ldirilgandan keyin, Mironshoh va boshqalarga navbat yetganda, jallodlar uni jazo taxtasiga yotqizib, boshini kesmoqchi bo'ladi. Sayid Baraka Amir Temurga, mazkur hukm amalga oshirilsa, Temuriylar avlodida o'g'lini o'ldirish an'ana tusini olish xavfi borligini uqtiradi. O'shandagina Amir Temur Mironshoh va uning boshqa hamkorlari ustidan chiqargan o'lim hukmini bekor qiladi. Lekin baribir o'g'lini hukmdorlik huquqidan mahrum qiladi. Uning o'rniga ikkinchi o'g'li Umar Mirzoni Sultoniya hukmdori etib tayinlaydi [8. B. 214.].

Yuqoridagi tarixiy dalil Amir Temur davlatning obro'si, sharafiga, manfaati sohasida g'oyat qattiqqo'l bo'lganligidan, ijtimoiy adolat buzilgan hollarda o'zini ham, o'g'li va nevaralarini ham, harbiy boshliqlarni ham ayamaganligidan dalolat beradi.

Ayni paytda shuni ham ta'kidlash zarurki, Sohibqiron saltanatida shubhali va niyati buzuk kishilarning ayblashlarini inobatga olish hamda fuqarolarga tuhmat qilib jazo berish qozilarga qat'iyani taqiqlangan. Ammo biror shaxsning gunohi to'rtta dalil bilan isbot qilinsa, u kishiga qilgan aybiga qarab jazo berilgan yoki jarima solingan.

Yangi tashkil topgan davlatning chegaralarini mustahkamlash, tashqi dushmanlardan himoyalash, karvon yo'llarini qaroqchilardan tozalash, xiyonatchi, sotqin, aldamchilarni jazolash, bo'ysunmaganlarni itoat ettirish, o'zining siyosiy ta'sirini kengaytirish kabi holatlar Amir Temur harbiy yurishlariga sabab bo'lgan edi. Masalan, 1379-yilda Amir Temur O'rusxonni yengib, Oltin O'rda taxtiga To'xtamishxonni o'tqazib, unga ko'p iltifotlar ko'rsatgan edi. Lekin, To'xtamishxon Movarounnahrda bir necha bor talonchilik yurishlarini amalga oshirgach, 1395-yil 15-aprelda Qunduzchada Amir Temur To'xtamish va Oltin O'rda taqdirini bir yo'la hal qilgan edi.

Shu o'rinda mashhur mojar olimi Herman Vamberining "Temurni Chingizxon bilan bir qatarga qo'yib, uni yovuz, o'zboshimcha, mustabid hokim deb atovchilarning fikrlari ikki tomonlama xatodir. U, avvalo, o'zining g'olibona qurolini zamonasining odatiga ko'ra ishga solgan osiyolik hokim edi. Uning dushmanlari ta'kidlagan qabih ishlari va vayronagarchiliklari esa biror jinoyat uchun olingan o'ch edi, xolos. To'g'ri, bu o'ch juda qattiq, lekin shu bilan birga adolatli edi" [9. B. 49.], deb yozganligi bejiz emas.

Taniqli ma'rifatparvar Ismoilbek Gasprinskiy esa "Farangiston maktublari" asarida "Temurning

oqsoqligi nisf (yarim – D.R.) dunyoni zabt etishga mone' bo'lmagan bo'lsa-da, agar u basiratsiz (kaltabin – D.R.), ko'zsiz, ya'ni ilmsiz bo'lsa edi, dunyoning yarmiga molik bo'lmas edi. Johillik va nodonlik bilan futuhot va shijoatning bir yerda jamlanishi mumkin emas" [10. B. 252.], deydi.

Temur o'z siyosiy qarashlari va davlatchilik faoliyatida qanday bo'lmasin nizo va urush chiqarish va shu yo'l bilan mol-dunyo orttirishni maqsad qilib qo'ygan emas edi. Bu holni "Tuzuklar"dagi ayrim tafsilotlardan ham bilib olish mumkin:

"Jahongirlik qilishga kirishganimda, deb yozadi Sohibqiron, -to'rt narsani xotirimda mahkam saqladim. Birinchisi – qaysi mamlakatni zabt etmoqchi bo'lsam, to'g'ri tadbir va kengash bilan ish tutdim. Ikkinchisi – xatoga yo'l qo'ymaslik uchun har bir ishni ko'p o'ylab, sergaklik va ehtiyotkorlik bilan qildim... Uchinchisi – uch yuz o'n uch asil, zotli, shijoatli va aql-farosatli er yigitlarni atrofimga birlashtirdim... To'rtinchisi – qaysi ishni chora-yu tadbir bilan bitirishning iloji bo'lsa, unda qilich ishlatmadim" [11. B. 113-114.].

Amir Temur uning takliflarini rad etib, unga nisbatan har xil ig'volar qilgan hukmdorlarga qarshi daf'atan urush e'lon qilmagan; ular bilan muzokaralar olib borgan, o'z siyosatini va imperiyasining asl maqsadlarini tushuntirishga harakat qilgan. Bu tadbirlarning foyda bermasligiga ko'zi yetgandagina jang harakatlari haqida amirlari bilan maslahat qilgan, ularning maslahatlari bilan ish tutgan. Usmoniylar imperiyasi sultoni Boyazid Yildirim, Oltin O'rda hukmdori To'xtamishxon bilan janglar shunday hodisalarga misol bo'la oladi.

Amir Temur qaysi sabablarga ko'ra jang qilgan va qaysi mamlakatni zabt etgan bo'lmasin, u yerda zudlik bilan o'zining asosiy maqsadini hayotga tatbiq etishga kirishgan. Mamlakat aholisining holini so'ragan, olimu fozillarni siylab, ularning ijodlari uchun keng sharoitlar yaratgan, adolat va tinchlik o'rnatgan, obodonchilik sohasiga katta e'tibor bergan. Aslida urushlar tarixi va ularning oqibatlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, odatda urushda qo'li baland kelib, g'olib chiqqan taraf obodonlashtirishga qo'l urmagan.

Mustaqil O'zbekistonning Pokiston Islom Respublikasida birinchi favqulodda va muxtor elchisi bo'lgan, professor N.Y. G'oyibov qayd etganidek, "urushlarning bu «qonuni» Amir Temur faoliyatida tanazzulga uchragan. Sohibqiron urushlar tufayli ishdan chiqqan xalq xo'jaligini tiklashni, vayronalarni obod etishni, xalq chekkan aziyatlarni davolashni, garchand u g'olib sarkarda bo'lsa-da, o'zining

muqaddas burchi deb tushunadi va unga amal qiladi. Sohibqironning qay bir joydan bir g'isht olsam, o'rniga o'n g'isht qo'ydirdim, bir daraxt kesdirsam, o'rniga o'nta ko'chat ekdirdim, degan so'zlari bejiz aytilmagan" [12. B. 22.].

«Men yaqin vaqtlarda jahon miqyosida iqtidor, boylik va saxovat sohasida Temurga teng keladigan podshoh kelishi mumkin emas deb o'ylayman» [13.], deb yozib qoldirgan Sultoniya yepiskopi qayd etganidek, Amir Temurning jang qoidalariga binoan, urushsiz taslim bo'lgan shaharlarda biron-bir navkar biron bir kimsaga, xususan, ayol kishiga tajovuz qilsa yo bironing molini tortib olsa, bunday askar o'ldirilgan.

Haqiqatdan ham Amir Temur 150 yillik qaramlikdan so'ng davlat mustaqilligini tikladi; o'z davrida mavjud shariat, tuzuklar asosida jamiyat hayotini boshqarishni yo'lga qo'ydi; markazlashgan davlat tizimini yaratdiki, o'z zamonasi uchun bu dunyo miqyosidagi taraqqiyparvar hodisa hisoblangandi; iqtisodiy munosabatlar (dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq) rivoji uchun barcha ichki va tashqi sharoitlarni barpo etishga qattiq kirishdi; ijtimoiy munosabatlarni (soliq tizimi, mulkchilik, turli ijtimoiy tabaqalar manfaatini nazarga olish va hokazo) muhim deb bildi; hukmronligining dastlabki kunlaridan to umrining oxirigacha fan va madaniyat ravnaqiga alohida diqqat bilan qaradi; o'z davri shart-sharoitiga ko'ra tashqi siyosatda qat'iy va faol hamda maqsadga muvofiq ravishda harakat qilib, davlatni saltanat mavqeiga olib chiqdi; o'lkani dunyoning eng buyuk siyosiy, iqtisodiy, madaniy markaziga aylantirdi; asosida yakkahukmronlik mazmuni yotgan jamiyat boshqaruvida birinchi rahbar qanday bo'lishi kerakligini namoyon etib ketdi [14. B. 173.].

Amir Temur siyosiy qarashlarining shakllanishiga shubhasiz, so'fiylikning Naqshbandiya tariqati kuchli ta'sir ko'rsatgan. Movarounnahrda hali bu tariqatning shuhrati keng tarqalmagan kezlardayoq sohibqiron bu ta'limot asoslaridan boxabar bo'lgan hamda uni o'z davri mafurasining asosi etib tasdiqlagan. Qolaversa, «Tuzuklar»da ilgari surilgan siyosiy qadriyatlar ham naqshbandiylik g'oyalari bilan uzviy bog'lanib ketgan. Masalan, davlat siyosatini belgilashda va uni amalda hayotga tatbiq etishda naqshbandiyaning «rosti-rusti» qoidasi asos qilib olingan. «Rosti-rusti» haqiqat – tartib, haqiqat – adolat ma'nosida bo'lib, uning hayotda qaror topishi odil jamiyatning tasdiq etilishini ta'minlashi lozim, degan ma'noni bildirardi.

Naqshbandiya tariqati g'oyalari bilan pishitil-

gan davlat siyosati va mafkurasining xalq hayotiga dadillik bilan uzluksiz ravishda joriy etilishi tez orada o'zining ijobiy samarasini namoyon etdi.

Professor N.Y. G'oyibov o'rinli ta'kidlaganidek, bu hodisa dastavval odamlar, xususan, yoshlar o'y-fikrlarida ravshan ko'zga tashlandi, mamlakatda imoni but, islom diniga sodiq, shu bilan birga, ilm va bilimga o'ch, mehnatga shay, kasb-hunar shaydosi, buyuk bunyodkorlik ishlariga astoydil bel bog'lagan yangi avlod o'sib yetishgan edi. Bu avlodning ezgu niyati yurti obod etish, shahar va qishloqlarni gullab-yashnatish, hunarmandchilikning dong'ini oshirish, bog'-bo'stonlar yaratish va hokazo savob ishlar bo'lib, butun sa'y-harakatlari ana shu niyatlarni yuzaga chiqarishga safarbar etilgan edi [15. B. 19].

Xo'sh, Amir Temur ilgari surgan va amalga oshirgan siyosiy doktrinaning mazmun-mohiyati to'g'risida qanday xulosa chiqarish mumkin? Temurning davlat va jamiyatni idora qilish to'g'risidagi ta'limoti markazlashgan qudratli davlatning o'ziga xos konstitutsiyasi sifatida temuriylar va boburiylar saltanatining g'oyaviy-mafkuraviy asosi bo'lib xizmat qilgan.

Bu qoidaga amal qilgan Sharq hukmdorlaridan Shoh Jahon (1628-1657), Muhammad Alixon (1821-1842), Abdulahadxon (1885-1910) «Tuzuklar»dan ko'chirmalar olishgan va qo'llanma sifatida foydalanishgan.

Kezi kelganda shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, Amir Temurning harbiy san'ati nafaqat chor Rossiyasining bosqinchi zobitlari tomonidan, balki bolsheviklar tomonidan ham chuqur o'rganilgan. 1918-yilda tashkil etilgan «Qizil komissarlar kurslari»da Amir Temurning harbiy san'ati alohida o'rgatilgan. Shu tufayli ham mazkur kurslarda tahsil olgan Mixail Frunze, Arkadiy Gaydar kabi sarkardalar Sohibqiron Temur shaxsini juda hurmatlaganlar va har ikkilari ham to'ng'ich o'g'illariga «Temur» deb nom qo'yganlar [16. B. 7-8.].

Biroq o'lkamiz Rossiya tomonidan istilo qilingach ham, sovet tuzumi davrida ham Amir Temur shaxsiyatini yerga urish, uni asosan bosqinchi sifatida talqin etish urf bo'ldi. Istilochilarning Temur shaxsiyati va siyosiy faoliyatiga nisbatan qiziqishlaridan ko'zlagan asosiy maqsadlari – qanday qilib Turkistonni bosib olish va tasarrufda tutib turish mumkin, degan savolga javob qidirishga qaratilganligini unutmasligimiz lozim.

Akademik Akmal Saidov aytganidek, «Sohibqironning nuroniy qiyofasidan birinchi bo'lib bunday qalin va qora pardani ko'tarib tashlagan jasoratli olim, akademik Ibrohim Mo'minov bo'ldi. Undan keyin olimning mumtoz shogirdlaridan

biri, O'zbekiston tarixi bilimdoni, akademik Bo'riboy Ahmedov Sohibqiron haqida chuqur ilmiy asarlar yozdi, uning «Tuzuk»larini nashr qildirib, vatan tarixining porloq sahifalarini yoritib berdi. Shuningdek, Temuriylar davrini yoritishda iste'dodli mehnatkash olim Turg'un Fayziyevning xizmatlari va yozgan asarlari ham katta ahamiyatga ega" [17. B. 7-8.].

Xulosa qilib aytganda, "Temur tuzuklari"da ifoda etilgan sohibqironning ijtimoiy-siyosiy

qarashlari o'ziga xos kodeks, ya'ni davlat va uni idora qilish normalari, qoidalarini to'plami bo'lib, ularda ilgari surilgan g'oyalar hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. 1996-yilda YUNESKO tashabbusi bilan Amir Temur tavalludining 660 yilligi keng nishonlangani, ko'plab xorijiy tillarda unga bag'ishlangan mingdan ziyod ilmiy va badiiy asarlar yaratilgani har bir vatandoshimiz qalbida faxr-iftixor tuyg'usini uyg'otadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Izoh: Sharafuddin Ali Yazdiy "Zafarnoma"da qayd etishicha hukmdor Tumanaxonning egizak o'g'illaridan Qabulxon avlodlariga xonlik, Qochuli avlodlariga esa amir (sarkarda) lik huquqi berilganligi to'g'risida yozma qaror bo'lgan, O'qtoyxon naslidan bo'lmish Ali Sulton hokimiyatga kelganida (taxm. XIV asr boshi) mazkur ahdnomani yo'q qilgan. Demak, Chingizxon Qabulxon nasliga, Amir Temur esa Qochuli nasliga mansubdir.
2. *Bo'riev O.* "Tarixi Arba' ulus" asarining ma'naviy-qiyosiy tahlili / "Amir Temur va temuriylar davri tarixi masalalari" / Akademik Bo'riboy Axmedov tavalludining 100 yilligiga bag'ishlangan Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. Temurniylar tarixi davlat muzeyi. (Toshkent, 18-oktabr 2024-yil). – T., 2024. – B. 16–17.
3. Izoh: Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma"si va G'iyosiddin Alining "Hindiston g'azovoti kundaligi" ortiqcha takalluf, jimjimadorlikdan xoliligi va ravon uslubi bilan e'tiborga tushgan tarixiy asarlardir.
4. *Uvatov U.* "Sohibqiron arab muarrixlari nigohida". – T., 1997. – B. 133.
5. Temur tuzuklari /So'zboshi muallifi va mas'ul muharrir Muhammad Ali, forschadan tarj. A. Sog'unliy va H. Karomatov. – T., 2005. – B. 65.
6. Temur tuzuklari /So'zboshi muallifi va mas'ul muharrir Muhammad Ali, forschadan tarj. A. Sog'unliy va H. Karomatov. – T., 2005. – B. 120.
7. *Ivanin M.I.* Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur. (ruschadan A. Mahkamov tarjimasi.). – T., 1994. – B. 161–162.
8. *Saidov A.X., Jo'zjoniy A.SH.* "Sharq sivilizatsiyasi: inson va huquq" (o'tmish va hozirgi zamon). – T., 2005. – B. 214.
9. *Mo'minov I.* A. Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli. – T., 1993. – B. 49.
10. *Ismoilbek Gasprinskiy.* (Gasprali) Hayot va mamot masalasi: (Tanlangan asarlar to'plami). – T., 2006. – B. 252.
11. Temur tuzuklari /So'zboshi muallifi va mas'ul muharrir Muhammad Ali, forschadan tarj. A. Sog'unliy va H. Karomatov. – T., 2005. – B. 113–114.
12. *G'oyibov N.* Amir Temur davri ma'naviyati. – T., 2001. – B. 22.
13. *Saidov A.X., Jo'zjoniy A.SH.* Sohibqironning olamshumul tafakkuri / e-tarix.uz Murojaat sanasi: 02.01.2025.
14. *Azamat Ziyo.* O'zbek davlatchiligi tarixi: (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar) // Mas'ul muharrir: B. Ahmedov/. – T., 2000. – B. 173.
15. *G'oyibov N.* Amir Temur davri ma'naviyati. – T., 2001. – B. 19.
16. *Ivanin M.I.* Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur. Toshkent. «Fan», 1994. – B. 7-8.
17. *Saidov A., Abdulhakim Juzjoniy.* Sohibqironning olamshumul tafakkuri / e-tarix.uz Murojaat sanasi: 02.01.2025.

УСЛОВИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ГОТОВНОСТИ КУРСАНТОВ К САМООБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В АКАДЕМИИ МВД РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

М. Т. Рустамов,

заместитель начальника кафедры Военной подготовки
Академии МВД РУ, доцент

Аннотация.

В статье рассматриваются факторы и условия формирования готовности курсантов к самообразовательной деятельности в процессе обучения в вузе.

Ключевые слова:

модель, структура, содержание, компоненты, критерии, самообразование, деятельность.

Annotatsiya.

Maqolada kursantlarning universitetda o'qish jarayonida o'z-o'zini tarbiyalash faoliyatiga tayyorgarligini shakllantirish omillari va shartlari ko'rib chiqiladi.

Tayanch so'zlar:

model, tuzilma, mazmun, komponentlar, mezonlar, o'z-o'zini tarbiyalash, faoliyat.

Annotation.

The article examines the factors and conditions for the formation of cadets' readiness for self-educational activities during their studies at a university.

Key words:

model, structure, the maintenance, components, criteria, self-education, activity.

В условиях модернизации высшего юридического образования в вузах главными его целями являются, во-первых, подготовка будущих сотрудников, уровень которых соответствует современному уровню и состоянию системы МВД Республики Узбекистан, во-вторых, научные обоснованные решения путей и способов совершенствования тактико-специальной подготовки сотрудников ОВД, в-третьих, разработка психолого-педагогических основ профессиональной подготовки, обеспечивающих формирование гармонично развитой личности. Особое место в достижении поставленных целей и решении задач высшего юридического образования занимает организация самообразовательной деятельности курсантов, будущих сотрудников ОВД. В самообразовании человек – и субъект, и объект деятельности, что вызывает активную рефлексию и определяет своеобразие структурных компонентов этой деятельности. К ним относятся собственное целеполагание, внутренняя потребность в самообучении, самоорганизации познавательной деятельности. При этом основной целью считается усвоение знаний,

приобретение навыков и умений, необходимых для дальнейшей профессиональной деятельности. В нынешних социально-экономических условиях самообразование оказывается одним из наиболее эффективных путей включения в общественную жизнь самых различных групп нашего общества, так как оно оказывается, чуть ли не единственным способом компенсации недостаточных возможностей профессионального роста, которые предоставляет государство в рамках учебных заведений системы МВД [2, с. 39]. Механизм самообразования приводится в действие противоречием между сформированным активным познавательным интересом и уровнем развития личности, недостаточным для удовлетворения этого интереса. Непосредственным побуждающим моментом к самообразованию будущего сотрудника органов внутренних дел является изменение его отношения к себе и к своей деятельности, осознание необходимости выходить за пределы заданного, творчески преобразовывать себя. Сегодня особую значимость приобретает разработка целостной системы условий, необходимых для формирования умений и

навыков самообразовательной деятельности курсантов в период обучения в вузе МВД Республики Узбекистан, как части их профессиональной деятельности. Формирование готовности курсантов к самообразовательной деятельности учитывает факторы и условия, которые необходимо учитывать при разработке организационно-педагогических условий. В их число входят:

психологические условия (создание в процессе обучения атмосферы, направленной на стимулирование профессионального роста, самореализации в учебном процессе, ориентация на профессиональную карьеру, обеспечение возможности предлагать оригинальные идеи, реализации профессионального мышления, правового сознания и др.);

педагогические условия предполагают мотивационно-личностную заинтересованность курсантов в самообразовании, стимулирование к овладению умениями и навыками профессиональной деятельности, способствующими саморазвитию и самореализации;

создание и сохранение эмоционального фона, направленного на самообразовательную деятельность, создание условий овладения современными технологиями профессиональной деятельности, учет индивидуальности личности в процессе учебной и самостоятельной деятельности, обеспечение курсантов необходимым дидактическим и методическим материалом, способствующему формированию самообразовательной деятельности;

профессиональные условия представляют содержание и структуру учебной дисциплины "Тактико-специальная подготовка" по специальности "Юриспруденция" для вузов МВД Республики Узбекистан юридического профиля [4, с. 32].

Приобретение и расширение самообразовательной деятельности по приобретению понятийных знаний в области:

топографических карт и соответствующих планов, их классификации и назначений, практическое применение их при решении оперативно-служебных задач (представление о форме и размерах Земли, геометрическая сущность проекции Гаусса, порядок определения номенклатуры смежных листов карт, сборные таблицы и порядок пользования картами при составлении заявки

на карты различных масштабов и др.); изучение материала, включающего понятия численных и линейных масштабов карты, их практическое применение при решении оперативно-служебных задач, их условные знаки по их значению и свойствам, цветовое оформление топографических карт, уяснение сущности изображения рельефа, определения абсолютных высот и др.;

изучения и освоения методов обнаружения и измерения радиоактивных излучений, умение самостоятельно изучить назначение, принцип действия приборов радиационной разведки местности, порядка проведения измерений уровня радиации на местности приором ДП-5, овладение методиками работы с приборами контроля радиоактивного облучения (порядок проведения измерений приорами ДП-22В, ИД-1), овладение последовательностью действий определения отравляющих веществ в воздухе, на местности, выявления радиационной и химической обстановки, уяснение алгоритма оценки химической обстановки при разрушении (аварии) объектов, имеющих сильнодействующие химические вещества, действия по использованию средств индивидуальной и коллективной средств защиты;

приобретения навыков в обнаружении взрывных устройств, приемов и способов их поиска и обнаружения, уяснения последовательности распознавания и обезвреживания взрывных устройств и действий сотрудников ОВД при обнаружении подозрительных предметов; по охране общественного порядка и безопасности, действий в различных ситуациях оперативной обстановки по охране общественного порядка и безопасности. Развитии самостоятельности является необходимой основой для принятия решений в служебно-боевой деятельности и работе старшего наряда, осуществляющего блокирование района при нахождении в нем преступников, по их розыску и задержанию [6, с. 157].

Важную составляющую концептуальной модели составляют средства обучения, которые являются инструментарием процесса самообразования. При структурировании процесса формирования готовности курсантов к самообразовательной деятельности особую группу составляют технические средства, включающие компьютерные сети, интерактивное видео, средства медиаобразования и

др. Будущая профессиональная деятельность курсантов связана с умением целенаправленно работать с информацией и использовать ее для получения, обработки, передачи и хранения с помощью компьютерных информационных технологий и современных технических методов и средств. Каждый курсант должен владеть информационной технологией, то есть комплексом методов, способов и средств, обеспечивающих обработку, передачу и отторжение, восприятие и хранение информации, ориентирующей на повышение эффективности обучения. А это означает, что современный сотрудник органов внутренних дел должен соответствовать требованиям информационной компетентности, информационной культуры и информационной деятельности нашего времени, должен знать: информационно-поисковую систему (ИПС) (information retrieval system); самостоятельно овладеть совокупностью поискового языка, средствами и правилами перевода текстов на этот язык. В зависимости от видов информационных массивов, на работу с которыми должны быть ориентированы курсанты, они должны различать документографические, фактографические, документально-фактографические информационно-поисковые системы [11, с. 440]. В качестве дополнительных средств должны уметь использовать операции контрольных и корректирующих действий.

Важная роль принадлежит определению компонентов, критериев и показателей оценки конечных и промежуточных результатов готовности курсантов к самообразовательной деятельности. Условия формирования готовности курсантов включают следующие взаимосвязанные и взаимообусловленные компоненты: профессионально-целевой, мотивационно-личностный, организационно-методический, результативно-оценочный.

Профессионально-целевой компонент модели отображает формирование учебно-познавательных и профессиональных интересов будущих сотрудников полиции. А именно:

- развитие умений самостоятельно анализировать, обобщать, и систематизировать факты и явления, устанавливать причинно-следственные связи;

- усвоение теоретических знаний в области права;

- самостоятельное овладение разнообрази-

- ем форм, методов, технологий, применяемых в профессиональной деятельности в соответствии с нормами права для решения конкретных профессиональных задач;

- развитие умений принимать осознанные самостоятельные решения в профессиональной деятельности;

- активизация самообразовательной деятельности к решению профессиональных задач;

- развитие навыков самообразовательной деятельности в сфере профессиональной подготовки курсантов;

- развитие основ прогнозирования перспектив саморазвития и самореализации.

Для обоснования мотивационно-личностного компонента модели важно выявить специфику мотивационного сопровождения процесса формирования готовности курсантов к самообразовательной деятельности, а также личностного подхода в профессиональной ориентированности, функциональности, ситуативности при осуществлении подготовки будущих сотрудников ОВД, определить основные профессиональные компетенции, необходимые выпускнику высшего учебного заведения МВД Республики Узбекистан.

Организационно-методический компонент формирования готовности курсантов к самообразовательной деятельности включает совокупность профессионально-образовательных технологий:

- контекстно-прикладные (формируют навыки определенного вида профессиональной деятельности на основе освоения алгоритмов решения конкретных задач);

- интегративно-модульные (обеспечивают междисциплинарные межпредметные связи, формируют и развивают профессиональные знания, умения, компетенции будущего сотрудника ОВД);

- интерактивные (обеспечивают эвристическую основу самообразовательной деятельности);

- проектные (стимулируют познавательную активность, формируют культуру самообразовательной деятельности и др.).

Результативно-оценочный компонент формирования готовности курсантов к самообразовательной деятельности включает осуществление мониторинга и оценки деятельности будущих сотрудников органов внутренних дел. В Таблице представлены компоненты и критерии формирования го-

товности курсантов к самообразовательной деятельности в процессе обучения в вузе МВД Республики Узбекистан.

Профессионально-целевой:

осознание цели и задач самообразовательной деятельности в профессиональной подготовке;

развитие умений самостоятельно анализировать, обобщать, и систематизировать факты и явления, устанавливать причинно-следственные связи;

самостоятельное усвоение профессиональных теоретических и практических знаний, стремление к самостоятельной работе;

овладение разнообразием форм, методов, технологий, самообразовательной деятельности;

развитие умений принимать осознанные самостоятельные решения в профессиональной деятельности;

активизация самостоятельного подхода к решению профессиональных задач;

развитие навыков самообразовательной деятельности в сфере профессиональной подготовки;

приоритетные ориентиры профессиональной самореализации;

овладение интерактивными методами самообразования (интернет, электронное программное обеспечение и др.) [8, с. 256].

Таким образом, анализируя самообразовательную деятельность, мы связываем её со следующими компетенциями курсантов:

умением находить, перерабатывать и творчески использовать необходимую информацию для успешной профессиональной деятельности;

умением реализовать самообразовательные навыки в практико-ориентированной деятельности;

умением ставить и решать конкретные профессиональные задачи в служебной деятельности.

Компоненты и критерии формирования готовности курсантов к самообразовательной деятельности

Компоненты	Критерии
Мотивационно-личностный	мотивационная и волевая готовность к самообразовательной деятельности; осмысленное обобщенно-ориентировочное и действенно-практическое освоение курсантами самообразовательной деятельности; самостоятельная выработка аргументированных взглядов, убеждений и принципов профессионального развития личности; мотивации на профессиональное саморазвитие; познавательное мышление и познавательная активность
Организационно-методический	совокупность самообразовательных навыков в практико-ориентированной деятельности; владение технологиями самообразования и саморазвития; освоения основами самостоятельной работы, ориентированной на овладение алгоритмом решения

	конкретных профессиональных задач; способности самостоятельного использования межпредметных и междисциплинарных связей; овладение необходимыми компетенциями в саморазвитии, самореализации через самообразовательную деятельность
Результативно- оценочный	самостоятельная оценка степени готовности к профессиональной деятельности; владение методиками оценки и самооценки своего профессионального уровня; технологии мониторинга профессионального развития и готовности к исполнению профессиональных обязанностей; самостоятельное фиксирование изменений, происходящих в уровнях готовности курсантов к профессиональной деятельности; осуществляется оценка результативности процесса; осмысление полученных результатов и выработка самостоятельных корректирующих воздействий в достижении результатов саморазвития

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Антология военно-педагогической мысли России: в 12 ч. / Под ред. В.И. Пронина. – Новосибирск: НВВКУ, 1992.
2. Лопуха А.Д. Теоретические основы современной системы патриотического воспитания военных кадров. – Новосибирск: НГУ, 2001.
3. Теория и практика воспитания военнослужащих. Под редакцией Н.И. Резника. – Москва: 12 ЦТ МО РФ, 2005.
4. Калугин Ю.Е. Самообразование, формирование готовности к профессиональному самообразованию. – Челябинск: ЮУрГУ, 2000.
5. Сычкова Н.В. Воспитание творческого отношения к усвоению профессиональных знаний у студентов вуза в исследовательской деятельности. – Магнитогорск: МаГУ, 2000.
6. Вишневская Л. П., Вишневская Г. В. Самообразование как психолого-педагогическая проблема // Известия ПГПУ им. В.Г. Белинского. – 2009. – 12 (16). С. 156 – 158.
7. Самообразование: Педагогический энциклопедический словарь. – Москва: Большая российская энциклопедия, 2003.
8. Самообразование. Большой психологический словарь. – Санкт-Петербург: Прайм-Евроннак; Москва: ОЛМА-ПРЕСС, 2004.
9. Баньковская Н.И. Исследование мотивационных характеристик самообразования студентов // Известия ТулГУ. Гуманитарные науки. – 2010. – №2. С. 282 – 294.
10. Лебедева В.П. Самообразование и пути профессионального роста учителя новой школы. Психодидактика в теории и практике развивающего образования. –Черноголовка, 2011.
11. Фомашина И.В. Организация самообразования будущих военных специалистов // Известия РГПУ им. А.И. Герцена. – 2007. – №45. – С. 433 – 466.

FUQAROLIK HUQUQI FANINI ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARIGA O'QITISHNING AHAMIYATI

X. M. QILICHEV

IIV Akademiyasi Fuqaroviy-huquqiy fanlar kafedrasini boshlig'i vazifasini bajaruvchi, yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Annotatsiya.

Mazkur ilmiy maqolada Ichki ishlar vazirligi tizimidagi ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan kursant va tinglovchilariga fuqarolik huquqi fanini o'qitishning ahamiyati tahlil qilinadi. Kursant va tinglovchilarning huquqiy bilimini mustahkamlash, ularning kasbiy malakasini oshirish va amaliyotda huquqiy normalarni to'g'ri qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish mazkur fanning asosiy vazifalaridan biri ekanligi ko'rsatiladi. Shuningdek, maqolada milliy va xorijiy olimlarning fuqarolik huquqi fanini o'qitilishiga oid nazariy qarashlari tahlil qilinib, zamonaviy o'qitish usullari va ularning samaradorligi muhokama qilinadi.

Tayanch so'zlar:

fuqarolik huquqi, ichki ishlar organlari, kursantlar, tinglovchilar, huquqiy bilim, huquqiy madaniyat, ta'lim usullari.

Аннотация.

В данной статье анализируется важность преподавания науки гражданского права курсантам и слушателям, обучающимся в учебных учреждениях МВД. Указывается, что одной из основных задач данного предмета является укрепление правовых знаний курсантов и слушателей, повышение их профессиональной квалификации и формирование навыков правильного применения правовых норм на практике. В статье также анализируются теоретические взгляды отечественных и зарубежных ученых на преподавание гражданского права, рассматриваются современные методы обучения.

Ключевые слова:

гражданское право, органы внутренних дел, курсанты, слушатели, правовые знания, правовая культура, методы обучения.

Annotation.

The scientific article analyses the significance of teaching of civil law to cadets and listeners studying at the educational establishments in the system of the Ministry of Internal Affairs. The article explains that one of the main tasks of this science is to strengthen the legal knowledge of cadets and listeners, improve their professional qualifications and form the skills of proper application of legal norms in practice. The article analysis the theoretical views of national and foreign scholars on teaching of civil law and discusses modern teaching methods and their effectiveness.

Key words:

civil law, internal affairs bodies, cadets, listeners, legal knowledge, legal culture, teaching methods.

Hozirgi vaqtda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar har bir fuqaroning hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan bir qatorda, iqtisodiy jinoyatlarda ham o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Ular tobora ko'payib yanada murakkab bo'lib bormoqda. Jinoiy uyushmalar o'z faoliyatlarini yashirish uchun fuqarolik-huquqiy mexanizmlardan foydalanmoqda. Huquqni muhofaza qilish organlari ko'pincha fuqaroviy, ma'muriy va jinoiy huquqbuzarlik o'rtasidagi farqni aniqlash muammosiga duch keladi. Muammoni muvaffaqiyatli hal qilishning kaliti bu ichki ishlar organlarining amaliy faoliyatida fuqarolik qonunchiligi normalarini mohirona va to'g'ri qo'llash hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

2-yanvar 2023-yildagi "Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-10-son qaroriga muvofiq, Ichki ishlar vazirligi Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash departamentining asosiy vazifalaridan biri ichki ishlar organlari uchun professional kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning doimiy ravishda malakasini oshirish jarayonini tashkil etish hisoblanadi [1].

Shu sababli, ularning huquqiy bilimi va malakasini doimiy ravishda yuksaltirib borish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ularning fuqarolik huquqi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi xizmat faoliyatida yuzaga kelishi

mumkin bo'lgan muammolarni samarali hal etishda muhim o'rin tutadi. Ichki ishlar vazirligi tizimidagi ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan kursant va tinglovchilar – kelajakda huquqni muhofaza qiluvchi organlari xodimi sifatida jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashdagi shaxslardir.

Fuqarolik huquqi fanini kursant va tinglovchilarga o'qitish esa nafaqat ularning nazariy bilimlarini mustahkamlash, balki amaliyotda huquqiy munosabatlarni to'g'ri tartibga solish ko'nikmalarini shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega. Kursant va tinglovchilar fuqarolik huquqi bo'yicha mukammal bilimga ega bo'lsa, kelajakda xizmat faoliyatida fuqarolik-huquqiy nizolarni hal qilish, aholining huquqiy ongini oshirish va jamiyatda qonunbuzarliklarning oldini olishda samarali harakat qila oladilar. Shu bois, Ichki ishlar vazirligi tizimidagi ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan kursant va tinglovchilarga fuqarolik huquqi fanini tizimli, metodik va innovatsion yondashuvlar asosida o'qitishning tashkil etilishi talab etiladi.

Fuqarolik huquqi fanini ichki ishlar organlari xodimlariga o'qitishning ahamiyati nazariy va amaliy tahlil etish jarayonida, qiyosiy tahlil, nazariy modellashtirish, induksiya va umumlashtirish usullari qo'llanildi. Milliy qonunchilik normalari xalqaro va xorijiy davlatlar qonunchiligi bilan qiyosiy o'rganildi, ular o'rtasidagi umumiylik va farqlar aniqlandi. Bunda ayrim xorijiy mamlakatlarda qo'llanilayotgan huquqiy mexanizmlarning samaradorligi baholanib, milliy qonunchilikka implementatsiya qilish imkoniyatlari bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

So'nggi yillarda iqtisodiy jinoyatlar sonining barqaror o'sishi kuzatilmoqda. Shu bilan birga, ularni fosh etish va tergov qilishda qator jiddiy muammolar yuzaga kelmoqda. M.N.Kuzbagarovning "Fuqarolik-huquqiy bilimlarni qo'llash hatto jinoyat ishi qo'zg'atilishi bosqichidahan,shujumladanjinoyatto'g'risidagi ma'lumotlarni tekshirishda ham zarur [2], degan fikrga qo'shilish kerak. Iqtisodiy sohadagi jinoyatlar (jumladan, tadbirkorlik, bank, kredit va sug'urta sohalari) bo'yicha dastlabki tekshiruv o'tkazishda tezkor xodimlar va tergovchilar fuqarolik-huquqiy munosabatlar to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishi kerak. Xususan, ular ushbu huquqiy munosabatlarning obyekti va subyektlarini, shartnoma va fuqarolik-huquqiy

delikt tushunchasini, bitimning haqiqiyliги shartlari hamda uning soxtaligi belgilari haqida bilimga ega bo'lishi zarur. Shuningdek, yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi bo'yicha ham xabardor bo'lishi kerak. Dastlabki tekshiruv materiallarida jinoyat alomatlari mavjudligi haqidagi dalillar bo'lishi mumkin. Masalan, bitimning noqonuniy xususiyati, uning soxtaligi, buxgalteriya yoki boshqa hisobot hujjatlarida soxtalashtirish faktlari, firmani soxta shaxslar nomiga ro'yxatdan o'tkazish, yetkazilgan zarar va iqtisodiy jinoyatning obyektiv tomoniga xos bo'lgan boshqa holatlar. Bunday ma'lumotlarni aniqlash va tekshirish jinoyat ishini qo'zg'atish yoki uni qo'zg'atishdan bosh tortish haqida asoslangan qaror qabul qilish imkonini beradi [3, 52 c].

Huquqni muhofaza qilish organlari, xususan, ichki ishlar organlari faoliyatida fuqarolik qonunchiligi normalarini amalga oshirish ikki asosiy yo'nalishda namoyon bo'ladi:

1. Birinchi yo'nalish – ichki ishlar organlari xo'jalik yurituvchi subyektlar sifatida faoliyat yuritishi. YA'ni, ular boshqa fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchilari bilan teng huquqli subyekt sifatida mulkka egalik qiladi, uni boshqaradi va turli majburiyatlarda ishtirok etadi. Ichki ishlar organlarining bu sohadagi faoliyati huquqiy jihatdan puxta o'rganilgan, qonunchilikni qo'llash amaliyoti shakllangan, muammoli masalalar muhokama qilinib, sud amaliyoti va nazariy asoslar ishlab chiqilgan.

2. Ikkinchi yo'nalish – fuqarolik huquqi va fuqarolik qonunchiligi normalarining ichki ishlar organlari tomonidan to'g'ridan-to'g'ri ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash, huquq-tartibotni saqlash va qonuniylikni ta'minlashda qo'llanilishi. Bunday huquqiy normalar jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash, to'xtatish va tergov qilish jarayonlarida samarali qo'llanilishi mumkin.

Afsuski, ikkinchi yo'nalish hozirgacha yetarlicha o'rganilmagan, biroq unga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Xususan, iqtisodiy jinoyatlarning o'sishi bu sohadagi bilim va malaka oshirishni talab qilmoqda, chunki bunday jinoyatlarga qarshi kurashish uchun yangicha yondashuv va huquqiy mexanizmlar zarur.

Ma'lumki, ichki ishlar organlari oldiga qo'yilgan asosiy vazifalardan biri fuqarolarning hayoti, sog'lig'i, huquq va erkinliklarini himoya qilish, jinoyatchilikka qarshi kurash, jamoat tartibi va mulkni muhofaza qilish, shuningdek,

jamoat xavfsizligini ta'minlashdan iboratdir [4]. Shuningdek, Ichki ishlar organlari o'z faoliyatini fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ushbu huquqlar, erkinliklar va qonuniy manfaatlarini hurmat qilish asosida amalga oshiradi [5, 18-19-b].

Hozirgi vaqtda iqtisodiy jinoyatlar va huquqbuzarliklar sonining o'sishi kuzatilmoqda. Iqtisodiy jinoyatlarning strukturasi, kriminologik va kriminalistik xususiyatlari shuni ko'rsatmoqdaki, ko'p hollarda bunday noqonuniy harakatlar fuqarolik-huquqiy shaklga solinadi, bu esa ularga qonuniy ko'rinish berishga xizmat qiladi.

Fuqarolik-huquqiy normalar iqtisodiy va unga yaqin bo'lgan jinoyatlarni sodir etish vositasi sifatida ham, davlat tomonidan jinoyatlarga qarshi qo'llaniladigan choralardan qochish usuli sifatida ham ishlatilishi mumkin. Bunday hollarda, aybdor shaxslar davlat ta'sir choralaridan qutulish uchun fuqarolik-huquqiy munosabatlardan foydalanishadi [6].

Shu munosabat bilan ta'kidlash zarurki, fuqarolik qonunchiligi normalari va ba'zi hollarda doktrinal qoidalar ichki ishlar organlari tomonidan qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlashda zarur va majburiy shart hisoblanadi.

Tadqiqotning ikkinchi qismida fuqarolik qonunchiligi normalariga alohida e'tibor qaratiladi, chunki ular ichki ishlar organlari tomonidan jinoyat va huquqbuzarliklar haqidagi xabarlarini tekshirish, jinoyatlarni tergov qilish hamda ma'muriy huquqbuzarlik ishlarini yuritishda qo'llanilishi mumkin va ayrim hollarda qo'llanilishi shartdir.

Fuqarolik huquqining turli institutlari va kategoriyalari orasida ayrimlarining ichki ishlar organlari faoliyatida ahamiyati juda yuqori, hatto prinsipial ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqot doirasida fuqarolik huquqining ichki ishlar organlari faoliyatida tatbiq etilishi mumkin bo'lgan barcha institutlarini qamrab olish maqsad qilinmagan, balki eng muhimlariga e'tibor qaratiladi.

Fuqarolik huquqining eng muhim institutlaridan biri – mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar instituti bo'lib, hozirgi kunda iqtisodiy, xo'jalik va hatto mansabdorlik jinoyatlariga qarshi kurashishda katta ahamiyatga ega.

Fuqarolik huquqining nazariy qoidalari mulk huquqini ikki ma'noda – obyektiv va subyektiv ma'noda – tahlil qiladi.

Obyektiv ma'noda mulk huquqi – bu muayyan shaxsga tegishli bo'lgan mol-mulkka oid huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar majmuasidir. YA'ni, mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqini belgilaydi. Bu kabi huquqiy normalar tizimi turli tarmoqlarga oid va murakkab bo'lib, ular fuqarolik qonunchiligida ham, boshqa tegishli huquq sohalarida ham aks etgan. Fuqarolik qonunchiligida mulk huquqini tartibga soluvchi normalar umumiy, boshqa huquq sohalaridagi qoidalar esa maxsus hisoblanadi, chunki ular mulk huquqining vujudga kelishi, amalga oshirilishi va ayrim hollarda mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqlarining o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi.

Subyektiv ma'noda mulk huquqi esa fuqarolik-huquqiy munosabatlarning ishtirokchisi bo'lgan shaxsga mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish imkoniyatini yaratadigan huquqiy holatdir.

Fuqarolik qonunchiligida mulk huquqi, mulkdorning vakolatlari, mulk huquqining vujudga kelishi va uni amalga oshirish asoslari va tartibi ichki ishlar organlari faoliyatining turli jihatlarida namoyon bo'ladi. Eng sodda va tipik holat – mulkni jinoiy huquqbuzarliklardan himoya qilish mexanizmlari bo'lib, bu mulk huquqining o'ziga nisbatan noqonuniy tajovuzlarning oldini olish va ularga qarshi kurashishni o'z ichiga oladi. Ichki ishlar organlari mulkni jinoiy-huquqiy muhofaza qilish masalalarida fuqarolik qonunchiligi qoidalariga tayanadi. Chunki fuqarolik qonunchiligi mulk huquqi obyektlarini mulkka qarshi jinoyatlar predmeti sifatida belgilaydi [7].

Aytish joizki, jinoyat huquqi fanining ilmiy asoslarida mulkka qarshi jinoyatlar predmeti mulk huquqi obyekti bilan bir xil emasligi aksioma sifatida qabul qilingan.

Bu qoidani izohlashda mulk huquqi obyekti keng qamrovli tushuncha ekani, jinoiy-huquqiy muhofaza esa mulk huquqi obyektlarining ayrim turlariga nisbatan alohida tarzda amalga oshirilishi muhim ahamiyatga ega. Masalan, mol-mulk, intellektual faoliyat natijalari va boshqa mulkiy huquqlar jinoiy himoyaning alohida predmetlaridir.

Shuning uchun mulkka qarshi jinoyatlarning huquqiy tartibga solinishida, asosan, Fuqarolik kodeksida belgilangan "mol-mulk" tushunchasi asosiy ahamiyatga ega, chunki u jinoyat

tajovuzining predmeti hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, fuqarolik qonunchiligi qoidalarini mol-mulkni (jinoiyat predmeti sifatida) tushunish, mulkdorni (jabrlanuvchi sifatida) aniqlash va jinoyatlarga huquqiy baho berish uchun zarur huquqiy asos hisoblanadi [8].

Biroq ichki ishlar organlari faoliyatida mol-mulk va mulk huquqi obyektlari tushunchasigina dolzarb ahamiyat kasb etmaydi. Iqtisodiy jinoyatchilikning o'sishi, yangi shakl va usullardagi jinoyatlar sodir etilishi fonida mulk huquqining boshqa jihatlari ham tobora ahamiyat kasb etmoqda.

Xususan, mulkdorning vakolatlariga alohida e'tibor qaratish lozim. Fuqarolik qonunchiligida mulkdorning huquq va majburiyatlari, ularning hajmi va mazmuni aniq belgilangan. Bir qaraganda, Fuqarolik kodeksida ko'rsatilgan bu qoidalar ichki ishlar organlari faoliyati uchun muhim emasdek tuyulishi mumkin. Ammo bu noto'g'ri tushuncha. Chunki mulk huquqining har bir jihati huquq-tartibotni ta'minlash, iqtisodiy, mansabdorlik va xo'jalikka oid hodisalar haqidagi xabarlarini tekshirishda ichki ishlar xodimlari uchun katta ahamiyatga ega.

Egalik huquqi shaxsga ashyoning tegishlilikini anglatadi. Egalik huquqi mol-mulkdan foydalanish va uni tasarruf etish imkoniyatini belgilaydi. Ko'chmas mulkka nisbatan egalik huquqi yuridik asosga ega bo'lishi, ya'ni belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan bo'lishi kerak. Shu sababli, ichki ishlar organlari ko'chmas mulkka egalik qilish bilan bog'liq ma'lumotlarni tekshirishda vakolatli davlat ro'yxatga olish organiga so'rov yuborishi va xulosalarni aynan rasmiy javoblar asosida shakllantirishi lozim [9]. Masalan, noqonuniy qurilish yoki boshqa xo'jalik faoliyatining qonuniy asoslarini tekshirish jarayonida titulli mulkdor kimligi va uning mulkka bo'lgan huquqi qaysi asosda yuzaga kelganligini aniq tushunish zarur.

Shuningdek, yer uchastkalari, ko'p hollarda o'rmon yerlari va hatto suv havzalari hududlarini o'zboshimchalik bilan egallab olish holatlari ko'paygani tufayli egalik huquqining amaliy tatbiqi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bunday holatlar yuzasidan fuqarolar, jamoat tashkilotlari, davlat hokimiyati va mahalliy boshqaruv organlari tomonidan ichki ishlar organlariga murojaatlar kelib tushadi. Bunday tekshiruvlar davomida ichki ishlar organlari egalik huquqining mavjudligini o'rganishi, tegishli so'rovlar yuborishi va taqdim etiladigan

hujjatlarni tahlil qilishi lozim. Umumiy ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish orqali quyidagi xulosalar shakllantirilishi mumkin:

Shaxs mulkka bo'lgan titulli egalik huquqiga ega va qonunni buzmagani. Shaxs ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan, bu esa ma'muriy-huquqiy choralar ko'rishni talab etadi. Shaxs jinoyat sodir etgan va bu holat jinoiy-huquqiy ta'sir choralari qo'llashni taqozo etadi.

Ichki ishlar organlari faoliyatida qo'llanishi nuqtayi nazaridan mulk huquqi doirasidagi eng qiziqarli va mazmunli huquqlardan biri – foydalanish huquqidir. Fuqarolik huquqi nazariyasiga ko'ra, foydalanish huquqi – bu mulkdorning mulkdan foydalanish, uning foydali xususiyatlaridan bahramand bo'lish va uni xo'jalik muomalasiga jalb qilish imkoniyatidir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, foydalanish huquqi ko'p hollarda mulk huquqini qo'lga kiritishning asosiy maqsadidir. Ya'ni, odamlar ashyoni uni ishlatish va o'zlarining moddiy, ma'naviy yoki boshqa ehtiyojlarini qondirish uchun sotib oladilar. Umumiy qoidaga muvofiq, mulkdor (yoki boshqa qonuniy egasi) o'z mulkidan erkin va o'z xohishiga ko'ra foydalanishi mumkin. Biroq, har qanday qoidaning istisnolari mavjud bo'lib, bugungi kunda ichki ishlar organlari amaliyoti uchun ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu istisno shundaki, mulkdan foydalanish faqat qonunga zid kelmagan va boshqa shaxslarning huquq va manfaatlarini buzmagani holda amalga oshirilishi mumkin. Demak, mulkdor o'z mulkiga egalik qilar ekan, qonunga zid yoki boshqa shaxslarning huquqlariga zarar yetkazadigan faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin emas. Buning eng oddiy va keng tarqalgan misoli – ko'p qavatli uylarda belgilangan vaqtda tinchlik rejimini saqlash talabidir. Hatto uyning mulkdori bo'lsa ham, u faqat belgilangan vaqtda ovoz chiqarishi mumkin, aks holda bu huquqbuzarlik deb baholanadi. Biroq, bundan-da murakkab holatlar mavjud, va quyida fuqarolik huquqining ichki ishlar organlari faoliyatidagi ahamiyatini yaqqol ifoda etuvchi misollar keltiriladi.

Iqtisodiy o'sish va barqarorlikning muhim indikatorlaridan biri – qurilish sohasining rivojlanishi va kengayishidir. Hozirgi holat shuni ko'rsatmoqdaki, qurilish sohasi ma'lum darajada ijobiy dinamikani namoyon etmoqda va qurilish obyektlari soni kundan-kunga ortib bormoqda. Albatta, bu holat jinoiy elementlar e'tiboridan chetda qolmaydi, chunki ayrim

shaxslar ana shunday yo'l bilan qonuniy biznesga kirib kelishga harakat qiladilar. Ko'p hollarda qurilish jarayoni yer uchastkasidan foydalanish qoidalarining buzilishi bilan bog'liq bo'ladi.

Foydalanish huquqi – bu mulkdorning mulkdan qonuniy foydalanish imkoniyati bo'lib, bizning misolimizda – yer uchastkasidan foydalanishni anglatadi.

Bir kishining yerga mulk huquqiga ega bo'lishi, u yerda qurilish yoki boshqa faoliyat yuritishi uchun yetarlimi? Keling, shikoyat tushgan holatni tahlil qilamiz: Bir qaraganda, shaxs yer uchastkasiga mulkdor bo'lib, uni mustaqil va o'z xohishiga ko'ra foydalanayotgandek ko'rinadi. Biroq, yerga egalik va undan foydalanish, shuningdek, ayrim boshqa mulk turlari uchun ham maxsus fuqarolik-huquqiy va yer-huquqiy tartibga solish qoidalari mavjud.

O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi normalariga muvofiq, yerdan foydalanish uning maqsadli belgilanishi va ruxsat etilgan foydalanish tartibiga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

Maqsadli belgilash – bu yer uchastkasi muayyan yer toifasiga mansubligi asosida belgilanadi. Ruxsat etilgan foydalanish – bu shaharsozlik reglamentlari va yerdan foydalanish qoidalari asosida belgilanadi. Shunday qilib, ichki ishlar organlari noqonuniy qurilish yoki yer uchastkasidan noqonuniy foydalanish haqida kelib tushgan shikoyatlar bo'yicha tekshiruv o'tkazar ekan, ular fuqarolik qonunchiligi, shuningdek, tegishli yer-huquqi va shaharsozlik qonunchilik normalarini o'rganishi lozim. Chunki mulk huquqiga ega bo'lishning o'zi har doim ham mulkdorga barcha turdagi faoliyatni amalga oshirish huquqini bermaydi.

Ayrim hollarda bunday noqonuniy faoliyat ma'muriy huquqbuzarlik hisoblanadi va bu holda ichki ishlar organlari tegishli davlat boshqaruv organlariga materiallarni taqdim etadi. Boshqa hollarda, agar bu faoliyat zarar yetkazgan, boshqa shaxslarning huquq va manfaatlarini buzgan yoki moliyaviy yo'qotishlarga sabab bo'lgan bo'lsa, u holda jinoiy-huquqiy choralarni qo'llash masalasi ko'rib chiqilishi mumkin.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu sohada eng ko'p uchraydigan jinoyatlar noqonuniy qurilish, qurilish reglamentlari, standartlari va boshqa talablarning buzilishi bilan bog'liq huquqbuzarliklardir. Bunday qonunbuzarliklar natijasida qurilgan obyektни ekspluatatsiyaga

topshirish imkoni yo'qolishi mumkin, bu esa xususiy uy-joy qurilishiga investitsiya qilgan fuqarolar, xaridorlar va hatto investorlar hamda kreditorlarning moliyaviy manfaatlarini buzilishiga olib keladi. Fuqarolik-huquqiy normalarni diqqat bilan o'rganish iqtisodiy qonunbuzarliklarni aniqlashga yordam beradi. Qurilish sohasida bu kelgusida ko'chmas mulk xaridorlarining, shu jumladan, ulushli qurilish ishtirokchilarining va boshqa manfaatdor shaxslarning huquqlarini buzilishining oldini olish imkonini beradi. Mulkdorning mulkdan foydalanish huquqiga oid fuqarolik-huquqiy normalarni tatbiq etish zarurligini tasdiqlovchi yana bir misol shundaki, ba'zi hollarda qonunchilik mulkdan foydalanishga nisbatan maxsus talab va qoidalarni belgilar ekan, hatto ayrim cheklovlar yoki taqiqlarni joriy qilishi mumkin. Keling, yer uchastkasining mulkdori tomonidan o'rmon xom ashyosini tayyorlash holatini ko'rib chiqaylik. Yer-huquqi islohotlar natijasida yer uchastkalari, shu jumladan, ularda o'sib turgan daraxt va butalar ham xususiy mulk huquqi obyektiga aylandi. Bu mulkdorga hududdagi daraxt va butalarni kesish huquqini beradimi? Javob – ha! Lekin bu faqat umumiy qoida doirasida.

Bu nima degani? Fuqarolik qonunchiligi qoidalariga ko'ra, yerga mulk huquqini qo'lga kiritgan shaxs, yer uchastkasidagi barcha narsalar, jumladan, daraxt va butalarga ham egalik qiladi. Ya'ni, ular yer uchastkasining bir qismi sifatida shaxsning mulkiga o'tadi.

Ichki ishlar organlari bunday masalalarni tekshirish jarayonida Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksining 164-moddasiga asoslanishi lozim.

Ushbu normalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki:

Tabiiy resurslardan foydalanish (bizning holatimizda – o'rmonlar) qonunchilik talablariga muvofiq amalga oshirilishi kerak. Bu foydalanish atrof-muhitga zarar yetkazmasligi lozim. Shu sababli, bunday holatlarda ichki ishlar organlari o'rmon qonunchiligi normalariga murojaat qilishi lozim. Chunki o'rmon qonunchiligi ekologik himoya funksiyalarini bajaradigan o'rmonlarga nisbatan xo'jalik faoliyatini cheklashga oid talablarni belgilaydi.

Xususan, quyidagi taqiqlar mavjud: Suvni muhofaza qilish hududlarida o'rmon daraxtzorlarini kesish ta'qiqlangan. Qo'riqlash funksiyalarini bajaradigan o'rmonlarda butunlay

(tugal) kesish amalga oshirilmaydi. Shuningdek, ayrim hududlarda ekologik muhofaza choralari kuchaytirilgan bo'ladi. E'tiborga molik jihat: O'rmon qonunchiligida belgilangan cheklov va talablar barcha mulk shakllariga nisbatan tatbiq etiladi. Agar ichki ishlar organi amaliy faoliyati davomida fuqarolik va o'rmon qonunchiligi normalarini (yuqorida keltirilgan misol bo'yicha) inobatga olmasa, u holda shaxsning mulkdan foydalanish huquqini noto'g'ri tushunish natijasida daraxt kesish faoliyatining qonuniyligi haqida noto'g'ri xulosa chiqarishi mumkin. Biroq, agar Fuqarolik kodeksi va boshqa sohaviy qonunchilik normalari (mulkdan foydalanish huquqining o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydigan normalar) tahlil qilinsa va hisobga olinsa, u holda ijro harakatlari natijasida shakllanadigan xulosa mutlaqo boshqacha bo'ladi. Shunday qilib, fuqarolik qonunchiligida mulkdan foydalanish huquqiga oid qoidalar ichki ishlar organlari tomonidan huquq-tartibot va qonuniyligni ta'minlashda prinsipial ahamiyatga ega. Bu huquqiy holat ayniqsa mulkdan tasarruf etish vakolatlarini suiiste'mol qilish holatlari uchun dolzarb hisoblanadi.

Fuqarolik qonunchiligidagi mazkur huquqiy normalar ayniqsa firibgarlik jinoyatlarini tergov qilishda zarur. Bunday holatlarda tasarruf qilish huquqiga ega bo'lmagan shaxs mol-mulkni o'zgartirish, uni sotish yoki boshqa tarzda uning huquqiy maqomini o'zgartirish bo'yicha harakatlar amalga oshirgan bo'ladi. Yaqqol misol – noxolis rieltorlar bir uy-joyi bir necha shaxsga ijaraga berishi yoki sotishi holatlari.

Oxirgi vaqtlarda ko'payib borayotgan mansabdorlik jinoyatlari ham aynan tasarruf etish vakolatlarining buzilishi bilan sodir etiladi. Shu sababli, mulkdan tasarruf etish huquqini aniqlash va tahlil qilish jinoyat haqidagi xabarlarini tekshirish, shuningdek, mansab vakolatlarini oshirib yuborish holatlarini tergov qilishda katta ahamiyat kasb etadi. Bu ayniqsa davlat va mahalliy boshqaruv organlari mansabdor shaxslari tomonidan yer uchastkalari, ko'chmas mulk obyektlarini ajratish, davlat va munitsipal mulkni xususiy lashtirish va sotish jarayonlarini tekshirishda muhim. Eng ko'p uchraydigan qonunbuzarliklar: Jamoat mulkiga kiruvchi yer uchastkalarining noqonuniy sotilishi (ular davlat yoki munitsipal mulkka mansub bo'lmagan holda). Xususiy lashtirish haqida qaror qabul qilishda davlat va jamoat mulkiga kirmaydigan obyektlarning noqonuniy xususiy lashtirilishi.

Ichki ishlar organlari bunday holatlarni tergov qilar ekan, fuqarolik qonunchiligida mulkni tasarruf etish vakolatlarini qanday belgilanganini aniqlash orqali ish yuritadi.

Mulkdorning uchta asosiy huquqi – egalik, foydalanish va tasarruf etish vakolatlarini tahlil qilishning o'zi ham fuqarolik qonunchiligi normalari ichki ishlar organlari faoliyatida qonunchilik va huquq-tartibotni ta'minlash maqsadida keng qo'llanilishi zarurligini ko'rsatadi. Fuqarolik va boshqa sohaviy qonunchilik normalarini to'g'ri qo'llash ichki ishlar organlari o'zlariga yuklatilgan vazifalarni to'liq va obyektiv bajarishlarini ta'minlaydi. Jinoyatchilikning keng qamrovli yo'nalishlarida fuqarolik qonunchiligi normalaridan foydalanish va ularni qo'llash imkoniyati mavjud. Ichki ishlar organlari, tergov va tezkor xodimlar turli sohalaridagi fuqarolik qonunchiligi normalaridan foydalanishi mumkin. Bularga umumiy mulk huquqi qoidalari (yuqorida ko'rib chiqilganidek), shartnomalar va majburiyatlar to'g'risidagi umumiy qoidalar, tadbirkorlik faoliyatiga oid normalar va boshqa ko'plab sohalar kiradi.

Ayniqsa, fuqarolik qonunchiligi firibgarlik (moshennichestvo) jinoyatlariga qarshi kurashda katta ahamiyat kasb etadi. Oxirgi yillarda firibgarlik jinoyatlari keng tarqalib, haqiqiy muammoga aylandi. Bu jinoyatlar ko'p hollarda uyushgan guruhlar tomonidan amalga oshirilib, yuridik shaxslar tashkil etilishi, soxta yoki ko'rinarli bitimlar tuzilishi bilan bog'liq bo'ladi. Ko'pincha firibgarlik tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida sodir etiladi, bu esa fuqarolik qonunchiligi normalarini bilishni yanada muhim ahamiyatga ega qiladi.

Tadqiqotchilarning adolatli va aniq ta'kidlashicha, firibgarlikni isbotlash jarayonida tezkor tergov va surishtiruv organlari quyidagi masalalarni o'rganishi, bilishi va tergovda qo'llashi lozim:

yuridik shaxsning tashkiliy-huquqiy shakli, uni tashkil etish, faoliyati va boshqaruv tartibi haqidagi ma'lumotlarni;

yuridik shaxsning ta'sis hujjatlari va ularning tashkiliy-huquqiy shakliga bog'liq holda qanday bo'lishi kerakligi, shuningdek, hujjatlarning soxtaligini aniqlash belgilari;

majburiyatlar bajarilishini ta'minlash usullari, xususan, kafolat xatlari va boshqa hujjatlarning xususiyatlari.

Shu jihatlardan kelib chiqib aytish mumkinki, ichki ishlar organlari jinoyat haqida kelib

tushgan xabarlar bo'yicha tekshiruv o'tkazish va tergovni amalga oshirish jarayonida fuqarolik qonunchiligi normalariga tayanishlari lozim.

Adolat nuqtai nazaridan ta'kidlash kerakki, ichki ishlar organlari faoliyatida qonunchilik va huquq-tartibotni ta'minlash jarayonida fuqarolik qonunchiligi normalarini qo'llashning barcha imkoniyatlari va jihatlarini qamrab olish obyektiv sabablarga ko'ra juda murakkabdir. Bu, birinchi navbatda, katta hajmdagi huquqiy ma'lumotlar mavjudligi bilan bog'liq. Mazkur tadqiqotda ichki ishlar organlari amaliyotida fuqarolik qonunchiligi normalarini tatbiq etish va amalga oshirish imkoniyatlarini belgilashga harakat qilindi.

Olib borilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

fuqarolik qonunchiligi ichki ishlar organlari faoliyatida qo'llanilishi mumkin;

ichki ishlar organlari bir tomondan – xo'jalik

yurituvchi subyekt sifatida boshqa ishtirokchilar bilan teng huquqli ravishda munosabatda bo'ladi, ikkinchi tomondan esa hokimiyat vakolatlari bilan ta'minlangan davlat organi sifatida harakat qiladi;

ichki ishlar organlari fuqarolik qonunchiligi normalarini amalga qo'llashga manfaatdor va majburdir;

fuqarolik qonunchiligi normalarini qo'llash ichki ishlar organlari oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarish shartlaridan biri hisoblanadi;

fuqarolik qonunchiligi qoidalarini qo'llash hodisa yuzasidan har tomonlama, chuqur va to'liq tadqiqot olib borish hamda jinoyat tergovini har tomonlama va obyektiv o'tkazish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.01.2023-yildagi "Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-10-son qarori // URL: <https://lex.uz/docs/6364837>.
2. Кузбагаров М. Н., Кузбагарова Е. В. Гражданско-правовые знания, применяемые
3. Реализация норм гражданского права в деятельности органов внутренних дел: Учебно-методическое пособие / Авт.-сост. Р. В. Ильясов, Т. А. Трифонова. — Иркутск: ВСИ МВД России, 2019. — 52 с.
4. Инжиева Б. Б. Специальная правоспособность государства в лице казенных учреждений // Пробелы в российском законодательстве. — 2012. — №2.
5. Oqyulov O., Egamberdiyev E., Baratov M., Kuldashev N. va boshq. Fuqarolik va oila huquqi: Darslik. – T., 2022. – 400 b.
6. Жогов Н. Г. К вопросу правосубъектности юридического лица в системе органов внутренних дел // Вестник Московского университета МВД России. — 2015. — №9.
7. Петров И. В., Верстов В. В. Некоторые аспекты участия органов внутренних дел в обязательственных правоотношениях // О-во и право. — 2012. — №2 (39).
8. Улезько С. И. Понятие предмета в преступлениях против собственности в современном уголовном праве // О-во и право. — 2015. — №1 (51).
9. Маркелов Д. С. О необходимости участия органов внутренних дел РФ в гражданских правоотношениях // Изв. РГПУ им. А.И. Герцена. — 2007. — №29.

INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING MALAKA OSHIRISHIDA "ADDIE" MODELIDAN FOYDALANISHINI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

O. B. MALLAEVA,

IIV Akademiyasi O'zbek tili va xorijiy tillar kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya.

Malaka oshirish jarayonida zamonaviy - innovatsion modellardan foydalanishning asosiy maqsadi: pedagoglarni mustaqil va tanqidiy fikrlashga, uzoqni ko'ra olishga, jamoa bo'lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab taqqoslash orqali muammolar yechimini topishga hamda kerakli xulosa yoki qaror qabul qilishga o'rgatadi.

Tayanch so'zlar:

mustaqil va tanqidiy fikrlash, zamonaviy - innovatsion model, fikrlarni jamlab taqqoslash, jamoa bo'lib ishlash

Annotation.

The main purpose of using modern-innovative models in the process of professional development: teaches pedagogues to think independently and critically, to be far-sighted, to work as a team, to search, to find solutions to problems by summarizing and comparing ideas, and to make the necessary conclusions or decisions.

Key words:

independent and critical thinking, modern - innovative model, comprehensive comparison of ideas, teamwork.

Аннотация.

Использование современных инновационных моделей в процессе профессионального развития педагогов способствует мыслить самостоятельно и критически, работать в команде, находить решения проблем путем обобщения и сравнения.

Ключевые слова:

независимое и критическое мышление, современная инновационная модель, командная работа.

"ADDIE" – bu pedagoglar malakasini oshirish jarayonida qo'llaniladigan modeldir. Ushbu modelni har qanday holatga moslab qo'llasa bo'ladi, ya'ni tashkil etiladigan malaka oshirishning mazmun-mohiyati, ishtirokchilar kontingentini inobatga olgan holda uni turli xil faoliyat uchun, masalan, tashkil etish, jamoaviy trening mashg'ulotlari yoki alohida ehtiyojlar asosida o'tkaziladigan malaka oshirish mashg'ulotlarida foydalanish mumkin [1]. Ushbu moldeldagi A harfi A-Analysis = Tahlil bosqichini bildiradi. Bu bosqichda malaka oshirishning quyidagi savollariga javob topiladi:

Nima uchun ushbu loyihani amalga oshirmoqdamiz?

Muvaffaqiyatga erishish uchun qanday imkoniyat mavjud?

Muvaffaqiyatga erishishini qanday tasavvur qilamiz va u qanday namoyon bo'ladi?

Maqsadga erishish uchun nima qilish kerak? [1].

Ushbu savollar tahlili bizga malaka oshirish jarayonida ishni qanday tashkil etish, nimadan boshlash va davom ettirish bo'yicha bir fikrga

kelishimizda yordam beradi. Malaka oshirish dasturini ishlab chiqish tahlil bosqichidagi eng muhim ishlardan biri bo'lib, tahlildan maqsad, malaka oshirishda qanday o'zgartirishlar qilish nazarda tutilayotgani va uning eng muhim tomoni nimada ekanligini hamda bu faoliyatni amalga oshirishning osonroq, kam xarajatli qilib tashkil etish yo'llarini topishdir.

A-Analysis = Tahlil bosqichining muhim tomoni shundaki, bu bosqich butun loyiha muvaffaqiyati uchun mustahkam zamin yaratadi. Malaka oshirish ko'lami va yo'nalishini shakllantirishga yordam beradi [1].

"ADDIE" modelidagi birinchi D xarfi Design = Dizayn (Loyihalash)ni bildiradi. Albatta, malaka oshirish jarayonida tahlil amalga oshirilgandan keyin, uning natijalariga muvofiq malaka oshirish rejasi, ya'ni loyihasi ishlab chiqiladi.

Malaka oshirish loyihasi belgilangan o'quv maqsadlari asosida kurs yakunlangach, malaka oshirish ishtirokchilari o'zlashtirishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni ifodalaydi. U malaka oshirish shakli va uslubini, ya'ni sinf-

dars, tarmoq orqali (masofadan) yoki aralash shaklda o'tkazilishini aniqlashda yordam beradi. Shuningdek, bu bosqich malaka oshirish o'quv metodik ta'minoti tarkibini (dars ishlanma, mashq, topshiriqlar) ishlab chiqishda bir qarorga kelishda ham yordam beradi.

"ADDIE" modelidagi keyingi bosqich, D-Develop = D - ishlab chiqish (yaratish) hisoblanadi. Bu bosqichda malaka oshirish jarayoni uchun ishlab chiqiladigan, ishlab chiqish jarayonini boshqaradigan va malaka oshirish o'quv mashg'ulotini amalga oshirish uchun kerak bo'ladigan barcha narsani ta'minlashga qaratilgan faoliyat nazarda tutiladi. Ushbu bosqichning oxirgi qismi – hamma narsa rejalashtirilgan tarzda bajarilganligiga ishonch hosil qilish uchun malaka oshirish dasturini sinovdan o'tkazish yoki tekshirib ko'rishdir, ya'ni dastur bo'yicha "amalga oshirilgunga qadar" qilinishi kerak bo'ladigan o'zgarishlarni aniqlashdir [1].

"ADDIE" modelida D-Develop = D - ishlab chiqish (yaratish) bosqichidan keyin I - Implementation = amalga oshirish bosqichi keladi. Ushbu bosqich malaka oshirish tinglovchilari ishtirokida bevosita yoki bilvosita malaka oshirish amaliyotini nazarda tutadi.

"ADDIE" modelining so'ngida Ye-Evaluation = Baholash bosqichi keladi. Ushbu bosqich yuqoridagi barcha bosqichlar singari muhim hisoblanadi. Chunki mazkur bosqich malaka oshirishdan kutilgan natijaga qay darajada erishilgani va keyingi malaka oshirish mashg'ulotlarida nimalarga e'tibor qaratish zarurligini aniqlab olish juda muhimdir.

"ADDIE" modelining mazkur bosqichida odatda malaka oshirish ishtirokchilarini baholashning quyidagicha to'rtta darajasidan foydalaniladi:

birinchi daraja: malaka oshirishga nisbatan ishtirokchilar munosabatini baholash;

ikkinchi daraja: ishtirokchilarning malaka oshirishda olgan bilimlarini baholash;

uchinchi daraja: malaka oshirishning ishtirokchilarga ta'sirini ya'ni o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malaka amalda qo'llay olishini baholash;

to'rtinchi daraja: natijalar davriyligini baholash. Ya'ni malaka oshirish natijalaridan uzoq muddat foydalanish mumkin bo'lgan natijaga erishildimi? Malaka oshirish o'zgarishlarning sodir bo'lishiga sabab bo'ldimi? kabi savollarga javob olish.

Ta'kidlash kerakki, "ADDIE" - bu malaka oshirishning turi yoki shakli emas, balki malaka oshirishning muayyan shaklida qo'llaniladigan modeldir. Albatta model malaka oshirish shakllariga o'xshab qat'iy, o'zgarmas emas. "ADDIE"

modelida birinchi qadamdan tashqari qolgan barcha qadamlar (bosqichlar) ketma-ketlikda, tartib bilan amalga oshirishini talab etilmaydi. Uning bosqichlari malaka oshirish maqsadlariga mos holda o'zgarishi ham mumkin. Chunki maqsad va vazifalarni qayta ko'rib chiqish, tahlil qilib, baholab borish malaka oshirishda ko'zlangan natijani olish, muvaffaqiyatga erishishda yordam beradi [2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19- martdagi «Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida» PF-5969-son Farmoni, Xalq ta'limi vazirining «O'zbekiston Respublikasiga koronavirusning kirib kelishi va tarqalishini oldini olish yuzasidan chora-tadbirlar dasturini tayyorlash bo'yicha respublika maxsus komissiyasining 2020-yil 15-martdagi yig'ilish bayoni ijrosi to'g'risida» 2020-yil 17-martdagi 82-son buyrug'i asosida ta'lim, xususan, malaka oshirish jarayonida ham sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Mazkur o'zgarishlar natijasida:

pedagoglarning onlayn malaka oshirishlari uchun onlayn o'qitish texnologiyalari amaliyotga kirib keldi;

onlayn malaka oshirishga mo'ljallangan videodars kontentlari bazasi yaratildi;

pedagoglarni malaka oshirishdan olgan bilim va ko'nikmalarini masofadan turib (onlayn test kabi) baholashni amalda qo'llash yo'lga qo'yildi.

Yaqin vaqtlarda yuz bergan mazkur o'zgarishlar, endilikda malaka oshirish jarayonida Internet orqali ta'lim (I-ta'lim)ni miqdor va sifat jihatidan rivojlantirishni so'zsiz dolzarb qilib qo'ydi.

Bugungi kunda I-ta'lim imkoniyatlari juda katta bo'lib, ko'plab davlatlar ta'limdagi bo'shliqlarni mana shu yo'l bilan bartaraf etishga intilmoqda. Jumladan, rivojlangan mamlakatlarda I-ta'lim bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqot natijalariga ko'ra:

I-ta'lim energiya sarfini 90 foiz va karbonat anhidrid chiqindilarini 85 foizga kamaytirishi;

hozirda AQSH kompaniyalarining 77 foizi onlayn treninglardan foydalanishi;

I-ta'lim sohasi 2000-yildan hozirga qadar 90 foizga o'sgani;

AQSH hukumati yiliga 2,59 milliard dollarlik I-ta'lim mahsulotlarini sotib olishi;

AQSH o'qituvchilarining 65 foizi ochiq I-ta'lim manbalarini qo'llab-quvvatlashi;

mobil ta'lim bozori 67 foizga oshishi va 2019-yilga kelib 37,6 milliard dollarni tashkil etgani;

elektron ta'lim ta'lim oluvchilarga soatiga besh baravar ko'proq material o'rganish imkoniyatini berishi [3]kabilar aniqlangan.

Mazkur asoslar endilikda, barcha ta'lim turlari qatori malaka oshirish ta'limida ham I-ta'lim e'tibor qaratish zarurligidan dalolat beradi. Hozirda mamlakatimizda pedagoglar malakasini oshirishda I-ta'limni yo'lga qo'yishning bir qator imkoniyatlari va bajarilishi zarur bo'lgan vazifalari mavjud. Jumladan, ushbu masaladagi imkoniyatlarga, pandemiya vaqtida malaka oshirish o'qituvchilarida I-ta'limni tashkil etish bo'yicha "Youtube", "Zoom", "Facebook" kabi Internet dasturlaridan foydalanish ko'nikma va malakalari shakllangani hamda ushbu yo'nalishda dastlabki, natijalar - videodars kontentlari bazasi, malaka oshirishdan olgan bilim va ko'nikmalarini masofadan turib baholash mexanizmlarini yaratilgan kabilarni kiritish mumkin. Ushbu yo'nalishda bajarilishi zarur bo'lgan vazifalarga esa, avvalo mamlakatimizdagi barcha ta'lim muassasalarida internet tezligini oshirish (2020-yil noyabr holatiga ko'ra internet tezligi 12.51 Mbit/sekund [107]. hamda uni narxini arzonlashtirish (2021 yanvar holatiga ko'ra 1 Mbit/s narxi 40 ming so'm [4]), qolaversa, I-ta'limning asosiy lokomativi bo'lgan pedagoglarni, sifatli videodars kontentlarini tayyorlashga; I-ta'limga mo'ljallangan ta'lim metodikalarni ishlab chiqishga; auditoriyani I-ta'limga jalb etish psixologiyasiga; I-ta'limga mos mualliflik kurslarini yaratishga o'rgatish kabilar kiradi.

Tarixan, ta'limga oid ma'lumotni yaratish, uzatish va saqlash tadrijiy shaklda rivojlanib kelgan. Ajdodlarimiz dastlab, tosh, yog'och, hayvon terilari va metallardan foydalanishgan bo'lsa, keyinchalik bu jarayonga qog'oz kirib kelgan. Bugungi kunda mazkur tadrijiylik yanada rivojlanib, ma'lumotni yaratish, uzatish va saqlash elektron shaklga o'tdi. Mazkur jarayon I-ta'limning rivojlantirishi barobarida uning turli shakllariga ham yo'l ochdi. Bugungi kunga kelib barcha sohalar qatori, ta'limda ham raqamli texnologiyalar asosidagi aqlli mobil

qurilmalar imkoniyati kengayib bormoqda.


Mobil texnologiyalari asosida ta'lim bugungi kunda xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimida keng qo'llanilmoqda. Amerika Qo'shma Shtatlari, Kanada, Evropa mamlakatlarida mobil ta'lim resurslari va ularning rivojlanish usullarini birlashtiruvchi yagona platformadan foydalanish orqali turli fanlarni o'qitishda mobil ta'lim (M-learning) texnologiyalari joriy etilganligini ta'kidlash mumkin [5].

M-learning – deganda mobil jihozlar (telefon yoki cho'ntak kompyuter)ni WAP, GPRS yoki 3G texnologiyalar (asosiysi internet tarmog'iga kirish mumkinligi) bilan bilim olish va almashish, mobil aloqa vositalari (mobil telefon va kommunikatorlar) yordamida o'quv jarayonini tashkil etishda foydalaniladigan texnologiyalar tushuniladi.

Ta'kidlash kerakki, M-learning I-ta'limning bir qismi hisoblanadi. Biroq M-learning xususiy, aniq va mobil (ko'chma) xususiyatiga egaligi hamda "now and now", ya'ni "hozir va shu on" tamoyiliga ko'ra barcha sharoitlarda qo'llay olish bilan I-ta'limdan qisman farqlanadi. M-learning shunday imkoniyatlarga egaligi uchun ham hozirda an'anaviy va noan'anaviy ta'limda asosiy o'rinni egallab kelmoqda.

Bugungi kunda M-learningdan malaka oshirish jarayonida foydalanish vaqti kelganligini aytish lozim. Chunki hozirda aynan ingliz tili o'qituvchilari malakasini oshirish jarayonida M-learning yo'nalishida juda ko'p mobil ilovalar mavjudligini ko'rish mumkin.

Eng asosiysi, hozirda biz malaka oshirish jarayonida M-learningdan foydalanish bo'yicha texnik va dasturiy ta'minotga egamiz. Buni bevosita har bir malaka oshirish ishtirokchisida aqlli mobil qurilmalar mavjudligi hamda ko'p fanlar qatori, o'zbek tilida ingliz tilini o'rganish va malaka oshirishga mo'ljallangan mobil ilovalar yaratilganligida ko'rish mumkin (1.6-rasm).



Yuqorida tilga olingan imkoniyatlarning mavjudligi malaka oshirish jarayonida M-learningdan unumli foydalanish imkonini beradi. Biroq ushbu masalada tinglovchilar motivasiyasini ta'minlash, malaka oshirish ta'limida xaosning yuzaga kelishi xavfining oldini olish nuqtayi nazaridan malaka oshirish muassasalari:

mobil ilova manbalarini tuzish, saralash va ulardan foydalanish bo'yicha tavsiyalarni shakllantirish;

tinglovchilar tomonidan M-learningdan foydalanganlikni aniqlashning bilvosita nazorat mexanizmini yaratish;

tinglovchilarning M-learning orqali olgan bilimlarini baholash bo'yicha yondashuvlarini ishlab chiqish;

M-learning asosida malaka oshirishni sertifikatlashning hisob mexanizmlarini ishlab chiqishlari zrrur hisoblanadi.

Hozirda mazkur masalalarni hal etmay turib, M-learningdan malaka oshirish jarayonida samarali foydalanib bo'lmaydi. Yuqoridagi ishlar amalga oshadigan bo'lsa, avvalo malaka oshirish pedagogika yaqinlashadi, aniqrog'i doimo uning qarshisida bo'ladi. Undan tashqari, M-learning malaka oshirishni manzilli, individual hamda turli xarajat va noqulayliklarsiz tashkil etish imkonini beradi.

So'nggi yillarda, M-learning imkoniyatini beradigan mobil ilovalardan tashqari MOOS (Massive open online courses) – ommaviy ochiq onlayn kurslar va onlayn malaka oshirish texnologiyalari ham paydo bo'lgan.

MOOS (Massive open online courses) deganda, interfaol usullardan foydalangan holda tayyorlangan va internet tarmog'ida ochiq holda joylashtirilgan ta'lim olish va malaka oshirish kurslari tushuniladi.

MOOS elektron ta'lim, masofaviy o'qitish va malaka oshirishning yangi avlodi hisoblanadi. Mazkur tizim yuqorida tilga olingan boshqa platforma va mobil ilovalardan qisman farqlanadi. Jumladan, unda vaqt e'tiborga olinadi, ya'ni MOOSda malaka oshirish kurslari o'rtacha to'rt haftadan o'n haftagacha bo'lgan muddatni qamrab oladi. O'qish va malaka oshirish xizmatlari bepul (ayrim tanlanadigan xizmatlar pulli) bo'lib, tinglovchilar uchun ro'yxatdan o'tish, o'zi uchun zarur kurslarni tanlash yetarli hisoblanadi.

O'qish videoma'ruzalar, o'qish uchun materiallar, har bir o'quv materiali uchun test

savollari, kurs qatnashchilari uchun forumlar, loyiha ishlari shaklida tashkil etiladi.

MOOS shunday tizimki, unda ta'limiy ehtiyoj (byurtma)lar tinglovchining individual tanlovi asosida amalga oshiriladi. Masalan, ingliz tili o'qituvchilari malakasini oshirish jarayonida MOOS tizimi ulardan "Siz nimani o'rganasiz?" deya berilgan savolga tinglovchilar tomonidan beriladigan javob asosida individual ta'lim tearektoriyasi aniqlab olinadi. Tinglovchilar mazkur tizimda ingliz tilining A1, A2, B1, B2, C1, darajalari hamda TOEFL, IELTS va TOEIC sertifikatlariga tayyorgarlik ko'rishlari mumkin. Mazkur tizimda malaka oshirish ta'limi juda moslashuvchan bo'lib, unda "boshlang'ich", "o'rta", "kengaytirilgan" hamda "barcha darajalar" tanlovi tinglovchiga taqdim etiladi. Malaka oshirish ishtirokchilari o'z ehtiyojidan kelib chiqqan holda muayyan darajani belgilashi va shu asosda malaka oshirishlari mumkin. Kurs yakunida albatta sertifikat taqdim etiladi.

Ta'kidlash kerakki, MOOS (Massive open online courses) deganda yagona tizim yoki platforma tushunilmaydi. Hozirda ommaviy ochiq onlayn kurslar va onlayn malaka oshirish platformalarining soni ko'p bo'lib, ulardan Coursera [6], Udacity [7] va EdX [8] platformalari eng ommalashgani hisoblanadi.

Bugungi kunda xalq ta'limi tizimidagi malaka oshirish jarayonining moslashuvchanlik va variyativligini oshirish uchun mana shunday platformalardan foydalanishni taqozo etadi. Buning uchun esa mazkur platformalar bilan rasmiy hamkorlik o'rnatish;

ular taqdim etgan sertifikat va guvohnomalarni malaka oshirishni sertifikatlashning rasmiy hisob mexanizmga kiritish zarur bo'ladi.

Mazkur ishlar amalga oshirilsa, MOOS (Massive open online courses)lar malaka oshirish jarayonida rasmiy maqom kasb etadi va bu o'z-o'zidan pedagoglarning ushbu kurslarga nisbatan ishonchini oshirib, ularning samarali malaka oshirishini ta'minlab beradi. Pedagoglarning MOOSlarda malaka oshirishi mamlakatimizda ta'lim, xususan, malaka oshirish tizimiga xalqaro tajriba kirib borishini ta'minlaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda xulosa qiladigan bo'lsak, birinchidan, shu vaqtga qadar qabul qilingan malaka oshirish sohasiga taalluqli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda malaka oshirish shakllari 2 turga ajratilgan. Ular to'g'ridan-to'g'ri (ta'lim dasturlari asosida) hamda bilvosita (ta'lim dasturlarisiz o'qitish asosida) malaka

oshirish shakllaridir.

Lekin, shu vaqtga qadar ayrim obyektiv va subyektiv omillar sababli malaka oshirish sohasida to'g'ridan-to'g'ri malaka oshirish (ta'lim dasturlari bo'yicha o'qitish) shakli ustuvorligi saqlanib qolgan.

Ikkinchidan, mamlakatimizdan farqli o'laroq hozirda rivojlangan mamlakatlarda malaka oshirishning bilvosita shakllariga bo'lgan talab va taklif yuqori darajada bo'lib, bu tinglovchilarni "anytime/anyplace/any pace", ya'ni "istalgan vaqtda/istalgan joyda/istalgan grafikda" xususiyatini ma'qul ko'rishi sababli yuzaga kelgan.

Uchinchidan, xorij tajribasida bilvosita malaka oshirishning eng ommalashgan shakl va modellarini saralaydigan bo'lsak, ular:

Klaster; "ADDIE"; I-Ta'lim; Aralash ta'lim; Virtual o'qituvchi rahbarligidagi trening yoki VILT; M-learning; Ochiq kurslardir.

Mazkur kurslar o'z xususiyatiga ko'ra "istalgan vaqtda/istalgan joyda/istalgan grafikda" (anytime/anyplace/any pace) va "24/7 formati"da ekanligi hamda hozirgi murakkab (vaqt tig'izligi, transport harakatlarining faolligi, pandemiya va boshqa shu kabi omillar) sharoitga mosligi kabi xususiyatlari bilan malaka oshiruvchilarni o'ziga jalb etmoqda.

To'rtinchidan, hozirda mamlakatimizda bilvosita malaka oshirish shakliga o'tishga to'sqinlik qiluvchi bir qator omillar mavjud.

mamlakatimizda internet tezligining pastligi (2020-yil noyabr holatiga ko'ra internet tezligi 12.51 Mbit/sekund [9]);

internet narxini qimmatligi (2021-yanvar holatiga ko'ra 1 Mbit/s narxining 40 ming so'm);

bilvosita malaka oshirishning shakli malaka oshirganlikni aniqlashning nazorat mexanizmining yo'qligi;

tinglovchilarning bilvosita malaka oshirishning shakli orqali olgan bilimlarini baholash hamda sertifikatlashning hisob mexanizmlari ishlab chiqilganligi;

bilvosita malaka oshirish lokomativi bo'lgan pedagoglarda sifatli videodars kontentlarini tayyorlash, ushbu shaklga mos ta'lim metodlarini ishlab chiqish hamda bilvosita malaka oshirayotgan auditoriya psixologiyasi bilan bog'liq masalalarda yechilishi zarur muammolar mavjud.

Mamlakatimizda bilvosita malaka oshirish shakl va modellarini joriy etish uchun bir qator omillar to'sqinlik qilmoqda. Ular:

mamlakatimizda internet tezligining pastligi va narxining qimmatligi;

bilvosita malaka oshirishayotgan auditoriya psixologiyasi va ularga mo'ljallangan ta'lim metodikalarining tadqiq etilmagani;

bilvosita malaka oshirganlikni aniqlashning nazorat mexanizmi hamda olgan bilimlarni baholash va sertifikatlashning hisob mexanizmlari mavjud emasligi kabilar hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son farmoni – Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 06/19/5712/3034-son.

2. 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohaslarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son farmon Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 711.2020 y., 06/19/5712/3034-son.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 25 yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-son qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.01.2021 y., 07/21/4963/0064-son.

4. Ibragimov A.A. Xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish tizimini ko'p vektorli yondashuv asosida takomillashtirish: Pedagog. fan. b-cha. fal. d-ri. ... Dis.

5. Radjiev A. Malaka oshirishda "hayot davomida o'qish" tamoyili amal qiladi. <https://yuz.uz/news/malaka-oshirishda-hayot-davomida-oqish-tamoyili-amal-qiladi> (murojaat qilingan sana: 22.12.2020).

6. Asqarov A.D. Xalq ta'limi xodimlari malakasini masofadan oshirish tizimini takomillashtirish:

Pedagogika fan. b-cha. fals. d-ri. ... Dis. – T., 2017. – 52 b.

7. *Raxmankulova N.* Xalq ta'limi tizimida uzluksiz malaka oshirish jarayonlarini tashkil etish masalalari. "Ta'limda menejmentning dolzarb masalalari" mavzusidagi Respublika ilmiy konferensiya to'plami. – T., 2019. – B. 11–13.

8. *Renton, Jane.* Coaching and Mentoring: What They Are and How to Make the Most of Them. — New York: Bloomberg Press, 2009.— ISBN 9781576603307.

9. *Svinin Y. V.* Neobxodimost i sluchaynost kak vyrajenie zakonomernostey pravovoy deystvitelnosti. Avtoref. dis. ... kand. yurid. nauk. – Vladimir, 2006. – 27 s.

ICHKI ILAR ORGANLARI XODIMLARINI VATANPARVARLIK HAMDA MA'NAVİY-AXLOQIY RUHDA TARBIYALASHNING DOLZARBLIGI

F. M. MELIKULOV,

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi xodimi

Annotatsiya.

Maqolada bugungi kunda mamlakatimizda huquqiy demokratik va fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish sharoitida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar davrida ichki ishlar organlarini aholining ishonchli himoyachisi sifatida xalqchil professional tuzilmaga aylantirish, xodimlarning xizmat burchiga sodiq, vatanparvar va xalqparvar qilib tarbiyalash, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, o'z burchiga sodiq, xizmat vazifalariga halol, vijdonan, Vatan va xalq oldidagi burchini chin dildan his etgan holda, yuksak mas'uliyat hissini kuchaytirish hamda ular o'rtasida ma'naviy tarbiya va vatanparvarlik tuyg'usini yanada yuksaltirish yuzasidan ilg'or fikr-mulohazalar bildirilib, yanada yaxshilash yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tayanch so'zlar:

huquqiy demokratiya, fuqarolik jamiyati, tinchlik, totuvlik, barqarorlik, adolat, sadoqat, mas'uliyat, halollik, inson qadri, inson huquqlari, vatanparvarlik, xalqparvarlik, ma'naviy-axloqiy tarbiya, kasbiy burchga sadoqat.

Аннотация.

В статье выражены передовые мысли по вопросам дальнейшего совершенствования деятельности органов внутренних дел как народной профессиональной структуры — надежного защитника прав и свобод граждан — в период последовательных реформ, проводимых в нашей стране в условиях дальнейшего развития правового демократического и гражданского общества. Даны предложения и рекомендации по дальнейшему повышению духовного воспитания и патриотизма среди сотрудников.

Ключевые слова:

правовая демократия, гражданское общество, мир, согласие, стабильность, справедливость, верность, ответственность, честность, права человека, патриотизм, народолюбие, духовно-нравственное воспитание, преданность профессиональному долгу.

Abstract:

The article presents advanced ideas on further improving the strengthening of internal affairs bodies as a popular professional structure — a reliable protector of the population — during the period of ongoing reforms carried out in our country amidst the further development of a legal democratic and civil society. It addresses the education of employees who are devoted to their official duties, patriotic and people-loving, possessing high spiritual and moral qualities, honestly and conscientiously fulfilling their official responsibilities, sincerely aware of their duty to the Motherland and the people, as well as enhancing their sense of high responsibility. Proposals and recommendations are given for further raising the level of spiritual education and patriotism among the employees.

Keywords:

legal democracy, civil society, peace, harmony, stability, justice, loyalty, responsibility, honesty, human dignity, human rights, patriotism, people-loving, spiritual and moral education, devotion to professional duty.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar zamonaviy demokratik talablarga to'la mos keladigan, inson sha'ni, qadr-qimmati, uning huquq va erkinliklari, orzu-umidlarini ro'yobga chiqarishga qaratilgandir. Bu yo'ldan borayotgan xalqimizni tinchlik-totuvligi va osoyishtaligini ta'minlash, turli mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatiga katta mas'uliyat va javobgarlik yuklaydi. Bunday jarayonda soha xodimlarining vatanparvarlik tuyg'usini yuksaltirish bilan birga, ma'naviy-axloqiy

tarbiyasini kuchaytirish muhim o'rin tutadi.

Ichki ishlar organlari xodimlari – jamiyatning tinchligi va xavfsizligini ta'minlashda muhim o'rin tutadigan faol kuchlardir. Yurtimizda jinoyatchilikni jilovlash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish orqali xalqimizni rozi qilish, farovon hayotini ta'minlash, ularning ertangi kuniga ishonch hissini oshirishda ichki ishlar organlari xodimlarining vatanparvarligi va sadoqatli xizmati muhim hisoblanadi. Ona vatanni sevish, uning bir qarich tuprog'ini asrab-avaylash bizning qon-qonimizga singib ketgan. Tariximizda buyuk ajdodlarimiz, mohir sarkardalar, dono faylasuflar

doimo vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytirish va ma'naviy-axloqiy tarbiyaga alohida e'tibor qaratishni uqtirib kelganlar. Biz ularning yo'lini davomchisi sifatida butun xalqimizni, ayniqsa uning himoyachisi bo'lgan ichki ishlar organlari xodimlarini vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytirishga alohida e'tibor berishimiz kerak bo'ladi.

Sohibqiron Amir Temur davrida vatanparvarlik va ma'naviy tarbiyaga katta e'tibor berilgan. Uning davlat boshqaruvi va jamiyatni barpo etishdagi siyosiy va ma'naviy yo'nalishlari bu jihatlarning muhimligini yaqqol namoyon etadi. Amir Temur o'zining buyuk harbiy va siyosiy mahoratidan tashqari, vataniga cheksiz sadoqat va muhabbatini targ'ib etgan. U har bir so'zida vatanparvarlik g'oyasini yuksak qo'yib, raiyatni o'z yurtiga sodiq bo'lishga, uning tinchligi-totuvligi uchun jonini fido qilishga tayyor bo'lishga chaqirgan. Temur hukmronligi davrida yurt ozodligi, hududiy yaxlitligi va xavfsizligini saqlash uchun birinchi masalaga aylangan.

Sohibqiron bobomiz o'z saltanatida ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlarini qattiq nazorat qilib borgan. Ayniqsa, musulmonlar orasida islom axloq va qadriyatlarini mustahkamlashga alohida e'tibor berib kelgan. Uning hukmronligida diniy ta'lim muassasalari, madrasalar va me'moriy obidalar ma'naviy tarbiya maskani hisoblangan. Temur o'z amirlari va harbiylariga haqiqatparvarlik, adolatparvarlik, poklik va halollik kabi axloqiy sifatlarni targ'ib etgan. Shu orqali u jamiyatda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlagan.

Amir Temur davrida raiyatda vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytirish va ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlarini yaxshilash orqali jamiyatning barqarorligi ta'minlangan. Bu g'oyalar va qadriyatlar Temurning shaxsiy hayoti va davlat siyosatining asosini tashkil qilgan. Uning quyidagi so'zlari tarbiya ishlarini qattiq nazoratga olganligidan dalolat beradi. "Kimning ahdi va shijoatini sinov tarozisida tortib ko'rib, boshqalarnikidan ortiqroqligini ko'rsam, uni tarbiyamga olib, amirlik darajasiga ko'tarar edim. So'ngra ko'rsatgan xizmatlariga yarasha martabasini oshirib borardim" [1. – B. 92]. Hech bir mubolag'asiz aytish mumkinki, mana, qariyb yetti asrdiki, bu ulug' zotning shonu shuhrati, hayoti va faoliyatiga bo'lgan qiziqish, uning amalga oshirgan ishlari jahonning turli mamlakatlarida o'rganib borilmoqda.

Amir Temur o'z davrida buyuk davlat arbobi,

harbiy strateg va islohotchi sifatida tarixda chuqur iz qoldirgan shaxs. Uning shaxsiy sifatlari, boshqaruv uslubi va intizomga bo'lgan munosabati bugungi kunda ham turli sohalar, jumladan, ichki ishlar organlari xodimlari faoliyati uchun o'rnak bo'ladi.

U harbiy va boshqaruv tizimida qat'iy intizomni joriy etgan. Uning mashhur "Temur tuzuklari" asarida mansabdor shaxslar, sarkardalar va jangchilar qanday tartibda ish yuritishi, mas'uliyatli, adolatli bo'lishi haqida aniq ko'rsatmalar berilgan. Bu esa ichki ishlar organlari uchun juda muhim hisoblanadi. Amir Temur faoliyatini o'rganish orqali ichki ishlar organlarida quyidagilarga alohida e'tibor qaratishni lozim, deb hisoblaymiz:

ichki ishlar organlarida mustahkam intizomni ta'minlash;

qonun ustuvorligi asosida yashash, adolat bilan xizmat qilish ko'nikmalarini shakllantirish va mas'uliyat hissini kuchaytirish; yurtga va xalqqa sadoqatli xizmat qilish;

milliy qadriyatlar va tarixiy merosga hurmat bilan yondashish;

fuqarolar bilan munosabatda xolis, adolatli va samimiy bo'lish;

kuchli rahbarlik, ishlarni tizimli tashkil etish, uzoqni ko'zlab qarorlar qabul qilish qobiliyatini shakllantirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yangi O'zbekistonda ma'naviy-axloqiy ishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu boradagi ishlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ma'naviy va axloqiy ishlar ichki ishlar organlariga ham chuqur kirib keldi. Tizimda amalga oshirilayotgan tub islohotlar har bir xodimni "Xalq manfaatlari yo'lida xizmat qilish"ga yo'naltirilmoqda. Xodimlarda milliy qadriyatlarga hurmat, xizmat burchiga sadoqat, fidoyilik, mardlik va jasurlik tuyg'usini oshirish, odob-axloq qoidalari va muomala madaniyatiga rioya etish, kasbiy faoliyatida sabrli, qanoatli, xushmuomalali bo'lish kabi fazilatlarini yuksaltirishga alohida e'tibor berilmoqda. Zero, aholining farovon hayot kechirishi, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldi olinib, tinchlik va barqarorlik muhitining qaror topishi o'z burchiga sodiq, yuksak ma'naviy fazilatlariga ega xodimlar faoliyati bilan bog'liq. Shunday ekan, bugungi davr ichki ishlar organlari tizimidagi har bir xodimdan ma'naviy-axloqiy bilimlarga ega bo'lishni taqozo etmoqda.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida o'zbek xalqining milliy qadriyatlari va ma'naviy merosini asrab-avaylash, keng ommalashtirish hamda

rivojlantirish bo'yicha yangi yondashuvlarni joriy qilish muhim ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu esa, ichki ishlar organlari xodimlaridan milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, ma'naviy bilimlarga ega, axloqiy jihatdan yetuk, jismonan sog'lom, ona Vatanga sadoqat, fidoyi, qonunlarga itoatkor, har bir ishda adolatli bo'lishni talab etadi. Chunki, ichki ishlar organlarini xalqchil, professional tuzilmaga aylantirish, tizim oldiga qo'yilayotgan ustuvor vazifalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyasiz xodimlar bilan amalga oshirib bo'lmaydi. Ma'naviy-axloqiy tarbiyalangan xodimlar davlatning kuch-qudrati va yuksak ishonchi hisoblanadi.

Jamiyatda yoki har bir insonda ma'naviy tarbiyaning muhimligi xususida bir qator olimlar tomonidan fikr-mulohazalar bildirilgan. Ma'naviy tarbiyaning negizini "ma'naviyat" tashkil qiladi. Ma'naviyat o'zi nima? Ma'naviyat qanday tushunchani anglatadi? Ma'naviyat insonga, xususan, ichki ishlar organlari xodimlariga nima beradi? degan savol tug'ilishi tabiiy. Bu tushunchaning mazmun-mohiyatiga izoh berib o'tsak.

O'zbek tilining izohli lug'atida "Ma'naviyat – axloqiy holat, barcha axloqiy narsalar, insonlarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, diniy, axloqiy tasavvurlari va tushunchalari majmuidir" [2].

Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'atida, "Ma'naviyat – (arabcha, ma'no, ma'nolar majmuasi) – moddiy hayot bilan doimo yonma-yon yuradigan, inson, xalq va jamiyat hayotining ajralmas qismi bo'lgan ijtimoiy falsafiy tushunchadir" [3]

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida ma'naviyatga quyidagicha ta'rif berilgan. "Ma'naviyat – inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha. U kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini o'z ichiga oladi [4]

Shu o'rinda aytish joizki, hozirgi islohotlar ichki ishlar organlari xodimlarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalash muhimligini ko'rsatmoqda. Shu nuqtayi nazardan, tadqiqotchi olimlar tomonidan berilgan ta'rif va tavsiflarga e'tibor qaratsak.

E.Umarov va M.Abdullayevlar esama'naviyatga quyidagicha ta'rif beradilar, "Ma'naviyat deganda – shaxsiy ong, kishilarning ruhiy faoliyati, axloq, nafosat va nazariy qadriyatlar yig'indisi, haqiqat va himmat hamda go'zallikning qiyomi, insonning his-tuyg'ulari, insonning jamiki axloqiy qadriyatlari yig'indisi kabilar tushuniladi" [5], deb ta'kidlaydilar.

A.Erkayev esa "Ma'naviyat eng avvalo, alohida shaxsning, butun jamiyatning e'tiqod va qadriyatlariga aylangan g'oyalari, me'yorlari, amallaridir, ularning madaniy merosda va urf-odatlarda aks etishidir hamda ezgu niyatlarini, orzu-havaslarini amalga oshirishga qaratilgan ijodkor ongning, bezovta qalbning kamolotga intiluvchan faoliyatidir. Ma'naviyat shaxsning va jamiyatning insoniylashish darajasi, ya'ni, har bir narsa va hodisalarga baho berishda, ta'sir ko'rsatishda insoniylik me'yorlaridan kelib chiqib yondashishidir" [6], degan ta'rifni beradi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganidek, "Mening nazarimda, jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi – ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya'ni, bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyatga tayanamiz" [7], degan fikrlari har birimiz uchun dasturilamal bo'lishi zarur.

Ma'naviyat masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev 2023-yil 22-dekabr kuni ma'naviyat va madaniyat faollari, adabiyot va san'at namoyandalari bilan o'tkazilgan yig'ilishda mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g'arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarurligi ta'kidlandi.

Darhaqiqat, ma'naviyatli xodimlar ma'rifatli ajdodlari yo'lini davom ettirib, milliy urf-odatlar va qadriyatlarni hurmat qilib, kasbiy burchini sadoqat bilan bajaradi, mehr-oqibatli, adolatli, halol, kattalarga hurmatda, kichiklarga izzatda bo'ladi, xalqimizning har qanday kunlarida, ularning dardu-tashvishlari bilan yashaydi. Bunday fazilatlar ma'naviy-axloqiy tarbiya orqali singib boriladi.

Bugun jamiyatimizda, xususan, ichki ishlar organlari tizimida ham ayrim nopok xodimlar tizim obro'siga dog' tushirib, korrupsion jinoyatlarga qo'l urib, xizmat intizomini buzib kelmoqda. Shu boisdan xodimlar ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega bo'lsagina, ona Vatan oldidagi xizmat burchiga sodiq bo'lib, uni bajarishda fuqarolardan manfaaddor bo'lmaydi, xizmat mavqeini suiiste'mol qilmaydi, har qanday ishni qonun doirasida amalga oshiradi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya borasida o'zbek olimlari quyidagi fikrlarni bildirib o'tgan.

J. Xudoyqulov “Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning o’ziga xos vazifalari etib: 1) ma’naviy-axloqiy ongini shakllantirish; 2) ma’naviy-axloqiy his-tuyg’ularni tarbiyalash va rivojlantirish; 3) ma’naviy-axloqiy xulq-atvor ko’nikma va odatlarini tarkib toptirishdir”[8]. Xodimlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini kuchaytirish, ularni Vatan va xalq oldidagi mas’uliyatini yanada oshirish muhim hisoblanadi. Vaholanki, xodimlarda jamiyat va mamlakat hayotiga nisbatan daxldorlik tuyg’usi ma’naviy-axloqiy tarbiya orqali shakllanadi.

D. Farsaxanova “Ma’naviy-axloqiy tarbiya – jamiyatdagi ma’naviy-axloqiy me’yorlar mazmunini tushuntirish, ushbu me’yorning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini anglatish, ularda xalqning milliy-madaniy qadriyatlariga asoslangan holda yuksak insoniy fazilatlarini tarkib toptirish, ijobiy munosabatlarga kirisha olish ko’nikmalarini rivojlantirish kompetensiyalarini tarkib toptirish jarayonidir”[9].

Ichki ishlar organlari xodimlari kasbiy faoliyatining muvaffaqiyatli bajarilishiga insoniy fazilatlari katta yordam beradi, bunda ma’naviyat, kasbiy odob-axloq alohida ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatda ma’naviy-axloqiy muhitning shakllanishi va uning yanada yuksalishida ichki ishlar organlari xodimlarining munosib o’rni bor. Shunday ekan, Chunki bugungi islohotlarni

mazmunini teran anglashi va uning mazmun-mohiyatini aholimizga to’g’ri talqin qilishi, fuqarolar ongiga chuqur singdirishi uchun xodimlarning ma’naviy saviyasi yuksak bo’lishi kerak. Eng muhim xislatlardan biri xodimlar fuqarolarga vatanparvarligi, yurtga va millat kelajagiga daxldorligi, milliy qadriyatlarimizga sodiqligi, buyuk o’tmishimiz, tariximiz bilan g’ururlanib, jahon ilm-faniga katta hissa qo’shgan ajdodlarimizga munosib voris bo’lish tuyg’usi qalbida jo’sh urib turishi kerak bo’ladi.

Xulosa qilib aytganda, ichki ishlar organlarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning asosiy maqsadi – xodimlar xizmat burchini bajarishda adolatli, halol va shaxsiy mas’uliyatli bo’lishi lozim.

Ma’naviy-axloqiy tarbiyalash orqali ularning professionallik darajasi, jamoat bilan ishlash samaradorligi ortadi, kasbiy burchiga sadoqat bilan yondashadi, jamiyatda jinoyatchilik va huquqbuzarlik kamayib, odamlarda xavfsizlikka ishonch hissi shakllanadi. Ma’naviy-axloqiy tarbiya orqali xodimlar nafaqat o’z kasbida muvaffaqiyatga erishish, balki jamiyatda farovon hayotni ta’minlashda munosib hissa qo’shadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Temur tuzuklari . – T., 2011. – B. 92.
2. O’zbek tilining izohli lug’ati. – T., 2018. – B. 565. Elektron manba: // URL–https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/pdf.
3. Nazarov Q. Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug’ati. – T., 2021. – B. 345.
4. O’zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. – T., 2017. – B. 334. Elektron manba: // URL–https://n.ziyouz.com/books/uzbekiston_milliy_ensiklopediyasi/pdf.
5. Umarov E. Abdullayev M. Ma’naviyat asoslari. – T., 2005. – B. 6.
6. Erkayev A. Milliy g’oya va ma’naviyat. – T., 2002. – B. 5-6
7. Mirziyoyev Sh. Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T., 2023. – B. 261.
8. Xudoyqulov X. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – T., 2020. – B. 20.
9. Farsaxanova D.R. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talablarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalash metodikasini takomillashtirish: Dis ped, kand nauk.... Avtoref. – T., 2020. – B. 17.

AVTOMAKTAB O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUV

I. B. IBROHIMOV,

IIV Akademiyasi Avtomobil tayyorgarlik kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya.

Ushbu maqolada mamlakatimizda avtomaktab o'qituvchilarni tayyorlashga davlatimiz tomonidan ishlab chiqilayotgan chora-tadbirlar, avtomaktab o'qituvchilariga qo'yiladigan talablar va ularning kasbiy kompetentligi, avtomaktab o'qituvchilar malakasini oshirish yo'llari va sharoitlari yoritilgan.

Tayanch so'zlar:

avtomaktab, o'qituvchi, kasbiy kompetentlikning yangicha yondashuvi, xorijiy olimlar tajribasi.

Аннотация.

В данной статье описаны мероприятия, разработанные в нашей стране для преподавателей автошкол, требования к их профессиональной компетентности, пути и условия повышения квалификации преподавателей автошкол.

Ключевые слова:

автошкола, преподаватель, новый подход к профессиональной компетентности, опыт зарубежных ученых.

Annotation.

This article describes the activities and events developed by our government for the training of driving school teachers in our country, the requirements for driving school teachers and their professional competence, ways and conditions for improving the qualifications of driving school teachers.

Keywords:

driving school, teacher, new approach to professional competence, experience of foreign scientists.

Avtomaktab o'qituvchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida turli ixtisosliklar o'qituvchilarining intellektual salohiyatini oshirish, dunyo-qarashlarini boyitishda ularni innovatsion ta'lim texnologiyalari bilan yaqindan tanishtirish muhim ahamiyatga ega. Respublikamizda ta'limning moddiy-texnik ta'minotini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida axborot-ta'lim muhitini yaratish, axborot resurslarini ishlab chiqish, ularni ta'lim jarayonida qo'llash metodikalarini takomillashtirish, o'quvchilar va o'qituvchilarning jahon ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlari kengaytirilmoqda. Shu o'rinda har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Xo'sh, kompetentlik nima? Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi? Pedagog o'zida qanday kompetentlik sifatlarini yoritish zarur. Ayni o'rinda shu va shunga yondosh g'oyalar yuzasidan so'z yuritiladi.

"Kompetentlik" – Avtomaktab o'qituvchilarida pedagogik kategoriya sifatida ta'lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtayi nazardan kom-

petentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan (nostandart) holatlarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi. Shundan kelib chiqqan holda kasbiy kompetentlik kategoriyasiga quyidagicha izoh keltirilgan.

"Kompetentlik" (ingl. "competence" – "qobiliyat") – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish hisoblanadi.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishini ko'zda tutadi.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va hatti-harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, "kompetensiya" mutaxassislik bilimlarini doimo

boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Kompetentlik deganda, alohida bilimlar va ko'nikmalar yoki faoliyatning alohida harakatlarining yig'indisi to'g'risida emas, balki, insonga mehnat faoliyatini to'lato'kis amalga oshirish uchun kerak bo'ladigan xususiyat haqida so'z yuritiladi.

Kasbiy kompetentlik tor ma'noda malaka talablari doirasida bevosita xizmat vazifalarini bajarish uchun ahamiyatga ega bo'lgan shaxs sifatleri yig'indisining xarakteristikasi sifatida tushuniladi. Shu nuqtayi nazardan kasbiy kompetentlik shaxs kasbiy sifatlarining negizi hisoblanadigan hamda mehnat va texnologik

jarayonlarni tahlil qilish, texnik hujjatlarni va topshiriqlarni tahlil qilish, mehnat jarayonini bexato amalga oshirish, texnologik talablarga rioya qilish, qo'shimcha malakalarni egallash, madaniyat va jarayonlarni tashkil etishning yuqori darajaliligi, texnologik jarayonda vujudga keladigan nosozliklarni bartaraf etish kabi faoliyatning elementlari orqali taqdim etilgan kasbiy kompetentsiyalarga ega bo'lishni taqozo etadi.

Bunday yondoshuvda kasbiy kompetentlik va shunga mos ravishda kompetensiya xizmatchi uchun boshqa muhim kompetensiyalar bilan bir qatorda turadi.

Yuqorida sanab o'tilgan kompetentliklarning barchasi bir insonda mujassam bo'lmasligi mumkin. Inson o'z yo'nalishi bo'yicha yaxshi mutaxassis bo'lishi mumkin, lekin muloqotga kirisha olmasligi, o'zo'zini takomillashtirish bo'yicha vazifalarni amalga oshira olmasligi mumkin. Shunga ko'ra, uning maxsus kompetentligini yuqori darajada, ijtimoiy va shaxsiy kompetentligini pastroq darajada, deb e'tirof etish mumkin.

Bundan kelib chiqib shuni ta'kidlash joizki, kasbiy kompetentliklar borki, ular ko'plab kasblar uchun asos bo'lib xizmat qiladi va ishlab chiqarishda ham, ijtimoiy amaliyotda ham qo'llanilganda o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Yuqorida sanab o'tilgan kasbiy kompetentliklarning har bir turi shunday kasblararo umumiy tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi. Masalan, maxsus kompetentlik – ishlab chiqarish jarayonlarini rejalashtirish, texnika bilan ishlash ko'nikmalari, texnik hujjatlarni o'qiy bilish, qo'l ishlarini bajarish malakalariga; shaxsiy kompetentlik – o'z faoliyatini rejalashtirish,

nazorat qilish va boshqarish, mustaqil ravishda qarorlar qabul qilish, nostandart yechimlarni topa olish (kreativlik), tez moslashuvchan nazariy va amaliy fikrlash, muammoni ko'ra bilish, yangi bilim va ko'nikmalarni mustaqil ravishda egallay olish layoqatiga; individual kompetentlik – motivatsiyaga, muvaffaqiyat zaxiralariga ega bo'lish, bajaradigan ishining sifatini oshirishga intilish, o'zo'zini safarbar qila olish, o'ziga ishonch va optimizmga ega bo'lishni taqozo etadi.

Shu bilan birga, kompetentlikni bilimlarga yoki ko'nikma va malakalarga qaramaqarshi qo'yish ham mumkin emas. Kompetentlik tushunchasi bilim yoki ko'nikma yoki malaka tushunchalariga nisbatan kengroq, kompetentlik ularni ta'lim natijasi sifatida o'z ichiga oladi (lekin bunda kompetentlik bilim, ko'nikma va malakalarning oddiy yig'indisi emas, bir muncha boshqacharoq mazmundagi tushunchadir). Kompetentlik tushunchasi nafaqat kognitiv va operatsiyaliteknologik, balki motivatsion, axloqiy, ijtimoiy tarkibiy qismlarni ham o'z ichiga oladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, ta'lim jarayonining ham mazmunini, ham shakllarini baravariga o'zgartirish zarur. Bunda o'zgartirilgan shakllar ta'lim oluvchilarga ma'lum bir kompetensiyalar bo'yicha bilim bermasdan, balki, butun ta'lim jarayoni davomida ular asosida faoliyat olib borishlarini ta'minlashi kerak. Ya'ni, ta'lim oluvchi navbatdagi ko'nikmalar to'plamini shakllantirish yo'li bilan bo'lajak kasbiy faoliyatiga tayyorlanishi emas, balki, kompetensiyalarni shu yerda va hozir singdirib borishi kerak.

Avtomaktab o'qituvchilarida kompetentlik ta'limi natijasida quyidagilar ta'minlanishi kerak:

- o'zo'zini harakatga keltirish manbai sifatida ta'lim olishga ichki motivatsiyaning mavjud bo'lishi;

- yaxlit faoliyatni egallash sharti sifatida o'quv faoliyati jarayonida o'zo'zini tashkillashtirish qobiliyati;

- har bir odamga o'zining u yoki bu o'quv materialini o'zlashtira olish darajasini aniqlash imkonini beruvchi o'zo'zini differentsiatsiyalash (o'z darajasini aniqlay bilish) qobiliyati;

- ta'lim oluvchi tomonidan shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan natijalarga erishishlik;

- ta'lim jarayonining barcha subyektlari orasidagi o'zaro bog'langan samarali faoliyatning mavjudligi.

Shu bilan birga, kompetentlikka yo'naltirilgan

ta'limning metod va texnologiyalari ma'lum bir sharoitlarda shakllantirilgan qobiliyatlarni boshqa bir sharoitlarga oson ko'chishi va moslashuvchanligini ta'minlashi kerak, ya'ni "nodativ faollik" xususiyatini hosil qilishi kerak.

Kompetentlik yondoshuv ta'lim sifatini baholash uchun ham juda muhim hisoblanadi, chunki, ta'lim oluvchi tomonidan erishiladigan asosiy ta'limiy natija – kompetentlik hisoblanadi, uning asosiy ko'rsatkichlari esa, bir tomondan ta'lim standartlarining me'yoriy talablariga muvofiqligi, ikkinchi tomondan, shaxsning va turli ijtimoiy guruhlarning ehtiyojlariga mosligidir. Xususan, kompetentlik yondoshuvini tizimli tahlil etishga, uni umuman ta'lim tizimida ham, kasbiy ta'limda ham qo'llashning nazariy-metodologik va didaktik asoslarini aniqlashga doir ilmiy tadqiqot ishlari deyarli yo'q, deb aytish mumkin.

Hozirgi zamon dunyo ta'lim tajribasida kompetentli yondashuv keng tarqalgan. "Kompetensiya" markaziy tushuncha sifatida ta'lim tizimining barcha bilim va ko'nikmalarini o'zida birlashtiradi. "Kompetensiya" tushunchasida ta'lim mohiyati shakllanib, g'oyasi mujassamlashadi. Uning aniq natijalarini ko'zlagan maqsadi — kompetensiyaning eng muhim qirralari, doimo rivojlanish tabiatiga ega bo'lgan, universal bilimlar asosida shakllangan mustaqil faoliyat tajribalaridan iborat, madaniyat va faoliyatning keng tarmoqlariga taalluqli unsurlarni o'z ichiga oladi.

Amaliy kompetentlik doimo o'sib boruvchi dinamik hodisadir, malaka oshirish va o'z ustida ishlash jarayonining natijasi hisoblanadi. Bilim va mahorat, hatto ijobiy yo'nalish ham vaqt o'tishi bilan eskirib qoladi, jamiyatning zamonaviy talablariga, yangi texnologiyalarga mos kelmasligi mumkin. Jamiyat ham, odamlar, muammolar ham o'zgarib bormoqda. Demak, bu vazifalarni yechish uchun yondashuv va metodlarni ham o'zgartirish talab etiladi. Kompetensiya o'z bilimlarini tinmay boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, shu kun va davr talablarini his etishni, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, ularni qayta ishlashni hamda o'z amaliy faoliyatida qo'llashni talab qiladi. Kompetensiya egasi bo'lgan mutaxassis muammolarni yechishda o'zi o'zlashtirib olgan, aynan shu sharoitga mos metod va yo'llardan foydalanishni yaxshi bilishi, hozirgi vaziyatga munosib bo'lgan metodlarni tanlab olib qo'llashi, to'g'ri kelmaydiganlarini rad etishi, masalaga tanqidiy ko'z bilan qarashi kabi ko'nikmalarga

ega bo'ladi.

Avtomaktab o'qituvchilarining mustaqil fikrlash, ijodkorlik, faollik, munosabatlarining chuqurlashib hamda boyib borishi, xarakter hamda dunyoqarashlarining turg'unligi, o'z-o'zini nazorat qilish va tarbiyalashga bo'lgan ehtiyojlarning shakllanishi kabi holatlar bilan tavsiflanadi. Bo'lajak kasb egalari uchun ta'lim muassasalarida ta'lim olish jarayoni – bu insonda mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishda ahamiyatli sanalgan kasbiy bilim, sifat, kompetentlik va mezonlar asosida rivojlantirish hamda o'z-o'zini takomillashtirishning eng maqbul davridir. Ta'lim oluvchilar ushbu jarayonda bilimlarni jamlash, saqlash, uzatish, ularning mantiqiy tuzilmasini yaratish va istiqbolda kasbiy faoliyatini tashkil etishda ulardan samarali foydalanish kabi holatlarni o'zida mujassam ettiradi. Avtomaktablar o'qituvchilarining kasbiy pedagogik professionalizmi - pedagogik mahorati va o'z kasbiy faoliyatini yuqori saviyada tashkil qila olishni ta'minlovchi, o'qituvchi- pedagog shaxs xususiyatlarini yig'indisidir. Shunday muhim xususiyatlarga o'qituvchi faoliyatining insonparvarlikka yo'naltirilganligi, uning kasbiy bilimlari, pedagogik qobiliyatlari va pedagogik texnikasi (o'z-o'zini boshqara olish ko'nikmalari va tinglovchilar bilan o'zaro hamkorlik qila olish malakasi) kiradi. Bu pedagogik mahorat tizimidagi o'zini tashqi ta'sirlarsiz rivojlantira olish xususiyatiga ega to'rtta o'zaro bog'liq jihatlardir. Shundan kelib chiqib ta'kidlash mumkinki, o'qituvchi professionalizmi – bu shaxs va faoliyat subyektining murakkab, ko'p qirrali integral xususiyatlari majmuasi bo'lib, uning tuzilmasi quyidagilardan iborat: a) o'qituvchi professionalizmini tashkil etuvchi yaxlit komponentlar; b) o'qituvchi faoliyati va shaxsiga qo'yilgan me'yoriy talablar bilan belgilangan umumiy yoki tipik xususiyatlar (me'yoriy professionalizm). v) o'qituvchi subyekt sifatida pedagogik faoliyat va muloqotda namoyon bo'luvchi individual-psixologik va tipologik xususiyatlari pedagogik kasbiy kompetensiyalarining asosiy tarkibiy qismlari sifatida "kasbiy mahorat", "pedagogik faoliyat va muloqotning individual uslubi", "pedagogik ijodkorlik", "shaxsiy kasbiy salohiyat"ni belgilash mumkin.

Bular "Mahorat, Uslub, Salohiyat, Mohirlik (texnika) - Ijod – Artistizm" formulasida o'z aksini topgan yaxlit tizimni tashkil etadi va pedagogik kompetensiyalar ning ko'rsatkichlari

hisoblanadi. Avtomaktab o'qituvchi va haydovchilar professionalizmi – bu tinglovchilar bilan hamkorlik va do'stona munosabatlar jarayonida namoyon buladigan "ta'lim va tarbiya berish san'ati, pedagogik mahorat, pedagogik texnika va erkin ijod" dir .

Myhokamalar. Innovatsion yondashuv (pedagogik innovatika, pedagogik innovatsiya) – Yaqin o'tmishda "Innovatsion ta'lim", "Innovatsion faoliyat" va "Innovatsion jarayonlar" terminlari respublikamizning pedagogik adabiyotlarida juda kam kuzatilar edi. Innovatsion ta'lim so'zining zamirida yangilikni tashkil qilish, yangilikni o'zlashtirish, yangilikdan foydalanish, yangilikni namoyon etish kabi kompleks faoliyat yotadi.

Innovatsion ta'lim - ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim.

"Innovatsion ta'lim" tushunchasi birinchi bor 1979-yilda "Rim klubi"da qo'llanilgan.

Innovatsion ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta'lim texnologiyalari yoki ta'lim innovatsiyalari deb nomlanadi.

Ta'lim innovatsiyalari-ta'lim sohasi yoki

o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar

Ta'lim sohasida innovatsion jarayon – bu ta'lim konsepsiyasidagi, o'quv dasturlaridagi, usul va uslublardagi, tarbiya va o'qitish usullaridagi yangilik va o'zgarishlardir. Ta'lim sohasida innovatsion jarayonlar so'zining tub ma'nosida pedagogikaning ikkita muhim – o'rganish, umumlashtirish va ilg'or pedagogik tajribalarni ommalashtirish muammosi va pedagogika fanlari yutuqlarini amaliyotga tatbiq etish muammosi yotadi. Shunday ekan, innovatsiyaning predmeti va innovatsion jarayonlarning tarkibi, mexanizmli bir-biriga o'zaro bog'liq bo'lgan jarayonlar jamlanmasi tarkibida bo'lishi kerak. Aynan, innovatsion faoliyat xizmat ko'rsatish bozorida oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi raqobatbardoshlikning asosini yaratibgina qolmay, professor – o'qituvchining kasb mahoratining o'sishini, ijodiy izlanishini, amaliy jihatdan ochib beradi. Shuning uchun ham, innovatsion faoliyat o'qituvchilarning ilmiy-uslubiy faoliyati va talabalarning o'quv jarayoniga ijodiy faoliyati bilan uzluksiz bog'liq.

Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy



talablarningan'anaviyme'yorlargamoskelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmual muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat Ta'limdagi pedagogning innovatsion faoliyati tuzilishini tahlil qilishda turli xil yondashuvlar mavjud. Masalan, A.Nikolskayaning fikricha, faoliyatni yangilash 3 bosqichda, ya'ni tayyorgarlik, rejalashtirish va joriy etish bosqichlarida amalga oshiriladi.

«Innovatsion faoliyat» tushunchasini tahlil qilar ekanmiz: G.A.Mkrtchyaning bu haqdagi fikri diqqatga sazovor: – «Pedagogik tajribas-inov faoliyatining 3 ta asosiy shaklini ajratish mumkin: xususiy tajriba, tajriba-sinov ishi, o'qituvchining innovatsion faoliyati. Pedagogik faoliyatda innovatsiyalar qancha ko'p bo'lsa, o'qituvchi xususiy eksperimentni shuncha yaxshi tushunadi».

Innovatsion faoliyat bu amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy-madaniy obyekt sifatlarini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy subyektlarning harakat tizimi bo'lib, u ma'lum doiradagi muammolarni yechish qobiliyatigina emas, balki har qanday vaziyatdagi muammolarni yechish uchun motivatsion tayyorgarlikka ega bo'lishdir. O'qituvchi innovatsion faoliyatining markaziy masalasi o'quv jarayonini samarali tashkil etishdan iborat.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishni muammoli o'qitish jarayonida amalga oshirish

ham maqsadga muvofiq bo'ladi, buning mohiyati kasbiy faoliyatni yaxlit tizim sifatida ko'rish, unda tizimli faoliyat ko'rsata bilish, yangi muammo va masalalarni hal eta bilish tajribalarini shakllantirish uchun zamin yaratishga xizmat qiladigan kasbiy faoliyat elementlarini ta'lim jarayoniga kiritishdan iborat.

Ta'lim tizimini texnologiyalashtirish g'oyasi o'tgan asrning boshlarida G'arbiy Yevropa va AQSHda ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim samaradorligini oshirish, shaxsning ijtimoiylashuvini ta'minlash uchun muayyan shart-sharoitni yaratish borasidagi ijtimoiy harakat yuzaga kelgan davrda ilk bora o'rta tashlandi. Mazkur g'oya 30-yillarda ta'lim jarayoniga "pedagogik texnika" ("ta'lim texnikasi") tushunchasining olib kirilishi bilan asoslandi. Ushbu davrlarda yaratilgan maxsus adabiyotlarda "pedagogik (ta'lim) texnika(si)" tushunchasi "o'quv mashg'ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga ko'maklashuvchi usul va vositalar yig'indisi" tarzida talqin etildi hamda o'quv jarayoniga o'quv va laboratoriya jihozlarining olib kirilishi, ulardan samarali, unumli foydalanish, material mazmunini ko'rsatmali qurollar yordamida tushuntirish kabi holatlar ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beruvchi yetakchi omillardir deya baholandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev rahbarligida 2022-yil 11-fevral kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida "Xavfsiz va ravon yo'l" tamoyili.
2. "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan 2022-yilning 4-aprel kunidagi "Avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ishonchli ta'minlash va o'lim holatlarini keskin kamaytirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-190-sonli qarori.
4. Shukurov N.R. Ways to Reduce Harmful Emissions from Vehicles. Pioneer: Journal of : 10.03.2023 P.68-73 6.
5. Ibrohimov I.B. Avtomaktab o'qituvchi va haydovchi-yo'riqchilarining kasbiy kopetentligini rivojlantirish: O'quv-uslubiy qo'llanma. – T., – B. 112–119.
6. Ibrohimov I.B. Sharipova D.D. Avtomaktab o'qituvchi va haydovchi-yo'riqchilarining kasbiy kompetensiyalarini kompleks yondashuv asosida rivojlantirish. Qo'qon davlat pedagogika instituti Pedagogik tadqiqotlar: dolzarb muammo va echimlar. International Scientific and Practical Conference. – T., 2024. – B. 204–213.
5. Ibrohimov I.B. Avtomaktab o'qituvchi va haydovchi-yo'riqchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda haydovchi madaniyatining o'rni // Conference on the role and importance of science in the modern world. Volume 01.Issue 10.2024 187-196 b.
6. Ibrohimov I.B., Sharipova D.D. , Shukurov N.R. Avtotransport vositalari haydovchilarini tayyorlashda xorijiy davlatlar tajribasi // Mug'allim ham uzluksiz bilimlendiriyo' ilmiy metodikalik jurnal. – 2024. – 01 yanv.

HARBIY-VATANPARVARLIK TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHDA DINIY VA DUNYOVIY QARASHLAR IJTIMOY-PSIXOLOGIK MEZON SIFATIDA

E. N. SIRLIYEV,

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
"Harbiy vatanparvarlik, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya
va yoshlar bilan ijtimoiy ishlash" kafedrası dotsenti,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya.

Mazkur maqola yoshlarda harbiy-vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishning diniy va dunyoviy ta'limotlarda o'rganilganlik holati yuzasidan, ijtimoiy-psixologik tomonlarini qiyosiy tahlil qilish orqali takomillashtirishga metodologik zamin yaratadi.

Tayanch so'zlar:

Vatan, vatanparvarlik, vatanparvarlik tuyg'usi, axloq, dunyoqarash, e'tiqod, insonparvarlik, o'z-o'zini anglash, sentimentallik, tafakkur tezligi, shaxs kamoloti, iroda, irodaviy faoliyat, matonat, maqsadga intilish.

Аннотация.

В данной статье освещается методологическая основа формирования военного патриотизма у молодежи путем сравнительного анализа социально-психологических аспектов и духовных взглядов.

Ключевые слова:

родина, патриотизм, чувства патриотизм, поведение, мировоззрение, вера, гуманизм, самоопределения, воля, волевая деятельность, целеустремленность.

Annotation.

This article creates a methodological basis for improving the formation of military-patriotism in young people through comparative analysis of the socio-psychological aspects of the state of study in religious and secular teachings.

Key words:

homeland, patriotism, sense of patriotism, ethics, faith, humanity, self awareness, sentimentality, speed of comprehension, personality development, the will, determinative activity, tenacity, pursuit of a goal.

Vatanparvarlik tushunchasi murakkab kategoriya bo'lib, turli xil asoslarga egaligi bilan boshqa shaxsiy sifat va fazilatlaridan tubdan farq qilib, jumladan, siyosiy, ijtimoiy, madaniy, pedagogik, psixologik, diniy hamda dunyoviy talqinga ega. Vatanparvarlik har qanday millatga xos diniy va dunyoviy tushuncha bo'lib, o'z Vatanining yutuqlari va madaniyati bilan faxrlanishni, uning xarakteri va madaniy xususiyatlarini saqlab qolish istagini, shuningdek, o'z xalqi, millatining boshqa vakillari bilan shaxsiy identifikatsiyani nazarda tutadi. Kishi qalbida vatan tuyg'usi shakllanishi jarayonining murakkabligi nafaqat unda ishtirok etuvchi tomonlarning ko'pligi bilan belgilanadi, balki tarixiy vaziyat, ijtimoiy-siyosiy muhit va boshqa ko'plab shart-sharoitlarga, shu jumladan dinga ham bog'liqligini hisobga olish zarur. Dinning vatanparvarlik tarbiyasidagi o'rni va ahamiyatiga yetarli darajada e'tibor bermaslik tarbiyaviy jarayonning natijasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Dinning shaxs vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishdagi tutgan o'rni va ahamiyati mavzuning dolzarb ahamiyatini belgilaydi. Yoshlarda

harbiy-vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish yuzasidan diniy va dunyoviy sohalar erishgan yutuqlardan foydalanish hamda metodologik asos sifatida qo'llashga psixologik ehtiyoj mavjud.

Ushbu dolzarblik faylasuflar, pedagoglar hamda milliy g'oya yo'nalishi mutaxassisleri tomonidan bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Ilmiy izlanish va qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, ushbu ilmiy-tadqiqot ishlari yoshlarda harbiy-vatanparvarlik tuyg'usini diagnostik o'rganish hamda shaxsga xos harbiy-vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mezonlari aniq ochib berilmagan. Shu bilan birgalikda, harbiy-vatanparvarlik tushunchasiga olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari hamda O'zbekiston milliy ensiklopediyasida alohida ta'rif berilmagan. Yuqorida keltirib o'tilgan bir qator dolzarbliklar yechimini shaxs ijtimoiy-psixologik jabhalariga ilmiy-nazariy yondashish orqali amalga oshirishni maqsad qildik.

"Vatanparvarlik" insonning oilasiga, tug'ilib o'sgan yurtiga, xalqiga va vataniga bo'lgan pok

tuyg'usi, ya'ni muhabbatidir [14; 444-b]. "Harbiy vatanparvarlik" – shaxsga xos vatanparvarlik sifatining drayver tarkibi bo'lib, millat va davlat daxlsizligi yo'lida barcha imkoniyatlarini jismoniy hamda psixologik safarbar etishidir [muallif ta'rifi]. Vatanga muhabbat har bir insonda mamlakat erishgan yutuqlari, betakror madaniyatidan faxrlanish, uning boshqalardan farq qiluvchi jihatlarini anglash va avaylab asrash, g'amxo'rlik ko'rsatish, vatan va xalq manfaatlarini himoya qilishga o'rgatadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "...vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma'naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi" [1; 229-b]. Diniy qarashlarda ham vatanparvarlikka xos xususiyatlarni o'zida aks ettiradigan psixologik mezonlar bo'lib, uning asosini g'ayri tabiiy kuchga e'tiqod qilish tashkil etadi. Uning asosida kishining hayotga bo'lgan munosabati, yashashdan maqsadi, intilishi, qadriyatlari, burch va mas'uliyati yuzaga keladi. Hayotiy ehtiyojlari, istak va mayllari jilovlanib, ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarga ilohiy tus beriladi. Kishi muqaddas deb bilgan voqelik va hodisalarga munosabati shakllanadi. Inson uchun muqaddas qadriyatlarning eng ulug'i bu Vatandir. Vatanga muhabbat millatni anglash, qudratini tan olish, ona tili, urf-odat va an'analarimizga hurmat, uning qadrini bilish bilan omixtalanadi. Milliy ong, milliy ma'naviyat "milliy kayfiyat"ning yuzaga kelishidan boshlanadi. Diniy e'tiqod "milliy kayfiyat"ning asosidir [6; 4-b].

Vatanparvarlik tushunchasi mazmunan juda keng bo'lib, u inson ruhiyatining asosini tashkil etishi bilan dinga yaqin turadi. Dinimizning biz uchun yana bir muhim ahamiyati insonparvarlikka asoslanganligidadir. Insonparvarlik shaxs ma'naviyatini yuksaklikka ko'taradi, uning makon va zamonda chegaralanmasligiga shart-sharoit yaratadi, abadiylikka daxldorlik, millat xotirasida saqlanib qolishiga ko'maklashadi. Vatanparvarlik g'oyasi din orqali jamiyatga chuqur kirib borishi, dinning ijtimoiy mavqeini mustahkamlaydi. Nemis faylasufi Kant din inson tomonidan barcha axloq normalarini Xudoning amri sifatida tan olishdir, – deb bekorga aytmagan bo'lsa kerak. Axloq normalari odamlarning vataniga muhabbatini ulug'laydi. Din, insonga o'ziga xos ta'sir kuchiga ega, uning ishtirokida insonning dunyoqarashi e'tiqodga aylanadi. Vatanga bo'lgan muhabbat kishining e'tiqodiga aylanmas ekan uning qalbida chuqur ildiz otmaydi hamda uning ta'sir kuchi zaiflashadi. Uning odamlarga ta'sir kuchini

yanada mustahkamlaydigan vosita sifatida o'zini namoyon qiladi. Dinning insonga ta'sir kuchini N.Berdyayev aniq ifoda etgan, "Xudo na tabiat, na jamiyat va na davlat kuchiga o'xshaydi" [5; 585-b]. Dinning etnik jarayonga ta'siri turli oqibatlariga olib kelishini hisobga olgan rus mutafakkir adibi L.N.Tolstoy vatanparvarlikning millat va davlat miqyosida cheklanganligi, nasroniylik va vatanparvarlikning mazmunan bir biriga mos kelmasligini ta'kidlagan [13; 26-b]. Adibning din va vatanparvarlik o'rtasidagi munosabatlarda ziddiyatli holatlar to'g'risidagi fikr va mulohazalari, diniy e'tiqodning jamiyat va inson hayotida muhim ahamiyatga ega ekanligini inkor etmaydi. Aksincha, diniy e'tiqodning vatanparvarlik va davlat bilan o'zaro aloqadorligining dialektik mazmunini hisobga olish zarurligidan dalolatdir.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, sobiq sho'ro tuzumida hukmron bo'lgan ateizm (dahriylik) mafkurasi ham barham topdi. Islom dini asriy tutqunlikdan so'ng yana o'zining mavqeini tiklab, jamiyatning ma'naviy hayotida ahamiyatga ega bo'la boshladi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov aytganlaridek "...muqaddas dinimizning haqqoniyligi va pokligi, insonparvarligi va bag'rikengligi, odamzotni doimo ezgulikka chorlashi, hayot sinovlarida o'zini oqlagan qadriyat va an'alarini ajdodlardan avlodlarga yetkazishdagi beqiyos o'rni va ahamiyati bilan bog'liq" [7; 18-b]. O'zbekistonda islom dinining ijtimoiy-siyosiy mavqeining o'zgarishi qator ijtimoiy va ma'naviy muammolarni ham keltirib chiqardi. O'zbekiston dunyoviy davlat bo'lsa-da, ijtimoiy hayotda, ayniqsa jamiyatning ayrim tabaqalari orasida diniy mafkuraning salmog'i yuqoriligicha qolmoqda. Umuman, din hozirgi sharoitda muhim ijtimoiy-madaniy hodisadir. Tarixda islom dini an'alarini jamiyat va inson hayotining barcha sohalarini mutlaq zabt etish, urf-odatlar va an'alarga diniy mazmun berish, jamiyatni boshqarish ishlarini ham ilohiylashtirish kuzatilgan. Masalan, o'zbek madaniy merosini diniy va dunyoviy sohalariga bo'lib bo'lmaydi. Hatto ilmiy taraqqiyot ham diniy qobiqda rivojlanib kelgan. Diniy element jamiyat va kishi hayotiga shunchalik chuqur o'rnashgan, diniy marosim dunyoviy element bilan uyg'unlashib ketgan. Shuning uchun hozirgi o'zbek shaxsining mentaliteti diniy elementni yadro sifatida o'z hayoti doirasida ushlaydi. O'zbekistonning dunyoviy davlat deb e'lon qilinishi dinni inkor qilinishini anglatmaydi. Dunyoviylik dinga nisbatan birmuncha yumshoq munosabatda bo'ladi,

fan va dinning hur rivojlanishi, o'zaro tolerant (hamjihat)lik mavjudligining tarafdori bo'ladi. Lekin aholining aksariyat qismi dunyoviylik prinsipini qabul qilmishi murakkab kechadi. Buning sababi dunyoviylik ateizm bilan almashtiriladi, dunyoviylikning hayotbaxsh salohiyati, demokratik jamiyat qurish hamda inson huquq va erkinliklari kafolati uchun qanchalik muhim ekanligini barcha ham birday anglay olmasligidadir. Hozirgi davrda aholining dindorlik darajasi o'sishining yangi to'lqini fikrimizning isbotidir. Din axloqiy tarbiya sohasida muhim ahamiyatga ega vazifani bajaradi. Biroq dinni siyosiy maqsadlar uchun niqob qilib olish, diniy davlat barpo etish vositasida yana o'rta asr sakralizatsiya tendensiyasini ijtimoiy hayotda tiklashga urinish dunyoviy qadriyatlarga asoslangan konstitutsiyamiz va amaldagi qonunlarimizga ziddir. Eng asosiysi, dunyoviy taraqqiyot yo'lini tanlagan xalqimiz diniy e'tiqodni chuqur hurmat qilgan holda dunyoviy yaratuvchanlik faoliyatini afzal ko'rishini singdirish talab etiladi. Xulosa tariqasida aytish joizki, istiqloq tufayli o'zbek xalqining ko'p asrlik boy tarixiy, ilmiy, madaniy, ma'naviy va diniy merosini o'rganish hamda undan xalqning bebaho mulki sifatida foydalanishgakengyo'lochildi. Muqaddas dinimiz xalqimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, milliy ma'naviyatimizda uning tutgan o'rni va ahamiyatini yuksaltirish, fuqarolarimizni yanada jipslashtirishga xizmat qilmoqda. [10; 404-b].

Zotan, insonning boshqa jonzotlardan farqi, boshqacha aytganda, insonni hayvondan ajratib turadigan narsa uning o'z ixtiyori bilan tanlab olgan dini, iymoni bo'lsa, Yaratgan nazdida eng maqbul yagona din – Islomdir va Dinning asosi – manbai Qur'oni Karimdir [2; 624-b].

Islomda Vatanga muhabbat bu – tug'ilib o'sgan yurtini e'zozlash, uning ravnaqi uchun bor imkoniyatini sarf qilishdir! Musulmon kishi Vatanini sevadi! Uning iqboli uchun harakat qiladi, uni himoya qiladi, xursand bo'lsa – xursand, xafalik yetsa – qayg'uradi. Shuning uchun ham kishi o'z yurtidan uzoqlashganda, uni qo'msaydi va sog'inadi.

Vatanni sevishimizga bir qancha sabablar bor. Jumladan, Alloh taolo taqdirimizni shu yerga bitdi. Shu Vatanda tug'ilib o'sdik, tarbiya topdik. Bu Vatanda eng sevimli qarindoshlarimiz, yaqinlarimiz yashashadi. Buning ziyodasiga bu zaminni son-sanoqsiz ulug' zotlar, Allohning do'stlari vatan tutishgan.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, inson o'zi tug'ilib o'sgan vatanini qadriga yetishi, haqiga duo qilishi va obodligiga hissa qo'shishi bilan

birga birinchi vatani bo'lmish – jannatga borish sabab va omillarini bajarib, ularni unutmasligi zarur. Chunki Mulla Ali Qori rahmatullohi alayh o'zlarining “Mirqotul mafotih” kitoblarida: “Insonning birinchi vatani – jannat” deganlar [9; 452-b].

Diniy qarashlarda vatanparvarlik to'g'risida keltirib o'tilgan faktlar shaxs harbiy-vatanparvarligi takomillashuvi uchun ijtimoiy-psixologik mezon ekanligini ko'rishimiz mumkin. Endi vatanparvarlik tuyg'usini shakllanishida dunyoviy ta'limotning o'rni haqida to'xtalib o'tamiz. Vatanparvarlik tuyg'usini boshqa fazilatlardan alohidaligi shundaki, vatanparvar bo'lish uchun shaxsdagi barcha ijobiy sifatlar takomillashgan va salbiy sifatlar me'yoriy holda bo'lishi talab etiladi. Jumladan, shaxsga xos quyidagi ijobiy fazilatlar insonni vatanparvar deyilishiga sabab bo'ladi:

Vatanparvarlik – shaxsning o'z vataniga bo'lgan muhabbati, cheksiz sadoqati bilan sifatlanadigan xarakter xislati. Kishilarning ona yurtiga, o'z oshyoniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo'lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg'u, ma'naviy qadriyatlardan biri [15; 65-b]. Ushbu qadriyatlar shaxslararo munosabatlarda bir-biriga bo'lgan o'zaro hurmat paydo bo'lishiga sabab bo'lib, insonparvarlik fazilatining takomillashuviga sabab bo'ladi.

Insonparvarlik – odamni sevish va uning qadrimmatini hurmatlashdan iborat ijobiy xarakter xislati. Inson taqdiri, xalq manfaatlari, mamlakat kishilari haqida g'amxo'rlik insonparvarlikning asosiy masalasidir [16; 209-b]. Yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish jarayonida insonparvarlik bilan birgalikda milliy iftixor tuyg'usini takomillashtirish talab etiladi. Milliy qadriyatlar, milliy ong, o'zlikni anglash va o'zbekligidan g'ururlanish milliy iftixor tuyg'usining yuqoriligidan dalolat beradi. Vatanparvarlikning yana bir mezoni shaxsning tarbiyalanganlik darajasi hisoblanadi. Tarbiyalanganlik – shaxsning muayyan jamiyatga xos bo'lgan ijobiy xarakter xislatlariga ega bo'lishdan iborat sifatidir [17; 114-b]. Shaxsning jamiyatda o'z o'rnini topishi va vatanparvar fuqaro bo'lishi uchun undan yuqori darajadagi faollik talab qilinadi.

Faollik – shaxsning o'z ehtiyojlarini qondirish uchun voqelikni o'zgartirishga qaratilgan muhim sifatidir. Jamiyat bilan doimiy munosabatni ushlab turuvchi, o'z-o'zini anglab, har bir harakatini muvofiqlashtiruvchi shaxsga xos bo'lgan eng muhim va umumiy xususiyat – bu

uning faolligidir. Faollik (lotincha "actus" – harakat, "activus" – faol so'zlaridan kelib chiqqan tushuncha) shaxsning hayotdagi barcha xatti-harakatlarini namoyon etishini tushuntiruvchi kategoriyadir [8; 38-b].

Bundan tashqari yoshlarda harbiy-vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda shaxsga xos quyidagi sifatlar ham yuqori darajada takomillashuvi kerak bo'ladi: yuksak hislar – yuksak hislar sof hayvoniy emotsiyalardan sifat jihatdan farq qiladigan, faqat ongli zot insonga xos bo'lgan aqliy, axloqiy, estetik hamda vatanparvarlik sifatlaridir [88; 132-b]. Yuksak hislar faqat insongagina xos bo'lib, shaxsning vatanparvarligi ham yuksak hislarga kiradi; idroklilik – idrokning to'liqligi, aniqligi, va tezligi kabi ijobiy xususiyatlaridan tashkil topgan aql sifati [18; 38-b]; yoshlarda harbiy-vatanparvarlik tuyg'usini shakllanganlik darajasiga vatan oldidagi burchini sadoqat bilan bajarish jarayonida shaxsdan yuqori darajadagi takomillashgan irodaviy sifatlar shaxsning irodaviy sifatleri, jumladan, matonatlilik – shaxsning muayyan maqsadni amalga oshirish yo'lida uchraydigan har qanday obyektiv va subyektiv qiyinchiliklarga bardosh berib, ularni yengib chiqishdan iborat irodaviy xarakter xislati [18; 234-b], tashabbuskorlik – mustaqil aktiv harakatlarni bajarishga nisbatan moyillik hamda qobiliyatda namoyon bo'ladigan ijobiy xarakter xislati, jasorat – shaxsning dadillik, qat'iyat, matonatlilik kabi sifatlarining o'ziga xos ravishda birikuvidan tashkil topgan murakkab irodaviy va xarakter xislatidir, maqsadga intiluvchanlik – shaxsning o'z xatti-harakatlarini barqaror hayotiy maqsadlarga bo'ysundira olishda, maqsad yo'lida hamisha tayyor, qat'iy bo'lishida ifodalanadigan xarakter xislati, vazminlik – shaxsning har qanday og'ir sharoitlarda ham o'zini tuta bilishidan iborat irodaviy sifati, talabchanlik – shaxsning o'z-o'zining va o'zgalarning xulqini muayyan obyektiv prinsiplarga bo'ysundira olishdan iborat irodaviy xarakter xislati, jasurlik – shaxsiy hayot uchun xavf-xatarli bo'lgan harakatlarni qat'iylik bilan va oqilona bajarishda ifodalanadigan xarakter xislati, mustaqillik – shaxsning murakkab vaziyatni baholash va maqsadga muvofiq yo'lni tanlashda o'zining mustaqil fikrlari, prinsiplari hamda e'tiqodiga ega bo'lishdan iborat irodaviy xarakter xislati, qat'iylik – xarakterning o'z vaqtida qat'iy qaror qabul qila olish va ularni ikkilanmasdan ijro eta olishdan iborat irodaviy sifat kiradi [21; 40-b, 11; 40-b].

Harbiy-vatanparvarlik tuyg'usining shakllanganlik darajasi insonning o'z-o'zini anglashi

bilan ham bog'liq. O'z-o'zini anglash – odam o'zini shaxs sifatida tanishi, o'zining jismoniy va aqliy qobiliyatlarini, xatti-harakatlari va ularning motivlarini, atrofdagi borliqqa, o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarini anglashdan iborat sifati. Bundan tashqari shaxsning: o'zini tuta bilish – shaxsning muayyan sharoitlarda o'zini jismoniy va ruhiy jihatdan tiyib turishi; o'z-o'zini kuzatish – shaxsning o'z fikrlar, his-tuyg'ulari va harakatlarini o'zi kuzatishi; o'z-o'zini tanqid qilishlik – shaxsning o'z faoliyatiga xolisona baho berishdan iborat ijobiy aql sifati yoki xarakter xislati; o'z-o'zini nazorat qilish – shaxsning o'z jismoniy hamda ruhiy faoliyatini nazorat qilib turishdan iborat ijobiy sifati; o'z-o'zini tarbiyalash – shaxsning o'z xatti-harakatlarini axloq nuqtayi nazaridan tahlil qilish xislati; o'z-o'ziga ta'sir ko'rsata olish – shaxsning o'zini-o'zi ishonitirish orqali irodaviy harakatlarni hosil qilishdan iborat sifati [18; 133-b] mavjud bo'lib, yoshlarda harbiy-vatanparvarlik tuyg'usining shakllanishiga zamin yaratadi. O'z-o'zini nazorat qilish shaxsga xos ijobiy sifat bo'lib, tafakkur tezligi va mustaqilligi [12; 191-b], axloqiy barqarorlik, axloqiy hislar, tartib intizomlilik, xarakterning ma'naviy sifatleri, kuzatuvchanlik, ma'naviy burch, ijobiy hislar, ma'lumotlilik, ijtimoiy malakalar, bilishga qiziqishlik, sinchkovlik, sezgirlik, farosatlilik va halollik [20; 195-b] kabi fazilatlar takomillashuvi bilan shakllanadi.

Shu o'rinda yoshlarda harbiy-vatanparvarlik shakllanishiga salbiy ta'sir etuvchi shaxsi fazilatlar ham borki, ularning me'yoriy darajadan ortib ketishi vatanparvarlik tuyg'usining takomillashuviga salbiy ta'sir etadi. Shaxsning salbiy sifatlariga quyidagilar kiradi: irodasi sustlik [4; 195-b], diqqatsizlik [19; 195-b], serjahillik, prinsipsizlik, faoliyatsizlik, harakatsizlik, intizomsizlik, takabburlik, manmanlik, ta'sirlanuvchanlik, astenik hislar, yolg'onchilik, pastkashlik, shahvoniylik, sentimentallik, mug'ombirlik va xudbinlik [20; 195-b].

Yuqorida yoshlarni harbiy vatanparvarlik tuyg'usini shakllanishida diniy va dunyoviy ta'limotlarning ta'siri yuzasidan qiyosiy tahlil qilish nazarda tutilgan edi. Darhaqiqat shaxsga xos bo'lgan vatanparvarlik tuyg'usi boshqa tuyg'ulardan tubdan farq qiladi. Vatanparvarlik fazilati yuzasidan diniy ta'limotlarda jumladan, Islom dinining muqaddas kitobi Quroni Karim va Hadisi shariflarda alohida to'xtalib o'tilganligini ko'rib o'tdik. Dunyoviy ta'limotlar jumladan, psixologiya yo'nalishida shaxsning vatanparvarlik fazilati ko'p qirrali ekanligini

vatanparvar shaxs bo'lishi uchun unda ijobiy sifatlarning yuqori darajadagi shakllanganligi va salbiy sifatlarning me'yoriy darajada bo'lishi juda ahamiyatli hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasini yoshlarda harbiy-vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda, diniy va dunyoviy sohalaridagi tizimli ilmiy yondashuvlar tahlili tashkil etadi. Yoshlarda harbiy-vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish muammosini nazariy tahlil qilish davomida biz quyidagi ilmiy yo'nalishlardan foydalandik: maqsadlarni amalga oshirish uchun ma'lumotlarni tanlash; yoshlarda harbiy-vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish borasidagi diniy va dunyoviy ta'limotlarda ilgari surilgan nazariyalarni qiyosiy tahlil qilish; ijtimoiy-psixologiyada tizimli yondashuv.

Yoshlarda harbiy-vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda diniy va dunyoviy ta'limotlar qiyosiy tahlili ham eng asosiy ijtimoiy-psixologik omillardan biri hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan mavzu yuzasidan o'rganilganlik holatining nazariy tahlili asosida quyidagilarni alohida taklif sifatida keltirishimiz mumkin:

mamlakatimizda yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ijrosini ta'minlash;

harbiy-vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda muqaddas dinimizda keltirilgan faktlarni klassifikatsiyalash asosida bosqichma-bosqich yoshlar ongiga singdirish;

zamonaviy psixologiya sohasida erishilgan yutuqlardan foydalangan holda yoshlar ongiga harbiy-vatanparvarlik tuyg'usini takomillashtirishga qaratilgan amaliy mashg'ulotlarni ishlab chiqish;

yoshlarda harbiy-vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan ijobiy shaxsiy sifatlarni takomillashtirish hamda salbiy ta'sir etadigan shaxsiy sifatlarni me'yorlashtirishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik mexanizmlarni ishlab chiqish;

Davlatimiz rahbarining Mustaqilligimizning 33 yilligi munosabati bilan tantanali marosimdagi nutqida "Tinchlikni saqlash faqat harbiylarning ishi bo'lib qolmasligi kerak, bu barchamizning – har bir O'zbekiston fuqarosining muqaddas burchi bo'lishi shart. Yurtning kuchi – birlikda qadri esa tinchlikdadir" deya bildirgan fikrlari yod olinib, biz va ayniqsa yoshlarimiz uchun eng muhim hayotiy vazifaga aylanmog'i lozimligi ta'kidlangan edi [25; 7-b].

Xulosa qilib aytganda, Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev: "Biz ma'naviyat va ma'rifat ishini vatanparvarlik ishi, vijdon ishi, deb bilamiz. Vijdoni, ma'naviyati bor inson Vatanni albatta yaxshi ko'radi. Vijdon, ma'naviyat degani – xalqqa, Vatanga chin yurakdan xizmat qilish deganidir. Mana shunday qarash butun xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz tomonidan keng va qizg'in qo'llab-quvvatlanayotgani ma'naviy tarbiyaning naqadar dolzarb ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi". Binobarin, Vatan sha'ni, or-nomusi uchun jamiyat maqsad va manfaatlarini tushunib yetadigan, har tomonlama yetuk komil insonni tarbiyalashda ma'naviyat, qadriyat, ajdodlar merosi hamda ruhiy tarbiya eng ta'sirchan va qudratli qurol vazifasini o'taydi. Bir so'z bilan aytganda, ijtimoiy-psixologik mexanizmi o'tashini bugungi davr va zamon taqozo etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Mirziyoyev Sh.M.* Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T., 2018. – B.7.
2. *Abdurasulova Q.R.* Kriminologiya. Darslik / Mas'ul muxarrir: prof. M.H.Rustambayev. – T., 2007. – B. 37.
3. *Каиржонов Е.* Криминология. Общая часть: Учебник. – Алматы, 2005. – С. 29–30.
4. *Зарипов З., Кержнер М.* Профилактика правонарушений: Научно-популярное издание. – Т., 1993. – С. 61.
5. *Арыстамбаева С.* Профилактика преступлений как центральная проблема современной криминологии // Вестник ТГЮИ. – Т., 2009. – №2. – С. 107–108.
6. *Niyozova S.S.* Shaxsning zo'rlik jinoyati kurboniga aylanishining ijtimoiy-ruxiy tavsifi // TDYuI Axborotnomasi. – 2010. – №3.
7. *Рустамбаев М.Х.* Ответственность за преступления против здоровья по законодательству Республики Узбекистан. – Нукус: Каракалпакистан, 1992. – С. 273.
8. *Михайлов А.Е.* Роль личностных факторов в механизме насильственных преступлений: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Киев, 1989. – С. 14–15.
9. *Payzullaev Q.P.* Zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarga karshi kurash // TDYuI Axborotnomasi.

– 2009. – №6.

10. Куналиева Г. Криминологическая характеристика лиц, совершающих посягательства на здоровье человека // Вестник ТГЮИ. – 2009. – №3.

11. Ситников Д.А. Уголовно-правовая и криминологическая характеристика похищения человека: Автореф. дис. ...канд. юрид. наук. – М., 2001. – С.21; Гаджиэменов Б.А. Некоторые криминологические и криминалистические аспекты борьбы с похищением людей // Вопросы структуризации экономики. – 1999. – № 3; Долгова А.И. Криминологические проблемы взаимодействия социальной среды и личности: Автореф. дис. ... д-ра юрид. наук. – М., 1980. – С. 18–19.

12. Парфиненко И.П. Уголовно-правовая и криминологическая характеристика похищения человека: Автореф. дис. ...канд. юрид. наук. – Иркутск, 2007. – С. 12.

13. Кораблев В. Г. Криминологическая характеристика и уголовно-правовые меры противодействия похищению человека: Дис. ... канд. юрид. наук. – СПб., 2005. – С. 68.

14. Пучнин В.М. Похищение человека (Криминологический аспект исследования): Автореф. дис. ...канд. юрид. наук. – М., 1999. – С. 11.

15. Миронов И.А. Уголовно-правовые и криминологические аспекты похищения человека: Автореф. дис. ...канд. юрид. наук. – Ростов н/Д, 2002. – С. 14.

16. Гаджиев С.Н. Теоретические и практические аспекты квалификации похищения человека: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Махачкала, 2005. – С. 13.

17. Донцов А.В. Похищение человека: уголовно-правовой аспект: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Кисловодск, 2003. – С. 11.

18. Габиева Г. В. Похищение человека: уголовно-правовой и криминологический аспекты (На материалах Азербайджанской Республики): Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – М., 2002. – С. 9.

19. Ситников Д.А. Уголовно-правовая и криминологическая характеристика похищения человека: Автореф. дис. ...канд. юрид. наук. – М., 2001. – С. 11.

20. Кораблев В.Г. Криминологическая характеристика и уголовно-правовые меры противодействия похищению человека: Автореф. дис. ...канд. юрид. наук. – СПб., 2005. – С. 17.

ИНТЕГРАТИВНАЯ МОДЕЛЬ ДЕВЯТИ КОМПОНЕНТОВ БЛАГОПОЛУЧИЯ СОТРУДНИКОВ КОМПАНИИ ПАССАЖИРСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В АВИАИНДУСТРИИ

С.Б. Рахиммирзаев,

доцент кафедры психологии Факультета социальных наук

Национального университета Узбекистана им. М.Улугбека, кан-

дидат психологических наук (PhD)

Аннотация.

В статье представлена интегративная модель благополучия сотрудников компаний пассажирского обслуживания в авиаиндустрии, разработанная с учётом отраслевой специфики, культурных особенностей и условий труда в Республике Узбекистан. Анализ существующих академических и корпоративных моделей (PERMA, Gallup, JD-R, SPIRE и др.) выявил их недостаточную адаптацию к многофакторной, эмоционально нагруженной и мультикультурной среде авиационного сервиса. Модель обеспечивает возможность комплексной оценки состояния персонала, а также проектирования управленческих решений, направленных на повышение мотивации, снижение выгорания и развитие человеческого капитала.

Ключевые слова:

благополучие сотрудников, авиационная индустрия, организационная психология, корпоративные модели, стрессоустойчивость, мультикультурная среда, управление персоналом.

Annotatsiya.

Maqolada O'zbekiston Respublikasidagi yo'lovchi xizmati kompaniyalari xodimlarining farovonligini ta'minlashga qaratilgan, aviatsiya sohasi o'ziga xosliklari, madaniy xususiyatlari va mehnat sharoitlarini inobatga olgan integrativ model taqdim etilgan. Mavjud akademik va korporativ modellarning (PERMA, Gallup, JD-R, SPIRE va boshqalar) tahlili ularning ko'p omilli, emotsional yuklama yuqori bo'lgan va madaniy jihatdan xilma-xil bo'lgan aviatsiya xizmatlari muhitiga yetarlicha moslashmaganligini ko'rsatdi. Shu munosabat bilan amaliy yo'naltirilgan to'qqiz komponentli model ishlab chiqildi, u quyidagilarni o'z ichiga oladi: jismoniy salomatlik va quvvat; emotsional barqarorlik va stressga chidamlilik; ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va jamoaviy hamkorlik; madaniyatlararo va avlodlararo inklyuzivlik; mehnat ma'nosi va qadriyatga oid hamkorlik; yutuqlar va e'tirof etilish; kasbiy o'sish va rivojlanish; ish va shaxsiy hayot muvozanati; tashkiliy qo'llab-quvvatlash va mehnat sharoitlari. Har bir komponent subyektiv va obyektiv parametrlarni o'z ichiga olgan diagnostik ko'rsatkichlar tizimi bilan ta'minlangan. Model xodimlarning holatini kompleks baholash, shuningdek, motivatsiyani oshirish, charchashni kamaytirish va inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Tayanch so'zlar:

xodimlar farovonligi, aviatsiya industriyasi, tashkiliy psixologiya, korporativ modellar, stressga chidamlilik, kadrlarni boshqarish.

Abstract.

The article presents an integrative model of employee well-being for passenger service companies in the aviation industry, developed with consideration of sector-specific characteristics, cultural factors, and working conditions in the Republic of Uzbekistan. The analysis of existing academic and corporate models (PERMA, Gallup, JD-R, SPIRE, etc.) revealed their insufficient adaptation to the multifactorial, emotionally demanding, and multicultural environment of aviation services. In response, an applied nine-component model is proposed, which includes: physical health and vitality; emotional resilience and stress tolerance; social support and team interaction; intercultural and intergenerational inclusivity; meaningful work and value alignment; achievements and recognition; professional growth and development; work-life balance; organizational support and working conditions. Each component is accompanied by a system of diagnostic indicators covering both subjective and objective parameters. The model enables a comprehensive assessment of employee well-being and supports the design of management strategies aimed at increasing motivation, reducing burnout, and fostering the development of human capital.

Keywords:

employee well-being, aviation industry, organizational psychology, corporate models, stress resilience, multicultural environment, human resource management.

В условиях растущего внимания к вопросам устойчивого развития и повышения эффективности человеческих ресурсов особую значимость приобретает проблема благополучия сотрудников в специфических отраслях экономики, таких как авиационная индустрия. Несмотря на наличие и практического применения ряда академических и корпоративных моделей, многие из них оказываются недостаточно адаптированными к реалиям труда персонала сферы пассажирского обслуживания, особенно в мультикультурной среде и при высоких эмоциональных нагрузках. В связи с этим, весьма актуализируется вопрос устранения этого разрыва путём разработки (совершенствования) и обоснования интегративной модели благополучия сотрудников, включающей прикладные компоненты, отражающих как

индивидуальные, так и организационные аспекты, ориентированной на практическое применение в современных условиях Республики Узбекистана.

Так, первым структурным компонентом предлагаемой модели выступает физическое здоровье и энергичность. Данный компонент отражает уровень физического благополучия сотрудников, т.е. состояние здоровья, энергию и способность выдерживать нагрузки рабочего дня. Физическое здоровье служит фундаментом общего благополучия, только будучи отдохнувшим и полным сил, сотрудник способен эффективно выполнять обязанности и справляться со стрессом. Компонент включает в себя такие аспекты, как качество сна, отсутствие переутомления, сбалансированное питание, достаточная двигательная активность и общее сомати-



ческое благополучие. Рис. 1. Интегративная модель девяти компонентов благополучия сотрудников компании пассажирского обслуживания в авиаиндустрии

В аспекте диагностических индикаторов, в качестве субъективных целесообразно выделить уровень ощущаемой энергии в начале и конце рабочего дня (смены), самооценка здоровья, частота жалоб на усталость, головные боли, проблемы со сном. В качестве объективных целесообразно использовать данные медосмотров (артериальное давление, показатели сна по фитнес-трекерам при наличии, индекс массы тела и пр.), статисти-

ка больничных дней и пропусков работы по состоянию здоровья, число зарегистрированных инцидентов, связанных с усталостью (например, ошибки, случаи травматизма на рабочем месте и пр.). Также к объективным показателям можно отнести оценку рабочего графика, т.е. количество ночных смен в месяц, длительность смен без отдыха и пр. (чем они выше, тем вероятнее снижение физического благополучия).

Вторым структурным компонентом предлагаемой модели выступает эмоциональная устойчивость и стрессоустойчивость. Этот компонент отражает психологическое со-

Активация
Чтобы активир

стояние сотрудника, его способность справляться с эмоциональным напряжением и стрессами работы. Эмоциональная устойчивость включает умение регулировать свои эмоции, противостоять негативным воздействиям (конфликты, недовольство пассажиров, авральные ситуации) и быстро восстанавливать душевное равновесие. Функционально этот компонент служит защитным буфером, эмоционально устойчивый сотрудник менее подвержен выгоранию, сохраняет доброжелательность и внимательность к клиентам даже под давлением. В компонент входят такие аспекты, как уровень хронического стресса, наличие симптомов тревожности или эмоционального истощения, удовлетворённость эмоциональным климатом работы.

В аспекте диагностических индикаторов, в качестве субъективных целесообразно выделить уровень воспринимаемого стресса, показатели эмоционального выгорания, самооценка способности справляться со стрессовыми ситуациями. Также целесообразно диагностировать частоты чувств раздражения, тревоги на работе, удовлетворённости поддержкой руководства при стрессе. Соответственно, в качестве объективных индикаторов можно выделить частоту обращений сотрудника за психологической помощью (если действует программа помощи сотрудникам), число дней отсутствия по причине «нервного перенапряжения» или психосоматических жалоб, количество конфликтных инцидентов с пассажирами или коллегами, фиксируемых руководством. Можно учитывать также и показатели продуктивности, зависящие от эмоционального состояния. Например, время обслуживания одного клиента может увеличиваться, если сотрудник выгорел. В авиаиндустрии важным объективным сигналом являются ошибки, связанные со стрессом, например пропуск процедуры безопасности, неправильная информация пассажиру и т.п. Их рост может свидетельствовать о снижении концентрации из-за эмоционального перенапряжения.

Третьим структурным компонентом предлагаемой модели вступает социальная поддержка и командное взаимодействие. Этот компонент описывает качество межличностных отношений на работе, ощущение поддержки со стороны коллег и руководства, а также чувство принадлежности к коллективу. В данном аспекте, социальная поддержка вступает одним из ключевых факторов,

смягчающих влияние стресса и повышающих удовлетворённость трудом. Функционально компонент служит источником ресурсного состояния: дружный, сплочённый коллектив позволяет сотруднику чувствовать себя «на своём месте», получать помощь и совет, делиться сложностями. Сюда входят аспекты: доверие между сотрудниками, наличие друзей на работе, поддержка руководителя, отсутствие буллинга или социальной изоляции, командный дух.

В аспекте диагностических индикаторов, в качестве субъективных целесообразно выделить опросники удовлетворённости взаимоотношениями (например, шкалы «поддержка коллег» и «поддержка начальства» в опросниках рабочей удовлетворённости), самооценка сотрудником уровня сплочённости команды, чувства принадлежности к коллективу. Также можно замерять количество близких друзей на работе и пр. В качестве объективных целесообразно выделить показатели текучести кадров в подразделении (в дружном коллективе уходят реже), количество обращений к руководству с жалобами на отношения или конфликты, участие сотрудников в корпоративных мероприятиях и командных тренингах (высокая явка косвенно свидетельствует, что люди хотят общаться). Также можно учитывать результаты независимых оценок командного взаимодействия, где коллеги оценивают сотрудничество. Данные о том, как часто сотрудники обмениваются сменами по договорённости (готовность подменить друг друга) тоже могут служить индикатором поддерживающей среды. В целом, наличие социальной поддержки на работе напрямую коррелирует с более низким уровнем выгорания сотрудников, поэтому можно отследить связь, где выше поддержка, там ниже средние баллы по эмоциональному истощению.

Четвёртым структурным компонентом предлагаемой модели вступает межкультурная и межпоколенческая инклюзивность. Данный компонент посвящён тому, насколько рабочая среда является инклюзивной и комфортной для сотрудников различного происхождения, т.е. разных культур, национальностей, возрастных поколений. Инклюзивность, в рамках предлагаемой модели, подразумевает отсутствие дискриминации, уважение разнообразия ценностей и традиций, равные возможности роста для всех. Функционально компонент обеспечивает социальную гармонию и чувство уважения, т.е.

каждый сотрудник, независимо от того, местный он или «экспат», молодой специалист или ветеран отрасли, должен ощущать себя полноценным и уважаемым членом команды. В компонент входят аспекты культурная чувствительность коллег и руководства, адаптация корпоративных мероприятий под разные культуры (например, учет национальных праздников, диета), преемственность знаний между поколениями, отсутствие возрастных стереотипов.

В аспекте психодиагностики, в частности субъективного благополучия (рассматриваемого компонента) целесообразно отметить чувство принадлежности к компании у представителей разных групп (по опросам – одинаково ли высоко у местных и у иностранных сотрудников, у молодых и у старших), оценки справедливости и уважения (считают ли сотрудники, что к ним относятся уважительно независимо от их происхождения / возраста и пр.). В свою очередь в аспекте объективной диагностики благополучия (рассматриваемого компонента) целесообразно выделить статистику продвижения по службе разных категорий (нет ли «стеклянного потолка» для «экспатов» или, наоборот, для местных кадров), разнообразие в командах (процент смешанных по национальности / возрасту групп в сменах и пр.), количество языков, на которых ведётся внутренняя коммуникация. Количественные данные могут включать число проведенных тренингов по межкультурной коммуникации, наличие двуязычных документов. Также показатель – отсутствие жалоб на дискриминацию (официально поданных в HR) и низкая текучесть среди уязвимых групп. Например, если иностранные сотрудники быстро увольняются, это сигнал проблемы с их интеграцией.

Пятым структурным компонентом предлагаемой модели вступает осмысленность работы и ценностная сопричастность. Этот компонент отражает так называемое эвдемическое измерение благополучия, т.е. наличие у сотрудника чувства смысла в своей работе, понимания ценности выполняемых обязанностей и их согласованности с личными ценностями. Проще говоря, важно, насколько работник видит значимость своего труда и гордится тем, что делает. Сюда же входит уровень идентификации с миссией компании, ощущение вклада в общее дело. Функционально рассматриваемый компонент мотивирует сотрудника изнутри. Когда работа не сводится к рутине, а переживается

как нечто значимое, повышается удовлетворённость, лояльность и стремление работать лучше. Данный компонент включает степень понимания сотрудником целей компании и своей роли в их достижении, наличие гордости за профессию, ощущение, что работа соответствует его личным ценностям или жизненной цели.

В аспекте психодиагностики, в частности субъективного благополучия (рассматриваемого компонента) целесообразно отметить результаты анкет, измеряющих осмысленность труда (например, опросник смысловых жизненных ориентаций применительно к работе, или вопросы: «Насколько важным и значимым вы считаете свой труд?», «Соответствует ли ваша работа вашим ценностям?» – с оценкой по шкале). Можно оценивать степень согласия с утверждениями о гордости за свою компанию, о понимании ее миссии. Также показатель опроса на тему, считает ли сотрудник, что его работа приносит пользу людям или обществу. В свою очередь в качестве объективных индикаторов могут вступать длительность работы в компании (обычно люди, находящие смысл, дольше остаются – высокая лояльность), участие в корпоративных инициативах помимо прямых обязанностей (например, кто добровольно вступает в комитеты по улучшению сервиса, обучает новых сотрудников – значит, видит смысл и хочет внести вклад). Количественно можно измерять охват сотрудников корпоративной миссией, т.е. сколько процентов персонала могут правильно сформулировать миссию и ценности компании (через тестирование или интервью). Еще одним объективным индикатором может вступать обратная связь от сотрудников, например, через ящики предложений или электронные форумы. Наличие конструктивных предложений по улучшению работы говорит, что люди не равнодушны (есть смысл). Если же таких предложений нет или только негативные жалобы, возможно, осмысленность низка.

Шестым структурным компонентом предлагаемой модели вступает достижения и признание заслуг. Данный компонент отражает результативную и так называемую статусную сторону благополучия, т.е. ощущение сотрудником, что он достигает поставленных целей, успешно справляется с работой и его вклад замечен и ценится. Компонент состоит из двух взаимосвязанных частей:

личные достижения, т.е. гордость за свои

профессиональные успехи, чувство компетентности и эффективности;

внешнее признание, т.е. похвала, награды, благодарности от руководства, коллег или клиентов.

Функция предлагаемого компонента заключается в подкрепление позитивной обратной связи, т.е. когда сотрудник видит результаты своего труда и получает за них признание, у него повышается удовлетворенность, мотивация продолжать в том же духе, растёт самоуважение. Сюда входят аспекты: выполнение и перевыполнение планов, получение благодарностей / наград (например, «Лучший сотрудник месяца»), карьерное продвижение как признание заслуг, а также неформальное признание (уважение в коллективе, положительная репутация).

В качестве субъективных диагностических индикаторов целесообразно выделить самооценку работником своей успешности («Я чувствую, что достигаю значимых результатов в работе»), удовлетворенность признанием («Мой руководитель ценит мой вклад»), наличие у сотрудника чувства гордости за конкретные достижения. Эти данные дадут картину, насколько люди ощущают признание. В свою очередь в качестве объективных индикаторов может быть количество полученных благодарностей (письменных от пассажиров, внутренних грамот), участие в конкурсах профмастерства и количество призовых мест, динамика карьерных продвижений (сколько сотрудников повышены за последние годы – косвенно отражает признание их заслуг). Можно учитывать показатели процента выполненных плановых показателей по обслуживанию, т.к. достижения в данном аспекте вступают объективными фактами. Если есть система баллов качества обслуживания (например, оценки тайных покупателей или опросов клиентов), то высокие баллы и их позитивная динамика служат объективным знаком успеха. Кроме того, важным индикатором также вступает текучесть лучших сотрудников. Если те, кто показывает высокие результаты, уходят, возможно, им не хватило признания. И наоборот, удержание ключевых сотрудников свидетельствует, что их ценят.

Седьмым структурным компонентом предлагаемой модели вступает профессиональный рост и развитие. Этот компонент отражает перспективы и возможности сотрудника учиться новому, развивать компетенции и продвигаться в профессиональном

плане. Он связан с потребностью самореализации. Ощущение движения вперед, улучшения навыков, расширения знаний напрямую влияет на благополучие, особенно у амбициозных работников. Содержание компонента включает доступность обучения и тренингов, наличие ясных карьерных путей, поддержка наставников, ротация задач для приобретения нового опыта, а также восприятие самим сотрудником, что его карьера прогрессирует. Функционально данный структурный компонент способствует долгосрочной удовлетворенности. Даже если текущие условия тяжелы, понимание, что есть рост, удерживает мотивацию.

В качестве субъективных диагностических индикаторов можно выделить степень удовлетворенности возможностями обучения и карьерного роста (опросник удовлетворенности работой обычно включает такие пункты), ожидания относительно карьеры («Я вижу перспективы роста в этой компании» - согласен / не согласен). Также полезно проводить опросы о потребностях в обучении. Если сотрудники сами заявляют о желании учиться (например, n% хочет обучаться на курсах иностранных языков), и эти запросы удовлетворяются, то развитие есть. Также можно спросить, чувствует ли человек, что за последний год он профессионально вырос (самооценка развития). В свою очередь в качестве объективных индикаторов можно выделить число часов, затраченных компанией на обучение одного сотрудника в год (чем выше, тем больше возможностей роста), коэффициент внутреннего продвижения (доля вакансий, закрытых внутренними кандидатами, а не внешним наймом – высокий показатель означает, что у людей есть рост внутри). Также средняя продолжительность работы сотрудников в компании. Если люди долго остаются, вероятно, их устраивают возможности развития. Кроме того, вступает важным индикатором текучесть молодых сотрудников. Так как высокая текучесть молодежи часто сигнализирует о недостатке перспектив. Количество реализованных индивидуальных планов развития, сертификатов, новых навыков, которые сотрудники получили за период. Например, если 50% линейного персонала за год прошли хотя бы один тренинг, и X% получили повышение разряда или должности, компонент можно считать реализованным.

Восьмым структурным компонентом предлагаемой модели вступает баланс ра-

боты и личной жизни. Данный компонент характеризует степень гармоничного сочетания профессиональной деятельности и частной жизни сотрудника. Баланс работа - личная жизнь означает, что требования работы не чрезмерны, личные дела не мешают выполнению рабочих обязанностей. Функционально компонент служит для поддержания долговременного благополучия. Даже при высокой удовлетворённости работой, если она полностью вытесняет отдых, семейную жизнь или хобби, в итоге наступает выгорание. Поэтому баланс – это своего рода стабилизатор, предохраняющий от перегрузки. Содержание компонента включает адекватность рабочего времени (не чрезмерные сверхурочные), гибкость графика при личных обстоятельствах, наличие времени на отдых, отпуск, поддержку семьей, а также психологическое умение «отключаться» от работы во вне рабочее время.

В качестве субъективных диагностических индикаторов рассматриваемого компонента могут вступать уровень удовлетворённости балансом (прямой вопрос в опроснике), ощущение конфликтов работа-семья, самооценка достаточности времени на отдых и хобби. Сотрудников можно спросить, чувствуют ли они, что работа отбирает слишком много сил, оставляя мало энергии для дома. Также индикатор – психологическая доступность, т.е. могут ли они «отключиться» от размышлений о работе дома (если нет, баланс страдает). В свою очередь, в качестве объективных индикаторов психодиагностики могут вступать среднее количество рабочих часов в неделю и переработок, количество неиспользованных отпускных дней (если люди не берут отпуск – плохой знак), частота выходов на работу в выходные / праздники. Больничные листы по усталости или психосоматике косвенно тоже отражают нарушение баланса. Стоит отслеживать и семейный статус в динамике. Резкое увеличение разводов или конфликтов у сотрудников – крайний индикатор дисбаланса. Другой объективный показатель – степень гибкости графика. Есть ли практики удаленной работы или частичной занятости, сколько сотрудников ими воспользовались. В аэропортах можно замерять интервал между сменами (не менее 12 часов для отдыха, например) – соблюдение этого регламента поддерживает баланс. Также продуктивность и ошибки, т.е. когда человек перегружен, его эффективность падает – анализ производительности по часам работы

может выявить оптимальную нагрузку.

Заключительным, девятым структурным компонентом предлагаемой модели вступает организационная поддержка и условия труда. Данный компонент охватывает адекватное материально-техническое обеспечение, справедливые политики и процедуры, поддерживающий стиль руководства, чувство защищенности (как физической, так и психологической) на работе, а также элемент автономии, т.е. доверие к сотрудникам в принятии решений на своем участке. Функция компонента заключается в обеспечении ресурсной среды, в которой остальные компоненты могут проявиться. Даже самый стрессоустойчивый и мотивированный сотрудник будет испытывать трудности, если организационная среда токсична или ресурсы отсутствуют. В этот компонент входят наличие необходимых инструментов и технологий для работы, комфортные и безопасные рабочие условия (освещение, кондиционирование, средства индивидуальной защиты), понятная система вознаграждения и справедливая оплата труда, доступность руководителя для обсуждения проблем, а также делегирование полномочий (чтобы линейный персонал имел разумную свободу действий, не чувствуя себя «винтиком»).

В качестве субъективных психодиагностических индикаторов предлагаемого компонента можно выделить оценки сотрудниками удовлетворённости условиями труда (например, опросник удовлетворенности, блок про материально-техническое обеспечение, комфорт рабочего места и пр.), восприятие стиля руководства (есть ли поддержка от непосредственного начальника), ощущение справедливости вознаграждения («Моя зарплата соответствует затрачиваемым усилиям» – согласие / несогласие). Также можно замерять индекс «вовлеченности руководства» по отзывам подчиненных. Важный субъективный индикатор – чувство безопасности на работе, т.е. чувствуют ли сотрудники, что могут открыто высказывать мнения без страха наказания (психологическая безопасность).

Анализ популярных моделей благополучия сотрудников выявил ряд ограничений, которые особенно ощутимы в контексте работы сотрудников пассажирского обслуживания авиаиндустрии. Во-первых, многие академические модели слишком обобщённые или теоретические. Так, универсальная модель требований-ресурсов «JD-R» разработанная Е. Демерути и А. Баккером в 2001 году

в Нидерландах, хотя и применима к разным профессиям, критикуется за чрезмерную абстрактность и недостаточное отражение специфики конкретных профессий [1-5]. Без адаптации к условиям отрасли такая модель мало полезна на практике. Во-вторых, ряд моделей не учитывают важные факторы развития благополучия. К примеру, модель «PERMA» разработанная американским психологом М.Э. Селигманом фокусируется на психологических аспектах (позитивные эмоции, вовлеченность, отношения, смысл, достижения), но изначально не включает физическое здоровье или экономические факторы, которые критически важны в рабочих условиях. Даже автор данной модели впоследствии признавал необходимость её расширения дополнительными компонентами (физическое здоровье, условия труда, финансовая защищённость) для применения в организационном контексте [6-9]. В-третьих, корпоративные модели благополучия (например модель «Gallup» разработанная американскими исследователями Дж. Хартером и Т. Ратом с их пятью элементами [10,11] или модель «WTW» разработанная международной консалтинговой компанией «Willis Towers Watson» [12, 13]) часто требуют значительных ресурсов на внедрение и могут не сразу подходить под локальные культурные условия. Так, отмечается, что даже универсальные корпоративные программы сталкиваются с трудностями адаптации к специфическим культурным контекстам и требуют серьёзной поддержки руководства. Без этого их реализация может стать формальной и неэффективной. Наконец, некоторые современные подходы (модель «SPIRE» разработанная израильско-американским психологом и философом Т. Бен-Шахаром [14-16]) более ориентированы на личностное развитие и духовность, но недостаточно верифицированы научно, их компоненты труднее операционализировать и измерить, а результат во многом зависит от мотивации самого человека, а не от системных изменений среды.

В свою очередь, разработанная интегративная модель восполняет вышеизложенные методологические и прикладные пробелы, предлагая девять структурных компонентов, охватывающих как индивидуальные, так и организационные аспекты благополучия. Она синтезирует гедонистические (физическое здоровье, социальная поддержка, признание заслуг) и эвдемонистические (осмысленность работы, профессиональный рост,

инклюзивность) измерения, что обеспечивает её целостность и соответствие современным подходам к устойчивому развитию человеческого капитала.

Существенным достоинством модели выступает наличие чётко определённых диагностических индикаторов, позволяющих оценивать каждый компонент как в субъективном, так и в объективном измерении. Такой двунаправленный подход к диагностике повышает надёжность получаемых данных и открывает возможности для регулярного мониторинга состояния благополучия сотрудников. Кроме того, благодаря чёткой операционализации компонентов, модель может быть интегрирована в систему управления персоналом, включая процессы подбора, адаптации, обучения и развития. Возможность использования модели не только для анализа текущего состояния, но и для проектирования целевых программ улучшения организационного климата, профилактики профессионального выгорания и укрепления внутриколлективных связей делает её эффективным инструментом в руках HR-специалистов и управленцев.

Особое внимание в модели уделяется контекстуальным факторам, таким как культура, возраст, ценностные ориентиры, тип организации и специфика обслуживания, что обеспечивает её высокую адаптивность и практическую применимость в условиях Узбекистана и других стран с подобными трудовыми и культурными условиями. Компоненты, ориентированные на инклюзивность, профессиональное развитие и баланс между работой и личной жизнью, позволяют учитывать при планировании кадровой политики как интересы организации, так и индивидуальные запросы сотрудников. В перспективе модель может быть использована как концептуальная основа для разработки специализированных психодиагностических методик, внедрения корпоративных программ и оценки эффективности внутренних управленческих решений. Таким образом, она не только восполняет теоретические и методические пробелы существующих моделей, но и предлагает масштабируемый, социально значимый и экономически обоснованный подход к управлению благополучием персонала.

Таким образом, разработанная интегративная модель благополучия сотрудников компаний пассажирского обслуживания в авиаиндустрии представляет собой прак-

тико-ориентированный инструмент, способный повысить качество корпоративной среды, устойчивость персонала к профессиональным нагрузкам и общую эффективность организационного функционирования. Объединяя девять ключевых компонентов, модель учитывает как индивидуальные, так и социально-организационные аспекты благополучия, отражает специфику труда в мультикультурных и высокоэмоциональных условиях, характерных для авиационной сферы. Её диагностическая структура, вклю-

чающая как субъективные, так и объективные индикаторы, позволяет использовать модель в рамках мониторинга, проектирования программ развития и стратегического управления персоналом. Представленная модель может быть рекомендована для внедрения в HR-практики, а также как основа для разработки психодиагностических инструментов и целевых интервенций, направленных на укрепление человеческого капитала в условиях современной авиаиндустрии Узбекистана.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Rula E.Y., et al. The Well-Being 5: Development and Validation of a Diagnostic Instrument to Improve Population Well-Being. // Population Health Management. - 2021. - vol.17, no.6. - pp. 357-365.
2. Sears L.E., et al. Overall Well-Being as a Predictor of Health Care, Productivity, and Retention Outcomes in a Large Employer. // Population Health Management. - 2020. - vol.16, no.6. - pp. 397-405.
3. Demerouti E., Bakker A.B., Nachreiner F., Schaufeli W.B. The job demands-resources model of burnout. // Journal of Applied Psychology. - 2021. - Vol.86, №3. - P. 499-512.
4. Schaufeli W. B., Taris T.W. A Critical Review of the Job Demands-Resources Model: Implications for Improving Work and Health. // Bridging Occupational, Organizational and Public Health / Ed. G.F. Bauer, O. Hämmig. - Dordrecht: Springer, 2019. - P. 43-68.
5. Tummers L.G., Bakker A.B. Leadership and Job Demands-Resources Theory: A Systematic Review. // Frontiers in Psychology. - 2021. - Vol. 12. - P. 152-156.
6. Селигман М.Э. Процветание: новый взгляд на счастье и благополучие. / М.Э. Селигман. пер. с англ. А.С. Черногоровой. - М.: Альпина Паблишер, 2022. - 320 с.
7. Goodman F R., Disabato D.J., Kashdan T.B., Kaufman S.B. Measuring well-being: A comparison of subjective well-being and PERMA. // The Journal of Positive Psychology. - 2020. - T.12, №2. - C. 162-172.
8. Wong P.T. Critique of positive psychology and positive interventions. // International Journal of Wellbeing. - 2021. - T.1, №1. - C. 95-105.
9. Wammerl M., Jaunig J., Mairunteregger T., Streit P. The German version of the PERMA-Profil: Evidence for construct and convergent validity of the PERMA theory of well-being in German-speaking countries. // Journal of Well-Being Assessment. - 2019. T.3. - №1. - C. 75-96.
10. Рат Т., Хартер Дж. Благополучие. Пять важнейших элементов / Т. Рат, Дж. Хартер. пер. с англ. - М.: Манн, Иванов и Фербер, 2020. - 240 с.
11. Rula E.Y., et al. The Well-Being 5: Development and Validation of a Diagnostic Instrument to Improve Population Well-Being. // Population Health Management. - 2019. - vol.17, no.6. - pp. 357-365.
12. Bhaimiya S. How to be happier without chasing happiness. // Business Insider. - 2021. - Vol. 8. - P. 122-126.
13. Ball J. 6 steps to ensure employee well-being in your company. // World Economic Forum. - 2019. - Vol. 12. -P. 167-170.
14. Ben-Shahar T. The Pursuit of Perfect: How to stop chasing perfection and start living a richer, happier life. - New York: McGraw-Hill, 2009. - 224 p.
15. Ben-Shahar T., Avrahami A. Happier, no matter what: cultivating hope, resilience, and purpose in hard times. - New York: Sounds True, 2021. -176 p.
16. Bhaimiya S. How to be happier without chasing happiness. // Business Insider. - 2021. - Vol. 8. - P. 122-126.

КОНТРПРОДУКТИВНОЕ ПОВЕДЕНИЕ В ЦИФРОВОМ РАБОЧЕМ ПРОСТРАНСТВЕ СОТРУДНИКОВ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ: СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ

А.С. Кодиркулов,

преподаватель кафедры служебной психологии
и профессиональной культуры Академии МВД
Республики Узбекистан

Аннотация. В статье рассматриваются социально-психологические условия, способствующие формированию контрпродуктивного поведения сотрудников в условиях цифровой трудовой среды. Особое внимание уделяется специфике деятельности органов внутренних дел, где цифровизация усиливает вызовы, связанные с ролевым конфликтом, технострессом, одиночеством, социальной изоляцией и нарушением профессиональной идентичности. На основе анализа современных исследований 2023–2024 гг. выявлены ключевые механизмы влияния цифровой среды на поведенческие девиации, а также представлены профилактические и диагностические решения, ориентированные на сотрудников ОВД.

Ключевые слова: контрпродуктивное поведение, цифровая среда, техностресс, корпоративные социальные сети, мониторинг сотрудников, цифровое одиночество.

Annotatsiya.

Maqolada raqamli ish muhiti sharoitida xodimlarda yuzaga keladigan kontrproduktiv xatti-harakatlarga ijtimoiy-psixologik sharoitlar qanday ta'sir ko'rsatishi yoritiladi. Xususan, ichki ishlar organlari faoliyati misolida raqamlashtirish, rollar konflikti, texnostress, yolg'izlik va kasbiy identifikatsiya muammolari kontrproduktiv xatti-harakatlarning kuchayishiga olib kelishi tahlil qilinadi. 2023–2024-yillardagi dolzarb tadqiqotlar asosida ushbu muammolarning mexanizmlari va ularni aniqlash, oldini olishga oid takliflar keltirilgan.

Tayanch so'zlar:

kontrproduktiv xulq, raqamli ish muhiti, texnostress, korporativ ijtimoiy tarmoqlar, xodimlarni nazorat qilish, raqamli yolg'izlik.

Annotation.

The article explores the psychological and organisational factors contributing to counterproductive behaviour (CPB) in digital work environments. The issue is especially salient for officers of internal affairs (IA), whose professional duties are increasingly shaped by digital transformation. The article reviews and analyses recent international and domestic studies (2023–2024), focusing on the effects of digital loneliness, techno stress, social comparison, and monitoring. Practical recommendations are proposed for the prevention of deviant behaviour among IA personnel in digital workplace contexts.

Keywords:

counterproductive work behaviour (CWB), digital environment, techno stress, corporate social media, employee monitoring, digital loneliness.

Контрпродуктивное поведение как целостный концепт начало оформляться относительно недавно, но за счет актуальности и исследовательского интереса изучается большими группами специалистов из различных стран. Контрпродуктивное поведение на рабочем месте противоречит организационным нормам и приводит к снижению благосостояния организации и тех, кто в ней работает, негативно влияя как на сотрудников, так и на организацию в целом. Контрпродуктивное поведение проявляется в каждой организации из-за несовершенной природы человека и сложности предугадать его реакцию на различные условия и требования про-

фессиональной среды [1].

Современная организация труда всё более опирается на цифровые инструменты, включая корпоративные социальные сети [4], платформы мониторинга, системы видеосвязи и средства автоматизации задач. Вместе с очевидными преимуществами цифровизации возникает ряд скрытых рисков, в том числе возрастание случаев контрпродуктивного поведения. Под контрпродуктивным поведением понимаются действия сотрудников, умышленно или неумышленно наносящие вред организации [10].

В данной статье рассматриваются новые детерминанты контрпродуктивного поведения в цифровой рабочей среде, включая

влияние корпоративных сетей, техностресса, цифрового одиночества и мониторинга. Анализ основан на рецентных исследованиях периода 2023–2024 годов [8, 9].

Цифровизация труда изменила не только технические аспекты выполнения задач, но и восприятие самой рабочей деятельности. Согласно теории медийной насыщенности [3], каналы общения с низкой степенью насыщенности (например, текстовые сообщения) менее эффективны в передаче эмоционального и социального контекста, что приводит к снижению качества межличностного взаимодействия, увеличению количества недоразумений и интерпретационных ошибок, что может вызывать фрустрацию, напряжённость и в перспективе – контрпродуктивное поведение сотрудников. Таким образом, цифровая среда создаёт специфические коммуникативные и когнитивные барьеры, которые становятся важными факторами риска в служебной деятельности.

Теория ролевого конфликта и амбивалентности. В цифровой среде сотрудники часто совмещают сразу несколько ролей: профессионала, родителя, пользователя, администратора и др. Это затрудняет разделение служебной и личной сфер и может привести к внутреннему конфликту. Согласно теории ролевого конфликта [5], несогласованность ролевых требований и ожиданий вызывает стресс, снижает мотивацию и вовлеченность. В условиях удалённой или гибридной работы такие конфликты усиливаются, что повышает риск появления контрпродуктивного поведения – от бездействия до скрытого саботажа.

Теория справедливости. Сотрудники оценивают справедливость рабочих условий, сравнивая вложенные усилия с получаемыми результатами и условиями коллег. В цифровой среде это восприятие может искажаться: алгоритмы, системы оценки и дистанционный контроль делают процессы менее прозрачными. Согласно теории справедливости [2], если сотрудник ощущает неравенство – например, что он работает больше, но получает меньше признания, то это может привести к фрустрации и ответным действиям, в том числе контрпродуктивным: саботажу, снижению усилий или формальному подходу к обязанностям.

Психосемантический подход. Психосемантика исследует, какие личные смыслы сотрудники придают профессиональным

понятиям – «служба», «дисциплина», «контроль», «ответственность». В условиях цифровой среды эти смыслы могут радикально отличаться от традиционных. Исследования показывают, что сотрудники, склонные к контрпродуктивному поведению, часто воспринимают цифровые инструменты как символы давления и недоверия, а не как поддержку и упрощение труда. Такие установки могут быть выявлены с помощью методов семантического дифференциала или репертуарных решёток и использованы для профилактики контрпродуктивных тенденций.

В рамках эмпирического анализа контрпродуктивного поведения в цифровой среде были рассмотрены ключевые исследования, опубликованные в 2023–2024 годах. Одним из наиболее значимых стало исследование Luo и соавторов, в котором использовалась модель структурного моделирования для изучения взаимосвязей между использованием корпоративных социальных сетей, чувством одиночества, технострессом и проявлениями контрпродуктивного поведения. В исследовании приняли участие 296 сотрудников, использующих цифровые коммуникационные платформы в профессиональной деятельности. Было установлено, что частое использование корпоративных цифровых сетей повышает уровень одиночества, а также что техностресс усиливает этот эффект. Чем выше воспринимаемая изоляция, тем выше склонность сотрудников к девиантному поведению. Использование цифровых технологий в условиях недостаточного живого общения повышало чувство отстраненности. Участники с высоким уровнем техностресса демонстрировали более выраженное ощущение социальной изоляции, что, в свою очередь, статистически значимо увеличивало проявления контрпродуктивных тенденций ($r > 0.6$, $p < 0.01$). Участники с высокой цифровой самооэффективностью проявляли меньше контрпродуктивных моделей. Также была выявлена обратная зависимость между доверием к руководству и уровнем одиночества. Неадекватное цифровое управление коммуникацией в коллективе может становиться значимым предиктором контрпродуктивного поведения. Особенно уязвимы сотрудники, не обладающие устойчивыми стратегиями саморегуляции в цифровой среде.

Другое исследование, опубликованное на платформе arXiv [12], направлено на из-

учение влияния технологического стресса (техностресса) на производительность труда и контрпродуктивное поведение сотрудников. Результаты исследования подтвердили устойчивую положительную связь между уровнем техностресса и снижением производительности труда. В выборке из 512 сотрудников ИТ-сектора была выявлена зависимость между технологическим перенапряжением, неуверенностью в обращении с цифровыми ресурсами и частотой проявлений контрпродуктивных действий, таких как прокрастинация и избегание задач. Установлена устойчивая положительная корреляция между компонентами техностресса (перегрузка, неопределенность, давление времени) и склонностью к контрпродуктивным действиям ($r = 0.47-0.61$, $p < 0.01$). Чем выше уровень технологического давления, тем выше риск выгорания и поведения, направленного против интересов организации.

В систематическом обзоре, проведённом в журнале SAGE Open [8], были проанализированы 43 исследования по теме проблемного использования социальных сетей на рабочем месте. Общим выводом стало то, что цифровая активность вне служебных задач способствует отвлекающему поведению, а также коррелирует с тревожностью, усталостью и снижением ответственности. Особенно подвержены этому сотрудники с неустойчивой саморегуляцией и недостаточной цифровой грамотностью. Отвлекающее поведение, игнорирование задач, запоздалое выполнение обязанностей и деструктивное взаимодействие с коллегами наиболее часто встречаются у сотрудников с высоким уровнем вовлеченности в нерабочую цифровую активность. Дополнительно, постоянная проверка социальных сетей коррелирует с тревожностью и цифровым утомлением.

Исследование, опубликованное в Acta Psychologica, сосредоточено на эффекте цифрового социального сравнения. Сравнивая себя с более успешными коллегами в цифровых средах, сотрудники испытывали снижение самооценки, что провоцировало агрессию, саботаж и формальное отношение к обязанностям. Было показано, что цифровая среда может выступать в качестве триггера для межличностных напряжений и девиаций. В выборке участвовали 340 сотрудников компаний, использующих внутренние корпоративные платформы. Участ-

ники оценивали уровень сравнения себя с коллегами, уровень самооценки и частоту проявления контрпродуктивных действий. Высокая частота сравнения с «успешными» коллегами снижала субъективную самооценку и повышала склонность к саботажу, игнорированию обязанностей и негативным высказываниям в цифровых каналах ($p < 0.01$) [9].

В исследовании, представленном в The Times Report [7], анализировалось влияние тотального цифрового мониторинга (bossware) на поведение офисных работников. При отсутствии прозрачности и обратной связи цифровой контроль воспринимался как давление и недоверие, что провоцировало скрытое сопротивление – саботаж, минимизацию усилий и цифровую прокрастинацию. Метод исследования включал опрос 378 офисных сотрудников, анализ отношения к программам наблюдения, уровня стресса, доверия и склонности к оппозиционному поведению. Мониторинг без обратной связи и прозрачности воспринят как форма недоверия и давления, что провоцирует пассивное сопротивление (например, минимизацию усилий, «скрытое» неисполнение, цифровую прокрастинацию).

Эмпирические данные подтверждают наличие прочной связи между цифровыми условиями труда и проявлениями контрпродуктивного поведения. Рассмотренные исследования демонстрируют важность оценки не только индивидуальных, но и социально-психологических условий, формирующих поведенческие отклонения сотрудников в цифровом контексте.

На основе обобщения данных можно выделить ключевые социально-психологические условия, способствующие формированию контрпродуктивного поведения сотрудников в цифровом пространстве.

Цифровое одиночество: Возникает при замещении очной коммуникации цифровыми средствами. Ведёт к снижению чувства принадлежности, изоляции и отчуждённости, что является эмоциональной основой для контрпродуктивного поведения.

Техностресс: Постоянная необходимость адаптации к новым технологиям, многозадачность, перегрузка информацией провоцируют тревожность, утомление и отрицательные установки.

Цифровой мониторинг: Жёсткий цифровой контроль без прозрачности и доверительных отношений воспринимается как

форма давления, что снижает лояльность и побуждает к скрытому сопротивлению.

Проблемное использование социальных сетей: Злоупотребление нерабочей цифровой активностью влечёт за собой отвлекающее поведение, снижение продуктивности и конфликты в коллективе.

Социальное сравнение: Внутрикorporативные сети стимулируют сравнение себя с другими, что при несоответствии ожиданий может вести к снижению самооценки, зависти и враждебности.

Таким образом, цифровое рабочее пространство само по себе не является источником девиаций, но при отсутствии соответствующей социально-психологического климата, цифровой грамотности и поддержки становится средой, в которой активно развиваются поведенческие и эмоциональные отклонения. Эффективная профилактика контрпродуктивного поведения требует комплексного учёта всех вышеуказанных медиаторов.

Разработка ведомственного психодиагностического инструмента для оценки цифрового контрпродуктивного поведения в ОВД на базе имеющихся шкал с адаптацией под специфику служебной деятельности.

Проведение сравнительных исследований по уровням цифрового выгорания среди сотрудников линейных подразделений, дежурных частей и административного аппарата.

Анализ влияния цифровизации на идентичность молодого сотрудника ОВД (курсант, стажёр) через методы глубинного интервью, семантического профилирования и наблюдения в ситуациях служебного взаимодействия.

Разделение формального и неформального цифрового общения. Корпоративные социальные сети должны использоваться для конкретных рабочих целей, при этом следует поддерживать живое общение.

Диагностика техностресса и цифрового выгорания. Регулярные опросы и интервью позволяют выявлять тревожные тенденции.

Обучение цифровой гигиене. Сотрудники должны понимать, как правильно распределять цифровую нагрузку, использовать соцсети и защищать личные границы.

Ограничение чрезмерного мониторинга. Важно балансировать контроль с доверием, использовать прозрачные формы обратной связи.

Повышение цифровой самооэффективности. Обучение и коучинг для сотрудников с низкой ИТ-грамотностью помогает снизить стресс.

Разработка протоколов этичного поведения в цифровой среде. Политики корпоративной этики должны включать нормы поведения в цифровом пространстве.

Контрпродуктивное поведение в цифровой среде – это сложный, многофакторный и эволюционирующий феномен, который возникает на стыке индивидуальных, организационных и технологических воздействий. Особенно актуально это для сотрудников органов внутренних дел (ОВД), чья служебная деятельность всё активнее интегрируется в цифровое пространство: от документооборота и ведомственных платформ до удалённого мониторинга, видеокommunikаций и служебных сетей.

В условиях высокой регламентированности, оперативной ответственности и давления со стороны общества цифровая среда может усиливать риски профессионального выгорания, ролевых конфликтов, эмоциональной отстранённости и недоверия – особенно если она сопровождается непрозрачным контролем, перегрузкой, искажённой обратной связью. Указанные факторы критически влияют на морально-психологический климат в подразделениях, дисциплину и профессиональную идентичность сотрудников ОВД.

Анализ современных исследований 2023–2024 годов позволяет утверждать, что для снижения рисков контрпродуктивного поведения в ОВД необходимо внедрение цифровой культуры, сочетающей нормативную ясность, поддержку личностного ресурса, ограничение цифрового давления и развитие эмоционального интеллекта сотрудников. Не менее важно развивать внутриорганизационные механизмы доверия, наставничества и этики в онлайн-взаимодействии.

Таким образом, эффективная профилактика и снижение контрпродуктивного поведения в цифровой служебной среде ОВД требует системного подхода: от пересмотра политики цифровой трансформации до комплексной психологической поддержки личного состава. Только при соблюдении этих условий цифровизация может стать источником повышения эффективности, а не угрозой профессиональной устойчивости сотрудников органов внутренних дел.

ИСПОЛЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Иванова А. М., Кодиркулов А. С. Оценка контрпродуктивного поведения в служебных коллективах органов внутренних дел Республики Узбекистан / А. М. Иванова, А. С. у. Кодиркулов // Российский девиантологический журнал. – 2024. – Т. 4, № 3. – С. 350–365. – DOI 10.35750/2713-0622-2024-3-350-365. – EDN LXBNYQ.
2. Adams J. S. Inequity in Social Exchange // *Advances in Experimental Social Psychology*. 1965. Vol. 2. P. 267–299.
3. Daft R. L., Lengel R. H. Organizational Information Requirements, Media Richness and Structural Design // *Management Science*. 1986. Vol. 32, №5.
4. Johnson, H. A. (2018). Slack. *Journal of the Medical Library Association: JMLA*, 106(1), 148.
5. Kahn R. L., Wolfe D. M., Quinn R. P., Snoek J. D., Rosenthal R. A. *Organizational Stress: Studies in Role Conflict and Ambiguity*. New York: John Wiley & Sons, 1964. 470 p.
6. Luo L., et al. Corporate Social Media Use and Workplace Loneliness // *Frontiers in Psychology*. 2024. URL: <https://www.frontiersin.org/articles/10.3389/fpsyg.2024.1328650/full> (дата обращения: 02.05.2025).
7. Monitoring and Employee Wellbeing // *The Times Report*. 2024. URL: <https://www.thetimes.co.uk/article/bossware-computer-tracking-devices-harm-workers-wellbeing-says-report-m37krsd2r> (дата обращения: 02.05.2025).
8. Problematic Social Media Use at Work // *SAGE Open*. 2024. URL: <https://journals.sagepub.com/doi/10.1177/21582440241259158> (дата обращения: 02.05.2025).
9. Social Comparison and Counterproductive Work Behavior // *Acta Psychologica*. 2024. URL: <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0001691824000210> (дата обращения: 02.05.2025).
10. Spector, P. E., Fox, S., Penney, L. M., Bruursema, K., Goh, A., & Kessler, S. (2006). The dimensionality of counterproductivity: Are all counterproductive behaviors created equal?. *Journal of vocational behavior*, 68(3), 446–460.
11. Tarafdar M., et al. The Dark Side of Information Technology Use // *MIS Quarterly*. 2015. Vol. 39, №4.
12. Technostress and Productivity // *arXiv*. 2023. URL: <https://arxiv.org/abs/2311.07072> (дата обращения: 02.05.2025).